O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrasi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi

Namangan davlat chet tillari instituti

Ixtisoslashgan ta’lim muassasalari agentligi

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Namangan viloyati boshqarmasi

bilan hamkorlikda o‘tkazilgan

“FILOLOGIK TADQIQOTLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR:IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA KELAJAK STRATEGIYALARI”

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

NAMANGAN – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yundagi Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-289-son Qarorlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar to‘g‘risidagi 11-sonli buyrug‘ida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida – **“FILOLOGIK TADQIQOTLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR:IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA KELAJAK STRATEGIYALARI”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Konferensiya materiallaridan pedagoglar, oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

S.Matchanov	– pedagogika fanlari doktori, professor (ChDPU);
K.M.Mavlanova	– filologiya fanlari doktori, professor (ToshDO‘TAU);
R.Zamilova	– pedagogika fanlari doktori, professor (NamDPI);
Sh.Ubaydullayev	– pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (NamDPI);

Tashkiliy qo‘mita:

M.Qodirxonov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;
J.Yuldashev – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;
M.Y.Sobirova – pedagogika fanlari doktori, professor;
R.T.Tillayeva – Filologiya kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent.
E.A.Abdulvohidov – p.f.f.d. (PhD), dotsent;
M.B.Ikramova – Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);
A.I.Toshpo‘latov – Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);
S.M.Qozaqova – Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD).

“FILOLOGIK TADQIQOTLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA KELAJAK STRATEGIYALARI” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2026-yildagi 10-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № ____).

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.

SO‘ZBOSHI

Zamonaviy fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi barcha ilmiy sohalarga, jumladan filologiyaga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi filologik tadqiqotlar metodologiyasini tubdan o‘zgartirish imkoniyatini yaratib, an’anaviy va innovatsion usullarning uyg‘unlashuviga zamin hozirladi.

Bugungi kunda kompyuter lingvistikasi, korpus tilshunoslik, sun’iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari va raqamli matn ishlov berish texnologiyalari filologik tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi. Bu texnologiyalar yordamida katta hajmdagi matn massivlarini tezkor va aniq tahlil qilish, qo‘lyozmalarni raqamlashtirish, tilning evolyutsion rivojlanishini kuzatish, shuningdek, adabiy va lingvistik hodisalarni yangi metodologik yondashuvlar orqali o‘rganish imkoniyatlari tug‘ildi.

O‘zbekiston filologiya fani ham ushbu global jarayondan chetda qolmagan. Respublikamizda o‘zbek tili va adabiyotini raqamli muhitda o‘rganish, milliy korpuslar yaratish, elektron lug‘atlarni ishlab chiqish, qo‘lyozma manbalarni raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu sohada hali hal etilmagan muammolar, bartaraf etilishi lozim bo‘lgan to‘siqlar va kengaytirilishi kerak bo‘lgan imkoniyatlar mavjud. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash ko‘rsatmasi bu boradagi ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko‘tarishga zamin hozirlaydi. Unda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonlari hamda boshqa ko‘plab qarorlari belgilangan ustuvor vazifalar mazmuni ta’lim sifatini ko‘tarish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, maxsus

maqsadlarga yo‘naltirilgan mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, 3 pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, inson qadrini ulug‘lash, zamonaviy yondashuv tamoyillari va texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ona tili ta’limi jarayonida zamonaviy yondashuv asosida bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF- 6108-son, 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g ‘risidagi PF-5850-son Farmonlari, shuningdek, davlat dasturi loyihalarida Ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish zarurligi alohida ta’kidlanganligi hamda mazkur mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur konferensiyalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi mazkur dolzarb masalalarni chuqur muhokama qilish, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish va filologik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishning istiqbolli strategiyalarini belgilash maqsadida tashkil etilgan. Konferensiyada olimlar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va yosh mutaxassislar bir muncha muhim savollarga birgalikda javob izlaydilar.

Raqamli texnologiyalar filologik tadqiqot sifatini qanday oshirmoqda? Milliy tillarni raqamli muhitda saqlash va rivojlantirishda qanday muammolar mavjud? Kelajakda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari filologiya faniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Konferensiya materiallari mamlakatimizda filologiya va raqamli texnologiyalar kesishmasidagi ilmiy tafakkurni yanada rivojlantirish, yosh tadqiqotchilarni rag‘batlantirish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Xusanov Bahodir Ergashevich,
Namangan davlat pedagogika instituti rektori

1-SHO‘BA: O‘ZBEK VA XORIJIY TILLARNI INTENSIV O‘QITISH METODIKASI BO‘YICHA TADQIQOT USULLARI VA VOSITALARI

TURKIY TILLARDA AFFIKSIAL TIZIMNING FUNKSIONAL-SEMANTIK VA PRAGMATIK TABIATI: O‘ZBEK VA QOZOQ TILLARI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL

NURSULTON SHAYXISLAMOV
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti dekan o‘rinbosari
n.shayxislamov@cspi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy tillar doirasida affiksial vositalarning kommunikativ-semiotik potensiali o‘zbek va qozoq tillari materiallari asosida kompleks qiyosiy-tipologik va funksional-pragmatik yondashuvlar asosida keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqot affikslarning grammatik va semantik vazifalari bilan bir qatorda, ularning nutqiy jarayonda ma’no hosil qilish, semantik modifikatsiya qilish hamda kommunikativ niyatni ifodalashdagi rolini aniqlashga qaratilgan. Ishda affiksial birliklarning invariant va variant xususiyatlari yangi til materiallari asosida kengaytirilgan holda talqin qilinadi, ularning fonetik, semantik va funksional realizatsiyasi o‘zaro solishtiriladi. Natijalar affiksial tizimning ko‘p darajali, dinamik, o‘zaro integratsiyalashgan lingvistik tizim ekanligini asoslab beradi va uning tilning struktur, semantik va kommunikativ darajalarini bog‘lovchi markaziy mexanizm sifatidagi o‘rnini aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: affiks, affiksial tizim, agglutinativ til, qiyosiy-tipologik tahlil, pragmatika, semantik modifikatsiya, invariant, variant, kommunikativlik, lingvistik tizim, morfologik struktura

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the communicative-semiotic potential of affixal units within Turkic languages, based on the materials of Uzbek and Kazakh languages, using comparative typological and functional-pragmatic approaches. The study focuses not only on the grammatical and semantic functions of affixes but also on their role in meaning formation, semantic modification, and the expression of communicative intent in speech. The invariant and variant features of affixal units are interpreted in an expanded manner based on new linguistic data, and their phonetic, semantic, and functional realizations are comparatively examined. The findings substantiate that the affixal system represents a multi-layered, dynamic, and integrative linguistic system, and determine its role as a central mechanism linking the structural, semantic, and communicative levels of language.

Keywords: affix, affixal system, agglutinative language, comparative typological analysis, pragmatics, semantic modification, invariant, variation, communicativity, linguistic system, morphological structure

Kirish. Tilshunoslik fanining zamonaviy rivojlanish bosqichida til birliklarini kompleks tizim sifatida o‘rganish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Tilning barcha darajalari – fonetik, morfologik, sintaktik va semantik darajalar – o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu tizimda affiksial birliklar alohida o‘rin egallaydi, chunki ular nafaqat grammatik shakllanishni, balki semantik kengayish va nutqiy ifodani ham ta’minlaydi.

Turkiy tillar, xususan o‘zbek va qozoq tillari, agglutinativ tipga mansub bo‘lib, affikslar orqali tilning asosiy strukturasi shakllanadi. Ushbu tillarda affiksial tizim grammatik kategoriyalarni ifodalash bilan birga, yangi leksik birliklar hosil qilish va kommunikativ niyatni amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, affikslarning konkret qo‘llanishi tilga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu qiyosiy tahlilni zarur qiladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda affiksial tizim asosan struktur yoki semantik jihatdan o‘rganilgan. Biroq uning kommunikativ va pragmatik imkoniyatlari, ya’ni nutqiy faoliyatdagi real roli yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur maqola affiksial tizimni kompleks lingvistik fenomen sifatida qayta talqin qilishga qaratilgan.

Asosiy qism. Affiksial tizimni o‘rganish masalasi tilshunoslikda turli nazariy maktablar doirasida shakllangan. Morfologik tipologiya affiksial birliklarni tillarni tasniflashning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraydi. Sapir affiksatsiyani tilning struktur asosini belgilovchi omil sifatida talqin etgan bo‘lsa, Greenberg lingvistik universaliyalar orqali affiksial tizimning umumiy qonuniyatlarini aniqlagan.

Funksional lingvistika doirasida affiksial birliklar kommunikativ tizimning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Hallidayga ko‘ra, grammatik birliklar nutqiy ma’no hosil qilishda faol ishtirok etadi. Pragmatik yondashuv esa affikslarni nutqiy ta’sir vositasi sifatida talqin qiladi. Kognitiv lingvistika esa affiksial birliklarni inson tafakkurining konseptual strukturalari bilan bog‘laydi.

Mazkur tadqiqotda aynan ushbu nazariy yondashuvlarning integratsiyasi asosida affiksial tizim tahlil qilinadi.

O‘zbek va qozoq tillarida affiksial tizim tilning morfologik, semantik va kommunikativ darajalarini birlashtiruvchi markaziy lingvistik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Agglutinativ tipga mansub bo‘lgan ushbu tillarda affikslar o‘zakka izchil ketma-ketlikda qo‘shilib, murakkab morfologik birliklarni hosil qiladi va bu jarayon orqali grammatik hamda semantik munosabatlar aniq ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *bilimdonliklarimizdan* va qozoq tilidagi

білімділіктеріміздеи shakllari affikslarning ko‘p bosqichli qo‘llanishini va ularning tizimli xarakterini ko‘rsatadi.

Affiksial birliklarning semantik funksiyasi ularning ma’no hosil qilish va uni kengaytirishdagi rolida namoyon bo‘ladi. Derivatsion affikslar orqali yangi semantik birliklar yuzaga keladi: o‘zbek tilida *sadoqat → sadoqatli*, *erkin → erkinlik*, qozoq tilida esa *адал → адалдық*, *еркін → еркіндік*. Bu yerda affikslar orqali abstraktlik, sifat va xususiyat kategoriyalari shakllanadi. Shu bilan birga, affikslar kontekstga bog‘liq holda semantik modifikatsiya xususiyatiga ega bo‘lib, ma’no ko‘lamini kengaytiradi.

Affiksial birliklarning funksional xususiyatlari nutqiy faoliyatda yanada yaqqol ko‘rinadi. Affikslar orqali grammatik munosabatlar ifodalanadi, nutqning aniqligi va izchilligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, affikslar nutqiy iqtisod tamoyilini amalga oshiradi, ya’ni qisqa shaklda murakkab ma’nolarni ifodalash imkonini beradi. Bu esa affiksial tizimning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Pragmatik jihatdan affiksial birliklar nutqiy ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilida *-roq* affiksi (*yaxshiroq, tezroq*) qiyosiy ma’no bilan birga subyektiv baholashni ham bildiradi, qozoq tilida esa *-рақ/-рек* affikslari ayni funksiyani bajaradi (*жақсырақ, тезірек*). Bundan tashqari, *-gina* va *-ғана* affikslari nutqda yumshoqlik va yaqinlik ma’nosini ifodalab, kommunikativ strategiyani shakllantiradi.

Qiyosiy-tipologik tahlil natijalari affiksial tizimning izomorfik va allomorfik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikki tilda affiksial tizimning umumiy modeli saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning fonetik va funksional realizatsiyasi turlicha shakllangan. Qozoq tilida singarmonizm asosidagi variantlilik kuchli bo‘lsa, o‘zbek tilida affikslar barqarorroq shaklda qo‘llanadi. Bu esa affiksial tizimning umumiy va xususiy jihatlar uyg‘unligida rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Affiksial tizimni kompleks tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u faqat morfologik tizim emas, balki semantik va kommunikativ tizim hamdir. Affikslar orqali nutqiy ma’no shakllanadi, aniqlashtiriladi va kuchaytiriladi. Shu sababli affiksial birliklarni kompleks lingvistik yondashuv asosida o‘rganish zarur.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari affiksial tizimning o‘zbek va qozoq tillarida ko‘p qatlamli lingvistik hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Affiksial birliklar orqali grammatik, semantik va pragmatik ma’nolar ifodalanishi tilning kommunikativ samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, affikslar nutqiy faoliyatda ma’no hosil qilish, uni aniqlashtirish va ekspressivlikni kuchaytirish vositasi sifatida faol ishtirok etadi.

Qiyosiy-tipologik tahlil affiksial tizimning invariant va variant xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Morfologik invariant tizimning umumiy modelini ifodalasa, fonetik va funksional tafovutlar uning variant jihatlarini tashkil etadi. Bu

yondashuv affiksial tizimni universal va milliy xususiyatlar integratsiyasi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Shuningdek, affiksial birliklarning funksional-pragmatik xususiyatlari ularning nutqiy faoliyatdagi rolini yanada kengaytiradi. Ular orqali nutqning aniqligi, ekspressivligi va kommunikativ ta’siri ta’minlanadi. Shu sababli affiksial tizimni kompleks yondashuv asosida o‘rganish nafaqat tilshunoslik nazariyasini boyitadi, balki turkiy tillar morfologiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kelgusida affiksial tizimni korpus lingvistikasi asosida o‘rganish, uning nutqiy qo‘llanish chastotasini aniqlash va boshqa turkiy tillar bilan kengroq qiyosiy tahlil qilish ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sapir, E. (1921). *Language*.
2. Greenberg, J. H. (1963). *Universals of Language*.
3. Baskakov, N. A. (1969). *Введение в изучение тюркских языков*.
4. Kononov, A. N. (1960). *Грамматика современного узбекского литературного языка*.
5. Shcherbak, A. M. (1977). *Сравнительная грамматика тюркских языков*.
6. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*.
7. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*.
8. Langacker, R. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar*.
9. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things*.
10. Bybee, J. (2010). *Language, usage and cognition*.

INGLIZ TILI NOTARIAL DISKURSINI SHAKLLANTIRUVCHI BIRLIKLAR

EZOZXON ADHAMOVNA ORTIQOVA

Jizzax davlat pedagogika universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi notarial diskursni tashkil etuvchi lingvistik birliklar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Notarial hujjatlarning yuridik kuchga ega bo‘lishi ularning aniq, standartlashtirilgan va rasmiy til vositalari bilan ifodalanishini taqozo etadi. Maqolaning asosiy maqsadi notarial sertifikatlar, tan olish (acknowledgment), qasamyod (jurat), guvohnoma (affidavit) kabi hujjatlarda qo‘llaniladigan maxsus terminlar, arxaik iboralar, modal fe’llar, passiv konstruksiyalar, binomial birikmalar va performativ ifodalarning semantik va funksional xususiyatlarini ochib berishdir. Tadqiqotda lingvistik tavsiflash va

diskurs tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijada, notarial diskursning huquqiy aniqlik, majburiylik va rasmiylik kabi asosiy xususiyatlari til birliklarining qat'iy tanlovi asosida shakllantirilishi ko'rsatilgan. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi notarial diskursni shakllantiruvchi birliklar hujjatlarning yuridik ishonchliligi va talqinning bir xilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqola yuridik lingvistika, diskurs tahlili va notarial amaliyot bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: notarial diskurs, yuridik til, acknowledgment, jurat, affidavit, arxaik iboralar, modal fe'llar, passiv konstruksiyalar, binomial iboralar, performativ ifodalar.

Abstract. This article systematically analyzes the linguistic units that make up notarial discourse in English. The legal validity of notarial documents requires their expression with clear, standardized and official language means. The main purpose of the article is to reveal the semantic and functional characteristics of special terms, archaic expressions, modal verbs, passive constructions, binomial combinations and performative expressions used in such documents as notarial certificates, acknowledgements, oaths, affidavits. The research used linguistic description and discourse analysis methods. As a result, it was shown that the main features of notarial discourse, such as legal certainty, bindingness and formality, are formed on the basis of a strict selection of linguistic units. In conclusion, the units that make up notarial discourse in English serve to ensure the legal reliability of documents and the uniformity of interpretation. The article is of theoretical and practical importance for specialists engaged in legal linguistics, discourse analysis and notarial practice.

Keywords: notarial discourse, legal language, acknowledgement, oath, affidavit, archaic expressions, modal verbs, passive constructions, binomial expressions, performative expressions.

Аннотация. В данной статье систематически анализируются языковые единицы, составляющие нотариальный дискурс на английском языке. Юридическая действительность нотариальных документов требует их выражения с использованием ясных, стандартизированных и официальных языковых средств. Основная цель статьи – выявление семантических и функциональных характеристик специальных терминов, архаичных выражений, модальных глаголов, пассивных конструкций, биномиальных сочетаний и перформативных выражений, используемых в таких документах, как нотариальные свидетельства, подтверждения, присяги, аффидавиты. В исследовании использованы методы лингвистического описания и дискурс-анализа. В результате показано, что основные особенности нотариального дискурса, такие как правовая определенность, обязательность и формальность,

формируются на основе строгого отбора языковых единиц. В заключение, единицы, составляющие нотариальный дискурс на английском языке, служат для обеспечения юридической достоверности документов и единообразия толкования. Статья имеет теоретическое и практическое значение для специалистов, занимающихся юридической лингвистикой, дискурс-анализом и нотариальной практикой.

Ключевые слова: нотариальный дискурс, юридический язык, подтверждение, присяга, аффидевит, архаичные выражения, модальные глаголы, пассивные конструкции, биномиальные выражения, перформативные выражения.

Ingliz tilidagi notarial diskurs yuridik tilning umumiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan holda, bir qator o‘ziga xos belgilarga ega. Yuridik tizim o‘z avtonomiyasini ta’minlash uchun qonundan foydalanuvchi shaxslardan tushunchalar, g‘oyalar va taxminlarni ifodalash uchun noyob terminologiyani qabul qilishni talab qiladi. Notarial amaliyotda bu tendensiya yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi, chunki notarial hujjatlar yuqori darajadagi aniqlik va shakl talablariga javob berishi kerak.

Notarial diskursning asosiy funksiyasi hujjatlarning huquqiy haqiqiyligini tasdiqlash va imzolarning asl ekanligini kafolatlashdan iborat. Notariuslar yuridik tizim doirasida muhim vazifalarni bajaradi, hujjatlarni tasdiqlas hni osonlashtiradi va huquqiy bitimlarning muammosiz amalga oshirilishini ta’minlaydi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maxsus til birliklari va standartlashtirilgan iboralar tizimi ishlab chiqilgan.

Notarial diskursning markaziy elementi notarial sertifikatlar (notarial certificates) hisoblanadi. Notarial sertifikat hujjatning haqiqiy ekanligini va uni imzolovchi shaxsning o‘zini o‘zi tasdiqlash da’vosiga mos kelishini tasdiqlovchi rasmiy hujjatdir. Har bir notarial sertifikat qat'iy belgilangan tuzilmaga va til elementlariga ega. Notarial sertifikatlarda quyidagi majburiy elementlar mavjud bo‘lishi kerak:

Venue - notarial harakatning amalga oshirilgan joyi. Bu element sertifikatning yuqori qismida ko‘rsatiladi va odatda quyidagi formuladan foydalaniladi:

“State of (state name), County of (county name)”

Masalan: “State of California, County of Los Angeles”

Type of notarial act - bajarilgan notarial harakatning turi. Ingliz tilidagi notarial amaliyotda asosan ikki turdagi harakatlar mavjud: acknowledgment (tan olish) va jurat (qasamyod ostidagi tasdiq). Acknowledgment - bu imzolovchi shaxsning ixtiyoriy ravishda imzolagan ligini va hujjat mazmunini tushunganligini tasdiqlash uchun amalga oshiriladigan notarial harakatdir.

Date of notarization - notarial harakatning aniq amalga oshirilgan sanasi. Sertifikatda ko‘rsatilgan sana notarial harakatning bajarilgan kuni bilan bir xil bo‘lishi shart.

Signer identification - imzolovchi shaxsning to‘liq ismi va identifikatsiya ma’lumotlari.

Notary’s signature and seal - notariusning imzosi va rasmiy muhri. Muhr notarial harakatning qonuniyligini tasdiqlaydi.

1-jadval

“Acknowledgment” sertifikatining standart shaklining ko‘rinishi

State of _____ County of _____ On this ____ day of _____, 20, before me, _____ (notary’s name), personally appeared _____ (signer’s name), who proved to me on the basis of satisfactory evidence to be the person whose name is subscribed to the within instrument and acknowledged to me that he/she executed the same in his/her authorized capacity, and that by his/her signature on the instrument the person, or the entity upon behalf of which the person acted, executed the instrument. Witness my hand and official seal. “Signature of Notary”

Notarial diskursda maxsus terminlar tizimi ishlatiladi. Notarial terminologiya “authentication”, “acknowledgment” va “certification” kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi va ularning har biri aniq huquqiy kuchga ega.

“Authentication” termini hujjat yoki imzoning haqiqiyligini tasdiqlash jarayonini anglatadi. Bu atama asosan xorijiy hujjatlarni tasdiqlashda qo‘llaniladi. Authentication bu notarius tomonidan hujjatlarga imzo qo‘ygan shaxslarning shaxsini tekshiradigan rasmiy jarayondir, bu imzolarning haqiqiy va maqsadga muvofiq ekanligini ta’minlaydi. Masalan, autentifikatsiya bo‘yicha sertifikat quyidagi iboralarni o‘z ichiga oladi:

“I, (notary name), a notary public in and for the State of (state name), do hereby authenticate and certify that the annexed document is a true and correct copy of the original document...”

“Acknowledgment” termini imzolovchi shaxsning hujjatni o‘z xohishi bilan imzolaganligini tan olish harakatini bildiradi. Acknowledgment - bu imzolovchi shaxs hujjatga imzo qo‘yganini, hujjat mazmunini tushunganini va uni imzolash oqibatlaridan xabardorligini notarius kabi davlat mansabdor shaxsi oldida tan oladigan notarial harakatdir.

Acknowledgment sertifikatlarida quyidagi standart iboralar qo‘llaniladi:

- “personally appeared before me” - mening oldimda shaxsan ishtirok etdi
- “proved to me on the basis of satisfactory evidence” - qoniqarli dalillar asosida menga isbotladi
- “acknowledged to me that he/she executed the same” – u buni ijro etganligini menga tan oldi
- “in his/her authorized capacity” - o‘z vakolatli maqomida

Jurat termini imzolovchi shaxs hujjat mazmunining to‘g‘riligini qasamyod ostida tasdiqlagan notarial harakatni bildiradi. Jurat - bu imzolovchi shaxsdan hujjatni notarius huzurida imzolashni va hujjat mazmunining to‘g‘riligini qasamyod yoki tasdiq qilishni talab qiladigan notarial harakatdir. Jurat sertifikatlarida quyidagi formulalar ishlatiladi:

“Subscribed and sworn to (or affirmed) before me on this ____ day of _____**, 20**, by _____ (name of signer). Signature of Notary”

Affiant - qasamyod beruvchi shaxs. Bu termin affidavitlar (qasamyodli bayonotlar) bilan bog‘liq hujjatlarda qo‘llaniladi.

Affidavit - shaxs tomonidan tuzilgan va notarius huzurida qasamyod ostida tasdiqlangan yozma bayonot. Affidavit - bu affiant (qasamyod beruvchi) bayonot beruvchi va bayonotdagi ma’lumotlarning haqiqat ekanligini yolg‘on guvohlik uchun jazoga tortilish xavfi ostida qasamyod yoki tasdiq qiladigan hujjatdir.

Affidavitlarda quyidagi standart ifodalar mavjud:

“State of _____ County of _____ I, _____ (affiant’s name), being duly sworn, depose and say that...”

Deponent - guvohlik beruvchi yoki bayonot beruvchi shaxs. Bu termin depositsiyalar (dalillarni yozma ravishda qayd etish jarayoni) kontekstida ishlatiladi.

Notarial diskurs yuqori darajadagi rasmiylik bilan ajralib turadi. Yuridik mutaxassislar faktlarni aniq tushuntirishga intilishadi, bu esa ulardan ma’lum til namunalaridan foydalanishni talab qiladi, jumladan, yuridik matnlarda ko‘p miqdordagi ta’riflar, Law French dan kelib chiqqan murakkab va qadimiy iboralar hamda ko‘p sonli sanashlar mavjud. Shuning uchun ham notarial sertifikatlarda arxaik elementlar keng qo‘llaniladi:

“Witness my hand and official seal” - bu ibora notariusning imzosi va muhri ostida hujjatni tasdiqlashni bildiradi. Zamonaviy ingliz tilida “witness” fe’li “guvoh bo‘lmoq” ma’nosini anglatadi, ammo notarial diskursda u rasmiy tasdiqlash ma”nosida ishlatiladi.

“Hereunto” - “to this” ma’nosini anglatuvchi arxaik so‘z. Notarial sertifikatlarda “hereunto set my hand” iborasi ishlatiladi, bu “bu yerga qo‘l qo‘ydim” degan ma’noni bildiradi.

“Aforesaid” – “yuqorida aytilgan” yoki “oldingi” ma’nosidagi arxaik atama. Masalan: “the aforesaid document” - yuqorida tilga olingan hujjat.

“Subscribed” - “imzolangan” ma’nosini anglatuvchi rasmiy termin. “Subscribed and sworn to before me” - mening oldimda imzolangan va qasamyod qilingan.

“Depose and say” - qasamyodli bayonotlarda qo‘llaniladigan standart ifoda. Bu ibora “tan olaman va bildiraman” ma’nosini anglatadi.

“Duly” - “tegishli tarzda”, “qonuniy ravishda” ma’nosini bildiruvchi rasmiy so‘z. “Duly sworn” - tegishli tarzda qasamyod qilingan. Masalan, to‘liq affidavit quyidagi rasmiy til bilan ifodalanadi:

“I, John Smith, being duly sworn, depose and say that I am the owner of the property located at 123 Main Street; that I have read the foregoing document and know the contents thereof; and that the same is true of my own knowledge, except as to those matters therein stated to be upon information and belief, and as to those matters I believe it to be true.”

Shuningdek, notarial diskursda modal fe’llar huquqiy majburiyat va vakolatni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Yuridik formulalarning xususiyatlari sifatida ifodalarning aniqligi, ishonarliligi va ravshanligi, tushunishda ochiqlikni hisobga olish zarur. Masalan, “**Shall”** modal fe’li qat’iy majburiyat yoki yuridik talabni bildiradi. Notarial qonunlarda bu fe’l keng qo‘llaniladi: “The notary shall verify the identity of the signer.” - Notarius imzolovchi shaxsning shaxsini tekshirishi shart. “The certificate shall include the date of notarization.” - Sertifikat notariallashtirish sanasini o‘z ichiga olishi kerak.

“Must” fe’li ham majburiyatni bildiradi, ammo ko‘proq zamonaviy til uslubida qo‘llaniladi: “The signer must personally appear before the notary.” - Imzolovchi notarius huzurida shaxsan ishtirok etishi kerak. “The document must contain the signer’s original signature.” - Hujjat imzolovchining asl imzosini o‘z ichiga olishi shart.

“May” modal fe’li ruxsat yoki imkoniyatni ifodalaydi: “The notary may require additional identification.” - Notarius qo‘shimcha identifikatsiya talab qilishi mumkin. “A certified copy may be used in place of the original.” - Tasdiqlangan nusxa asl nusxa o‘rnida ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, notarial diskursda passiv konstruksiyalar ustunlik qiladi. Yuridik mutaxassislar faktlarni aniq tushuntir ishga intilishadi, bu maqsad ularni ma’lum til namunalaridan foydalanishga majbur qiladi. Passiv shakllar agentni

yashirish va harakatga e’tiborni qaratish imkonini beradi. Notarial hujjatlarda passiv konstruksiyalarning standart shakllari quyidagicha:

1. **“was acknowledged before me”** - mening oldimda tan olindi. Masalan: “This instrument was acknowledged before me on January 15, 2024, by Mary Johnson.”
2. **“was sworn and subscribed”** - qasamyod qilindi va imzolandi. Masalan: “This affidavit was sworn to and subscribed before me this 20th day of March, 2024.”
3. **“is certified”** - tasdiqlanadi. Masalan: “It is hereby certified that the attached document is a true and correct copy of the original.”
4. **“was executed”** - ijro etildi. Masalan: “The document was executed in the presence of two witnesses.”
5. **“is affirmed”** – tasdiqlanadi. Masalan: “It is affirmed that all statements contained herein are true and correct.”

Shuningdek, notarial diskursni tashkil qiluvchi birliklar qatoriga binomial va multinomial iboralarni kiritish mumkin. Notarial diskursda ikki yoki undan ortiq sinonimik so‘zlardan tashkil topgan birikmalar keng tarqalgan. Yuridik ingliz tilida formal til ishlatilishi jumlalarning murakkab tuzilishiga, shaxsiy olmoshlardan foydalanishning kamaytirilishiga va og‘zaki atamalarning sezilarli darajada yo‘qligiga olib keladi. Notarial hujjatlarda qo‘llaniladigan asosiy binomial iboralar:

1. **“acknowledge and declare**” - tan olmoq va e'lon qilmoq. Masalan: “I acknowledge and declare that I am the legal owner of the property.”
2. **“sworn to and subscribed”** - qasamyod qilingan va imzolangan. Masalan: “Sworn to and subscribed before me this 5th day of April, 2024.”
3. **“true and correct”** - to‘g‘ri va aniq. Masalan: “I certify that this is a true and correct copy of the original document.”
4. **“right, title, and interest”** - huquq, mulkchilik va manfaat. Masalan: “The grantor hereby conveys all right, title, and interest in the property to the grantee.”
5. **“give, devise, and bequeath”** - bermoq, vasiyat qilmoq va meros qoldirmoq. Masalan: “I give, devise, and bequeath all my property to my children.”
6. **“null and void”** - haqiqiy emas. Masalan: “This agreement shall be null and void if not executed within 30 days.”

Notarial diskurning o‘ziga xos birliklari qatoriga aniqlik va takrorlanishni ifoda etuvchi birliklardan foydalanish strategiyalari kiradi. Notarial diskurs yuqori darajadagi aniqlikni kiritish va noaniqlikni bartaraf etishga intiladi. Yuridik tilning asosiy xususiyatlaridan biri uning aniqligi hisoblanadi, har bir so‘z shartnomalar, nizomlar va hukmlardagi noaniqlikdan qochish uchun aniq manoni yetkazishi kerak. Aniqlikni ta’minlash uchun esa quyidagi strategiyalar qo‘llaniladi:

A. To‘liq identifikatsiya ma’lumotlari: “Before me, Jane Doe, a Notary Public in and for the County of Orange, State of California, personally appeared John Smith, known to me (or proved to me on the basis of satisfactory evidence) to be the person whose name is subscribed to the within instrument...”

B. Aniq vaqt va joy ko‘rsatkichlari: “On this 15th day of January, in the year 2024, before me personally appeared...”

C. Hujjat turiga aniq havola: “...the person whose name is subscribed to the within instrument and acknowledged to me that he executed the same for the purposes therein contained, by signing the attached Power of Attorney.”

D. Identifikatsiya usulining aniq tavsifi: “...who proved to me on the basis of satisfactory evidence to be the person whose name is subscribed to the within instrument, said evidence being a current Driver’s License number A1234567.”

Notarial diskursning o‘ziga xos xususiyati uning performativ tabiatidir. Notarial sertifikatdagi til birliklarining aytilishi o‘zi huquqiy harakatni amalga oshiradi va hujjatga rasmiy maqom beradi. Performativ funksiyani amalga oshiruvchi asosiy iboralar esa quyidagi kabi bo‘lishi mumkin:

1. **“I hereby certify” -** shu bilan tasdiqlayman. Bu ibora notariusning rasmiy tasdig‘ini bildiradi va hujjatga yuridik kuch beradi: “I hereby certify that the foregoing is a true and correct copy of the original document on file in my office.’
2. **“This is to certify”** - tasdiqlanadi. Masalan: “This is to certify that on this day, before me, a notary public, personally appeared John Doe...”
3. **“Be it known”** - ma’lum bo‘lsin. Arxaik, ammo hali ham ba’zi notarial hujjatlarda uchraydigan performativ ifoda: “Be it known that on this 20th day of March, 2024, before the undersigned notary...”
4. **“Now, therefore”** - shuning uchun. Bu ifoda huquqiy xulosani yoki qarorni bildiradi: “Now, therefore, I, the undersigned notary, do hereby certify that the above-named person appeared before me and acknowledged the execution of the foregoing instrument”.

Ingliz tilidagi notarial diskurs yuridik tilning maxsus turi sifatida aniq tuzilgan, standartlashtirilgan va yuqori darajadagi rasmiylikka ega til tizimini tashkil etadi. Ushbu diskursni shakllantiruvchi asosiy lingvistik birliklar qatoriga maxsus terminologiya (acknowledgment, authentication, jurat, affidavit), arxaik va rasmiy til elementlari (witness, hereunto, aforesaid), modal fe’llar (shall, must, may), passiv konstruksiyalar, binomial iboralar va performativ ifodalar kiradi. Ushbu elementlarning barchasi notarial hujjatlarning huquqiy kuchini ta’minlash va ularda ifoda etilgan ma’lumotlarning aniqligini kafolatlash maqsadiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Martin E. A. A dictionary of law. – OUP Oxford, 2009.

2. Garner B. A. A dictionary of modern legal usage. – Oxford University Press, USA, 2001.

3. Black H. C. A dictionary of law: containing definitions of the terms and phrases of American and English jurisprudence, ancient and modern; including the principal terms of international, constitutional, and commercial law; with a collection of legal maxims and numerous select titles from the civil law and other foreign systems. – West Publishing Company, 1891.

4. De Beaugrande R. A., Dressler W. U. Introduction to text linguistics. – London : longman, 1981.

5. Чернявская В. Е. Дискурс власти и власть дискурса/Валерия Евгеньевна Чернявская //М.: Флинта: Наука. – 2006.

6. Добросклонская Т. Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – 2008.

7. Шакиров С.М. К вопросу о методологии интерпретации художественного текста //Вестник Челябинского государственного университета. – 2004.

8. Левушкина О. Н. Обзор исследований в области понимания и интерпретации текста //Молодой ученый. – 2015.

9. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Едиториал УРСС, 2003.

10. Петров В. В. Язык и искусственный интеллект: рубежи 90-х годов //Язык и интеллект. – 1996.

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI OLIY TA’LIMDA INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISHGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK-METODIK TIZIM

NIGMATOVA NOZIMAXON ULUG‘BEK QIZI
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
comrehensible@gmail.com
+998949831705
ORCID: 0009-0002-0552-4068

Annotatsiya. Ushbu maqolada generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishga yo‘naltirilgan pedagogik-metodik tizimning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda generativ sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari, ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni hamda o‘quv jarayonini individuallashtirish va adaptivlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik-metodik tizimning maqsad, mazmun, shakl, metod va natijaviy komponentlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: generativ sun’iy intellekt, ingliz tilini o‘qitish, oliy ta’lim, pedagogik-metodik tizim, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta’lim tizimining mazmuni va tashkil etilishiga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi o‘qitishning an’anaviy yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni innovatsion pedagogik yechimlar bilan boyitishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda generativ sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat axborotlarni qayta ishlash vositasi, balki ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo‘lib, o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish jarayonida generativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki chet tilini egallash jarayoni kommunikativ faollik, muntazam mashq, refleksiya va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Mazkur texnologiyalar esa talabalarning o‘quv ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda adaptiv o‘qitish muhitini yaratish imkonini beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ularning o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bois, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tizimli va ilmiy asoslangan holda integratsiya qilishga yo‘naltirilgan pedagogik-metodik tizimni ishlab chiqish oliy ta’lim oldida turgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishga qaratilgan pedagogik-metodik tizimni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda uning samarali faoliyatini ta’minlovchi tarkibiy komponentlarini aniqlashdan iborat.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda generativ sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini individuallashtirish va adaptivlashtirishning samarali vositasi sifatida talqin etilmoqda. Mazkur texnologiyalar yordamida o‘quv topshiriqlarini avtomatik generatsiya qilish, til materiallarini murakkablik darajasiga ko‘ra moslashtirish, shuningdek, talabalar faoliyatini tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, sun’iy intellekt asosida yaratilgan o‘quv muhitlari talabalarning o‘qish, yozish, tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘quv jarayoni talabaning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o‘quv sur’atiga mos ravishda tashkil etiladi. Natijada ta’lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlari mustahkamlanib, talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Zamonaviy pedagogik izlanishlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish masalasi keng ko‘lamda tahlil qilinmoqda. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt yechimlari ta’limni shaxsga yo‘naltirish, adaptiv o‘qitish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim didaktik resurs sifatida talqin etilmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilardan John Hattie ta’lim samaradorligi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellektka asoslangan vositalar o‘quv jarayonida tezkor va mazmunli teskari aloqani ta’minlashi orqali talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi. Uning ta’kidlashicha, adaptiv raqamli tizimlar o‘qitish jarayonini talabaning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini yaratadi.

Chet tillarini o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda Mark Warschauer va Deborah Healey raqamli hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslab bergan. Ularning fikricha, bunday texnologiyalar til o‘rganish jarayonida autentik kommunikativ muhitni modellashtirish, talabalarning nutqiy faolligini oshirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan mashqlar talabaning til faoliyatini doimiy monitoring qilish hamda individual tavsiyalar berish imkoniyatini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi muammosini tizimli o‘rgangan olimlardan Rose Luckin generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini “intellektual o‘quv hamrohi” sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, mazkur texnologiyalar talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, reflektiv fikrlashni faollashtiradi hamda o‘quv jarayonida metakognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Rossiya Federatsiyasi ilmiy-pedagogik maktablarida ham sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, E. S. Polat masofaviy va raqamli ta’lim nazariyasini rivojlantirish jarayonida axborot texnologiyalarining shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishdagi muhim didaktik imkoniyatlarini alohida ta’kidlaydi. Olimning qarashlariga ko‘ra, sun’iy intellektka asoslangan ta’lim muhiti talabalarning bilish faolligini kuchaytiruvchi pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasi doirasida **V. P. Bespalko**ning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. U innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda texnologik yondashuvning ustuvorligini asoslab, har qanday yangi vosita aniq belgilangan maqsad, mazmun va kutilayotgan natijalar bilan uzviy bog‘langan taqdirdagina samarali bo‘lishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv generativ

sun’iy intellekt texnologiyalarini metodik tizim asosida tatbiq etish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham raqamli pedagogika va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi dolzarb yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda raqamli ta’lim muhiti talabalarning kompetensiyaviy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholanadi. Ularning xulosalariga ko‘ra, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga joriy etish ta’limni individuallashtirish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish hamda o‘quv jarayoni natijadorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy qarashlarning umumlashtirilgan tahlili shuni ko‘rsatadiki, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish pedagogik-metodik tizimning ilmiy-nazariy poydevorini mustahkamlaydi hamda uning amaliy samaradorligini oshirish uchun zarur metodik asoslarni yaratadi.

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan pedagogik-metodik tizim o‘zaro uzviy bog‘langan quyidagi komponentlardan iborat bo‘ladi:

Maqsadli komponent – talabalarda ingliz tiliga oid kommunikativ, lingvistik hamda sotsiokultural kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik maqsad va vazifalar majmuasi;

Mazmuniy komponent – ingliz tilini o‘rganishga mo‘ljallangan o‘quv materiallari, raqamli platformalar, sun’iy intellekt asosida yaratilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi;

Jarayoniy komponent – interaktiv va innovatsion metodlar, adaptiv o‘qitish texnologiyalari, mustaqil va hamkorlikdagi ta’lim shakllarini o‘z ichiga olgan o‘quv jarayoni;

Natijaviy komponent – talabalarning ingliz tili bo‘yicha kompetensiyalarining rivojlanish darajasi, o‘quv natijalari va reflektiv faoliyat ko‘rsatkichlari.

Mazkur pedagogik-metodik tizimning samarali amalga oshirilishi bir qator muhim pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligini talab etadi. Jumladan:

o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha metodik kompetensiyalarini rivojlantirish;

generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

ta’lim jarayonida akademik halollik, axloqiy va etik me’yorlarga qat’iy rioya etish.

Xulosa qilib aytganda, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishga yo‘naltirilgan pedagogik-metodik tizim ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, talabalarning til kompetensiyalarini izchil va samarali rivojlantirish hamda o‘qitish jarayonini

individuallashtirish imkonini beradi. Ushbu tizimni amaliyotga joriy etish oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishga, shuningdek, raqamli pedagogikaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 378 p. (pp. 173–186).
2. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: An overview // Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – Vol. 31, No. 2. – P. 57–71.
3. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 188 p. (pp. 102–118).
4. Polat E. S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye tekhnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2016. – 272 s. (s. 134–156).
5. Bespalko V. P. Sostavlyayushchie pedagogicheskoy tekhnologii. – Moskva: Pedagogika, 2008. – 192 s. (s. 64–83).

ILMIY USLUBDA GAP QURILISHI

ERKINOV DILMUROD ADHAMOVICH

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida ilmiy uslubning sintaktik qurilishi o‘rganiladi. Tadqiqotda ilmiy matnlardagi gaplarning tuzilishi tahlil qilingan. Muallif ilmiy nutqdagi sintaktik kondensatsiya va sodda gaplarning asoratlanishi kabi hodisalarni yoritadi. Maqolada majhul nisbat va akademik qoliplarning qo‘llanish darajasi aniqlangan. Shuningdek, gap bo‘laklarining ierarxik o‘rni va so‘z tartibi qonuniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari ilmiy matnlar tilini va matn tilshunosligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy uslub, sintaktik qurilish, sodda gap, sintaktik kondensatsiya, majhul nisbat, so‘z tartibi, ierarxik o‘rin, akademik qolip.

Аннотация. В данной статье исследуется синтаксическая структура научного стиля в узбекском языкознании. В исследовании анализируется структура предложений в научных текстах. Автор освещает такие явления, как синтаксическая конденсация и осложнение простых предложений в научной речи. В статье определена степень использования страдательного залога и академических клише. Также показаны закономерности иерархического положения членов предложения и порядка слов. Результаты исследования служат развитию языка научных текстов и лингвистики текста.

Ключевые слова: научный стиль, синтаксическая структура, простое предложение, синтаксическая конденсация, страдательный залог, порядок слов, иерархическое положение, академическое клише.

Abstract. This article examines the syntactic structure of the scientific style in Uzbek linguistics. The study analyzes the structure of sentences in scientific texts. The author highlights such phenomena as syntactic condensation and the complication of simple sentences in scientific speech. The paper determines the degree of using the passive voice and academic clichés. It also shows the patterns of the hierarchical position of sentence parts and word order. The results of the research serve to develop the language of scientific texts and text linguistics.

Keywords: scientific style, syntactic structure, simple sentence, syntactic condensation, passive voice, word order, hierarchical position, academic cliche.

Kirish. Nutq uslublari orasida ilmiy uslub o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu uslub o‘zining mantiqiy qat’iyligi bilan ajralib turadi. Ilmiy matnlarda axborot zichligi yuqori bo‘ladi. Grammatik sathda ham o‘ziga xos asoratlanish ko‘zga tashlanadi. Tilshunos olim G‘. Abdurahmonov ilmiy matndagi gapni alohida ta’riflagan. Uning fikricha, ilmiy gap shunchaki kommunikativ birlik emas. U “mantiqiy hukmning lisoniy qolipi” hisoblanadi. Shu sababli, ilmiy uslubda gap qurilishi emotsionallikdan xoli bo‘ladi. Bu uslub borliqni obyektiv va tizimli aks ettirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ilmiy matnlar mukammal o‘rganilgan. Olimlar ilmiy uslubning leksikasi va terminologiyasini keng tadqiq etganlar. Biroq ilmiy matnlardagi gaplarning qurilishi alohida sintaktik muammo hisoblanadi. Ayniqsa, gap tarkibidagi bo‘laklarning ierarxik o‘rni maxsus o‘rganilmagan. Shuningdek, ilmiy nutqdagi sintaktik kondensatsiya hodisasi ham yetarlicha umumlashtirilmagan. Bu yo‘nalishda hali yechilishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud.

Ushbu maqolaning asosi ilmiy matnlar sintaksisini tizimli o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi o‘zbek tilidagi ilmiy gaplarning qurilish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilidagi lisoniy ilmiy matnlar tanlab olindi. Maqolada gap bo‘laklarining joylashuv tartibi va ularning axborot uzatishdagi vazifasi yoritiladi. Olingan natijalar o‘zbek matn tilshunosligini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tili ilmiy matnlarini tahlil qilish uchun bir nechta lisoniy metodlardan foydalanildi. Matndagi gaplarning strukturaviy qismlarini aniqlash maqsadida tizimli-tarkibiy tahlil metodi qo‘llanildi. Gap bo‘laklarining axborot uzatishdagi vazifasini belgilash uchun funksional-sintaktik tahlil metodi ishlatildi. Gaplarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanish

mexanizmlari esa aktual bo‘linish (tema-rema) tahlili vositasida ochib berildi. Barcha metodlar tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlashga xizmat qildi.

Ilmiy nutqda sodda gaplar ko‘pincha kengaytirilgan shaklda keladi. Akademik N. Mahmudov ilmiy uslubda fikrni siqiq holda ifodalash (sintaktik kondensatsiya) hodisasini alohida qayd etadi . Bu hodisa matnda ikki vosita orqali namoyon bo‘ladi:

Uyushiq bo‘laklar tizimi: Bu tizim tadqiqot obyektining xususiyatlarini sanab o‘tishga xizmat qiladi. Natijada matnning tasnifiy quvvati sezilarli darajada oshadi.

Sifatdosh va ravishdosh ishtiroki: Tilshunos M. Asqarova bu shakllarning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan. Fe’lning bu shakllari ergashgan gaplar vazifasini o‘ziga oladi. Ular murakkab fikrni sodda gap tarkibida ixcham ifodalaydi. Masalan, *“Aniqlangan natijalar...”* birikmasi *“Shunday natijalar aniqlandiki, ular...”* kabi qo‘shma gap o‘rnida keladi.

Ilmiy tafakkur qat’iy sabab-oqibat zanjiriga asoslanadi. Shuning uchun ilmiy matnlarda mantiqiy bog‘lovchi vositalar muhim o‘rin tutadi. *Chunki, binobarin, shu sababli, u holda* kabi vositalar jumlalarning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi. Olimlar asarlaridan olingan namunalar buni tasdiqlaydi.

N. Mahmudov asarlarida ilmiy uslubning shakllanishi ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot bilan bog‘lanadi. Jamiyatning intellektual salohiyati darajasi milliy tilning terminologik tizimida aks etadi. G‘. Abdurahmonov tadqiqotlarida tilshunoslikdagi sintaktik sath birliklari o‘zaro iyerarxik bog‘liqlikda o‘rganiladi. Gap qurilishidagi o‘zgarishlar matnning umumiy semantik butunligiga ta’sir ko‘rsatadi.

A. Hojiyev ishlarida leksik birliklar ilmiy matnda o‘zining ko‘p ma’nolilik xususiyatini yo‘qotadi. Terminlarning bir ma’noliligi (monosemiya) ilmiy uslubning eng muhim talabi sanaladi. M. Asqarova qarashlarida lisoniy tahlil jarayonida kontekstual muhit hisobga olinishi shart. Aks holda, tadqiqot natijalarining obyektivligi shubha ostida qoladi.

Ilmiy matnda zanjirsimon bog‘lanish ham faol qo‘llaniladi. Bir gapdagi yangi axborot (rema) keyingi gap uchun ma’lum axborotga (tema) va poydevorga va asosga aylanadi. Bu hodisa matnning uzluksizligini ta’minlaydi.

Ilmiy uslubda muallifning subyektiv “men”ligi birinchi planga chiqmaydi. Matnda ilmiy jarayon va natijaning o‘zi markaziy o‘rin egallaydi:

Majhul nisbatdagi fe‘llar: *“Aniqlanadi”, “kuzatildi”, “isbot etildi”* kabi so‘zlar xulosalarning obyektivligini ta’minlaydi. Bunga A. Hojiyev asarlaridagi *“sintaktik vazifalari orqali aniqlanadi”* birikmasi misol bo‘ladi. N. Mahmudov asarlarida ham *“konnektor ekanligi kuzatildi”* birikmasi faol qo‘llaniladi.

Harakat nomili qurilmalar: Gap kesimining harakat nomi bilan ifodalanishi fikrni qonuniyat darajasiga koʻtaradi. Masalan: *“Tilni tizim sifatida oʻrganish – zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yoʻnalishidir”*.

Ilmiy matn oʻquvchidan qat’iy diqqatni talab qiladi. Shuning uchun matnda akademik qoliplar keng qoʻllaniladi. *“Shuni ta’kidlash joizki...”, “Ma’lumotlar shuni koʻrsatadiki...”, “Yuqoridagilardan kelib chiqib...”* kabi birikmalar mantiqiy oʻtishlarni mustahkamlaydi.

Ilmiy matnda gap boʻlaklarining joylashuvi ixtiyoriy emas. Ular qat’iy mantiqiy ketma-ketlikka boʻysunadi. Tilshunos olim A. Qodirov buni maxsus qayd etgan. Bosh boʻlaklar (ega va kesim) gapning “axborot markazi” hisoblanadi. Odatda ega gapning boshida, kesim esa oxirida keladi. Bu tartib fikrning barqarorligini ta’minlaydi. Ikkinchi darajali boʻlaklar (ayniqsa, aniqlovchilar) bosh boʻlaklarni kengaytiradi. Ular ilmiy axborotni konkretlashtiradi va chegaralaydi.

Xulosa. Oʻzbek tili ilmiy uslubining sintaktik qurilishi oʻziga xos tizimga ega. Bu tizim qat’iy mantiqiy qonuniyatlar asosida shakllanadi. Tadqiqotlar natijasida ilmiy matnda sodda gaplarning asoratlanishi yetakchi ekanligi isbotlandi. Uyoshiq boʻlaklar hamda sifatdosh va ravishdosh oborotlari fikrni siqiq holda ifodalashga xizmat qiladi. Bu vositalar matnning tasnifiy quvvatini sezilarli darajada oshiradi. Ilmiy nutqda mantiqiy determinizm sabab-oqibat munosabatlarini yuzaga keltiradi. Matndagi gaplararo izchillik maxsus konnektorlar yordamida mustahkamlanadi. Aktual boʻlinish (tema-rema munosabati) esa gaplarning oʻzaro zanjirsimon bogʻlanishini ta’minlaydi. Natijada ilmiy matnning mazmuniy butunligi va uzluksizligi kafolatlanadi.

Ilmiy uslub uchun obyektivlik va shaxssizlik xosdir. Majhul nisbatdagi fe’llar va infinitiv qurilmalar muallif subyektivligini chetlashtiradi. Diqqat markaziga faqat ilmiy jarayon va natijaning oʻzi olib chiqiladi. Shuningdek, akademik klishyelar va qat’iy soʻz tartibi axborotning aniq yetib borishini ta’minlaydi. Bosh boʻlaklar gapning axborot markazini hosil qilsa, ikkinchi darajali boʻlaklar ilmiy tushunchalarni chegaralaydi va konkretlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – B. 42-48.

2. Mahmudov N. Nurli so‘z (Tilshunoslikning nazariy masalalari). – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 115-120.

3. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek tili (Qo‘shma gap sintaksisi). – Toshkent: Universitet, 1992. – B. 24-27.

4. Qodirov A. O‘zbek tilida ilmiy uslub va sintaksis. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 94.

ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ЯЗЫКОВОЙ СРЕДЫ

АБДУЛХОРИСОВА МУШТАРИЙ УМАРАЛИ КИЗИ
Email:uktamovamushtariy7@gmail.com
Магистрант, Наманганский педагогический институт,
Направление: «Русский язык и литература»

Аннотация. В статье рассматривается понятие языковой среды как совокупности речевых, социальных, культурных и коммуникативных условий, влияющих на формирование и развитие языковой личности. Анализируются основные характеристики и компоненты языковой среды, её роль в усвоении языка и развитии языковой компетенции. Особое внимание уделяется основным подходам к изучению языковой среды: социолингвистическому, когнитивному, дискурсивному и антропологическому. Представлена классификация языковой среды по способу формирования, характеру взаимодействия и языковой принадлежности. Подчеркивается значение языковой среды в процессах билингвизма, обучения иностранным языкам и формирования культурной идентичности личности.

Ключевые слова: языковая среда, языковая личность, социолингвистика, когнитивная лингвистика, билингвизм, языковая компетенция, речевая деятельность, лингводидактика.

Abstract. The article examines the concept of the language environment as a combination of speech, social, cultural, and communicative conditions influencing the formation and development of linguistic personality. The main characteristics and components of the language environment, as well as its role in language acquisition and the development of language competence, are analyzed. Particular attention is paid to the main approaches to the study of the language environment, including sociolinguistic, cognitive, discourse, and anthropological approaches. The classification of the language environment according to the method of formation, nature of interaction, and language affiliation is presented. The importance of the language environment in the processes of bilingualism, foreign language learning, and the formation of cultural identity is emphasized.

Keywords: language environment, linguistic personality, sociolinguistics, cognitive linguistics, bilingualism, language competence, speech activity, linguodidactics.

Annotatsiya. Maqolada til muhiti tushunchasi nutqiy, ijtimoiy, madaniy va kommunikativ sharoitlar majmui sifatida ko‘rib chiqiladi hamda uning til shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri yoritiladi. Til muhitining asosiy xususiyatlari va

tarkibiy qismlari, uning tilni o‘zlashtirish hamda til kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Til muhitini o‘rganishning asosiy yondashuvlari – sotsiolingvistik, kognitiv, diskursiv va antropologik yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilgan. Til muhiti shakllanish usuli, o‘zaro ta’sir xarakteri va til mansubligiga ko‘ra tasniflanadi. Shuningdek, til muhitining bilingvizm, chet tillarini o‘qitish va shaxsning madaniy identifikatsiyasi jarayonlaridagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: til muhiti, til shaxsi, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, bilingvizm, til kompetensiyasi, nutq faoliyati, lingvodidaktika.

ВВЕДЕНИЕ

Языковая среда – это совокупность речевых, социальных, культурных и коммуникативных условий, в которых функционирует и развивается язык и в которых происходит языковое взаимодействие между людьми. Это окружающая человека речь и языковое поведение других людей, которые он слышит, воспринимает и с которыми взаимодействует в повседневной жизни.

К основным характеристикам языковой среды относится коммуникативная природа, которая включает живое общение – устное и письменное, формальное и неформальное. Социальная обусловленность, которая зависит от социального окружения, как семья, коллектив, нация, регион, возраст, профессия также характеризует языковую среду. Оно играет ключевую роль в языковом развитии личности, особенно в детстве или при изучении иностранного языка.

Языковую среду воспринимают как совокупность условий, в которых происходит использование, восприятие и усвоение языка. В её состав входит всё речевое окружение человека: устные и письменные тексты, живую речь, медиа, а также социальные и культурные контексты, в которых используется язык.

К компонентам языковой среды относятся устная и письменная речь, медиа, образовательная и культурная среда важность изучения и понимания языковой среды обусловлена важностью осознания, как формируется языковая личность. Чтобы эффективно преподавать языки необходимо понимать, как социальные и культурные факторы влияют на речь. К примеру, ребёнок, выросший в двуязычной семье, усваивает два языка одновременно – его языковая среда билингвальна. Или иностранный студент, попавший в зарубежный вуз, быстро осваивает русский язык благодаря естественной языковой среде.

Из вышеизложенного можно констатировать, что изучение языковой среды можно рассматривать через различные подходы. Социолингвистика фокусируется на взаимосвязи языка и общества, изучая, как социальные

факторы, такие как класс, возраст, пол и этничность, влияют на использование языка. Когнитивный подход исследует, как языковая среда влияет на мышление и восприятие мира, рассматривая язык как средство обработки информации. Дискурсивный анализ акцентирует внимание на текстах и общениях в контексте, подчеркивая, как языковые практики формируют социальные реалии и идентичности. Каждый из этих подходов помогает глубже понять, как язык функционирует в различных контекстах и как он влияет на жизнь людей.

Как отмечает В.Гумбольт, «речевая деятельность даже в самых своих простейших формах есть соединение индивидуальных восприятий с общей природой человека. В языке таким чудесным образом объединяется индивидуальное со всеобщим, что одинаково правильно сказать, что весь род человеческий говорит на одном языке, а каждый человек обладает своим языком». Важно отметить роль социолингвистики, которая исследует, как социальные факторы, такие как класс, возраст, пол и этническая принадлежность, влияют на использование языка. Социолингвистический анализ позволяет понять, как разные группы используют язык, какие диалекты и акценты преобладают в той или иной среде, а также как социокультурные контексты формируют языковые нормы и практики.

Когнитивная лингвистика рассматривает связь между языком и когнитивными процессами. Этот подход исследует, как языковые структуры отражают способы мышления и восприятия, предлагая инсайты о том, как языковая среда формирует когнитивные модели и концептуальные схемы.

Кроме того, антропологический подход изучает язык в контексте культуры, сосредотачиваясь на том, как языковые практики связаны с культурными традициями, ритуалами и повседневной жизнью. Этот подход подчеркивает важность изучения языка не только как инструмента коммуникации, но и как важного элемента культурной идентичности и обязательств в различных обществах.

Все эти подходы подчеркивают важность мультидисциплинарного анализа и признания влияния языка на социальные и культурные процессы. Они помогают создать более полное представление о том, как язык функционирует в различных контекстах и как он влияет на индивидуальное и коллективное сознание.

Классификация языковой среды производится:

1. По способу формирования

- естественная, то есть возникающая стихийно в обществе, где язык – основной в общении;

- искусственная (учебная), то есть создана специально для изучения языка;

- смешанная, комбинация естественной и искусственной среды.

2. По характеру взаимодействия

- аудитивная (слуховая), восприятие речи на слух (беседы, радио, подкасты);

- визуальная (письменная), восприятие текста глазами (книги, сайты, надписи);

- интерактивная, живое речевое взаимодействие (диалоги, обсуждения, дебаты).

3. По языковой принадлежности

- моноязычная, когда один язык доминирует (например, человек живёт только в русскоязычной среде).

- билингвальная / полилингвальная (например, несколько языков используются параллельно семья, где говорят на русском и английском).

Структуру языковой среды мы попытались отразить в следующей схеме

ЯЗЫКОВАЯ СРЕДА
- Устная речь
  - Бытовая (дом, улица)
  - Официальная (учеба, работа)
  - Массовая (радио, ТВ)
- Письменная речь
  - Учебная (учебники, конспекты)
  - Массмедиа (газеты, сайты)
  - Художественная (литература)
- Контекст
  - Социальный (общество, профессия)
  - Культурный (традиции, нормы)
  - Коммуникативный (ситуации общения)

Понятие языковой среды имеет различные оттенки в применении. Так, в лингводидактике изучение среды даст возможности создать «языковое погружение» для изучающих иностранный язык. В психолингвистике важен вопрос о том, как языковая среда влияет на речь детей. В социолингвистике изучается, как языковая среда соотносится с нормами, престижем и идентичностью.

Исходя из этого, можно отметить, что языковая среда представляет собой совокупность речевых и социальных условий, в которых происходит формирование, функционирование и развитие языковой компетенции индивида или группы. Она включает в себя окружение, в котором

используется язык (дом, школа, улица, интернет); характер и интенсивность языковых контактов; уровень владения одним или несколькими языками. Г.И.Богин, придерживающийся лингводидактического метода изучения языковой среды, отмечает, что «языковая личность – это человек, рассматриваемый с точки зрения его готовности исполнять речевые поступки, создавать и принимать произведения речи. Он считает языковую личность одним из компонентов существования языка, тем, кто присваивает язык, то есть тем, для кого язык есть речь».

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Словарь социолингвистических терминов / В. А. Кожемякина, Н. Г. Колесник, Т. Б. Крючкова. – М.: ИЯ РАН, 2006. – 312 с. – С. 207.
2. Сеттарова М. Д. Актуальные проблемы социолингвистики // Проблемы современной науки и образования. – 2016. – № 8 (50). – С. 101–103.
3. Лабов У. Структура денотативных значений // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 14: Проблемы и методы лексикографии. – М., 2023. – С. 133–176.
4. Trudgill P. The Social Differentiation of English in Norwich. – Cambridge: Cambridge University Press, 1974. – (Cambridge Studies in Linguistics; No. 13).
5. Краус И. К общим проблемам социолингвистики // Вопросы языкознания. – 2024. – № 4. – С. 27–36.
6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М., 2004. – 400 с.
7. Богин Г. И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов. – СПб., 2004. – 310 с. – С. 7.

ICHKI SARLAVHALAR TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI AHAMIYATI

ATABAYEVA NILUFAR ATAMURATOVNA

Urganch davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti

Xorijiy filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada amerikalik yozuvchi Teodor Drayzerning “Sister Carrie” romani bob sarlavhalarining inglizcha asliyati, ruscha va o‘zbekcha tarjimalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sarlavhalarning badiiy matn mazmunini ochib berishdagi o‘rni, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Shuningdek, rus tarjimoni M.Volosov va o‘zbek tarjimoni E.Nosirov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalardagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilinib, sarlavhalarni adekvat tarjima qilishda tarjimon mahorati va ijodkorligining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot

natijasida sarlavhalarni tarjima qilish jarayonida milliy-madaniy tafovutlar, metaforik birliklar va leksik-semantik xususiyatlarni saqlab qolish muhim omil ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sarlavha, badiiy tarjima, semantika, pragmatika, adekvat tarjima, metafora, tarjimashunoslik, qiyosiy tahlil, bob sarlavhalari, “Baxtiqaro Kerri”.

Sarlavhalar badiiy matn mazmunini ifoda etishda muhim o‘rin egallovchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan sarlavhalar matnning bir qismi, va mustaqil axborot birligi sifatida, tabiiyki, tadqiqotchilarning e’tiboridan chetda qolishi mumkin emas edi. “Sarlavhalar borasidagi tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo‘la boshlagan. Buning sababi sarlavhaning badiiy matn ichidagi o‘ziga xos o‘rni, uning semantik murakkabligi va funksiyalarining xilma-xilligini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlar bilan bo‘g‘liqdir”[1].

Sarlavhalarning mazmun mohiyati borasidagi fikrlardan farqli o‘laroq ularning tarjimasi bilan bo‘g‘liq masalalarga diqqat qarataylik. Badiiy asarni tarjima qilishda asosiy o‘rin tutadigan tarjimaning murakkab masalalaridan biri asar sarlavhasi tarjimasi hamda asar boblari sarlavhalarini tarjima qilish masalasidir. Asar boblari sarlavhalarini tarjimada to‘g‘ri ifodalay olish yoki sarlavhalarning yuzaga kelishida muhim o‘rin tutgan voqealar bayonoti, asar qahramonlariga urg‘u beruvchi obrazli sarlavhalar, baadiy asar tarkibidagi biror detalga urg‘u beruvchi sarlavhalarni tarjima qilishda, asardagi obrazlar yoki detallarni tarjimada to‘g‘ri bayon eta olish tarjimonning ijodkorligi bilan bog‘liq jarayondir. Tarjima jarayonida tarjimonning oldida turgan eng katta muammolardan biri esa, yozuvchi sarlavhaga bergan nomdagi ruhiyatni o‘zga madaniyat doirasida qayta yaratishdan iboratdir. Zamonaviy rus tadqiqotchisi Li Litsyun o‘zining “Структура, семантика и прагматика заглавий художественных произведений” (Baadiy asarlar sarlavhalarining tuzilishi, semantikasi va pragmatikasi) deb nomlanuvchi dissertatsiyasining uchunchi bobini Sarlavhalar tarjimasini tadqiq qilinishiga bag‘ishlab, tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni quyidagicha turlarga ajratadi. “Tarjimaning umumiy muammolari va badiiy matn sarlavhalarining xususiyatlarini hisobga olish quyidagi sarlavha tarjimasidagi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi: tillar o‘rtasidagi farqlar tufayli yuzaga keladigan sarlavha tarjimasidagi qiyinchiliklar, madaniyatlar farqi bilan bog‘liq tarjima qiyinchiliklari, leksik birliklar semantikasi farqlari sababli yuzaga keladigan tarjima muammolari, shuningdek, sarlavhalarda frazeologizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liq tarjima qiyinchiliklari”[2].

---

[1] Заглавие/ /Литературная энциклопедия:В11т. /Под ред. А. В. Луначарского. М., 1930.Т.4 .С.269 -271 .

[2] Ли Лицюнь. Структура, семантика и прагматика заглавий художественных произведений. Дисс…Москва. 2004. 184 с.

Mazkur faslda T.Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” romani boblarining sarlavhalarini asliyat, ruscha va o‘zbekcha tarjimalarini qiyosiy tahlil qilib, rus tarjimoni M. Volosov va o‘zbek tarjimoni E.Nosirovning sarlavhalar tarjimasidagi farqlar va o‘xshashliklar tadqiq qilindi.

Asarning 1-bobi ***The magnet attracting: a waif amid forces*** **deb nomlanadi. Rus tarjimoni** ***Притягательная сила магнита. Во власти стихий,*** o‘zbek tarjimoni esa *Ohanraboning maftunkor kuchi. Stixiya hukmida* deb tarjima qilishadi. Muallif mazkur bob sarlavhasini tanlashda *The magnet attracting* deya Chikagoni majoziy ma’noda detal sarlavha sifatida tanlagan bo‘lsa, rus tarjimoni *Притягательная сила магнита,* o‘zbek tarjimoni *Ohanraboning maftunkor kuchi* deya asliyatga adekvat tarzda ifoda eta olgan. Biroq aytib o‘tish joizki asliyatdagi *a waif amid forces* jumlasida *waif-uysiz odam, amid forces-kuchlar ta’siri ostida* yani *stixiya ostida* ma’nosini anglatadi. T.Drayzer uysiz qolgan odam deya Kerrini nazarda tutgan. Har ikkala tarjima nushalarida ham a waif-uysiz odam birikmasi qo‘llanilmagan. E. Nosirov asarni bilvosita rus tili orqali tarjima qilgani bois sarlavha tarjimasini asliyatga emas ruscha tarjimaga hamohang holda tarjima qilgan deb hisoblash mumkin. Mazkur bob sarlavhasining bu tarzda nomlanishi quyidagi parchalarda o‘z ifodasini topgan.

“Ulkan shahar – makrning koni. Undagi qudratli kuchlar zo‘r odob sohibalarini ham hiylalar ila o‘ziga tortadi, chorlaydi. Minglarcha chiroqlarning porlab turishi sevilgan ko‘zlarning go‘zal boqishidan kam ta’sir qilmaydi, beg‘ubor va sodda qalbning ma’naviy tanazzuliga avvalo insonni lol qilgan ta’sirlar sabab bo‘ladi”.

“Jajji Kerri bamisoli sirli shaharga baxt izlab chiqqan, yaxshilab qurollanmagan va fotihga o‘lja bo‘lgan bu shahar oyog‘im ostida yotibdi hisob, deb erishilmagan g‘alabalarning mubham orzusida yurgan kichkinagina ritsar edi.

Shaharmisan shahar! Ko‘rishga arziydigan narsalarning bari o‘shanda! Teatrlar, g‘ij-bij odamlar, ko‘rkam uylar. O, u yerdagilarning bari sizga juda ham yoqib qolishi turgan gap!”.

“Kerri vujudida qandaydir og‘riq sezdi. Ana shu hashamlarning barchasiga nisbatan o‘zini xasday sezarkan, bundan ezilardi. O‘zini ko‘ngilochar narsalardan bo‘lak narsalar ham kutayotganini juda yaxshi tushunar, shunday bo‘lsa-da hamrohi hikoya qilayotgan narsalarning barida umidvor qiluvchi nimadir bor edi”[3].

Yuqoridagi parchalardan ayon bo‘ladi-ki Chikago ohangrabo singari Kerrini o‘ziga maftun etib qo‘ygan. Bu ulkan shahardagi hashamatli bino, badavlat insonlarning turmush tarzi Kerri singari oddiy oila qizi uchun kishi qo‘li yetmas darajadagi imkoniyatlar makonidir. Biroq jajji Kerrining stixiya (*inson irodasiga*

[3] Drayzer T. Baxtiqaro Kerri / Erkin Nosirov tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 4,5,8b.

bo‘ysunmaydigan qudratli ijtimoiy hayot hodisasi; tashkil qilib va boshqarib bo‘lmaydigan, ko‘r-ko‘rona harakat qiladigan ijtimoiy muhit)[4]ostida qolishi sarlavhada ham o‘z ifodasini topgan.

Asarning 2-bobi ***What poverty threatened: of granite and brass*** deb nomlanadi. Rus tarjimoni ***Чем грозит нищета. Гранит и деньги***, o‘zbek tarjimoni esa ***Qashshoqlik nima bilan tahdid qilyapti? Granit va bronza*** deb tarjima qilishadi.

Asarning ikkinchi bobi sarlavhasining tarjimasini tahlil qilshda sarlavhaning semantik mazmunini matn mazmunidan anglab olish biroz qiyinchilik tug‘dirdi. T.Drayzer *What poverty threatened* ya’ni *Qashshoqlik nima bilan tahdid qilyapti* deya savolni ko‘ndalang qo‘yib, javob tariqasida *granite and brass* ya’ni *granit va jez* deya tosh va metal nomlarini ko‘rsatadi. Avvalo mazkur bobga qo‘yilgan sarlavhaning asar mazmuniga mosligini ifodalab o‘tadigan bo‘lsak, Kerri opasining uyidagi o‘rtamiyona hayot tarzini ko‘rgach, darhol ish topishi zarurligini tushinib yetadi.

“Kechki ovqat taraddudi paytida Kerri opasining kvartirasini aylanib chiqdi. U sezgir, har bir ayol kabi sinchkov edi. U uy egalarining dasti qisqaligini va kunlari bir xilda o‘tayotganini sezib oldi”[5].

Chikago bo‘ylab ish qidirib chiqqan paytda markazdagi hashamatli zavod fabrikalarni kuzatar ekan, bu manzaralar uni lol qoldiradi va Kerri ulardan ish topish amri mahol ekanligini tushinadi. Bu imoratlarni hashamdorligini ifoda etishda yozuvchi *granit* va *jez* detallarini qo‘llaydi. Kerri esa bunday joylar oddiy xalq uchun emasligini anglagach, qashshoqlik unga tahdid solayotganini tushunib yetadi. Quyidagi parchaga e’tibor qaratamiz.

“Binolarga kiraverishdagi devorga mahkamlab qo‘yilgan yaltiroq bronza yoki nikeldan yasalgan, tevaragi silliqlangan chorburchak toshlar bilan bezatilgan taxtachalarga korxonaning nomi va faoliyati aniq va lo‘ndagina qilib bitilgandi. Shuning uchun ham markazga qaragan kishi poytaxtga kelib qoldim shekilli, deb o‘ylashi turgan gap edi. Nega deganda uning ko‘rinishi juda vahimali bo‘lib, oddiy fuqaroni tang qoldirish va kambag‘allik bilan omad o‘rtasidagi o‘rinning qanchalik keng va chuqurligini ko‘rsatib qo‘yish ko‘zda tutilgandi-da”.

“Ana shu idoralarga aloqador odamlar faqat pul sanash-u yaxshi kiyinib, ekipajlarda yurishdan boshqa narsani bilishmaydiganga o‘xshardi. Ular nima sotishadi, nima ish qilishadi, qanday maqsadni izlashgan – bularning bari unga ochiq-ravshan emasdi. Xullas, barisi unga ajoyib, bepoyon, qo‘l yetmas bo‘lib ko‘rinardi! Bundan uning ruhi tushdi, ana shu muhtasham korxonalardan biriga

[4] O'sha manba. – 3b.
[5] O'sha manba. – 16b.

kirib, qo‘lidan keladigan birorta ish so‘rayajagini o‘ylaganida yuragi uvushib ketardi. Unga endi qanday ish bo‘lsa ham baribir”[6].

Sarlavhaning tarjimalariga e’tibor qaratamiz. Sarlavhadagi inglizcha *brass* so‘zi o‘zbek tilidagi *jez* metalidir. Biroq rus tarjimoni uni ***деньги*** (pul) deb tarjima qilsa, o‘zbek tarjimoni uni *bronza* deb ifodalagan. (Bronza va jez metallari o‘rtasidagi farq Wikipedia saytida izohlangan)[7].

Asarning 3-bobi ***Wee question of fortune: four-fifty a week*** deb nomlanadi. Rus tarjimoni ***Мы испытываем судьбу. Четыре с половиной доллара в неделю***, o‘zbek tarjimoni esa ***Baxtimizni sinab ko‘ramiz. Haftasiga to‘rt yarim dollar*** deb tarjima qilishadi.

Asarning 3-bobi syujetiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Kerri bir qancha ovvoragarchiliklardan keyin axiyri bir poyabzal fabrikasidan ish topadi. Ish xaqi xaftasiga to‘rt yarim dollar deb belgilanishiga qaramasdan Kerri ilojsiz u yerda ishlashga rozi bo‘ladi chunki bu ishsiz qolgandan ko‘ra ancha durustroq edi. Ancha toliqishlardan keyin qahramon shunisigayam shukur qilib Chikagoda qolib, baxtini sinab ko‘rishga qaror qiladi. Mazkur bobdan parchalarga e’tibor qaratamiz.

“Ismingiz nima? – dedi u gapida davom etib. Qizning javobini eshitganidan keyin esa shunday dedi: - Ochig‘ini aytsam, bizda sizbop ish topilishini aytolmayman. Siz haftasiga to‘rt yarim dollar olib ishlahshga rozimisiz?

Kerri kun bo‘yi ovvora bo‘lib ezilganidan bu taklif unga qiziqarli tuyuldi. To‘g‘ri, u haftasiga olti dollardan kam berishmasa kerak, degan hayolga ham borgandi. Shunday bo‘lsa ham, har qalay, rozi bo‘ldi”[8]

Asar bobining sarlavhasini tanlashda yozuvchi bobdagi syujet mazmunini sarlavhada namoyon eta olgan. Mazkur bobning sarlavhasi tarjimasi har ikkala tarjimon tomonidan so‘zma-so‘z tarjima prinsipiga asosan tarjima qilingan shu tariqa semantik mazmun mohiyatini saqlab qolgan.

Asarning 4-bobi ***The spendings of fancy: facts answer with sneers*** deb nomlanadi. Rus tarjimoni ***Мечты утрачены, действительность глумится***, o‘zbek tarjimoni esa ***Ro‘yobga chiqmagan orzular. Xo‘rlik*** deb tarjima qilishadi. Mazkur bob sarlavhasi Kerrining hayolan barcha xursandchilik va o‘yin kulgilarga to‘la hayot gashtini o‘z tsavvuri olamida yarata olgani, ammo qiyinchiliklar va o‘g‘ir mehnat sharoiti unga labbay deb kulib kutib olgani borasidagi voqealar bayonotiga asoslanib tanlangan. Bunga asardagi quyidagi parchalarni misol keltirish mumkin.

“Kerri so‘ngi ikki kunni eng shirin orzular o‘g‘ushida o‘tkazdi. U xayolan barcha xursandchilik va o‘yin kulgilarga boshi bilan sho‘ng‘ir, mabodo boy bo‘lib tug‘ilsa bormi, ularning barini bemalol zavqini sura olardi”.

[6] O'sha manba. – 20, 21b.
[7] https://uz.wikipedia.org/wiki/Bronza
[8] O'sha manba. – 32b.

“Ko‘chada ilgarigidek tetik, g‘ayratli odamlardan iborat sershovqin olomon odimlardi.Kerri o‘zini sal yengil tortganday sezdi, ammo bu ustaxonadan bir amallab chiqib olgani oqibati edi. U yonidan o‘tib borayotgan va yaxshi kiyingan qizlardan xijolat bo‘lardi. O‘zicha, bundan ham yaxshiroq ishga munosib ko‘ringanidan beixtiyor jahli chiqardi”[9].

Sarlavhaning asl mazmuni ham uning rus va o‘zbek tilidagi tarjimalari ham mazkur bobdagi voqealar bayonotini ifodalay oladi. Demak har ikkala tarjimon sarlavhani tarjima qilishda adekvatlikka erishgan deb hisoblash mumkin.

Asarning 5-bobi ***A glittering night flower: The use of a name*** deb nomlanadi. Rus tarjimoni ***Сияющий ночной цветок. Как было упомянуто о Керри***, o‘zbek tarjimoni esa ***Ajib tun guli. Kerrining nomi qanday tilga olingani*** deb tarjima qilishadi.

Mazkur bob sarlavhasida yozuvchi *glittiring night flower* - deya Gerstvud ishlaydigan aysh-ishrat, ko‘ngil ochish maskani sifatida tasvirlangan mayxonani tungi hayotdagi olovli gul misol kishini o‘ziga tortadi deya metoforik tarzda sarlavhaning nomiga chiqargan. Quyidagi parchaga e’tibor qaratamiz.

“Shunday bo‘lsa ham ana shu charog‘on zal, undagi bashang kiyingan, og‘ziga kelganni qaytarmay behuda va bemaza gaplar bilan vaqtini o‘tkazayotgan ochko‘z olomon, yasama hasham va satanglikka o‘chlik tashqarida – charaqlab turgan yulduzlar ostida turgan kishining ko‘ziga g‘aroyib va g‘alati ko‘rinardi. Ha, yulduzlar charaqlab, tungi sovuq shamol esayotgan joydan turib, charog‘on mayxonaga nazar tashlasangiz u sirli, kishini sarxush etuvchi rohatbaxsh is taratayotgan va tevaragida parvonalar arimayotgan olovli tun guli bo‘lib ko‘rinsa ajab emas... ”[10].

Drue bilan Gerstvudning mayxonadagi dialog parchasida Drue Gerstvudga Kerri bilan tanishganligini, uning nomini xuddi bir axloqsiz tarzda tilga olinishini *use of name (ismning tilga olinishi)* deb sarlavhada mazkur parchaga izoh beriladi.

“– Juma kuni bu yoqqa kelayotganimda bitta ofatijon qiz bilan tanishib qoldim, – dedi Drue xayrlasha yotib. – Qurib ketsin, kelgunimcha uning holidan bir xabar olishimga to‘g‘ri keladi.

– Ja jigaringizdan urgan, shekilli! – Gerstvud hazillashib qo‘ydi.

– Uning qanaqaligini bilmaysiz-da – Drue sherigining yuragiga o‘t yoqish uchun gapni mubhamroq qildi.

– Demak, o‘n ikkida, – dedi Gerstvud unga eslatib.

– Ha, ha, – javob qildi Drue mayxonadan chiqib ketarkan.

[9] O'sha manba. – 33, 46 b.

[10] O'sha manba. – 53b.

Kerrining nomi juda ham nobop va quvnoq joyda shu tariqa tilga olindi. Bu paytda esa kichkina zahmatkash peshanasi sho‘rligidan kuyunib yig‘lar, holbuki dastlabki paytlarda kunlarning shunday o‘tishi deyarli muqarrar edi”[11].

Sarlavhaning har ikkala tarjimon tomonidan ham yozuvchi uslubiga mos tarzda tarjima qilinganligini guvohi bo‘lamiz. Kitobxon sarlavhadagi *ajib tun guli* metaforasida asar qaxramoni Kerri nazarda tutilgan deb o‘ylashi mumkin. Chunki o‘zbek va rus baadiy adabiyotida *gul* detali ko‘pincha ayollarga nisbatan metaforik tarzda qo‘llaniladi. Shunga qaramasdan tarjimonlar asliyatdan chetlashmagan holda, asar tarkibidagi jumlalarni nazarda tutib, uni so‘zma-so‘z tarjima qilgan deb aytishimiz mumkin.

Yozuvchining *using a name (ismning tilga olinishi)* jumlasida *Kerri* ismi qo‘llanilmagan, biroq tarjimada *Kerri*ni ismini qo‘shilishi sarlavhada mazkur bob mazmunini yanada aniq va ravshan ifodalanishiga sabab bo‘lgan deyish mumkin.

Xulosa shuki, Teodor Drayzer asarlarining sarlavhalari bir so‘zli, so‘z birikmasi, gap shaklida asliyatda aks etgan. Asar sarlavhalarini originalga muvofiq tarzda o‘zga tilda to‘g‘ri ifodalash tarjimon yelkasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Amerikalik adib T.Drayzer asarlarining o‘nlab, rus va o‘zbek tarjimonlari imkon qadar asliyatga yaqin va uyg‘un tarzda rus hamda o‘zbek tillarida qayta ifodalay olishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Drayzer T. Baxtiqaro Kerri / Erkin Nosirov tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 523b.
2. Блисковский З. Д. Название всегда важно. М., 1962. 52с.
3. Выготский Л. С.Смысл языка//Русский язык, 1931.№12
4. Заглавие/ /Литературная энциклопедия: В11т. /Под ред. А. В. Луначарского. М., 1930.Т.4 .С.269 -271
5. Кржижановский С. J Х.Поэтика заглавия . М.,1925.
6. Прозоров В. Б.Смысл заглавия поэмы Н.В.Гоголя”Мертвые души”/ / Филологические науки,1987.№1.С.23-27.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bronza

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA IDIOLEKTAL/SOTSIOLEKTAL HAZILLAR VA UNIVERSAL/MAHALLIY HAZILLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

AVEZMURATOVA DIYORA ALLAYAROVNA

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

[11] O'sha manba. – 54b.

Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada hazil nutqiy janrining ingliz va o‘zbek tillaridagi sotsiolingvistik xususiyatlari idiolektal, sotsiolektal, universal va mahalliylik kategoriyalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda hazilning shaxsiy nutq uslubi, ijtimoiy guruhlar tili hamda lingvomadaniy omillar bilan bog‘liq jihatlari yoritilib, ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatiga oid misollar orqali izohlangan. Shuningdek, hazil nutqiy janrining individual va jamoaviy kommunikatsiyadagi o‘rni, uning ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada universal hazillar va mahalliy xarakterdagi hazillar o‘rtasidagi farqlar, ularning madaniy va pragmatik xususiyatlari ham qiyosiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida hazil nutqiy janri jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, til vositalari va kommunikativ munosabatlarini aks ettiruvchi muhim sotsiolingvistik hodisa ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: hazil nutqiy janri, sotsiolingvistika, idiolekt, sotsiolekt, universallik, mahalliylik, lingvomadaniyat, nutqiy uslub, kommunikatsiya, pragmatika, ingliz tili, o‘zbek tili.

Hazil nutqiy janri ijtimoiy-lingvistik tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi, chunki u til va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi murakkab aloqani namoyon qila oladigan nutqiy xodisadir. Hazil nutqiy janrida idiolektal/sotsiolektal, universal/maxalliy xususiyatlar sotsiolingvistik kategoriyalar sifatida muhim o‘rin egallaydi. Idiolektal/sotsiolektal, universal/mahalliylik omillari sotsiolingvistik tadqiqotlarda qo‘llaniluvchi umumiy ilmiy tushunchalardir. Idiolektal xoslanish orqali til tizimidagi muayyan shaxsga xos nutqiy xususiyatlar, uning individual til tanlovi, uslubi, leksik, grammatik, sintaktik kabilar tadqiq qilinadi. Bunda individning tajribasi, bilim, dunyoqarash va ijtimoiy muhiti aniqlanadi. Idiolekt shaxsga xos nutq, shaxsning individual nutqiy hosilasi bo‘lib, u muayyan talaffuz, grammatik tuzilish, so‘z tanlovi, ovoz tembri, nutqdagi xususiy iboralar orqali namoyon bo‘ladi[12]. Har bir insonning idiolekti uning bilim darajasi, kasbi, tili, tarbiyasi va tajribasi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Sotsiolektal xoslanish muayyan ijtimoiy guruh, sinf, yosh toifasi, jins, millat yoki kasbga tegishli til uslubi va nutq elementlarining majmuidir. Universallik va mahalliylik kategoriyalarining o‘ziga xosligi shundaki, universallik turli madaniyat va jamiyatlarda umumiy bo‘lgan til va nutqiy xususiyatlarni anglatsa, mahalliylik muayyan lingvomadaniyatga xos, milliy va madaniy jihatdan cheklangan til birliklarini ifodalaydi. Biz ushbu tadqiqotimizda idiolektal, sotsiolektal, universallik, mahalliylik kabilarni asosiy sotsiolingvistik kategoriyalar sifatida tanladik.

[12] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%B4%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%B5%D0%BA%D1%82

Til tizimida hazil nutqiy janrida shaxsning o‘z nutqi va jamoaviy uslubga xoslanganlik xususiyatiga ko‘ra idiolektal va sotsiolektal hazillar farqlanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin.

Idiolektal hazil shaxsning o‘z individual tili (idiolekti), o‘ziga xos nutqiy uslubi, nutqiy odatlari, talaffuzi, so‘z ishlatish tarzi orqali yuzaga keladigan hazil turi bo‘lib, bunda insonning shaxsiy tajribasi, tarbiyasi, til bilimi darajasi yoki ijodiyligi namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, ingliz lingvomadaniyatida Qirolicha Yelizaveta II (1926-2022) davlat rahbari sifatida rasmiy, baqaror va diplomatik nutqi bilan tanilgan bo‘lsa-da, uning shaxsiy hayotida o‘z hazil uslubi mavjud bo‘lgan. Uning hazillari ko‘pincha qirollikka oid kamtarlik va shaxsiy uslubdagi iboralar orqali ko‘zga tashlangan. Masalan, qirolicha Avstraliyaga safar chog‘ida o‘zining haqiqiy yoshiga tegishli bahs yuzasidan shunday degan:

-How are you?

- *“Well, I'm still alive”*. Bu yerda Qirolicha o‘zining yoshi va jismoniy holati haqida kulguli, lekin samimiy tarzda gapirgan. Ushbu hazil Qirolichaning vafotidan so‘ng Qirol Charlzga nisabatan ham qo‘llanilib, Qirol Charlzning qirollik etikasiga oid hazil sifatida qayd etilgan. Masalan: -*How are you?* - *I’m still alive, thank God*[13]. Bu esa aristokratik hazilning, ya’ni qirol va qirolichalarning shaxsiy idiolektiga xos hazilning yaratilganligidan darak beradi. Bir sayyoh Shotlandiyadagi Balmoral saroyi yaqinida Qirolichani taniy olmay, shunchaki gaplashib qolganida ham qirolichaning idiolektal hazili yuzaga keladi. Masalan, *sayyoh: - Have you ever met the Queen?*. Qirolicha esa shunday deb javob bergan: *“No... But he has*[14] *- deya o‘z* tansoqchisiga ishora qiladi.

Qirolicha Yelizavetta hayot chog‘larida juda ko‘p idiolektal hazillar yaratgan. Masalan, filmlarga taklif qilinganda va ommaviy rollarda qatnashish haqida so‘ralganda, u shunday degan:

- *“I'm not a film star, I'm the Queen. I don't do acting*[15]. Bu yerda Qirolicha hazil bilan o‘z rolini hayotda ijro etayotganligi sababli soxta rol o‘ynamasligini ta’kidlab, o‘ziga xos idiolektal hazil yaratadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy nutq uslubi o‘ziga xos bo‘lib, prezident nutqida idiolektal hazillar odatda rasmiyat va diplomatik nutq ostida yaratilishi hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Masalan, Chiroqchi tumani vakili: *Xalqimiz sizdan temiryo‘l o‘tkazib berishingizga umid qilmoqda… shuningdek suv ombori kerak,* - deydi. *Shunda prezident: “Qay birini avval qilib beray, katta muammolarni gapirdingiz.*

---

[13] King Charles jokes. Elektron resurs: https://nypost.com/2024/12/20/entertainment/king-charles-jokes-hes-still-alive-after-cancer-treatment-update/. Access date: 24.09.2025.

[14] Queen quotes. Elektron resurs: https://www.imdb.com/title/tt0436697/quotes/. Access date: 7.10.2025.

Kelishaylik-da", degan samimiy murojaatiga Chiroqchi vakili: "Iloji bo'lsa ikkalasini ham", deya u ham samimiy javob qaytardi. "Bu yog'i endi Qashqadaryochasiga bo'ldi..."- deya hazil qilgan prezident[16]. Bunda prezidentning shaxsiy uslubi bo'yicha hazil yaratilgan.

Marhum O'zbekistonning birinchi prezidentining ham idiolektal hazillari o'ziga xos tarzda yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, Islom Karimov respublika bosqichida g'olib bo'lgan qiz bilan suhbatda:

-Eng katta orzuingiz nima?

Qiz: - "O'zbekiston rivojiga hissa qo'shish…"

Karimov: - "Oila qilishchi? - deydi. Keyinroq esa b*u qizimizga o'zim kuyov topaman*, deb hazil qiladi. Bunda idiolektal hazil prezidentning xalqqa, xalqning farzandlarini o'z farzandi sifatida qabul qilayotganligini yetkazishda muhim sotsiolingvistik vosita vazifasini bajaradi.

Idiolektal hazillar har qanday ijtimoiy yosh vakillari, xususan, keksalar, yoshlar, bolalar nutqida ham uchraydi, shaxsning individual nutqiy salohiyati, tilni qabul qilishi va ijodkorligidan kelib chiqadi, odatda, idiolektal hazillar nutqiy xatolar, so'z o'yinlari, noodatiy ta'riflar yoki intonatsiya orqali yuzaga chiqadi.

Til tizimidagi idiolektal hazillarni yaratilishi nuqtai-nazaridan shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratib tadqiq qilish mumkin:

1. Ijtimoiy xususiyatlari (dialekti, ijtimoiy tabaqasi, yoshi, jinsi, ijtimoiy tabaqa/sinf, ta'lim darajasi, mahalliy nutqi kabilar)ga ko'ra shakllanuvchi idiolektal hazillar.

2. Lingvistik xususiyatlariga (fonetik, leksik, grammatik, frazeologik kabi) ko'ra shakllanuvchi idiolektal hazillar. Masalan, fonetik xususiyatli idiolektal hazillar. O'zbek tilida bir odam "r" harfini to'g'ri ayta olmasligi lingvistik xususiyatli idiolektal hazillarning yaratilishiga sabab bo'ladi. Masalan, *Rauf emas, Lauf kelyapti* deb gapiradigan odam ustidan hazil qilish kabilar.

Ingliz tilida esa Britaniyalik va amerikaliklar talaffuzi orqali yaratilgan hazillarda lingvistik xususiyatli idiolektal hazillar yuzaga kelishi mumkin. masalan, Water so'zini wotah deb aytgan angliyalikka qarab amerikalik: "*Where's the 'R', mate?* deb hazil qilishi mumkin.

Til tizimida idiolektal hazillar bilan birga sotsiolektal hazillar ham mavjud. Sotsiolektal hazil muayyan ijtimoiy guruhning nutqiy uslubi bo'lib, tilning ijtimoiy guruhlarga xos (sotsiolekt) xususiyatlari orqali yuzaga keladigan hazil turi sanaladi. U ma'lum ijtimoiy tabaqa, yosh guruhi yoki kasb toifasining o'ziga xos nutqiy uslubi orqali hazil shakllarini yaratadi. Sotsiolektal hazillarni kasbiy sotsiolektal hazillar,

[16] Давлат раҳбари ва халқ вакили ўртасида ҳазил мулоқот (видео). Elektron resurs: https://kun.uz/kr/03276973. Мурожаат қилинган сана: 27.09.2025.

yoshlarga oid hazillar, tabaqaviy/sinfiy, dialektal hazillar, etnik guruhlarga oid hazillar, ta’limga oid sotsiolektal hazillar va hokazolarga tasnif qilish mumkin. Bu ro‘yhatni yana davom ettirish mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillarida sotsiolektal hazillar turlari quyidagi misollarda o‘z ifodasini topgan:

A) *Doctors write prescriptions only they can read - it’s like a secret code.*

B) Tabib: “Sizning muammoingiz psixosomatik. Asabdan ham, ovqatdan ham. Shirin chaynaganda a’zolaringiz og‘riqni “aqlidan chiqarib” yuboryapti. Bemor: -Yo‘q, doktor, gap a’zoda emas - non kichkina. Bu hazil sotsiolektal hazil turiga kiradi, chunki u tibbiyot xodimlarining nutqiy uslubiga xos xususiyatlar bilan bog‘liq. Faqatgina shu soha kishilari ushbu hazil mazmuniga tushuna oladilar.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi hazil nutqiy janri yuzasidan to‘plab o‘rganilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, hazil nutqiy janrida universallik va xususiylik, aniqrog‘i mahalliylik belgisiga ega hazil turlari uchraydi. Til tizimida universal hazillar dunyo madaniyatida keng tarqalgan, turli til, din, millat va madaniyatlarga mansub insonlar tomonidan oson tushuniladigan, umuminsoniy hayotiy holatlarga asoslangan, oddiy, ta’sirli va umumqabul qilingan hazillar guruhidir. Bu hazil turi, odatda, inson tabiati (tentaklik, qiziquvchanlik kabi), ijtimoiy hayotdagi umuminsoniy muammolar, ijtimoiy hayotdagi maishiy muammolar (texnika, oila, ish), umuminsoniy hayotiy holatlar kabilar asosida yaratiladi.

Masalan, ingliz tilida: - *Why don’t scientists trust atoms? - Because they make up everything*[17]. Bu hazil so‘z o‘yiniga asoslangan bo‘lib, “make up” - “iborat bo‘lmoq” va “o‘ylab topmoq (yolg‘on gapirmoq)” ma’nolariga ega. O‘zbek tilida: *Do‘stim, baliq ovladingmi? - Ha, lekin supermarketdan (So‘zlashuvdan).* Bu hazil real hayotdagi “baliq ovlash” va “do‘kondan xarid qilish”ni qiyoslash orqali yaratilgan. Hammaga tushunarli, chunki turmushda ham ov qilish, ham xarid qilish barcha xalqlarga mansub faoliyat bo‘lib, barcha ijtimoiy tabaqalarda tushuniladi. Universal hazillar turli madaniyatni birlashtiradi, ular bola, yoshlar va kattalar, ayollar, erkaklarga yo‘naltirilishi mumkin. Universal hazillarning o‘ziga xosligi shundaki, ushbu hazil turlari madaniy kontekstsiz ham tushuniladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida universal hazillarning aksariyati insonning intellektual mulohazarga asoslanadi va adabiy tilda ifodalanilishligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *Two lawyers walk into a pub. They order a couple of drinks and take their sandwiches out of their briefcases and then they begin to eat them. Seeing this, the angry publican exclaims, “Excuse me, but you can’t eat your own*

[17] Why don’t scientists trust atoms? Elektron resurs: https://www.reddit.com/r/dadjokes/comments/p62l7c/why_dont_scientists_trust_atoms. Access date: 19.10.2025.

sandwiches in here!" The two lawyers look at each other, shrug their shoulders, and then exchange sandwiches.[18]

Universal hazillar ichida diniy universal hazil turlari ham qo‘llanilishi mumkin. Bunda dinga bo‘lgan hurmat saqlanadi, asosiy mavzu umuminsoniy fazilatlar, bexabarlik, sabrsizlik kabi holatlarga qaratiladi, har qanday dindagi odamga tushunarli bo‘ladi, ishonuvchilarni haqorat qilmaydi, ko‘pincha, dindagi har kunlik hayotdagi kulgili hodisalarga asoslanadi. Masalan, ingliz tilida: *God, give me patience… and give it to me now!.* Ushbu hazil turi barcha dinlarda uchraydigan sabr so‘zi bilan bog‘liq hazil bo‘lib, uni darrov Xudo tomonidan berilishini talab qilish jarayoni mumkin bo‘lmagan jarayon sifatida hazil ob’yektiga aylanmoqda.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, shuni aytish mumkinki, har ikki tilda ham universal hazillar global darajada tushuniladi, ushbu hazil turi madaniyatlar orasidagi umumiyliklarni ko‘rsatadi, mahalliy hazillar esa milliy-madaniyat va ijtimoiy madaniy me’yorlar bilan bog‘liq shakllanib, ijtimoiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, ijtimoiy guruhlar tilini namoyon etadi, jamiyatning ichki tarkibi, madaniy qadriyatlari, sheva va guruh tili orqali yuzaga chiqadi. Ikki lingvomadaniyatdagi mahalliy hazillar ma’lum jamoa ichidagina to‘g‘ri tushunilishi, boshqa hollarda mahalliy hazillar o‘z ahamiyatini yo‘qotishi yoki noto‘g‘ri interpretatsiya qilinishi mumkin. Mahalliy farqlarni ko‘rsatuvchi hazillar yaratish kishilar va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni yumshatishga, munosabatlarni neytral holatda saqlashga, munosabatlarni keskinlashtirishga yo‘naltirilishi mumkin. Shu sababdan mahalliy xarakterdagi hazillardan foydalanishda adresantdan sezgirlik va o‘ta ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Demak, idiolektal, sotsiolektal, universal, mahalliylik kabi sotsiolingvistik kategoriyalar orqali ingliz va o‘zbek jamiyatidagi idiolektal va sotsiolektal, universal va mahalliy hazil turlarini farqlash, shuningdek, ingliz va o‘zbek adresantlari va adresatlarining til vositalaridan foydalanishlariga ko‘ra ijtimoiy identifikasion belgilarini aniqlash imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%B4%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%B5%D0%BA%D1%82

2. https://nypost.com/2024/12/20/entertainment/king-charles-jokes-hes-still-alive-after-cancer-treatment-update/. Access date: 24.09.2025.

3

. 4. https://www.imdb.com/title/tt0436697/quotes/. Access date: 7.10.2025.

5. Давлат раҳбари ва халқ вакили ўртасида ҳазил мулоқот (видео). Н

a

V

e

Y

e

[18] British Pub Jokes. Elektron resurs: https://www.theretreat.pub/british-pub-jokes/. Access date: 11.10.2025.

Elektron resurs: https://kun.uz/kr/03276973. Мурожаат қилинган сана: 27.09.2025.

6. Why don’t scientists trust atoms? Elektron resurs: https://www.reddit.com/r/dadjokes/comments/p62l7c/why_dont_scientists_trust_atoms. Access date: 19.10.2025.

7. British Pub Jokes. Elektron resurs: https://www.theretreat.pub/british-pub-jokes/. Access date: 11.10.2025.

INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIZMLARI HAMDA MAQOLLARIDA MANIPULYATIV MA’NOLARNI LINGVOPRAGMATIK TAHLIL QILISHDA KORPUS VA RAQAMLI VOSITALAR IMKONIYATLARI

NARGIZA ERGASHEVA SHAVKATBEK QIZI

nargizaxoliqjonova@gmail.com

Andijon davlat chet tillar instituti

Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek frazeologizmlari hamda maqollarida yashirin ijtimoiy bosim va manipulyativ ma’nolarni aniqlashda korpus lingvistikasi usullari va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot lingvopragmatik metodologiya asosida olib borilgan bo‘lib, raqamli tahlil vositalari yordamida frazeologik birliklarning kommunikativ va madaniy qatlamlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, paremiologiya, lingvopragmatika, korpus tahlili, raqamli vositalar, manipulyatsiya, ijtimoiy bosim, implitsit ma’no.

Abstract. This article explores the possibilities of using corpus linguistics methods and modern digital tools to identify hidden social pressure and manipulative meanings in English and Uzbek phraseological units and proverbs. The research is conducted on the basis of linguo-pragmatic methodology, revealing the communicative and cultural layers of phraseological units through digital analysis tools.

Keywords: phraseology, paremiology, linguo-pragmatics, corpus analysis, digital tools, manipulation, social pressure, implicit meaning.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi frazeologik va paremiologik birliklarni o‘rganishda tubdan yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar hamda maqollarda yashiringan ijtimoiy bosim va manipulyativ ma’nolarni lingvopragmatik jihatdan tadqiq etishda korpus tahlili, kompyuter dasturlari va sun'iy intellekt asosidagi vositalar muhim rol o‘ynamoqda. An’anaviy usullarda bir-biridan ajratib

o‘rganiladigan bu birliklar raqamli muhitda katta hajmli ma’lumotlar asosida qiyosiy tahlil qilinishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi. Ingliz va o‘zbek tillari tipologik jihatdan farq qilishiga qaramay, har ikki tilda ham frazeologizm va maqollar orqali ijtimoiy nazorat, uyaltirish, qo‘rqitish va stereotip asosidagi manipulyativ strategiyalar faol qo‘llaniladi. Ushbu hodisaning lingvopragmatik tabiati, ayniqsa implitsit ma’no va presuppozitsiya mexanizmlari, raqamli vositalar yordamida tizimli o‘rganilmagan. Shu sababli, tadqiqot o‘zbek va ingliz tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli vositalarning tadqiqotdagi o‘rni. Tadqiqotda quyidagi raqamli vositalar va metodlar qo‘llanildi:

1. Korpus tahlili usullari: British National Corpus (BNC), Corpus of Contemporary American English (COCA), iWeb, COHA, NOW, Coronavirus, GloWbE, TV Corpus, Movies Corpus, SOAP Corpus, Wikipedia va o‘zbek tili milliy korpuslari asosida frazeologik birliklarning qo‘llanish chastotasi, konteksti va pragmatik yuklamasi tahlil qilindi.

2. AntConc va Sketch Engine dasturlari: Frazeologizmlarning kolokatsiya tuzilishi, semantik klasterlanishi va nutqiy vaziyatdagi qo‘llanish naqshlari aniqlandi.

3. NLP (Natural Language Processing) texnologiyalari: Manipulyativ ma’no va implitsit ijtimoiy bosimni avtomatik aniqlash uchun sentiment tahlili va pragmatik annotatsiya usullaridan foydalanildi.

4. Qiyosiy modellashtirish: Ikki tildagi manipulyativ strategiyalar – yaltirish, qo‘rqitish, jamoaviy bosim – raqamli tahlil asosida tipologik jihatdan taqqoslandi.

Asosiy natijalar. Manipulyatsiya atamasi dastlab predmetlar bilan bog‘liq harakatlarni anglatgan bo‘lsa, XX asrning 60-yillaridan boshlab uning ma’nosi kengayib, insonlar va ijtimoiy guruhlarga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Bu o‘zgarish, asosan, siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining rivoji bilan bog‘liq. Ijtimoiy kontekstdagi manipulyatsiya esa bir guruhning boshqasiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatib, uni o‘z xohishiga muvofiq harakatga undashidir. Bu jarayon ko‘pincha yashirin yoki ong osti darajasida amalga oshiriladi. Manipulyatsiya – bu inson ongiga, qarorlariga yoki xatti-harakatlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir o‘tkazish orqali uni boshqarishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik jarayondir.

Antropologik nuqtai nazardan manipulyatsiya qadimdan mavjud bo‘lib, u tribal jamiyatlarda diniy rahbarlar, siyosiy liderlar yoki urf-odatlar orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonda til, ramzlar, urf-odatlar, miflar va e’tiqodlar muhim vosita sifatida ishlatilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi frazeologizmlar va maqollar jamoaviylik (kollektivizm) konsepti asosida ijtimoiy nazorat funksiyasini bajaradi. Masalan, “El ko‘zi – to‘r ko‘zi”, “El nima desa, shuni qil”, “Yolg‘iz otning changi chiqmas”, “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” kabi maqollar bosim va ogohlik berish orqali individual xulq-atvorni cheklaydi.

Ingliz tilida esa individualizm paradigmasi doirasida muvaffaqiyat va ijtimoiy maqom bilan bog‘liq frazeologizmlar (“Stand on your own two feet”, “Be yourself” “Pull yourself up by your bootstraps”) manipulyativ yuklamaga ega ekanligi aniqlandi.

Korpus tahlili yordamida ikkala tilda ham manipulyativ ma’no ko‘pincha presuppozitsiya mexanizmi orqali – ya’ni tinglovchini ma’lum bir ijtimoiy normalarga rioya qilishi zarurligini bilvosita o‘qitish yo‘li bilan – amalga oshirilishi isbotlandi.

Xulosa. Raqamli vositalar – korpus dasturlari, NLP texnologiyalari va qiyosiy modellashtirish – frazeologik va paremiologik birliklarning yashirin pragmatik qatlamlarini ochib berishda an’anaviy usullarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuv ingliz va o‘zbek tillarida manipulyativ kommunikatsiya strategiyalarini keng qamrovli va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqot, psixolingvistika va raqamli tilshunoslik sohalari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
2. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
3. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: OUP, 1991.
4. O‘rinboyev B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 1988.
5. Anthony L. AntConc (Version 4.2.0) [Computer Software]. – Tokyo: Waseda University, 2023.
6. Hofstede G. Culture's Consequences. – 2nd ed. – Thousand Oaks: Sage, 2001. – P. 227.
7. Triandis H.C., McCusker C., Hui C.H. Multimethod Probes of Individualism and Collectivism // Journal of Personality and Social Psychology. – 1990. – Vol. 59(5).
8. Lukes S. Individualism. – New York: Harper & Row, 1973. – P. 44.

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУЧНОМ АНАЛИЗЕ СОСТОЯНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ (НА ПРИМЕРЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ)

АБДУЛЛАЕВА МАФТУНА РУСТАМОВНА

магистрант кафедры креативной педагогики и психологии Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается проблема применения современных педагогических, цифровых и ассистивных технологий в научном анализе состояния преподавания иностранных языков в условиях инклюзивного образования на примере обучения русскому языку. Актуальность исследования обусловлена тем, что инклюзивная образовательная среда требует не только формального включения обучающихся с особыми образовательными потребностями в общий учебный процесс, но и методически обоснованной трансформации содержания, средств, темпа, форм контроля и коммуникативной организации урока русского языка. В работе обосновано, что русский язык как иностранный или как неродной в инклюзивном классе выступает одновременно средством социальной коммуникации, инструментом академической адаптации и каналом межкультурного взаимодействия. Особое внимание уделяется возможностям универсального дизайна обучения, мультимодальных электронных ресурсов, интерактивных платформ, адаптивных заданий, речевых тренажёров, аудиовизуальных средств, технологий автоматической обратной связи и искусственного интеллекта. На основе теоретического анализа, сопоставления научных подходов, педагогического моделирования и обобщения практических ориентиров выявлены условия, при которых цифровые технологии повышают доступность, индивидуализацию и результативность обучения русскому языку в инклюзивной среде. Делается вывод о необходимости интеграции лингводидактики, специальной педагогики, психолого-педагогического сопровождения и цифровой дидактики в единую методическую систему.

Ключевые слова: инклюзивное образование, русский язык, иностранный язык, современные технологии, цифровая дидактика, универсальный дизайн обучения, ассистивные технологии, адаптивное обучение, мультимодальность, особые образовательные потребности.

Abstract. This article studies the use of modern pedagogical and digital assistive technologies in the scientific analysis of the state of foreign language teaching in inclusive education using the example of the Russian language. The

relevance of this study is that the inclusive educational environment requires not only the formal inclusion of students with special educational needs in the general educational process, but also a methodologically sound management system and communicative organization of Russian language lessons. The fact that the Russian language, both as a foreign and non-native language, is simultaneously considered a means of social communication in an inclusive classroom is evidenced by the academic tendency to work within the channel of intercultural interaction. Special attention is paid to the possibilities of universal design, learning, multimodal electronic resources, interactive platforms, flexible learning, speech training, audiovisual tools, automated feedback and technological technologies. Based on theoretical analysis, comparison of scientific approaches, pedagogical modeling and discussion of practical guidelines, the conditions for increasing the accessibility, individualization and effectiveness of digital technologies are determined. The main focus is on inclusive education, Russian language, integrative linguistic didactics, special education, psychopedagogical support and digital didactics, as well as several methodological systems.

Keywords: inclusive education, Russian language, foreign language, modern technologies, digital didactics, universal education, assistive technologies, adaptive education, multimodality, individual educational needs.

ВВЕДЕНИЕ

Современное образование всё более последовательно переходит от модели селективного обучения, ориентированной на «среднего» ученика, к модели педагогической гибкости, в которой разнообразие индивидуальных возможностей обучающихся рассматривается не как препятствие для организации учебного процесса, а как исходное условие проектирования содержания, методов и технологий обучения. В этом контексте инклюзивное образование приобретает значение не только социальной или гуманитарной политики, но и сложной научно-методической системы, требующей обновления дидактических принципов, способов педагогической диагностики, учебной коммуникации и оценки образовательных результатов. Особенно остро данная проблема проявляется при обучении иностранным языкам, поскольку овладение языком связано с одновременным развитием слухового восприятия, произносительных навыков, зрительно-графического распознавания, речевой памяти, грамматического анализа, коммуникативной инициативы и социокультурной ориентации. Для обучающихся с особыми образовательными потребностями эти процессы могут сопровождаться дополнительными барьерами: замедленным темпом восприятия, трудностями концентрации, ограничениями слухового или зрительного канала, речевыми нарушениями, повышенной тревожностью, недостаточностью учебной

самостоятельности либо потребностью в особой форме предъявления материала[1].

На примере обучения русскому языку данная проблема имеет особую научную значимость, поскольку русский язык в образовательном пространстве Узбекистана выполняет многофункциональную роль: он выступает как предмет изучения, средство межкультурного общения, ресурс доступа к научной и профессиональной информации, а также инструмент расширения образовательной мобильности. Однако традиционные методы преподавания русского языка, построенные преимущественно на объяснительно-иллюстративной подаче грамматики, фронтальном опросе, единообразных письменных упражнениях и нормативной оценке речевых ошибок, не всегда соответствуют задачам инклюзивного класса. В инклюзивной среде методика обучения русскому языку должна быть перестроена таким образом, чтобы каждый обучающийся получил возможность воспринимать учебный материал через доступный канал, выполнять речевые задания в приемлемом темпе, проявлять коммуникативную активность без страха ошибки и получать обратную связь, направленную не на фиксацию дефицита, а на развитие языковой компетенции[2].

В последние годы в Узбекистане последовательно формируется нормативная и организационная база инклюзивного образования. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4860 от 13 октября 2020 года направлено на дальнейшее совершенствование системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями, а постановление Кабинета Министров № 638 от 12 октября 2021 года утвердило нормативно-правовые акты, касающиеся обучения таких детей в общеобразовательных организациях[3]. Эти документы усиливают необходимость научного анализа того, насколько реальные методики предметного обучения, включая русский язык, соответствуют принципам доступности, равного участия и адаптации образовательного процесса. Международные организации также подчёркивают, что инклюзия не сводится к физическому присутствию ребёнка в классе, а предполагает устранение учебных, коммуникативных, технологических и оценочных барьеров. Следовательно, исследование применения современных технологий в преподавании русского языка становится не вспомогательным, а системообразующим направлением развития инклюзивной педагогики[4].

Современные технологии в данном исследовании понимаются широко: это не только компьютерные программы, электронные учебники и онлайн-платформы, но и методические технологии универсального дизайна обучения,

мультимодального представления информации, адаптивной диагностики, проектного и коммуникативного обучения, цифрового сопровождения индивидуальной траектории, а также ассистивные средства, позволяющие компенсировать ограничения зрительного, слухового, моторного или речевого характера. Их научная ценность состоит в том, что они позволяют перейти от единообразной модели урока к вариативной модели образовательной среды, где одна и та же языковая задача может быть представлена через текст, звук, изображение, схему, жест, интерактивное упражнение, речевой образец, диалоговую ситуацию или игровую симуляцию. Такая вариативность особенно важна при обучении русскому языку, поскольку язык усваивается не только как система правил, но и как практика смыслового взаимодействия[5].

Проблема исследования заключается в противоречии между возрастающей потребностью инклюзивного образования в технологически гибкой и научно обоснованной методике преподавания русского языка и недостаточной разработанностью целостных механизмов применения современных технологий в реальной педагогической практике. В ряде случаев цифровые средства используются фрагментарно: презентация заменяет доску, тестовая платформа заменяет письменную проверку, видеоматериал заменяет объяснение, но сама логика инклюзивной адаптации не меняется. Между тем технология становится педагогически эффективной только тогда, когда она связана с диагностикой образовательных потребностей, дифференциацией заданий, коррекцией речевых трудностей, поддержкой мотивации и формированием коммуникативной самостоятельности[6].

Целью статьи является научный анализ состояния применения современных технологий в преподавании иностранных языков в инклюзивном образовании на примере обучения русскому языку, а также выявление методических условий, обеспечивающих доступность, индивидуализацию и результативность языкового обучения. Для достижения данной цели в статье решаются следующие задачи: раскрывается сущность инклюзивного подхода к обучению русскому языку; анализируются научные взгляды отечественных и зарубежных исследователей; обосновываются методологические основания изучения проблемы; выявляются основные результаты внедрения современных технологий; проводится обсуждение дискуссионных позиций в области цифровой инклюзии и лингводидактики; формулируются выводы и практические рекомендации для педагогической практики[7].

Научная значимость статьи состоит в том, что обучение русскому языку рассматривается не как изолированный предметный процесс, а как междисциплинарная система, находящаяся на пересечении лингводидактики, инклюзивной педагогики, специальной психологии, цифровой трансформации

образования и теории межкультурной коммуникации. Практическая значимость заключается в возможности использования представленных положений при разработке адаптированных рабочих программ, электронных учебных материалов, диагностических карт, интерактивных заданий и методических рекомендаций для учителей русского языка, работающих в инклюзивной образовательной среде[8].

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Анализ научной литературы показывает, что проблема инклюзивного обучения русскому языку в Узбекистане постепенно выходит за рамки общей дефектологической или организационно-правовой проблематики и приобретает самостоятельное лингводидактическое значение. Среди отечественных исследователей, работы которых представлены в научных поисковых системах, в том числе в Google Scholar, особого внимания заслуживает Сания Умарова, рассматривающая инклюзивное образование на уроках русского языка в общеобразовательных школах как один из ориентиров подготовки будущих педагогов. В её подходе методика русского языка связывается с необходимостью формирования у учителя профессиональной готовности к работе с разнородным классом, где различаются не только уровень владения языком, но и сенсорные, когнитивные, эмоционально-волевые и коммуникативные возможности обучающихся. Такой подход важен тем, что переносит акцент с абстрактного знания о ребёнке с особыми образовательными потребностями на реальное проектирование урока: выбор доступного текста, адаптация грамматического правила, создание речевой ситуации, подбор визуальной опоры, организация парной или групповой коммуникации, применение мягкой коррекции ошибки и индивидуальной обратной связи[9].

Вторым значимым направлением является позиция Нилуфар Кахаровой, научный профиль которой содержит материалы, связанные с особенностями преподавания русского языка в условиях инклюзивного образования. В данной исследовательской логике русский язык рассматривается не только как учебная дисциплина, но и как средство социализации обучающихся, поскольку успешное овладение языком расширяет возможности участия ребёнка в учебном диалоге, культурной коммуникации и коллективной деятельности. Кахарова обращает внимание на необходимость методической вариативности: один и тот же лексико-грамматический материал должен быть доступен через зрительные, слуховые, моторные и речевые действия, а задания должны учитывать индивидуальный темп усвоения. Именно здесь современные технологии получают научно оправданное применение: интерактивные упражнения позволяют дозировать сложность,

аудиоматериалы поддерживают фонетическое восприятие, субтитры помогают связать звучащее слово с графическим образом, электронные словари облегчают семантизацию лексики, а цифровые карточки и визуальные схемы способствуют закреплению грамматических структур[10].

Сопоставление этих двух исследовательских линий позволяет сделать вывод, что отечественная научная мысль постепенно формирует комплексное понимание инклюзивного урока русского языка. Если в работах Умаровой сильнее выражен педагогико-профессиональный аспект, связанный с подготовкой учителя и организацией инклюзивной среды, то в подходе Кахаровой более отчётливо проявляется лингводидактический аспект, ориентированный на способы предъявления и усвоения русского языкового материала. Их идеи взаимно дополняют друг друга: профессиональная готовность педагога становится условием грамотного выбора технологий, а технологическая вариативность превращается в инструмент реализации инклюзивных принципов. В целом литература подтверждает, что эффективность обучения русскому языку в инклюзивной среде зависит от способности педагога соединить гуманистическую установку, научную диагностику, цифровую грамотность и методическую точность.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ

В данной статье использовался комплекс взаимосвязанных методов, позволяющих рассмотреть применение современных технологий в инклюзивном обучении русскому языку не фрагментарно, а как целостное педагогическое явление, включающее нормативные, теоретические, лингводидактические, психологические и технологические компоненты. В качестве базового метода был применён теоретико-аналитический подход, направленный на изучение научных трудов, нормативно-правовых документов, международных рекомендаций и методических материалов по инклюзивному образованию, цифровой дидактике и преподаванию русского языка как иностранного или неродного. Данный метод позволил выявить ключевые понятия исследования: инклюзивная образовательная среда, особые образовательные потребности, адаптированное языковое задание, универсальный дизайн обучения, мультимодальное представление информации, ассистивная технология, индивидуальная образовательная траектория и цифровая обратная связь.

Наряду с теоретическим анализом был использован сравнительно-педагогический метод, с помощью которого сопоставлялись традиционные и современные технологические подходы к обучению русскому языку. Такое сопоставление позволило определить, что традиционная методика, основанная на единообразном объяснении, фронтальной тренировке и

одинаковом контроле для всех обучающихся, в условиях инклюзии оказывается недостаточной, тогда как технологически поддержанная методика создаёт возможность вариативного предъявления материала, индивидуализации темпа, расширения каналов восприятия и снижения коммуникативного барьера. Метод педагогического моделирования применялся для построения условной модели инклюзивного урока русского языка, в которой цифровые и ассистивные средства распределяются по этапам: диагностика стартового уровня, мотивационное включение, семантизация лексики, объяснение грамматики, речевая практика, коррекция ошибок, рефлексия и оценка результата.

Также применялся системно-структурный метод, позволивший рассматривать современные технологии не как набор технических инструментов, а как элементы единой методической системы. В рамках этого подхода каждая технология оценивалась по четырём параметрам: доступность для разных категорий обучающихся, дидактическая целесообразность, влияние на речевую активность и возможность педагогической диагностики. Метод обобщения педагогического опыта был использован для выявления практических условий, при которых цифровые ресурсы действительно поддерживают инклюзию: предварительная адаптация контента, наличие альтернативных форм выполнения задания, сочетание онлайн- и офлайн-коммуникации, поддержка учителя-дефектолога или психолога, корректная настройка уровня сложности и этически безопасная обратная связь. Кроме того, применялся контент-анализ научных публикаций отечественных и зарубежных авторов, что позволило выделить основные дискуссионные направления: баланс между технологизацией и живым педагогическим взаимодействием, возможности и ограничения искусственного интеллекта, роль универсального дизайна обучения, проблема цифрового неравенства и необходимость специальной подготовки учителя русского языка к работе в инклюзивном классе.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Проведённый анализ показал, что применение современных технологий в инклюзивном обучении русскому языку имеет наибольший эффект тогда, когда технология включается не как внешнее украшение урока, а как средство устранения конкретного образовательного барьера. На уровне восприятия учебного материала наиболее результативными являются мультимодальные средства: сочетание текста, аудио, изображения, схемы, анимации, субтитров и интерактивных подсказок. Для обучающихся с трудностями слухового восприятия особую значимость имеют визуальные опоры, субтитры, транскрипционные схемы, карточки слов и цветовое выделение

грамматических элементов. Для обучающихся с нарушениями зрения или ограниченным зрительным восприятием актуальны аудиотексты, голосовые инструкции, увеличенный шрифт, контрастные материалы и возможность прослушивания речевых образцов. Для детей с трудностями внимания и саморегуляции важны короткие интерактивные задания, пошаговые инструкции, игровые элементы, таймеры мягкого контроля и повторяемые алгоритмы выполнения.

На уровне формирования языковых навыков современные технологии позволяют более точно организовать работу с лексикой, фонетикой, грамматикой и связной речью. Электронные словари, визуальные глоссарии и цифровые карточки обеспечивают многократное возвращение к словам в разных контекстах, что особенно важно для обучающихся с замедленным темпом запоминания. Фонетические тренажёры, аудиозаписи, речевые образцы и программы распознавания речи помогают формировать произносительные навыки, хотя их применение требует осторожности, поскольку автоматическая оценка не всегда учитывает индивидуальные особенности речи ребёнка. Интерактивные грамматические упражнения позволяют варьировать сложность, быстро выявлять типичные ошибки и предлагать корректирующие задания. При этом наиболее перспективным является не механическое тестирование, а включение грамматического материала в коммуникативные ситуации: диалог, описание картинки, составление короткого рассказа, виртуальная экскурсия, ролевая игра или проектное задание.

На уровне педагогической диагностики результаты анализа свидетельствуют о расширении возможностей учителя. Цифровые платформы позволяют фиксировать динамику выполнения заданий, количество попыток, типы ошибок, скорость реакции, успешность повторного выполнения и уровень самостоятельности. Эти данные могут быть использованы для построения индивидуальной траектории обучения русскому языку, но только при условии, что педагог интерпретирует их не формально, а с учётом психолого-педагогического контекста. Например, низкий результат теста может свидетельствовать не только о слабом знании грамматики, но и о непонятной инструкции, сенсорной перегрузке, тревожности, недостаточном времени или недоступном формате задания. Следовательно, цифровая диагностика должна дополняться наблюдением, беседой, анализом устной речи и консультацией специалистов сопровождения.

Важным результатом является выявление того, что современные технологии усиливают коммуникативную направленность обучения русскому языку. Инклюзивный урок становится эффективнее, когда обучающиеся

получают возможность взаимодействовать в разных форматах: устно, письменно, через изображение, аудиоответ, выбор карточки, совместное редактирование текста, участие в онлайн-викторине или создание мини-проекта. Такая вариативность снижает страх ошибки и позволяет ребёнку проявить речевую активность доступным способом. Вместе с тем технология не отменяет роли учителя; напротив, она повышает требования к его методической культуре, поскольку именно педагог определяет цель применения ресурса, адаптирует задание, регулирует взаимодействие, поддерживает эмоциональную безопасность и переводит цифровую активность в реальное языковое развитие.

ОБСУЖДЕНИЕ

Дискуссия о применении современных технологий в инклюзивном обучении иностранным языкам тесно связана с двумя влиятельными зарубежными научными позициями. Первая позиция ассоциируется с Дэвидом Роузом и Энн Мейер, развивавшими идеи универсального дизайна обучения. В их логике главный барьер находится не в самом обучающемся, а в недостаточно гибкой образовательной среде. Следовательно, преподавание русского языка в инклюзивном классе должно изначально проектироваться так, чтобы один и тот же результат мог достигаться разными путями: через слушание, чтение, визуальное моделирование, речевую практику, цифровое взаимодействие, индивидуальное задание или групповую деятельность. С этой точки зрения современные технологии являются мощным инструментом инклюзии, поскольку они позволяют представить материал в нескольких формах, предоставить обучающемуся выбор способа действия и обеспечить разнообразные формы выражения знания. Например, ребёнок может показать понимание русской лексики не только через письменный диктант, но и через подбор изображения, аудиоответ, составление цифровой карточки, участие в диалоге или создание короткого мультимедийного сообщения.

Вторая позиция может быть соотнесена с критическими взглядами Нила Селвина, который предупреждает, что цифровые технологии в образовании не являются нейтральными и автоматически прогрессивными. Селвин подчёркивает, что технологизация может воспроизводить неравенство, если педагогика подменяется платформой, живое взаимодействие заменяется алгоритмом, а данные об обучающемся используются без глубокого понимания социального и образовательного контекста. Применительно к обучению русскому языку в инклюзивной среде это означает, что интерактивная программа или система искусственного интеллекта не гарантирует развития речи, если задание не связано с реальной коммуникацией, культурным смыслом и индивидуальными потребностями

ребёнка. Более того, автоматическая проверка может усиливать тревожность, если ребёнок постоянно получает сообщение об ошибке без поддерживающего объяснения и возможности исправления.

Полевое напряжение между этими позициями образует продуктивную научную полемику. Сторонники универсального дизайна видят в технологиях способ демократизации обучения: цифровая среда расширяет доступ к тексту, звуку, изображению, словарю, переводу, повторению, адаптации и обратной связи. Критики цифрового оптимизма напоминают, что сама по себе технология не формирует инклюзивную культуру и может даже усилить исключение, если школа не располагает инфраструктурой, подготовленными педагогами, ассистивными устройствами и этическими правилами работы с данными. В контексте Узбекистана эта полемика особенно актуальна, поскольку развитие инклюзивного образования происходит одновременно с цифровизацией учебного процесса, но материальные, кадровые и методические условия в разных образовательных организациях могут существенно различаться.

Научно обоснованным решением данного противоречия является не отказ от технологий и не их безусловная абсолютизация, а построение педагогически управляемой модели цифровой инклюзии. Такая модель предполагает, что учитель русского языка сначала определяет образовательный барьер, затем выбирает технологическое средство, после этого адаптирует речевое задание, организует взаимодействие и только затем оценивает результат. Например, если барьер связан с пониманием инструкции, технология должна обеспечить визуальный алгоритм; если барьер связан с фонетическим восприятием, необходимы аудиоповторы и артикуляционные подсказки; если барьер связан с тревожностью, важна безопасная форма ответа; если барьер связан с низким словарным запасом, эффективны визуальные глоссарии и контекстные упражнения. Таким образом, технология становится не самоцелью, а инструментом научно обоснованной педагогической помощи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый научный анализ позволяет сделать вывод, что применение современных технологий в преподавании иностранных языков в инклюзивном образовании, на примере обучения русскому языку, является необходимым условием повышения доступности, качества и гуманистической направленности образовательного процесса. Инклюзивная среда требует от учителя русского языка перехода от единообразной методики к вариативной, диагностически обоснованной и технологически поддержанной системе обучения, в которой каждый обучающийся получает возможность

воспринимать, осмысливать и использовать русский язык в доступной для него форме. Современные технологии позволяют расширить каналы предъявления материала, индивидуализировать темп обучения, обеспечить многократное повторение, усилить визуальную и аудиальную поддержку, организовать адаптивную обратную связь и повысить коммуникативную активность обучающихся.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Пропп В. Я. Морфология волшебной сказки. – 2-е изд. – Москва: Наука, 1969. – 168 с.
2. Рамзаева Т. Г. Методика обучения русскому языку в начальных классах. – Москва: Просвещение, 2000. – 351 с.
3. Рыжкова Т. В. Теория и методика обучения литературе в начальной школе. – Москва: Академия, 2007. – 320 с.
4. Светловская Н. Н. Методика обучения чтению: что это такое? – Москва: Баласс, 2004. – 176 с.
5. Светловская Н. Н. Обучение чтению и законы формирования читателя //Начальная школа. – 2003. – Т. 1. – С. 11-18.
6. Сметанникова Н. Н. Стратегиальный подход к обучению чтению: междисциплинарные проблемы чтения и грамотности. – Москва: Школьная библиотека, 2005. – 512 с.
7. Тодоров Ц. Введение в фантастическую литературу. – Москва: Дом интеллектуальной книги, 1999. – 144 с.
8. Урсул А. Д. Научная фантастика и познание будущего. – Кишинев: Штиинца, 1984. – 192 с.
9. Ушинский К. Д. Родное слово: книга для учащихся и учащих. – Москва: Просвещение, 1988. – 432 с.
10. Черняк М. А. Современная русская литература: учебное пособие. – Москва: Форум, 2010. – 352 с.

KOGNITIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

JUMAMURATOVA AIBAXAR NURMUXANBETOVNA

aybakhar.84@gmail.com

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida fanlararo aloqadorlik, xususan, pedagogika,

psixologiya, tilshunoslik va raqamli savodxonlikning integratsiyasi asosida kognitiv kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada raqamli texnologiyalar vositasida kognitiv kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion strategiyalari va ularning filologik tadqiqotlardagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, kognitiv kompetensiya, fanlararo aloqadorlik, bo‘lajak o‘qituvchilar, nutq faoliyati, raqamli texnologiyalar, filologik ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются психолингвистические особенности процесса развития когнитивной компетенции будущих учителей. В рамках исследования освещаются вопросы формирования когнитивной компетенции на основе междисциплинарных связей, в частности интеграции педагогики, психологии, лингвистики и цифровой грамотности. В статье показаны инновационные стратегии развития когнитивной компетенции посредством цифровых технологий и их значение в филологических исследованиях.

Ключевые слова: психолингвистика, когнитивная компетенция, междисциплинарные связи, будущие учителя, речевая деятельность, цифровые технологии, филологическое образование.

Abstract. This article analyzes the psycholinguistic features of the process of developing cognitive competence in prospective teachers. Within the framework of the research, the issues of forming cognitive competence based on interdisciplinary connections, particularly the integration of pedagogy, psychology, linguistics, and digital literacy, are highlighted. The article demonstrates innovative strategies for developing cognitive competence through digital technologies and their significance in philological research.

Keywords: psycholinguistics, cognitive competence, interdisciplinary connections, prospective teachers, speech activity, digital technologies, philological education.

Zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi nafaqat o‘z fanining chuqur bilimdoni, balki o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini tushunadigan, ularning kognitiv jarayonlarini boshqara oladigan va raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, fanlararo aloqadorlik asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kognitiv kompetensiyasi indikatorlarining tahlili va uni rivojlantirish metodikasi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Filologik ta’lim jarayonida kognitiv kompetensiyani shakllantirish, ayniqsa, murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Tilni o‘zlashtirish va o‘qitish jarayoni sof lingvistik hodisa bo‘lmay, balki inson psixikasi, tafakkuri va idroki bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan psixolingvistik jarayondir [1]. Shu sababli, bo‘lajak til

o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda psixolingvistik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv kompetensiya – bu shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab psixologik-pedagogik konstrukt. Filologiya yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kognitiv kompetensiya nafaqat til qoidalarini bilish, balki tilni fikrlash vositasi sifatida anglash, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini psixologik jihatdan tahlil qila olish layoqatini anglatadi.

Psixolingvistika fani tilshunoslik va psixologiya chorrahasida vujudga kelgan bo‘lib, inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini o‘rganadi [2]. A.A.Leontyev tomonidan asos solingan nutq faoliyati nazariyasi (teoriya rechevoy deyatelnosti) bo‘yicha nutq – bu alohida faoliyat turi bo‘lib, u motivatsiya, rejalashtirish va ijro etish bosqichlaridan iborat [3]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, chet tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchining kognitiv faolligini ta’minlash, uning ichki nutq mexanizmlarini ishga tushirish muhimdir.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar O.R.Nuraddinova va S.H.Yakubovalarning izlanishlarida ham ta’kidlanganidek, nutq ko‘nikmalarining shakllanishi murakkab psixokognitiv jarayon hisoblanadi. Tilni o‘qitishda kommunikativ va kognitiv yondashuvlarning uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omilidir [4]. Bo‘lajak o‘qituvchining kognitiv kompetensiyasi aynan shu psixolingvistik mexanizmlarni tushunish va ularni o‘quv jarayonida to‘g‘ri yo‘naltira olish darajasi bilan o‘lchanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish faqat bitta fan doirasida amalga oshirilishi mumkin emas. Bu jarayon pedagogika, psixologiya, tilshunoslik va axborot texnologiyalarining uzviy integratsiyasini talab etadi. Fanlararo aloqadorlik (interdisciplinarity) tamoyili asosida o‘qituvchi quyidagi indikatorlar bo‘yicha o‘z kompetensiyasini namoyon etadi:

Birinchidan, lingvo-psixologik tahlil qobiliyati. O‘qituvchi o‘quvchining nutqidagi xatolarni shunchaki grammatik nuqson sifatida emas, balki kognitiv jarayonning natijasi sifatida tahlil qila olishi kerak. I.A.Zimnyaya ta’kidlaganidek, tilni o‘zlashtirishda o‘quvchining psixologik holati, xususan, motivatsiyasi va til o‘rganishga bo‘lgan qo‘rquvi (language anxiety) bevosita ta’sir ko‘rsatadi [5]. Kognitiv kompetent o‘qituvchi ushbu psixologik to‘siqlarni aniqlay oladi va ularni bartaraf etishning pedagogik usullarini qo‘llaydi.

Ikkinchidan, antropotsentrik yondashuvni qo‘llash. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma yetakchi o‘rinni egallamoqda. Y. Shirinovaning tadqiqotlarida qayd etilganidek, tilni o‘qitishda e’tiborni til tizimidan til sohibiga – so‘zlovchi shaxsga qaratish lozim [6]. Bu esa o‘qituvchidan har bir o‘quvchining

individual kognitiv uslubini hisobga olishni, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishni talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida raqamli savodxonlik kognitiv kompetensiyaning ajralmas qismiga aylandi va ushbu nuqtai nazardan bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli vositalarning o‘rni beqiyosdir.

Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, tilni o‘zlashtirishning psixolingvistik jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchiga o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini diagnostika qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, interaktiv dasturlar va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari o‘quvchining o‘zlashtirish tezligi, xato qilish tendensiyalari va e’tibor qaratish darajasi haqida aniq ma’lumotlarni (learning analytics) taqdim etadi. Kognitiv kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi ushbu ma’lumotlarni psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilib, ta’lim trayektoriyasini shaxsiylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, madaniyatlararo muloqot va lingvomadaniyatshunoslik aspektlarini o‘qitishda virtual reallik (VR) va to‘ldirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda tilni tabiiy psixologik muhitda idrok etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, tilni sun’iy yodlashdan ko‘ra, kognitiv jihatdan chuqur anglashga olib keladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish murakkab va uzluksiz jarayon bo‘lib, uning negizida psixolingvistik qonuniyatlar yotadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv kompetensiyani shakllantirishda fanlararo aloqadorlik tamoyiliga amal qilish, xususan, lingvistik, psixologik va pedagogik bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

A.A. Leontyev va boshqa olimlarning psixolingvistik tadqiqotlari asosida xulosa qilish mumkinki, til o‘qitish jarayoni o‘quvchining kognitiv mexanizmlarini faollashtirishga, uning nutqiy faoliyatini ongli ravishda boshqarishga qaratilishi lozim. Ushbu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining kognitiv kompetensiyasi uning diagnostik, tahliliy va loyihalashtirish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Kelajak strategiyalari nuqtai nazaridan, filologik ta’limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kognitiv kompetensiyani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga psixolingvistika va raqamli pedagogika integratsiyasini kuchaytirish, kognitiv kompetensiya indikatorlarini aniq belgilash va ularni baholashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nuraddinova O. R. Tilni o‘zlashtirish jarayonining psixolingvistik xususiyatlari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – № 1. – B. 88-102.

2. Orziqulova G.M. Psixolingvistikaning fan sifatida shakllanishi va inson ruhiyatida tilning o‘rni // Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 1. – B. 55-59.

3. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. Москва: Смысл. 1997. – 287 b.

4. Yakubova S.H. Psixolingvistika – tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari// Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etish. – 2025. – № 3. – B. 43-48.

5. Зимняя И. А. Лингвопсихология речевой деятельности. Москва: Московский психолого-социальный институт. 2001. – 432 b.

6. Shirinova Y.T. Til ta’limiga antroposentrik yondashuv masalasiga doir // Uzbekistan language and culture. –2025. – Vol. 8. – P. 142-156.

SHARQ VA G‘ARB MA’RIFATCHILIK ADABIYOTIDA DRAMATIK ASARLAR TIPOLOGIYASI

JO‘RAYEVA BARNO ALISHER QIZI,
ABDUG‘AFFOROVA KOMILA TOLIBJON QIZI,
OMONJONOVA RAYHONA BOBOMUROD QIZI
Namangan davlat pedagogika
instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabalari
barnojurayeva2005@gmail.com
komilaabdugafforova963@gmail.com
omonjonovarayhona@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq va G‘arb ma’rifatchilik adabiyotining janr xususiyatlari hamda dramaturgiyadagi tipologik o‘xshashlik va farqlar tahlil qilingan. Tadqiqotda Behbudiy, Avloniy kabi Sharq uyg‘onish davri jadid namoyandalari hamda Volter, Didro singari G‘arb ma’rifatparvarlarining dramatik asarlari qiyosiy o‘rganilgan. G‘oyaviy maqsadlar, xarakterlar tizimi va syujet qurilishidagi umumiyliklar yoritilgan. Janr taraqqiyoti hamda ijtimoiy-didaktik funksiyalar qiyosiy-tarixiy metod orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’rifatchilik adabiyoti, janr, drama, dramaturgiya, tipologiya, Sharq va G‘arb, didaktika, ijtimoiy xarakter, qiyosiy tahlil.

Annotation. The article analyzes the genre characteristics, typological similarities, and differences in the drama of Eastern and Western Enlightenment literature. The study comparatively examines the dramatic works of Eastern

Renaissance figures (Behbudi, Avloni) and Western enlighteners (Voltaire, Diderot). Commonalities in ideological goals, character systems, and plot structures are highlighted. The development of the genre and its social-didactic functions are revealed through the comparative-historical method.

Keywords: Enlightenment literature, drama, typology, East and West, didactics, social character, comparative analysis.

Аннотация. В статье анализируются жанровые особенности, типологические сходства и различия в драматургии просветительской литературы Востока и Запада. В исследовании сравниваются драматические произведения представителей Восточного ренессанса (Бехбуди, Авлони) и западных просветителей (Вольтер, Дидро). Выявляются общности в идейных целях, системе персонажей и структуре сюжета. Развитие жанра и его социально-дидактические функции раскрываются с помощью сравнительно-исторического метода.

Ключевые слова: просветительская литература, драматургия, типология, Восток и Запад, дидактика, социальный характер, сравнительный анализ.

Jahon adabiyotshunosligida Sharq va G‘arb adabiy aloqalari, xususan, ma‘rifatchilik davri fenomenini qiyosiy-tipologik planda tadqiq etish bugungi globallashuv sharoitida o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma’rifatparvarlik davri insoniyat tafakkuri tarixida shunchaki tarixiy bosqich emas, balki jamiyatni aql-idrok, ilm-fan va didaktik ta’sir orqali qayta qurishga intilgan universal ijtimoiy-falsafiy harakatdir. Ushbu global harakatning eng ta’sirchan va ommaviy minbari sifatida dramaturgiya (teatr san’ati) maydonga chiqdi. Chunki drama matni o‘zining genezisi va tabiati jihatidan ham so‘z san’atiga, ham bevosita ommaviy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan sahna estetikasiga daxldordir.

XVIII asr Yevropa ma’rifatchiligida (Volter, Didro, Bomarshe, Lessing) dramaturgiya feodal tartiblar, diniy mutassiblik va ijtimoiy tengsizlikka qarshi g‘oyaviy kurashning eng o‘tkir quroliga aylandi. Nemis faylasufi I.Kant o‘zining *“Ma’rifat nima?”* (1784) nomli fundamental essesida ta’kidlaganidek, bu davr insonning o‘z aybi bilan tushgan aqliy tobelikdan qutulish bosqichidir. Yevropa dramaturgiyasida klassitsistik qoliplardan voz kechilib, “ma’rifatparvarlik dramasi” (bürgerliches Trauerspiel) va “jiddiy komediya” kabi yangi tipologik janrlar vujudga keldi. San’atning omma ongiga faol ta’sir etish tamoyiliga suyangan bu ijodkorlar teatrni “axloq xonadoni” va xalq maktabi deb bildilar[19].

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida ham ma’rifatga intilish kabi tarixiy shart-sharoitlar

[19] I.Kant ("Ответ на вопрос: Что такое Просвещение?") 25-27-b

yuzaga keldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat singari jadid ma’rifatparvarlari millatni g‘ofillik va iqtisodiy-siyosiy qaramlikdan qutqarishning eng birinchi chorasi sifatida teatr va dramaturgiyani tanladilar. Behbudiy o‘zining mashhur *“Teatr nima?”* (1914) maqolasida teatrni **“ibratxona”** deb atashi G‘arb ma’rifatparvarlarining teatrga bergan ijtimoiy-didaktik ta’rifi bilan tipologik jihatdan to‘laqonli hamohangdir[20].

Sharq va G‘arb ma’rifatchilik dramaturgiyasini qiyosiy o‘rganishda rus adabiyotshunosi V.Jirmunskiy hamda fransuz qiyosiy maktabi asoschilari ilgari surgan “tarixiy-tipologik o‘xshashlik” (adabiy ta’sirdan tashqari, ijtimoiy taraqqiyotning o‘xshashligi sababli bir xil janriy shakllarning tug‘ilishi) hamda “kontakt aloqalar” (bevosita o‘rganish va tarjima) konsepsiyalariga tayaniladi. G‘arbda Volterning *“Zaydi”* yoki *“Alzir”* fojialari qaysi funksiyani bajargan bo‘lsa, Turkistonda Behbudiyning *“Padarkush”* (1911) dramasi xuddi shu missiyani – jamiyatni tahlil qilish va ma’rifatga chorlash vazifasini bajardi[21].

XVIII asr Yevropa ma’rifatchilik teatri va dramasida janriy yangilanishlar yuzaga kelgan.

Birinchidan, burjua dramasi va “jiddiy komediya” janrining paydo bo‘lishidir. Klassitsizmning qat’iy qonuniyatlaridan voz kechish, oddiy insonlar (burjuaziya, hunarmandlar) hayotini sahnaga olib chiqish.

Ikkinchidan, ma’rifatparvarlik fojeasi (Tragediya) Inson erki, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat g‘oyalarini ilgari suradi.

Uchinchidan, Etalon namoyandalar va ularning asarlari: Deni Didro (Fransiya) – “Oila boshlig‘i”, Gotxold Efrayim Lessing (Germaniya) – “Emiliya Galotti”, “Donishmand Natan” (ma’rifatchilik jiddiy dramasining asoschisi), Fridrix Shiller – “Makr va muhabbat” kabilar.

Sharq (Xususan, O‘zbek) ma‘rifatchilik va jadid dramaturgiyasining genezisi va tiplarining asosi quyidagichadir:

Avvalo, Sharqda ma’rifatchilik harakati birmuncha kechroq – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida (Jadidchilik shaklida) maydonga keldi. Shuning uchun bu yerda dramatik asarlar bevosita millatni uyg‘otish va ma’rifat tarqatish quroliga aylandi.

Ma’rifatparvarlikni o‘zida jamlovchi bir qancha pyesalar nashr etildi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qahhor singari jadidlar o‘z asarlari bilan insonlarni jaholat botqog‘idan qutqarishga harakat qildilar, biroq bu holat ko‘pga yetmadi. Qora mehnatga o‘rgangan xalqning bir joyda o‘tirib kitob mutolaa qilishga ishtiyoqi past edi va insonlarning nigohini ular ishdan uyga qaytgan vaqtda qishloq markazlarida tashkil etilgan teatrlarga

[20] Mahmudxo‘ja Behbudiy ("Teatr nima?") 174-176-betlar
[21] V.M. Jirmunskiy ("Сравнительное литературоведение") 66-72-b

burildi. Avvaliga buni insonlar shunchaki xordiq chiqarish vositasi deya qabul qilindi, lekin buning tub zamirida vizualizatsiya orqali odam ongiga singdiriluvchi didaktik ahamiyat yuqori edi. Insonlar o‘qib tushunmagan voqealaridan real sahnada ko‘rib ko‘proq ibrat oldi. Ushbu sahna asarlarida quyidagi muammolar namoyon etilgan:

Maishiy-ijtimoiy fojia: Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi (Sharq ma’rifatchilik dramasining ilk va eng yorqin tipologik namunasi).

Satiro-didaktik komediya: Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak” asarlari.

“Advokatlik osonmi?” pyesasida millat va jamiyat hayotidagi tubanliklar ko‘rsatiladi. O‘zini huquqshunos (advokat) deb e’lon qilgan firibgarlar bilan ularga ishonib boruvchi johil odamlar o‘rtasidagi munosabatlar kulgi ostiga olingan. Asarda Davronbek (advokat) va uning mijozi obrazlari orqali poraxo‘rlik, qonunni bilmaslik va adolatsizlik fosh etiladi. Avloniy jamiyatdagi har bir muammoning ildizi – ilmsizlikda ekanini ko‘rsatgan.

Oh, koshki men advokat bo‘lg‘uncha do‘qturlik ilmin tamom qilub, do‘qtur bo‘lg‘on bo‘lsa(m) edim. O‘zim uchun ham yaxshi bo‘lub, xalq uchun ham foydalik bo‘lur edi. Men jigarimni xun qilub o‘qub yotg‘on vaqtimda ba'zi yor-do‘stlarim menga aytgan edilar: «Sen advokatlikdan ko‘ra do‘qturliqg‘a o‘qug‘il». Man o‘ylag‘on edim, huquqdan mahrum, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning oz-moz bo‘lsa-da, qo‘limdan kelg‘oncha huquqlarin himoya qilsam. Xalqg‘a manfaat yetkursam, degan edim. Meni ul umidlarim bo‘shg‘a chiqdi. Mana ko‘rasiz, xalq mandan, man xalqdan bezor bo‘ldim. Endi ochuq manga ma'lum bo‘ldiki, umuman xalq orasinda ilm va ma'rifat tomir yoyub, madaniyat taraqqiy qilmag‘uncha manga o‘xshash bir-ikki odam xalq orasida ishlab, xalqni ko‘zin ochamiz, huquqin mudofaa qilamiz, demak, yerdan turub yulduzlarg‘a qo‘l uzatmoqg‘a o‘xshash xayoliy bir nimarsa ekanlig‘i emdi ochiq va aniq ma'lum bo‘ldi.[22]

Ma’rifiy drama: Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot”, “Boy ila xizmatkor” pyesalari.

Sharq va G‘arb ma’rifatchilik adabiyoti umuminsoniy g‘oyalarga asoslansa-da, tarixiy sharoit va milliy an’analar tufayli o‘ziga xos janr hamda obrazlar tizimiga ega.

Quyida ushbu ikki hudud adabiyotidagi ma’rifatparvar qahramon va jaholat bandasi obrazlarining tipologik o‘xshashliklarini tahlil etamiz:

Birinchidan, janr xususiyatlari va dramaturgiyadagi o‘xshashliklar namoyon bo‘ladi.

[22] Abdulla Avloniy. "Advokatlik osonmi" pyesasidan olindi.

Didaktik xarakter: Har ikki hududda ham drama va komediya tomoshabinga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, uni tarbiyalash quroliga aylandi.

Sharqda Mahmudxo‘ja Behbudiy **“**Padarkush” dramasi millatning ilmsizligi mudhish voqealarga sabab bo‘lishi va insonlarni zulmatdan yorug‘likka olib chiquvchi yagona najot ilm ekanligi yoritilgan.

G‘arbda Denis Didroning “Sertaxayol o‘g‘il”, “Oila boshlig‘I” sahna asarlari oqsuyaklar hayotini emas, oddiy xalq, burjua (savdogar, boy) qatlamining kundalik maishiy hayoti va oilaviy inqirozlarini sahnaga olib chiqdi. Shuningdek, Fridrix Shillerning “Qaroqchilar” dramasida qahramon – Frans Moor o‘z otasini qamoqqa tashlab, uni ochlikdan o‘lim yoqasiga olib keladi va mulkka ega chiqmoqchi bo‘ladi (ma’nan ota qotiliga aylanadi). “Padarkush”da esa Toshmurod johilligi sababli qaroqchilar (Tangriqul va Davlat) bilan til biriktirib, o‘z uyiga o‘g‘rilikka tushadi va otasini jismonan o‘ldiradi.

Ikkinchidan, qahramonlar tizimidagi tipologik o‘xshashliklar mavjud: Sharq va G‘arb ma’rifatchi adiblari jamiyatni harakatlantiruvchi va uni orqaga tortuvchi kuchlarni ifodalash uchun asarlariga o‘xshash tipik obrazlarni olib kirdi.

Ma’rifatparvar qahramon obrazi. Bu obraz jamiyatni zulmatdan nurga, qoloqlikdan taraqqiyotga olib chiquvchi kuch sifatida gavdalanadi**.** Ular bir qancha qiyosiy o‘xshashliklarga ega

Ilm-fan va ta’lim targ‘ibotchisi: G‘arbda tahliliy fikrlovchi olim yoki faylasuf (masalan, Volterning “Kandid” yoki Lessingning “Dono Natan” asaridagi qahramonlar) bo‘lsa, Sharq jadid adabiyotida bu obraz ma’rifatli ziyoli, muallim yoki taraqqiyparvar boy timsolida namoyon bo‘ladi (masalan, “Padarkush”dagi Domla yoki ziyoli obrazlari).

Eski aqidalarga qarshi kurash: Har ikki hudud qahramoni ham jamiyatdagi qotib qolgan xurofotlarni rad etadi. G‘arb qahramoni cherkov mutaassibligiga qarshi chiqsa, Sharq qahramoni din niqobi ostidagi soxta dindorlar, bid’at va bid’atga botgan urf-odatlarni fosh etadi.

Insonparvarlik (Gumanizm): Ikki tomon qahramonlari ham insonning qadr-qimmati uning kelib chiqishi yoki boyligida emas, balki uning axloqi va ilmida deb biladi.

Jamiyatning tanazzuliga sabab bo‘luvchi, yangilik dushmanlari har ikki adabiyotda ham o‘xshash satrik va fojiaviy bo‘yoqlarda chiziladi: Kaltafahmlik va ochko‘zlik illatlari bilan G‘arbda Molyer (ma’rifatchilik arafasi) yoki Bomarshe asarlaridagi feodal aristokratlar, Sharq adabiyotida esa johil boylar (masalan, “Padarkush”dagi boy) faqat moddiy manfaat va nafs ketidan quvadigan insonlar gavdalantiriladi.

Farzand tarbiyasiga beparvolik singari eng katta xatoga qo‘l urib jaholat bandalari ilm-fanni foydasiz deb hisoblaydi. G‘arb adabiyotida burjua a’zolari

farzandlariga faqat soxta aslzodalik unvonlarini berishni o‘ylasa, Sharq ma’rifatchiligida boylar o‘g‘illarini o‘qitmay, ularni maishatga, buzuqlikka berilishiga zamin yaratadi (Toshmurod obrazi bunga yaqqol misol).

Mutaassiblik va xurofotga suyanish kabi noto‘g‘ri qarashlar ilmsiz qahramonlar har qanday yangilik (maktab, teatr, matbuot, ilm-fan)ni o‘z mavqelariga tahdid deb bilishadi va unga diniy yoki an’anaviy niqoblar ostida qarshilik ko‘rsatishadi.

G‘arb va Sharq ma’rifatparvarlik davri dramaturgiyasining o‘xshashliklari bilan birga jiddiy farqlari mavjud. Masalan, G‘arbda ma’rifatchilik feodalizm va cherkov hukmronligiga qarshi, individual erkinlik va ratsionalizm (aql-idrok) ustuvorligiga tayanib maydonga chiqqan bo‘lsa, Sharq (xususan Turkiston) jadidchiligida ma’rifatchilik mustamlaka zulmidan qutulish, milliy o‘zlikni anglash va dinning asl mohiyatini (islhotlar orqali) pokiza saqlagan holda dunyoviy ilmlarni egallash harakati bilan uzviy bog‘liq edi.

XULOSA

Sharq va G‘arb ma’rifatchilik adabiyoti, xususan, dramaturgiyasi qiyosiy-tipologik planda tadqiq etilganda, har ikki adabiy-madaniy makonning ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti masalasida mushtarak estetik maqsadga ega bo‘lgani ma’lum bo‘ladi. G‘arbda Deni Didro, Gotxold Lessing kabi mutafakkirlar asos solgan va Fridrix Shiller dramalarida o‘zining cho‘qqisiga chiqqan “maishiy drama” (meshchan dramasi) janri o‘zbek ma’rifatchilik adabiyotida Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniy ijodi orqali yangicha milliy-ijtimoiy qiyofa kasb etdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, G‘arb ma’rifatchilik adabiyoti cherkov mutaassibligi va feodal qoloqlikka qarshi qaratilgan “aql-idrok kulti”, Turkiston jadidchiligida millatni sivilizatsiya bosqichiga olib chiqish, mustamlaka kishanlarini parchalash hamda dinning asl musaffo mohiyatini tiklash g‘oyalari bilan ajralib turadi. Obrazlar tizimidagi tipologik o‘xshashliklar xususan, Didroning “Oila boshlig‘i” va Shillerning “Qaroqchilar” asaridagi oilaviy inqirozlar hamda ma’naviy ota qotilligi motivining Behbudiyning “Padarkush” va Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak” dramalarida bosh konflikt darajasiga ko‘tarilishi – adabiy evolyutsiyaning qonuniy samarasidir. G‘arb burjuasi va Sharq ma’rifatparvar qahramonlari ilm-fanni najot qal’asi deb bilsa, har ikki qutbdagi jaholat bandalari (johil boylar, xurofotga botgan personajlar) jamiyat fojiasining subyektlari sifatida universal satrik va tragik bo‘yoqlarda chizilgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlari Turkiston dramaturgiyasi G‘arb ma’rifatchilik estetikasi andozalarini shunchaki ko‘chirib olmadi, balki milliy mentalitet va diniy-axloqiy didaktika negizida o‘ziga xos janriy konseptualizm yaratdi. Teatrni “ibratxona” deb bilgan jadid dramaturglari yaratgan tipologik

obrazlar o‘zining g‘oyaviy-estetik funksiyasiga ko‘ra jahon ma’rifatchilik adabiyotining durdonalari bilan bir tizimda turishga to‘la haqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 432 b.
2. Karimov, N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
3. Allworth, Edward A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990.
4. Sharafiddinov, O. Ijod ruhan ozodlikdir. – Toshkent: Sharq, 2002
5. Dolimov, U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
6. Didro, D. Estetika va adabiy-tanqidiy maqolalar. (Rus tilida: Дидро Д. Эстетика и литературная критика. – М.: Художественная литература, 1980).
7. Mirzayeva, Z. Jadid dramaturgiyasi va G‘arb adabiyoti an’analari // Jahon adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2009. – № 4. – B. 112-118.
8. Rizayev, Sh. Jadid teatri: shakllanish va evolyutsiya omillari // O‘zbekiston san’ati va madaniyati jurnali. – Toshkent, 2018. – № 2. – B. 45-53.
9. Xoliqova, N.J. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida obrazlar tipologiyasi va G‘arb badiiy uslubi ta’siri // Oriens (Oriental Studies) ilmiy jurnali. – 2023. – Vol. 3, Issue 9. – B. 66-70.
10. Turdiyev, Sh. Ma’rifatparvarlik adabiyotida jaholat va ma’rifat to‘qnashuvi masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2015. – № 3. – B. 28-34.
11. Qodirov, M. Jadid dramaturgiyasi va teatr san’ati taraqqiyoti tarixidan // Teatr jurnali. – Toshkent, 2021. – № 1. – B. 14-19.

NAZAR ESHONQULNING “SIBIZG‘A VOLASI” HIKOYASIDA RAMZIYLIK VA MILLIY O‘ZLIK TALQINI

XURSANBOYEVA MUXLISA AXADJON QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

xursanboyevamuxlis@gmail.com +998882533036

ILMIY RAHBAR: S.QOZAQOVA

Annotatsiya. Maqolada Nazar Eshonqul ijodiga xos bo‘lgan an’ana va milliylik “Sibizg‘a volasi” hikoyasi asosida badiiy-estetik jihatdan talqin etiladi. Asardagi ramziy obrazlar, inson ruhiyati tasviri, yolg‘izlik va ma’naviy tanazzul

masalalari yoritib beriladi. Sibizg‘a obrazi shunchaki cholg‘u asbobi emas, balki milliy o‘zlik, xotira va unutish o‘rtasidagi kurash timsoli sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ramziylik, sibizg‘a, yolg‘izlik, milliy o‘zlik, ma’naviy tanazzul.

Abstract. The article interprets the tradition and nationality inherent in the work of Nazar Eshonkul from an artistic and aesthetic perspective based on the story “Sibizga Volasi”. The symbolic images in the work, the depiction of the human psyche, the issues of loneliness and spiritual decline are highlighted. The image of the Sibizga is considered not just a musical instrument, but a symbol of national identity, the struggle between memory and forgetting.

Key words: symbolism, sibizga (pipe), loneliness, national identity, spiritual decline.

Аннотация. В статье с художественно-эстетической точки зрения интерпретируются традиции и национальная идентичность, присущие творчеству Назара Эшонкуля, на основе рассказа «Сибизга Воласи». Подчеркиваются символические образы произведения, изображение человеческой психики, проблемы одиночества и духовного упадка. Образ сибизги рассматривается не просто как музыкальный инструмент, а как символ национальной идентичности, борьбы между памятью и забвением.

Ключевое слово: символизм, сибизг (трупка), одиночество, национальная идентичность, духовный упадок.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek nasriyotida inson ruhiyatini zamonaviy jihatdan badiiy talqin qilish kuchaydi. Bu davr adabiyotida insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari tashqi voqelikdan ko‘ra ustunroqdir. Ana shunday tasvirlovchi ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir.

Adib asarlarida ramziylik, falsafiy tafakkur va modernizmga alohida e’tibor beradi va bu jihatlar yetakchi o‘rin egallaydi. “Sibizg‘a volasi” hikoyasida ham insonning ichki ruhiyati o‘tkir qalam bilan tasvirlab berilgan. Bu yo‘nalishda yozilgan mifologik asarlar ko‘p aslida. Lekin Nazar Eshonqul qolganlar kabi yozishdan qochdi, zamonaviy adabiyot bilan bog‘ladi, yangicha talqin yaratdi. Hikoya o‘zbek zamonaviy nasrida mifologik tasavvur va ramziy tasvirlarga boy asardan biri hisoblanadi.

Ramziy obrazlar hikoyaning ma’nosini boyitadi. Adib sibizg‘a yordamida ma’naviy tanazzul haqida chuqur mushohada qiladi. Bu jihati hikoyani zamonaviy adabiyot namunalariga yaqinlashtiradi.

Hikoyada “sibizg‘a” asosiy obraz hisoblanadi. U qadim turkiy xalqlarda cho‘ponlarning nayga o‘xshash cholg‘u asbobi sifatida tanilgan. U oddiy cholg‘u asbobi emas, balki tana va tabiat o‘rtasidagi ruhiy aloqa, inson qalbidagi iztirob, armon, sukunat va yo‘qotilgan o‘zlik timsolidir.

Sibizg‘a sadosi badiiy qahramonning qalbidagi kechinmalarini, xotiralarini uyg‘otadi. Ohang insonni ma’naviy olamga, o‘zligiga qaytaruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi sibizg‘a orqali insonning milliy o‘zligi va insoniy tuyg‘ularni uyg‘unlashtiradi.

“Vola” (Nola) – bu ruhning ozodlik va sog‘inch ifodasi desak adashmagan bo‘lamiz. Vola inson ruhining tana bosimlaridan, asoratlaridan qutulish, o‘zining ilohiy asliga qaytishini ifodalaydi.Sibizg‘adan chiqayotgan nola esa yo‘qotilgan o‘zlikdir. Inson o‘zligini qanday yo‘qotishi mumkin? “Qamishlar shovuriga quloq tut” degan yozuvchining ishorasi insoniyatning aldashishlariga ishora” emasmi?

Adabiyot nafaqat san’at,balki xalq tafakkuri, g‘ururi va tarixiy xotirasidir. Ayniqsa, milliy o‘zlik tushunchasi bugungi globallashuv davrida o‘z ahamiyatini yanada oshirmoqda. Adabiyot – ana shu o‘zlikni saqlab qoluvchi, uni avloddan avlodga yetkazuvchi ko‘zgu hisoblanadi. Nazar Eshonqul ham hozirgi kunda yo‘qolib borayotgan milliy o‘zlikni saqlab qolishga harakat qilayotgan yozuvchidir. Va buni qaysidir ma’noda uddalayapdi.

“...badiiy asar qahramonlarining ta’sir kuchi-ularning ijobiy yoki salbiy bo‘lishida emas, balki bu qahramonlarning hayotiyligiga, ya’ni hayot haqiqatiga mosligidadir” – deb yozgandi atoqli adib Izzat Sulton. Darhaqiqat, hikoyaning yutug‘i ham shu, ya’ni inson ruhiyatini chuqur talqini hayotga mosligidir. Adib qahramon kechinmalarini an’anaviy syujet orqali ifodalamadi, balki sukut, ramziylik va eng asosiysi ichki monologga tayangan holda ochib berdi. Nazar Eshonqulning ayrim asarlarida “xotira” tushunchasi markazda turadi. Xotira bo‘lmasa, o‘zlik ham bo‘lmaydi. Hikoyadagi personajlar oddiy odamlar emas, balki ma’lum bir g‘oyaning tashuvchilaridir. Askarlar sartaroshning oldiga yaqinlashganda yelkasiga “ko‘rgilik”, “ko‘pga kelgan to‘y” deb qoqib qo‘yayotganlar inson taqdiriga befarq kimsalardir. Hayotimiz davomida bunday insonlar bilan ko‘p marotaba to‘qnash kelishimizni ijodkor o‘tkir zehn bilan ifodalab bergan. Va eng asosiysi sartarosh va Iskandar o‘rtasida kechgan voqealardir. Avvaliga hech narsa bo‘lmagandek tuyuladi, lekin boshidagi “shox”ni ko‘rgach o‘zini, “milliy o‘zligi”ni yo‘qota boshlaydi. Bu “sir”ni hech kimga aytib bo‘lmaydi. Mana endi bildi o‘zidan oldingi sartaroshlar nega ruhiy xasta bo‘lgani, gung bo‘lgani, bari-barini tushundi. Insonni ich-ichidan yemirib boradigan bu sirni oshkor qilishi, boshqalarga aytishi mumkin edi, lekin oilasi taqdirini o‘yladi. Bu sirdan qutulish yo‘lini topdi, borib quduqlarga aytdi, yo‘q shunchaki aytmadi, hayqirdi, ichini yeb bitirgan bu sirni quduq tubiga uloqtirdi. Natijada quduqdan o‘sgan qamishlar sibizg‘aga aylandi va ohangi olamni kezadi: “... ehe he he Iskandarning shoxi bor”.

Nazar Eshonqul uchun milliy o‘zlik – bu oddiy ashyo emas, balki tirik ruhdir. Agar inson o‘zining botiniy sibizg‘asini eshitishdan to‘xtasa, u inson sifatida qiyofasini yo‘qotadi.

Hikoyadagi asosiy g‘oya shundaki, milliy o‘zlikni saqlab qolish uchun har bir shaxs o‘zining “ichki ovozi”ga quloq tutishi kerak. Bu o‘tmishga qaytib degani emas, balki o‘tmish bilan birgalikda, bog‘langan holda kelajak sari borishdir.

Xulosa qilib aytganda, “Sibizg‘a volasi” hikoyasi Nazar Eshonqul ijodidagi falsafiy yo‘nalishdir. Asarda insonning ichki kechinmalari, ma’naviy tanazzul, yolg‘izlik muammolari chuqur tasvirlab beriladi. “Sibizg‘a volasi” – inson ruhining ozodlikka, ilohiy birlikka bo‘lgan mangu sog‘inchi. Adib asar yakunida o‘qirmanni har qanday texnik taraqqiyot yoki moddiy boylik inson qalbidagi azaliy bo‘shliqni to‘ldira olmasligini, inson faqat o‘zining ma’naviy o‘zagiga qaytish orqali dunyoda o‘zligini saqlab qolishi mumkin degan fundamental xulosaga olib keladi.

Sibizg‘a obrazi yozuvchining badiiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi ramziy obraz. Asar kitobxonni inson qalbi, ma’naviyati va modern jamiyatdagi iztiroblari haqida chuqur fikr yuritishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazar Eshonqul. “Sibizg‘a volasi”. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2011
2. Q.Yo‘ldoshev. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019
3. X.Boltaboyev. Nasr va uslub. – Toshkent, 1992.
4. B.Karimov. XXasr o‘zbek adabiyoti masalalari. – Toshkent, Fan, 2006
5. N.Karimov. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Tafakkur, 2015

TA’LIM BOSQICHLARIDA O‘ZBEK TILI O‘QITILISHI UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

ABDURAHMONOVA HUSNORA ALISHER QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail:habdurahmonova16@gmail.com

+998939822003

Annotatsiya. Annotatsiya qismida maqolaning qisqacha mazmuni yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida (maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim) o‘zbek tili fanini o‘qitish metodikasini integratsiyalash va uzviylik muammolarini bartaraf etishdan iborat. Maqolada tizimli lingvodidaktik tahlil, qiyosiy-pedagogik ekspertiza va zamonaviy o‘quv dasturlarini qiyoslash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasi o‘laroq, bosqichlararo sun’iy uzilishlar va mavzuviy takroriylikni kamaytirishga xizmat

qiluvchi hamda to‘rt til ko‘nikmasini rivojlantiruvchi takomillashtirilgan metodik modul va “spiralsimon” integratsiya modeli taklif etildi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, o‘zbek tili metodikasi, uzviylik, lingvodidaktika, darsliklar integratsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quv dasturi, spiralsimon yondashuv, nutqiy ko‘nikma.

Аннотация. В разделе «Аннотация» приводится краткое изложение статьи. Основная цель исследования заключается в интеграции методики преподавания узбекского языка и устранении проблем преемственности на всех этапах системы непрерывного образования (дошкольного, общего среднего, профессионального и высшего). В статье использованы методы системного лингводидактического анализа, сравнительно-педагогической экспертизы и сопоставления современных образовательных программ. В качестве результата исследования предложены усовершенствованный методический модуль и модель “спиральной” интеграции, способствующие сокращению искусственных разрывов и тематических повторов между этапами, а также развитию четырех языковых навыков.

Ключевые слова: непрерывное образование, методика узбекского языка, преемственность, лингводидактика,интеграция учебников, компетентностный подход, образовательная программа, спиральный подход, речевые навыки.

Abstract. The abstract section provides a brief summary of the article. The main purpose of the research is to integrate the methodology of teaching the Uzbek language and eliminate the problems of continuity at all stages of the continuous education system (preschool, general secondary, professional, and higher education). Methods of systematic linguodidactic analysis, comparative-pedagogical expertise, and comparison of modern educational programs were used in the article. As a result of the research, an improved methodical module and a model of “spiral” integration were proposed, which serve to reduce artificial gaps and thematic repetition between stages, as well as develop four language skills.

Keywords: continuous education, Uzbek language methodology, continuity, linguodidactics, textbook integration, competency approach, educational program, spiral-curriculum, language skills.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uning barcha bo‘g‘inlarini jahon andozalariga moslashtirish hamda davlat tilining ijtimoiy-ma’rifiy nufuzini yuksaltirish hozirgi taraqqiyot bosqichining eng strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy sharoitda yosh avlodning til madaniyatini oshirish, ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish hamda to‘g‘ri nutqiy ko‘nikmalarni kamol toptirish bevosita o‘zbek tili lingvodidaktikasining rivojlanish

darajasiga bog‘liqdir. Boshlang‘ich, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasida uslubiy uzilishlar mavjud. Har bir bosqichda turli yondashuvlar qo‘llanilayotgani, o‘quv dasturlari va darsliklar o‘rtasida uyg‘unlikning yo‘qligi, pedagogik texnologiyalarning to‘laqonli joriy etilmaganligi ta’limning uzluksizlik prinsipini amalga oshirishda muayyan to‘siqlarga sabab bo‘lmoqda.Bu holat o‘quvchilar va talabalarning bilim darajasiga, tilni ongli va faol o‘zlashtirishiga, fikrni ifodalash madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Demak, zamonaviy o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish uchun barcha bosqichlarda yagona metodik yo‘nalish, uzviylik va bosqichma-bosqichlikka asoslangan uzluksiz o‘qitish tizimi zarur. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, mazkur dissertatsiya mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etadi.Tadqiqotda o‘zbek tilini uzluksiz o‘qitishning nazariy-metodik asoslari, har bir bosqichga xos o‘ziga xosliklar, mavjud darslik va metodik vositalar, o‘qitish usullari tahlil qilinadi hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu orqali ta’lim jarayoniga metodik uzviylik kiritilib, o‘quvchilarda hamda talabalarda tilni mukammal o‘zlashtirishga imkoniyat yaratiladi. Ushbu murakkab va mas’uliyatli jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasining o‘rni beqiyos bo‘lib, har bir ilmiy izlanish muayyan tizimli qoidalarga asoslanishi lozim [1]. Biroq, bugungi kunda maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, professional va oliy ta’lim bosqichlarining ona tili darsliklari hamda o‘quv dasturlari o‘rtasida mantiqiy uzviylikning to‘liq ta’minlanmaganligi jiddiy uslubiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilganidek, ilmiy ish yozish va uning natijalarini amaliyotga joriy etishda izchillik qoidalariga rioya qilmaslik ko‘plab nazariy konsepsiyalarning samarasiz qolishiga sabab bo‘ladi [2]. Mavjud ta'lim tizimida fundamental grammatik qoidalar va terminlar o‘quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich chuqurlashtirilmasdan, darslikdan darslikka, bir ta’lim bo‘g‘inidan ikkinchisiga shunchaki mexanik va quruq takror tarzida o‘tib kelayotgani ta’lim samaradorligini pasaytirmoqda. Aynan shu sababli, ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini tubdan takomillashtirish, o‘quv rejalaridagi konseptual takrorlanishlarni bartaraf etish hamda ta’lim oluvchilarning amaliy nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit integrativ modelni ishlab chiqish zarurati kun tartibiga chiqmoqda. Mazkur tadqiqotning metodologik yangiligi ham o‘zbek tili fanini alohida ajratilgan mustaqil bo‘g‘inlar sifatida emas, balki yaxlit funksional zanjir ko‘rinishida tahlil qilish hamda dars loyihalarini tuzishda jahon pedagogik amaliyotida keng qo‘llaniladigan “spiralsimon” (spiral-curriculum) yondashuv strategiyasini milliy lingvodidaktikamizga izchil tatbiq etishdan iboratdir.

Pedagogika fanida uzluksizlik va izchillik tamoyili har bir navbatdagi ta’limiy bosqichning muqarrar ravishda avvalgi bosqich poydevoriga tayanishini hamda

o‘rganilgan materiallarni yangi, murakkabroq amaliy tushunchalar bilan boyitib borishini taqozo etadi. Biroq amaldagi lingvodidaktik voqelikni kuzatganimizda, maktab bitiruvchisi oliy ta’lim muassasasiga qadam qo‘yganidan keyin ham o‘zbek tili darslarida maktab dasturida bir necha bor qayta-qayta o‘qigan fonetika, leksikologiya, so‘z yasalishi va morfologiya kabi akademik bo‘limlarni o‘sha zerikarli nazariy qoidalar asosida takrorlashga majbur bo‘layotganiga guvoh bo‘lamiz. Bu holat talabalarda fanga nisbatan motivatsiyaning mutlaqo so‘nishiga olib keladi, qolaversa, amaliy til ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ajratilgan qimmatli vaqtning behuda sarflanishiga sabab bo‘ladi. Professor X. Muxitdinova o‘zining fundamental tadqiqotlarida haqli ravishda ta’kidlaganidek, ta’lim bosqichlarida o‘quv materiallarining nomuvofiq va nomutanosib taqsimlanishi yoshlarda tizimli nutqiy-kommunikativ hamda lingvistik kompetensiyalarning to‘laqonli shakllanishiga eng katta to‘sqinlik qiluvchi omildir [3]. Shu sababli, darsliklarni yaratish va o‘quv dasturlarini loyihalash jarayonida davlat ta’lim standartlaridan tortib, eng kichik metodik qo‘llanmalargacha bo‘lgan barcha resurslarni yagona mantiqiy tizimga birlashtirish lozim. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan bartaraf etish qoidalari va me’yorlari zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlarda ham batafsil muhokama qilinib, amaliy yechimlar izlanmoqda [4]. O‘tkazilgan tizimli-pedagogik tahlillar natijasida, uzluksiz ta’limning har bir komponentida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini konseptual jihatdan transformatsiya qilishning quyidagi yo‘llari asoslab berildi.

Birinchidan, maktabgacha ta’lim bosqichida asosiy metodik urg‘u bolalarga murakkab grammatik atamalarni yodlatishga emas, balki ularning faol va passiv lug‘at boyligini oshirishga, og‘zaki nutq hamda tinglab tushunish ko‘nikmalarini interaktiv o‘yin texnologiyalari, ertaklar va sahnalashtirish metodlari orqali shakllantirishga qaratilishi shart. Ikkinchidan, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida quruq qoidabozlikdan butunlay voz kechgan holda, amaliy savodxonlik, matn ustida ishlash, ijodiy va mustaqil fikrlash yetakchi o‘ringa chiqishi, grammatika esa faqatgina to‘g‘ri nutqiy faoliyatni, ya’ni tizimli o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirishga xizmat qilishi lozim [5]. Uchinchidan, professional va oliy ta’lim bosqichlariga kelib, umumiy maktab grammatikasini takrorlash amaliyoti butunlay to‘xtatilib, talabalarning kelgusi kasbiy va mutaxassislik faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan “Akademik yozuv”, “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, “Sohaviy terminologiya va muloqot strategiyalari” kabi amaliy modullar tizimi joriy etilishi zarur [6]. Tadqiqot doirasida biz tomondan taklif etilgan va xalqaro tajribaga tayanuvchi “spiralsimon” integratsiyalashgan metodik model asosida tashkil etilgan eksperimental guruhlarda o‘quvchilar va talabalarning mustaqil matn yaratish, fikrni akademik tilda mukammal bayon etish hamda erkin muloqotga kirishish ko‘rsatkichlari an’anaviy

guruhlarga qaraganda 24 foizga yuqori natija berdi. Bu esa ta’lim jarayonida qoidalarni mexanik yodlatish eskirganini, aksincha, loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning) va interaktiv metodlar yoshlarning til o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabatini keskin oshirishini ilmiy hamda amaliy jihatdan to‘liq isbotlaydi [7].

Xulosa qilib aytganda, ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlash metodikasini tizimli ravishda takomillashtirish – milliy ta’lim sifatini va jamiyatdagi umumiy nutq madaniyatini strategik yuksaltirishning bosh omilidir. Olingan tadqiqot natijalari va o‘tkazilgan amaliy tajribalar asosida bir nechta muhim xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimidagi o‘zbek tili dasturlarini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi va uzviyligini ta’minlovchi yagona Uzluksiz milliy ta’lim konsepsiyasini amaliyotga keng tatbiq etish lozim. Ikkinchidan, darsliklardagi an’anaviy qoidabozlik va yodlash metodlaridan butunlay voz kechib, barcha ta’lim bo‘g‘inlarida to‘rt til ko‘nikmasini (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) xalqaro andozalar, ya’ni CEFR modeliga mos ravishda xolis baholovchi yangi kompetensiyaviy tizimga o‘tilishi shart. Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili fanini o‘qitish formatini talabalarning kelgusi kasbiy yo‘nalishi, soha terminologiyasi va akademik yozuv ehtiyojlariga moslab loyihalash dars samaradorligini kafolatlaydi hamda bo‘lajak mutaxassislarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. To‘xtayev N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va innovatsiya” nashriyoti, 2022. – B. 111.

2. Rahmonov D. Ilmiy ish yozish va rasmiylashtirish qoidalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. – B. 206.

3. Muxitdinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 347.

4. Shomonov S. Ilmiy ish yozish va rasmiylashtirish qoidalari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 755.

5. cyberleninka.ru

6. tdpu.uz

7. scientists.uz

ФЕМИНИТИВЫ В ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИИ: ДИНАМИКА УП ОТРЕБЛЕНИЯ И ОТНОШЕНИЕ НОСИТЕЛЕЙ ЯЗЫКА В XXI ВЕКЕ

МУХАММАДАЛИЕВА ХОЛИДА

студентка 4 курса направления

русский язык в иноязычных группах НамГПИ
АХМАДАЛИЕВА ДИЛАФРУЗ
преподаватель кафедры филологии НамГПИ

Аннотация. Статья посвящена ретроспективному и синхронному анализу функционирования суффиксальных модификатов женскости (феминитивов) в русскоязычном интернет-пространстве на протяжении первой четверти XXI века. На основе материалов блогосферы, социальных сетей, цифровых медиа и лексикографических баз данных исследуются этапы эволюции «новых феминитивов». Автор выделяет ключевые деривационные модели, анализирует социолингвистические факторы (гендер, возраст, сетевая идентичность), определяющие принятие или отторжение данных лексем, а также рассматривает влияние экстралингвистического и правового контекста на речевые практики интернета в середине 2020-х годов..

Ключевые слова: феминитивы, интернет-коммуникация, гендерная лингвистика, интернет, языковая динамика, социолингвистика, языковая норма, XXI век.

Введение

В XXI веке интернет-коммуникация превратилась в ключевой фактор, определяющий развитие лексической системы и грамматической нормы русского языка. Обладая высокой скоростью реактивности, сетевой дискурс мгновенно отражает сдвиги в общественном сознании. Одним из наиболее заметных, лингвистически и социально маркированных феноменов этого периода стала активизация и неоморфизация феминитивов – существительных женского рода, обозначающих профессиональную, социальную или иную принадлежность женщин.

Дискуссия вокруг «новых феминитивов» (*авторка, режиссерка, экспертка*) вышла далеко за пределы академических кругов, став полем столкновения лингвистического пуризма, социальных манифестов и государственной языковой политики. Настоящее исследование направлено на комплексное описание динамики употребления феминитивов в Рунете на протяжении последних 25 лет и анализ эволюции отношения к ним со стороны носителей языка.

Периодизация и динамика развития феминитивов в интернете XXI века

Развитие феминитивов в пространстве интернет-коммуникации XXI века носило волнообразный характер и прошло три основных этапа.

1.1. Этап латентного формирования и иронии (2000–2010 гг.)

В эпоху раннего интернета (форумы, Живой Журнал) употребление некодифицированных феминитивов носило преимущественно спорадический, игровой или ироничный характер. В сетевом сленге закрепились отдельные разговорные формы на *-ш(а)* и *-их(а)* (*блогерша, юзерша, программистка*). Официальный медиадискурс строго придерживался традиционной литературной нормы, используя слова мужского рода в generic-значении (*«наш корреспондент Ольга Иванова»*).

1.2. Этап активистского бума и экспрессивного взрыва (2011–2023 гг.)

Этот период ознаменовался развитием социальных сетей нового типа (Facebook, Instagram, Telegram) и проникновением идей четвертой волны феминизма в русскоязычное цифровое пространство. Феминитивы стали сознательным инструментом борьбы за «видимость» женщин в профессиональных сферах (концепция «языковой экспликации»).

Деривационная доминанта: абсолютное лидерство захватил суффикс -к(а), который стал присоединяться к основам на согласный, ранее считавшимся несовместимыми с этим формантом (*лекторка, кураторка, продюсерка, адвокатка*).

Медийная интеграция: нишевые интернет-издания (*Wonderzine, The Village, Новая газета*) и блогеры-тысячники ввели эти формы в свои редакционные политики, что вызвало мощный резонанс в интернете.

1.3. Этап институциональной дифференциации и речевой самоцензуры (2024–2026 гг.)

В середине 2020-х годов динамика употребления феминитивов претерпела качественные изменения под воздействием экстралингвистических факторов. Специфические суффиксальные формы на *-ка* (*авторка, редакторка*) в общественном дискурсе стали прочно ассоциироваться с повесткой признанных экстремистскими организаций и нежелательных движений.

В результате в интернете наметились две противоположные тенденции:

1. Официальный откат к норме: Крупные цифровые медиа, государственные корпорации и официальные каналы полностью исключили «новые феминитивы» из своего лексикона, вернувшись к нормативным конструкциям (*«эксперт», «специалист»*).

2. Геттоизация феминитивов: Использование данных лексем локализовалось в закрытых профессиональных digital-сообществах (IT, маркетинг, психология), где они выступают в роли корпоративного сленга, лишенного яркого политического подтекста.

Способы образования феминитивов в цифровой среде

Словообразовательные процессы в сфере феминизации лексики XXI века характеризуются высокой степенью деривационной свободы. Анализ эмпирического материала позволяет выделить четыре основные модели.

1. Суффиксация посредством *-к(а)*. Самая дискуссионная модель. Обладает высокой продуктивностью, но часто нарушает законы русской фонетики (нагнетение согласных в словах типа *«министерка»*, *«архитекторка»*), что вызывает эстетическое отторжение у носителей языка.

2. Суффиксация посредством *-иц(а)*. Наиболее органичная и нормативная модель для русского языка. В XXI веке она укрепила позиции в сложных словах и дериватах от основ на *-тель* (*сооснователь**ница, шеф-редактор**ница*).

3. Суффиксация посредством *-ин(я)*. В интернет-речи данная модель пережила ренессанс, но со специфическим прагматическим оттенком. Формы вроде *«психологиня»*, *«критикесса»* (с суффиксом *-есс-*), *«философиня»* часто используются в сетевых дискуссиях с легкой иронией или, напротив, для самопрезентации в узких профессиональных блогах.

4. Словосложение и гибридизация. Продукт последних лет, связанный с развитием ИИ-технологий и digital-профессий (*промт-инженерка, нейросетеводка, вайб-менеджерка*).

Заключение

Динамика функционирования феминитивов в интернет-коммуникации XXI века демонстрирует, что язык является живой, саморегулирующейся системой, однако его развитие тесно переплетено с социальными и политическими процессами. Феномен «новых феминитивов» доказал, что искусственное форсирование словообразовательных моделей (*суффикс -ка*) способно вызвать кратковременный экспрессивный бум в цифровой среде, но сталкивается с жестким сопротивлением языковой системы и общественной структуры на длинной дистанции. На рубеже первой четверти XXI века мы наблюдаем стабилизацию процесса: феминитивы потеряли статус нейтрального языкового тренда и закрепились в качестве яркого социостилистического и идеологического маркера сетевой идентичности говорящего.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гусейнов Г. Ч. Заметки о языке сетевой коммуникации в постцифровую эпоху // Вопросы языкознания. – 2024. – № 2.

2. Кронгауз М. А. Русский язык на грани нервного срыва. Динамика интернет-речи. – М.: АСТ, 2025.

3. Современный русский язык: активные процессы в семиотике и лексике / Под ред. Л. П. Крысина. – М.: Флинта, 2025.

4. Черниговская Т. В. Языковое сознание в цифровую эпоху: гендерный аспект // Вестник СПбГУ. Серия 9. Филология. – 2025. – Т. 12. – Вып.

ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ

МУХИБИЛЛАЕВА РАЪНО МУХАММАДЖАНОВНА
Ranomuhibillayeva1@gmail.com
Убайдуллаев Шухрат Назруллаевич Старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматривается зарубежный и отечественный опыт применения коммуникативных технологий в обучении языку. Анализируются современные подходы к формированию коммуникативной компетенции учащихся, методы интерактивного обучения, а также роль цифровых и педагогических технологий в процессе изучения языка. Особое внимание уделяется сравнению традиционных и инновационных методов обучения, их эффективности и влиянию на развитие речевых навыков обучающихся. Делается вывод о значимости коммуникативного подхода как одного из наиболее результативных направлений современного языкового образования.

Ключевые слова: коммуникативные технологии, обучение языку, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение, педагогические технологии, речевые навыки, инновационные методы, языковое образование

Annotation. This article examines foreign and domestic experience in the application of communicative technologies in language teaching. Modern approaches to the development of students' communicative competence, methods of interactive learning, and the role of digital and pedagogical technologies in the language learning process are analyzed. Particular attention is paid to the comparison of traditional and innovative teaching methods, their effectiveness, and their influence on the development of learners' speech skills. The article concludes that the communicative approach is one of the most effective directions in modern language education.

Keywords: communicative technologies, language teaching, communicative competence, interactive learning, pedagogical technologies, speech skills, innovative methods, language education

Annotatsiya. Mazkur maqolada til o‘qitishda kommunikativ texnologiyalarni qo‘llashning xorijiy va mahalliy tajribasi yoritilgan. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, interaktiv

ta’lim metodlari hamda til o‘rganish jarayonida raqamli va pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, an’anaviy va innovatsion ta’lim usullarining samaradorligi hamda ularning nutqiy ko‘nikmalar rivojiga ta’siri taqqoslangan. Maqolada kommunikativ yondashuv zamonaviy til ta’limining eng samarali yo‘nalishlaridan biri ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ texnologiyalar, til o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, interaktiv ta’lim, pedagogik texnologiyalar, nutqiy ko‘nikmalar, innovatsion metodlar, til ta’limi.

В современном мире знание иностранного языка является важнейшим навыком для успешного общения и профессиональной деятельности. В условиях глобализации и международного сотрудничества возрастает роль коммуникативной компетенции, которая требует формирования не только языковых знаний, но и умения использовать язык в реальных ситуациях общения. Применение коммуникативных технологий в обучении языку направлено на развитие именно этих навыков. Актуальность темы обусловлена необходимостью анализа зарубежного и отечественного опыта, что позволяет выявить эффективные методики и адаптировать их к национальным особенностям.

Обратимся непосредственно к понятию. Коммуникативные технологии – это совокупность методических приёмов и средств, направленных на формирование у обучающихся навыков полноценного и адекватного общения на иностранном языке. Основой таких технологий является коммуникативный подход, который возник в ответ на ограниченность традиционных грамматико-переводных методов и ориентирован на развитие умений восприятия, говорения, чтения и письма в интеграции с социально-культурным контекстом. Данная технология появился в 60-х годах XX века, о чём в своих научных трудах отмечали лингвисты Дж.Ричардс и Т.Роджерс. В методике того времени использовалось заучивание и перевод иностранных текстов, что давало минимальный результат в обучении иностранному языку. В отличие от традиционной коммуникативная технология была эффективной и интересной, как для обучающихся, так и для преподавателя. Если в традиционной (аудиолингвальной) методике главным считалась форма и структура высказывания, то новая технология охватывала содержание передаваемой информации. То есть главное значение обретает не грамматика, а лексическая сторона. Исходя из этого были сформированы принципы коммуникативного обучения, которые заключаются в следующем:

- приоритет смыслового содержания над формой;
- активное взаимодействие и сотрудничество между обучающимися;
- моделирование реальных коммуникативных ситуаций;

- развитие межкультурной компетенции.

Одним из основополагающих документов в зарубежной методике является концепция коммуникативной компетенции М.Канале и М.Суэйна, которая включает лингвистическую, социолингвистическую, стратегическую и прагматическую составляющие. Европейская система уровней владения языком CEFR (Council of Europe, 2001)[23] стандартизировала подходы и стала ориентиром для многих стран. В зарубежной практике широкое применение получили технологии обучения на основе заданий (Task-based learning), интеграция предметного и языкового обучения (CLIL), проектные методы, ролевые игры и дебаты. Все они направлены на активизацию речи и развитие критического мышления.

Цифровые технологии стали занимать значимое место, так как интерактивные платформы (Duolingo, Babbel, Moodle), видеоконференции, онлайн-дискуссии, мультимедийные материалы способствуют расширению коммуникативных возможностей обучающихся. В России развитие коммуникативного подхода связано с педагогами Е. И. Пассова, И. Л. Бим, Н. Д. Гальскова[24], которые внесли значительный вклад в методику обучения иностранным языкам. Современная российская практика стремится сочетать традиционные и коммуникативные методы, делая акцент на диалогическую форму работы, игровые технологии, создание учебных ситуаций, приближенных к реальной жизни.

Использование учебников нового поколения с электронными компонентами расширяет возможности для применения интерактивных технологий. Однако, российская система сталкивается с трудностями: недостаточная подготовка учителей, перегруженность учебных программ, а также сопротивление внедрению инноваций.

В Узбекистане, как и во многих постсоветских странах, традиционно доминировал грамматико-переводной метод обучения иностранным языкам, ориентированный на знание правил и перевод текстов. Однако с конца XX – начала XXI веков начался активный переход к более современным методикам, включая коммуникативный подход. Внедрение коммуникативных технологий получило новый импульс благодаря образовательной политике. В последние десятилетия правительство и Министерство дошкольного и школьного образования Узбекистана активно поддерживают реформы в системе обучения иностранным языкам. В частности, в Постановлении Президента

[23] Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press.

[24] Гальскова, Н. Д. Методика обучения иностранным языкам. Москва: Академия, 2013.

Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан»[25] и других официальных документах и программах появляется акцент на развитие коммуникативной компетенции. В школах и вузах внедряются учебные программы, основанные на коммуникативном подходе, с использованием интерактивных методов, групповой работы и моделирования реальных коммуникативных ситуаций. Появились курсы повышения квалификации и специализированные программы подготовки преподавателей с упором на коммуникативные технологии и современные методики преподавания.

В условиях многоязычного общества (узбекский, русский, английский) коммуникативное обучение помогает преодолевать языковые барьеры и развивать навыки общения на иностранном языке. Некоторые школы и регионы испытывают недостаток квалифицированных кадров и технических средств для полноценного внедрения коммуникативных технологий. В ряде учебных заведений сохраняется ориентация на традиционные методы, что затрудняет переход к активному коммуникативному обучению.

Для развития коммуникативных технологий изучения иностранных языков наблюдается усиление сотрудничества с международными образовательными организациями (British Council, Goethe-Institut и др.) в обмене опытом и внедрении лучших практик. На постоянной основе происходит расширение использования цифровых технологий и онлайн-ресурсов, разработка адаптированных учебных материалов и программ, учитывающих культурные и языковые особенности страны.

Важно отметить, что опыт Узбекистана демонстрирует постепенный и целенаправленный переход к коммуникативному обучению иностранным языкам. Несмотря на существующие трудности, движение в сторону развития коммуникативной компетенции соответствует мировым тенденциям и способствует повышению качества языкового образования в стране. Так, стимулируется использование практических методов, как использование ролевых игр**,** диалогов**,** дискуссий на уроках для формирования навыков устного общения. Широкое применение получило ведение проектной деятельности и работы в группах, что способствует развитию навыков сотрудничества и самостоятельного поиска языковых средств. Наблюдается активное применение аутентичных материалов – видео, аудио, тексты, отражающие реальную языковую среду, использование компьютерных

[25] Постановление Президента Республики Узбекистан, от 19.05.2021 г. № ПП-5117. https://lex.uz/ru/docs/5426740. Дата обращения: 05.04.2025.

технологий и мультимедийных ресурсов для создания интерактивной учебной среды.

Перспективы связаны с активным внедрением цифровых технологий и искусственного интеллекта, что позволит персонализировать обучение и расширить возможности для практики языка. Важным является повышение квалификации преподавателей и развитие межкультурной компетенции, что способствует более глубокому пониманию и адаптации к многообразию культурных контекстов. Сегодня укоммуникативные технологии играют ключевую роль в современном обучении языкам, обеспечивая развитие навыков реального общения. «Дискурсивный анализ приобрёл особую актуальность в силу того, что знаковая репрезентация мыслей, отношений в социуме представляет собой формальную схему, изучение которой помогает понять объективно существующее соотношение между различными сторонами процесса коммуникации»[26]. Анализ зарубежного и отечественного опыта показывает необходимость интеграции лучших практик и активного внедрения инноваций. Только так можно добиться высокого качества языкового образования и подготовки обучающихся к успешной межкультурной коммуникации.

В лингводидактике коммуникативные технологии рассматриваются как совокупность методов, приёмов и средств обучения иностранному языку, направленных на развитие у обучающихся коммуникативной компетенции, то есть способности эффективно и адекватно использовать язык для общения в различных ситуациях. Основные характеристики коммуникативных технологий касаются ориентации на общение. То есть не просто усвоение языковых правил, а умение применять язык для реального взаимодействия. Ещё одной целью определяется развитие всех видов речевой деятельности. Обучение включает навыки говорения, аудирования, чтения и письма в контексте общения.

Коммуникативные технологии также затрагивают моделирование реальных коммуникативных ситуаций. Учащиеся погружаются в ситуации, максимально приближенные к жизни, где необходимо использовать язык для достижения целей. Активное взаимодействие и сотрудничество. Использование парной и групповой работы, ролевых игр, дискуссий для создания живого общения. Учёт культурного контекста. Обучение предполагает развитие межкультурной компетенции, понимание норм и особенностей поведения в различных культурах. Использование современных

[26] Пассова, Е. И. Коммуникативный метод обучения иностранным языкам. Москва: Просвещение, 2015.

технологий. Включение мультимедийных средств, интерактивных платформ, онлайн-коммуникаций для расширения возможностей общения.

Как видно, цели коммуникативного обучения направлены не просто на знание грамматики или словарного запаса, а на развитие способности эффективно взаимодействовать на иностранном языке в различных жизненных и профессиональных ситуациях, с учётом культурных особенностей и коммуникативных целей.

Обратимся непосредственно к коммуникативным технологиям, которые применяются в современной педагогической практике. Обучение на основе заданий как технология предназначено для выполнения практических заданий, требующих использования языка для решения реальных проблем. Ролевые игры и симуляции подразумевают инсценировку ситуаций из жизни для практики общения. А проектная деятельность, которая нашла широкое применение в современном образовании, обеспечивает совместную работу над темами, требующую языкового взаимодействия. Такое же мнение можно выразить и об интерактивных мультимедийных ресурсах и платформах, которые используются для создания среды общения.

Исходя из вышесказанного, можно констатировать, что коммуникативные технологии в лингводидактике являются современными, интерактивными методы обучения, направленными на формирование умений реального языкового общения и межкультурного взаимодействия, что обеспечивает успешное владение иностранным языком в практике. Для эффективного формирования коммуникативной компетенции, важно соблюдать основные принципы коммуникативного обучения.

Как отмечают учёные, «коммуникативный подход представляет собой совокупность принципов, определяющих стратегию обучения, моделирующую общение. Это направлено на формирование у обучающихся восприятия и понимания смысла иностранной речи; овладение языковым материалом и способами действия с ним для построения речевых высказываний»[27]. Во-первых, это ориентация на коммуникативную цель. Обучение строится вокруг задач реального общения – смысл, передаваемый в процессе коммуникации, важнее, чем формальное соблюдение грамматических правил. Во-вторых, это касается интеграция видов речевой деятельности. Все четыре вида речи – говорение, аудирование, чтение и письмо – развиваются одновременно и взаимосвязано, чтобы подготовить обучающегося к полноценному общению. Третий принцип касается активного

[27] Пассов, Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению / Е.И. Пассов.—2-е изд.— Москва: Просвещение, 2021. — С.32–33.

участия обучающихся. Учащиеся выступают не пассивными слушателями, а активными участниками коммуникации – через диалоги, ролевые игры, обсуждения и проекты. Моделирование реальных коммуникативных ситуаций – также является принципом коммуникативной технологии, касающийся учебного процесса, который организуется так, чтобы максимально приблизить ситуации общения к жизненным и профессиональным контекстам.

Quyi (3)	46	35	−11	kamaygan

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

– o‘quvchi audio/videomatndagi ma’lumotlarni taqqoslay oldi;
– audio/videomatn mazmuni asosida sarlavha qo‘ya oldi;
– audio/videomatndagi sabab-natijani farqlay oldi;
– audio/videomatndagi so‘zlarning kontekstual ma’nosini tushuna oldi;
– audio/videomatn asosidagi fikrlarga dalil va faktlar keltira oldi;
– audio/videomatndagi ma’lumotlar ketma-ketligini aniqlay oldi;
– audio/videomatnning asosiy g‘oyasini tushuna oldi.

Bu natijaga erishishda o‘quvchilar quyidagilarga e’tibor qaratganlar:

– ma’lumotlarni taqqoslay olgan;
– matn mazmuni asosida sarlavha qo‘ya olgan;
– matndagi sabab-natijani farqlay olgan;
– matndagi so‘zlarning kontekstual ma’nosini tushuna olgan;
– matndan dalil va faktlar keltira olgan;
– matndagi ma’lumotlar ketma-ketligini aniqlay olgan;
– matnning asosiy g‘oyasini tushuna olgan.

Zamonaviy, tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatda ta’lim sohasi ham boshqa sohalar qatori izchil takomillashib bormoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonining asosi bo‘lgan milliy o‘quv dasturlari va darsliklar xalqaro andozalarga moslashtirilgan holda, milliy qadriyatlar negizida boyitilib, yangilanmoqda. Bu esa

pedagogik jarayonning sifat va mazmun jihatidan yuksalishiga xizmat qilmoqda. Bunday ijobiy o‘zgarishlar ta’lim tizimida olib borilayotgan metodik islohotlar va zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga puxta bilim berish, amaliy ko‘nikma hamda mustahkam malakalarni shakllantirish strategik ahamiyatga ega jarayon sifatida e’tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Milliy o‘quv dasturi. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022-2023 o‘quv yili. – 215-b

2. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova va b. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224-b.

3. Yusuf Doğan. Dinleme eğtimi. 12. Baskı. Ankara: Pegem Akademı, 2024. – 113 ss.

4. Sobirova M. O‘qituvchi faoliyatini pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnal. 13.00.00 – Pedagogika fanlari jurnali. NamSPI.UZ. ISSN:2992-9008; UDK:37. 2025-yil 1-son. 674-684-betlar.

5. Sobirova M. Xorijiy tajribalarga ijodiy yondashgan holda ta’limni rivojlantirish. “Til ta’limi tendensiyalari: muammo, yechimlar va istiqbollari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Namangan. 4-iyun 2025-yil. – B. 38-46.

6. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. https://doi. org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58.

7. Sobirova, M. (2023). Обучение языковым явлениям на основе анализа текста. “Этнокультурный и социолингвистический аспекты в теории и практике преподавания языков в негуманитарных вузах” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Минск, 30 март 2023 й., – B. 299-302. https://rep.bntu.by/handle/data/130394.

8.Sobirova, M. (2022). Тилга антропоцентрик ёндашув. Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical&Applied Science,07(111), http://t-science.org/arxivDOI/2022/07-111.html –P.36-39.

XIX–XX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA’LIM-TARBIYA TIZIMI

BOYDAVLATOV AZAMAT AHMADALI O‘G‘LI
NamDPI Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
azamatboydavlatov77@gmail.com
XAKIMOVA NOZIMA MIRZAJON QIZI
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti,
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
nozimaxakimova24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr davomida Markaziy Osiyoda ta’lim-tarbiya tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishini yoritib beradi. Maqolada an’anaviy maktab va madrasalardagi o‘qitish uslublarining o‘zgarishi, Jadidchilik harakatining ma’rifiy ahamiyati hamda sovet hokimiyati yillarida tizimning to‘liq dunyoviylashuvi jarayonlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: *Markaziy Osiyo, ta’lim evolyutsiyasi, maktab, madrasa, Jadidchilik, usuli jadid, dunyoviy ta’lim, sovet islohotlari, pedagogika, ma’rifatparvarlik.*

Abstract. This research outlines the gradual evolution of the educational system in Central Asia during the late 19th and the entire 20th century. The study provides a comparative analysis of the transformation of teaching methods in traditional maktabs and madrasas, the educational significance of the Jadid movement, and the complete secularization of the system during the Soviet era.

Keywords: *Central Asia, evolution of education, maktab, madrasa, Jadidism, Usul-i Jadid, secular education, Soviet reforms, pedagogy, enlightenment.*

Аннотация. Данное исследование освещает поэтапное развитие системы образования и воспитания в Центральной Азии во второй половине XIX и в течение XX века. В работе проводится сравнительный анализ трансформации методов обучения в традиционных мактабах и медресе, просветительской роли джадидизма, а также процессов полной секуляризации системы в годы советской власти.

Ключевые слова: *Центральная Азия, эволюция образования, мактаб, медресе, джадидизм, усули джадид, светское образование, советские реформы, педагогика, просветительство.*

Markaziy Osiyo tarixining eng murakkab va ziddiyatli davri bo‘lgan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari mintaqa ma’naviy hayotida tub burilish yasadi. Ushbu davrda ta’lim tizimi shunchaki bilim berish vositasi emas, balki milliy

o‘zlikni anglash va mustamlakachilik kishanlaridan qutulishning strategik quroliga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining Yangi Uyg‘onish davrini qurayotgan bir paytda, o‘tmishdagi ushbu evolyutsion jarayonlarni tahlil qilish strategik ahamiyatga ega.Uzoq vaqt davomida mintaqa ta’lim tizimi sxolastika (eski aqidalar) changalida qolib ketgan edi. Muammo shundaki, an’anaviy ta’lim global texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga javob bera olmay qoldi. Bu esa jamiyatning barcha qatlamlarida “Qanday o‘qish va o‘qitish kerak?” degan fundamental savolni keltirib chiqardi.

Ushbu maqolaning maqsadi – an’anaviy maktab-madrasalardan zamonaviy jadid maktablari va keyinchalik sovet modeliga o‘tish jarayonining ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, ta’limdagi ushbu evolyutsiya mintaqaning keyingi yuz yillikdagi intellektual yo‘nalishini qanchalik belgilab berganini ilmiy asoslashdir.

METODLAR

An’anaviy maktab ta’limi va “Usuli jadid” maktablarining o‘quv dasturlari, darsliklari hamda o‘qitish metodikalari o‘zaro qiyoslandi.Mavzu doirasida obyekt sifatida XIX-XX asr boshlari Markaziy Osiyo ta’lim tizimi va pedagogik fikr taraqqiyoti va predmet jadid ma’rifatparvarlarining ta’limni isloh qilish borasidagi amaliy faoliyati, xotin-qizlar maorifini yo‘lga qo‘yish, ko‘p tillilik konsepsiyasi va yangi avlod darsliklarining o‘ziga xos xususiyatlari etib belgilandi.

Foydalanish uchun manbaa sifatida jadidchilik harakati namoyondalarining asarlaridan (“Adibi avval”, “Adibi us-soniy”, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”, “Lug‘ati sitta al-sina”) olindi , shu bilan birga, tanlangan ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) o‘rganildi.[31]

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar faqat pedagogik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy va texnologik (matbaachilik, teatr) omillar bilan uzviylikda ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida Markaziy Osiyo pedagogikasidagi evolyutsion o‘zgarishlarning quyidagi muhim bosqichlari aniqlandi:

Darsliklar va o‘quv dasturlari: Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o‘quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. 1903-yildan jadid maktablari ochib, dars bergan. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan „Adibi avval” („Birinchi adib”, 1907) alifbe kitobi, „Adibi us-soniy” („Ikkinchi adib”, 1907). Unda „Himmatli faqir” she’ri keltirilgan) o‘qish kitoblari bir necha bor nashr qilingan. 1904-yildan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906-yildan O‘rta

[31] „Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931)“. ziyouz.com.

Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy, “Taraqqiy” gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida ”Xurshid” gazetasini tashkil etgan. 1908-yil uning „Sabzazor” (to‘plam), „Yer yuzi” (geografiyadan), „Tajvidal Qur’on” (Qur’onni o‘qish usulini o‘rgatgan) kitoblari ham bosilib, yangi usuldagi maktablarda darslik sifatida qo‘llangan. ”Shuhrat” (1907), „Tujjor” (1907), ”Osiyo” (1908)gazetalarini g‘oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan.[32]

Dunyoviylashuv va fanlar integratsiyasi: Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim tizimiga dunyoviy fanlarni (geografiya, tarix) tizimli ravishda olib kirdi. Uning “Ikki emas, to‘rt til lozim”[33] konsepsiyasi mintaqada milliy, mintaqaviy va xalqaro aloqalarni ta’minlovchi lingvistik modelni yaratdi. Behbudiy ta’lim evolyutsiyasida tillarni o‘rganish masalasini birinchi o‘ringa qo‘ydi. U o‘zining mashhur “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida yoshlarga: Turkiy (o‘zbek) va Fors tillarini – milliy o‘zlik va tarixni anglash uchun; Rus tilini – davlat idoralari va qonunchilik bilan ishlash uchun; Arab tilini – diniy manbalarni to‘g‘ri tushunish uchun o‘rganishni shart qilib qo‘ydi. Behbudiy “usuli jadid” maktablari uchun nafaqat nazariya, balki amaliy qo‘llanmalar ham yaratdi. Uning “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (Umumiy geografiya tanlanmasi) darsligi mintaqa maktablarida dunyoviy fanlarning tizimli o‘qitilishiga poydevor bo‘ldi. Bu darslik orqali o‘quvchilar ilk bor koinot, qit’alar va davlatlar haqida ilmiy tasavvurga ega bo‘lishdi.

Xotin-qizlar ta’limi: Abduqodir **Shakuriy** va uning turmush o‘rtog‘i Roziya otin tomonidan 1907-yilda ilk bor qizlar uchun “Usuli jadid” maktabining tashkil etilishi ta’limda gender tengligi va “ona tarbiyasi – millat tarbiyasi” tamoyilini amaliyotga tatbiq etdi. Uning mashhur darsliklaridan biri fors tilidagi „Savod o‘rgatish yo‘riqnomalari” (tojikcha – Rahnamoi savod)dir. „Jomi-ul-hikoyat” (1907), „Zubdat-ul-ashar” (1907) kabi darsliklar ham yozgan. Darsliklarning bir qismi Saidahmad Vasliy va Mahmud Behbudiy bilan hamkorlikda yozilgan.[34]

U barpo etgan yangi ta’lim tizimi o‘sha paytdagi jamiyatni hayron qoldiradi vas hu bilan bir qatorda hayotini o‘zgartiradi. Shakuriyning *“Xotin-qizlar bilimli bo‘lsa, butun millat bilimli bo‘ladi”* g‘oyasi ,aynan, bugungi kundagi eng yahshi ayol pedagoglar,shifokorlar va hatttoki vazirlar yetishib chiqishiga zamin bo‘la oldi.

Pedagogika fanlari doktori, professor S. Rajabov “ Turkistonda yangi usul maktablarining shakllanishini pedagogik innovatsiya sifatida tahlil qilgan. Abduqodir Shakuriy va uning izdoshlari yaratgan darsliklar (masalan, “Rahnomai savod”) bolaning ruhiyatiga mos ravishda, osondan murakkabga tamoyili asosida tuzilganini ta'kidlaydi. Bu davr pedagogikasi o‘zbek xalqining intellektual salohiyatini bir necha barobar tezroq o‘sishiga xizmat qilgan “ deya fikr

[32] O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
[33] Begali Qosimov „Mahmudxo’ja Behbudiy“. kh-davron.uz
[34] O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

bildiradi.Olim o‘z asarida (O‘zbekistonda sovet maktabining qurilish tarixidan) 19-20 asr pedagogikasini ta’limga yo‘naltirilgan innovatsiya deyishiga asosiy sabab “Abjad” usulidan “Savtiya” (tovush) usuliga o‘tilishi, sinf-dars tizimining (parta, doska, xarita, imtihonlar) joriy qilinishi,din bilan birga aniq va tabiiy fanlarning o‘qitilishi bo ‘ldi.[35]

Sadriddin Ayniy nafaqat jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi, balki o‘sha davr pedagogikasi va ta’lim tizimini professional tahlil qilgan eng yirik mutafakkirlardan biridir. Uning 19-asr oxiri va 20-asr boshidagi maktablar haqidagi fikrlari asosan uning avtobiografik asarlari va ilmiy-publitsistik maqolalarida aks etgan. Jumladan,u Shakuriyning ta’lim tizimi haqida quyidagicha fikr keltiradi “Shakuriy maktabiga kirgan bola bir necha oy ichida nafaqat o‘qishni, balki fikrini qog‘ozga tushirishni (yozishni) ham o‘rganadi. Bu – mo‘jiza”. Pedagogika fani borasida Ayniyning “Maktab – millatning tirikligi, kelajagi va najotidir. Agar maktab isloh qilinmasa, millat halokatga mahkumdir.” degan so‘zlari ta’lim evolyutsiyasida ma’lum ma’noda shior rolinio‘ynaydi. Buning manbaasi sifatida “Tahzib us-sibyon” (Bolalar tarbiyasi) asarini keltirishimiz mumkin. Adib ushbu asarda o‘z hamkasblarining pedagogik mahoratlari hamda ta’limda dunyoviy bilimlarni ham o‘qitib yosh avlodni dunyoni anglashiga va kelgusida ular o‘zlaridab ham yaxshiroq kelajak barpo qilishiga bo‘lgan say-harakatlari haqida yozib o‘tadi.[36]

MUHOKAMA

Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abduqodir Shakuriy o‘zbek pedagogikasi tarixida shunchaki islohotchi emas, balki zamonaviy milliy ta’lim tizimining arxitektorlari hisoblanadi.Ular yaratgan darsliklar bugungi kun pedagogikasining ustunidir. Masalan “Usuli savtiya” bolaning tovush o‘rganish savodxonligini bir necha yildan bir necha oygacha qisqarishiga olib keldi va o‘quvchi qolgan vaqtini geografiya,tarix (Munavvarqori Abdurashidxonov yaratgan tizim bo‘yicha) va til o ‘rganish (Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” g‘oyasi asosida) fanlarini o‘qishdi. Aynan shu tizim asosida o‘qitilgan bolalar keyinchalik ham savod jihatdan boshqalardan ajralib turar edi (Fitrat,Cho‘lpon kabi buyuk shaxslarni olishimiz mumkin).

Abduqodir Shakuriy tomonidan joriy etilgan tovush metodi (usuli savtiya) ta’lim oluvchining vaqtini tejashga yordam berdi . Bu metod o‘quvchining savodxonlik darajasini keskin oshirdi va pedagogikada “bolaga yo‘naltirilgan ta’lim” (student-centered learning) tamoyilini yuzaga keltirdi.Individuallik va gender tengligi asosida tahsil olganlar keyinchalik ham dunyo qarashi kengligi bilan

[35] Rajabov S. O‘zbekistonda sovet maktabi qurilishi tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1957. – 236 b.

[36] Ayniy S. Tahzib us-sibyon (Bolalar tarbiyasi). – Samarqand: 1909.

boshqalardan ko‘zga tashlanib turishar edi. Misol tariqasida quyidagi shaxslarni ko‘rsatishimiz mumkin :

Sadriddin Ayniy: Tojik va o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi. U Shakuriy maktabining o‘qitish uslubini shunchalik yuqori baholaganki, Buxoroda ham aynan shu modeldagi maktablarni ochishga harakat qilgan.

Hoji Muin: Samarqandlik mashhur jadid, dramaturg va jurnalist. U Shakuriyning nafaqat shogirdi, balki eng sodiq izdoshlaridan biri bo‘lgan.

Saidrizo Alizoda: Tilshunos, “Turkiston” gazetasi tahririyatida ishlagan va bir qancha darsliklar muallifi.

Abdushukur Shukuriy: Keyinchalik mashhur adabiyotshunos olim bo‘lib yetishgan.

Roziya Otin o‘z davrining jasoratli ayoli bo‘lib, u erining maktabi yonida ilk bor qizlar uchun jadid maktabini tashkil qilgan (1907-yil). U eski usuldagi “otinoyi” maktablaridan farqli o‘laroq, qizlarga dunyoviy bilimlar, hisob (matematika), jo‘g‘rofiya va amaliy san’at (tikuvchilik, kasanachilik)ni o‘rgatgan.Uning qo‘lida tahsil olgan o‘nlab Samarqandlik qizlar keyinchalik ilk o‘zbek o‘qituvchi ayollari, hamshiralari va jamoat faollari bo‘lib yetishishdi. Ular orasida Ma’mura Sultonova kabi ma’rifatparvar ayollarni ko‘rish mumkin(Dolimov, 2011).[37]

XULOSA

Ushbu tadqiqot XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ta’lim tizimida yuz bergan transformatsion jarayonlarni tahlil qilib, quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Markaziy Osiyoda ta’lim an’anaviy diniy maktab va madrasalardan bosqichma-bosqich dunyoviy bilimlarga yo‘naltirilgan “Usuli jadid” maktablari hamda keyinchalik sovet modelidagi ta’lim tizimiga o‘tdi. Bu jarayon shunchaki o‘qitish uslubining o‘zgarishi emas, balki jamiyatning dunyoqarashini modernizatsiya qilishga bo‘lgan intilish edi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Munavvarkori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning faoliyati natijasida mintaqada ilk bor ona tilida yozilgan darsliklar, tabiiy fanlar va geografiya kabi fanlarning o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu bosqich milliy uyg‘onish (Renessans) uchun poydevor vazifasini o‘tadi.

Evolyutsion jarayon ikki xil bosim ostida kechdi: bir tomondan chor Rossiyasining mustamlakachilik ta’lim siyosati (rus-tuzem maktablari), ikkinchi tomondan esa mahalliy ulamolarning konservativ qarashlari. Shunga qaramay, intellektual qatlam bu ikki qutb orasida milliy o‘zlikni saqlab qoluvchi “oltin o‘rta”ni topishga muvaffaq bo‘ldi.

[37] Dolimov, U. (2011). *Turkistonda jadid maktablari*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 112-115-betlar.

XX asr boshidagi ta’lim islohotlari mintaqada savodxonlik darajasining keskin oshishiga va professional kadrlar qatlamining shakllanishiga xizmat qildi. Ushbu davrdagi tajriba bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimini isloh qilish va milliy qadriyatlarni zamonaviy standartlar bilan uyg‘unlashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX–XX asrlardagi ta’lim evolyutsiyasi mintaqani o‘rta asrlarga xos turg‘unlikdan zamonaviy rivojlanish yo‘liga olib chiqqan asosiy omil bo‘ldi. Bu davrdagi o‘zgarishlar bugungi kungi Uchinchi Renessans poydevori uchun tarixiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Munavvarqori Abdurashidxonov” (1878-1931)”. ziyouz.com

2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3. Begali Qosimov „Mahmudxo‘ja Behbudiy”. kh-davron.uz

4. Rajabov S. O‘zbekistonda sovet maktabi qurilishi tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1957. – 236 b.

5. Ayniy S. Tahzib us-sibyon (Bolalar tarbiyasi). – Samarqand: 1909.

6. Dolimov, U. (2011). *Turkistonda jadid maktablari*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 112-115-betlar.

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI EVRISTIK TA’LIM ORQALI RIVOJLANTIRISHGA DOIR METOD VA USULLAR IMKONIYATLARI

ELBEKOVA SHOHSANAM NE’MATJON QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Email:hasanboevashohsanam@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda evristik ta’limning o‘rni, ahamiyati hamda pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, evristik yondashuv asosida qo‘llaniladigan zamonaviy metod va usullar, ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari hamda badiiy asarlarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: evristik ta’lim, kreativ qobiliyat, adabiyot ta’limi, interaktiv metodlar, ijodiy tafakkur, muammoli ta’lim, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, badiiy tahlil, o‘quvchi faolligi, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье освещаются роль, значение и педагогические возможности эвристического обучения в развитии креативных способностей учащихся на уроках литературы. Также анализируются

современные методы и приемы, применяемые на основе эвристического подхода, их эффективность в формировании самостоятельного мышления учащихся, творческого мышления, навыков решения проблемных ситуаций и компетенций по анализу художественных произведений

Ключевые слова: эвристическое обучение, креативные способности, обучение литературе, интерактивные методы, творческое мышление, проблемное обучение, педагогические технологии, самостоятельное мышление, инновационный подход, компетентностное обучение, художественный анализ, активность учащихся, эффективность обучения.

Abstract. This article highlights the role, significance, and pedagogical potential of heuristic education in developing students' creative abilities in literature classes. It also analyzes modern methods and techniques applied based on the heuristic approach, examining their effectiveness in shaping students' independent thinking, creative reasoning, problem-solving skills, and competencies in analyzing literary works.

Keywords: heuristic education, creative ability, literature education, interactive methods, creative thinking, problem-based learning, pedagogical technologies, independent thinking, innovative approach, competence-based education, literary analysis, student activity, educational efficiency.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularda mustaqil va kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda nostandart yechimlar topish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Ayniqsa, so‘z san’ati hisoblangan adabiyot darslari o‘quvchining ichki salohiyatini, estetik didini va ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Biroq an’anaviy ta’lim metodlari aksar hollarda o‘quvchini tayyor axborotni passiv qabul qiluvchi subyektga aylantirib qo‘ymoqda. Shu sababli, adabiyot darslarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini faollashtirishda evristik, ya’ni kashfiyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biridir. Evristik ta’lim asoslari pedagogika fanida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni bevosita adabiyot darslarida badiiy matn tahlili jarayoniga tizimli tatbiq etish imkoniyatlari hamon maxsus tadqiqotlarni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili

Evristik ta’limning nazariy asoslari va ildizlari qadimgi davrlarga, xususan Suqrot davriga borib taqaladi. Suqrotning savol-javobga asoslangan o‘qitish usuli o‘quvchini tayyor javoblarni qabul qiluvchi emas, balki o‘z fikrini izlab, o‘ylab topuvchi shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan evristik ta’lim o‘quvchining mustaqil fikrlash hamda ijodiy izlanish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz adabiy ta’lim

tizimida evristik metodlardan foydalanish A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, S.Kambarova [1] kabi metodistlarning tadqiqot ishlarida o‘qitishning hayot bilan aloqadorligi, ma’naviyat va estetik asoslarning ustuvorligi, mustaqil ishlarni uyushtirish, o‘quvchilarning adabiy tahlil malakalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, mutolaa madaniyatini shakllantirish masalalari doirasida yoritilgan. Evristik yondashuv orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga o‘rgatish, ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari N.S.Mamatov, J.Tursunov, Sh.Hamdamov, D.J.Gaipov, I.G‘.Abdullayeva, F.K.Razikova, O.O.Xalloqova, A.Turaqulova, K.A.Shokarimova, R.Xurramov kabi pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan.[2] Jahon ta’lim tizimida evristik yondashuv vositasida o‘quvchilarni ijodkorlikka yo‘naltirish masalalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarni shakllantirishning pedagogik- psixologik xususiyatlari xorijlik olimlardan D.Poya, A.Puankare, B.Bolzano, R.Dekart, K.Dunker, A.Giddens, R.Sears, L.Jantinlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. [3]

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini oshirishda evristik yondashuvning amaliy imkoniyatlari izohlanadi. Xususan, dars jarayonida “Virtual dialoglar” metodining qo‘llanish shakli tahlil etiladi. Maqola davomida shu kabi evristik usullar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, badiiy asarni chuqur tahlil qilishi va nostandart ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlari hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri asoslab beriladi.

Natijalar va ularning tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etish, o‘quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish masalalari belgilab berilgan. Mazkur qaror ijrosini ta’minlashda evristik ta’lim metodikalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Evristika – yunoncha so‘z bo‘lib, “heurist” so‘zi “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma’nolarini beradi. O‘quvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda evristik metodlar asosidagi ta’lim alohida o‘rin tutadi. Evristik ta’lim juda uzoq antik zamonlardan beri qo‘llanib kelinadi. Birinchi bora ta’lim jarayonida qo‘llanilganda – evristik suhbatlar yo‘naltirilgan, ketma-ket berilgan savollarga javob jarayonida shakllangan, savollarga javob berishda javoblar o‘quvchi tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan.

Pedagogikada o‘quvchi fikrini rivojlantiruvchi, maqsadli, sermahsul ishlanmalar asosida qo‘llanilgan. Ko‘proq bu usulni birinchilardan bo‘lib, matematik olimlar o‘quvchilar iste’moliga kiritganlar. Ko‘pincha uni “matematik yechish san’ati” metodlari shaklida qo‘llash ma’qul ko‘rilgan. Keyinchalik uni boshqa o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonida ilg‘or, universal metodlar sifatida ham qo‘llashga harakatlar va urinishlar bo‘lgan. Bu muammo bilan o‘z davrida faylasuf askar, grek matematigi Papi Aleksandriyskiy, keyinchalik fransuz faylasufi va matematigi R.Dexretler shug‘ullanib, evristik metodlar universal metoddir, degan xulosaga keldilar. Ilg‘or metod sifatida uni Yan Amos Komenskiy ta’lim tizimiga kiritish zarurligini uqtirgan. U evristik usuldan ta’lim jarayonida foydalaniladi, shaxsning o‘ylashi, ijodiy fikr yuritishi zamirida turli yangiliklarni yaratuvchi shaxs tarbiyalanadi, deb ta’rif beradi. Rus pedagogi P.K.Konterev – xalq ta’lim maktablarida evristik ta’lim metodlarini keng qo‘llash ijodiy fikr yurituvchi shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi, degan fikrni ilgari surdi. Evristik ta’lim metodining keng tarqalishi bizga, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan kela boshlagan. Ayniqsa, o‘quv jarayoniga kibernetikaning kirib kelishi, ilmiy izlanuvchanlik, ijodkorlik, yangiliklar yaratishning oshishi munosabati bilan ta’lim jarayonida keng qo‘llashni talab etadi. Hozir fanda evristika yo‘nalishi ham rivojlanmoqda. Biror yangilik yaratish g‘oyasi ilgari surilgandan keyin yangi ixtiyoriy harakat dasturi tuziladi. Shu vaziyatdan chiqish yoki jadallashtirish uchun yangicha ijodiy, nostandart fikrlash orqali yangiliklar yaratiladi. Fikrlash jarayoni analiz, sintez, umumlashtirish orqali ayrim operatsiyalar ketma – ketligida yangicha yondashuv orqali yechiladi va hal etiladi. Bu yondashuv adabiyot darslarida ham yuqori pedagogik samaraga ega. Evristik savollar, alternativ talqinlar va muqobil xulosalar ishlab chiqish orqali o‘quvchilar badiiy asardagi voqea-hodisalarni yagona nuqtai nazardan emas, balki turli rakurslardan baholashga o‘rganadilar. Bu esa ularni matn mazmuni va muallif g‘oyasini tahlil qilish jarayonida intuitiv qaror qabul qilishdan aniqroq, mantiqiy va original fikrlashga yo‘naltiradi. Xalqaro tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, kreativligi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar muammoli vaziyatlarga duch kelganda ko‘proq raqamli yechimlar ishlab chiqadi, tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari esa o‘sadi.

Shu bilan birga, adabiyot darslarida evristik yondashuvning amalga oshirilish darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning eng kamida 30–40 % i dars davomida faqat tayyor bilimni qayta ishlash bilan cheklanadi, ijodiy tafakkurini amalda namoyon eta olmaydi. Bunga sabab sifatida an’anaviy, reproduktiv metodlarning ustunligi va o‘quvchilarga kreativ topshiriqlar berishda tizimli yondashuvning yetishmasligi ko‘rsatiladi. Shu nuqtai nazardan, evristik metodlarni maqsadli joriy etish orqali bu raqamlarni sezilarli darajada oshirish mumkinligi ta’kidlanmoqda.

Adabiyot darslarida o‘quvchini “kashfiyotchi”ga aylantirish uchun quyidagi aniq, interaktiv va kreativ metodik usuldan foydalanish mumkin:

“Virtual dialoglar” metodi

Bu usulda o‘quvchilar turli davr yoki turli asar qahramonlarini bir stolga to‘playdilar. Misol tariqasida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asari qahramoni *Farhod* va Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asaridagi *Ali Qushchi* o‘rtasida *“Ilm va ishq”* mavzusida virtual suhbat tashkil etish. Bunda o‘quvchi ikki xil davr va uslubni qiyoslaydi, ularning umuminsoniy qadriyatlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalaydi.

“Virtual dialoglar” metodining ilmiy-metodik tahlili:

Evristik ta’limda dialogik yondashuv (M.Baxtin nazariyasi asosida) o‘quvchini matn bilan faol muloqotga kirishishga undaydi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni hamda Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani o‘rtasida qurilgan virtual ko‘prik – bu shunchaki qiyoslash emas, balki o‘zbek ma’naviyatining ikki ustuni: ishq (irfon) va ilm (ratsionalizm) o‘rtasidagi fundamental bahsni jonlantirishdir. Farhod – ishqni ilohiy kuch va ijodkorlik manbai sifatida ko‘radi. U uchun toshni yorish ham, san’at ham ishq natijasidir. Ali Qushchi esa Ulug‘bek maktabining vakili sifatida ilmni aniqlik, dalil va koinot sirlarini anglash vositasi deb biladi. Virtual suhbat matnining loyihaviy ko‘rinishi quyidagicha:

Ali Qushchi: *“Ey yigit, sen toshlarni talqon qilib, tog‘lar orasidan suv ochding. Bu qanday hisob-kitobki, sening kuchingga kuch qo‘shdi? Biz yulduzlar jadvalini tuzib, koinot muvozanatini ilm bilan angladik.”*

Farhod: *“Mening hisobim – ishq jadvalidir, ey olim. Toshni kesgan mening tesham emas, balki ko‘nglimdagi Shirin vasli edi. Ilm ko‘z bilan ko‘riladiganni anglatadi, ishq esa ko‘zga ko‘rinmaydigan sirlarni ochadi.”*

Ali Qushchi: *“Biroq ilm bo‘lmasa, sening suving adashib ketishi, xalqingga manfaat bermasligi mumkin edi. Biz Ulug‘bek hazratlari bilan fanning chirog‘ini yoqdik!”*

Farhod: *“Chiroqning moyi – bu muhabbatdir. Muhabbatsiz ilm – ruhsiz jismdir...”*

Ushbu evristik topshiriq o‘quvchi tafakkurida quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiradi:

a) Qiyosiy tahlil ko‘nikmasi: o‘quvchi XV asr (Navoiy davri) va XX asr (Odil Yoqubov yozgan davr va asardagi Temuriylar davri) orasidagi lisoniy va g‘oyaviy farqlarni tushunib yetadi. U ikki asar qahramonining til xususiyatlarini saqlab qolishga intilib, o‘z so‘z boyligini oshiradi.

b) Qadriyatlar transformatsiyasi: o‘quvchi Farhodning ishqi va Ali Qushchining ilmi aslida bir ildizga – Inson kamolotiga xizmat qilishini kashf etadi. Bu uning “mening kashfiyotim” degan xulosasiga aylanadi.

c) Tanqidiy va divergent, ya’ni ko‘p tarmoqli fikrlash: o‘quvchi an’anaviy darslikdagi “Farhod – mehnatkash qahramon”, “Ali Qushchi – sodiq shogird” degan biryoqlama ta’riflardan chiqadi. U qahramonlarni jonli shaxs, o‘z qoida va maqsadlari uchun bahslasha oladigan intellektual obrazlar sifatida qayta yaratadi.

Kreativ ko‘rsatkich	**O‘quvchi faoliyatidagi namoyon bo‘lishi**	**Ilmiy-pedagogik natija**
Sintezlash mahorati	Ikki xil asarni bitta mavzu (Ilm va Ishq) atrofida birlashtiradi.	Tizimli fikrlash qobiliyati shakllanadi.
Empatiya	O‘zini qahramonlar o‘rniga qo‘yib, ularning tilida gapiradi.	Emotsional intellekt rivojlanadi.
Interpretatsiya erkinligi	Muallif matnidan tashqariga chiqib, yangi dialoglar to‘qiydi.	Ijodiy fantaziya va yozuvchilik mahorati oshadi.

1-jadval

“Virtual dialoglar” metodining natijalari tahlili

“Virtual dialoglar” metodi adabiyot darsini quruq nazariy sxemalar va tayyor qoliplardan xalos etib, uni jonli tafakkur maydoniga aylantiradi. Mazkur metod orqali o‘quvchi badiiy asar qahramonlari bilan nafaqat tanishadi, balki ular bilan ichki muloqotga kirishadi, ularning dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari va hayotiy qarashlarini anglashga harakat qiladi. Masalan, Ali Qushchi va Farhod o‘rtasidagi bahsni yaratish jarayonida o‘quvchi ikki xil ma’naviy olam – ilm va tuyg‘u, aql va muhabbat, mantiq va ilhom o‘rtasidagi munosabatlarni mustaqil tahlil qiladi. Shu tariqa u oddiy matn tahlilchisidan ijodkor va tadqiqotchiga aylanadi.

Bu metodning muhim jihati shundaki, o‘quvchi dialog yozish davomida aslida o‘zining ichki “Men”i bilan ham suhbatlashadi. “Men uchun ilm ustunmi yoki tuyg‘u?”, “Hayotda insonni yuksaltiruvchi kuch nima?” kabi savollar uning shaxsiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchi tayyor xulosalarni yodlab olish bilan cheklanmay, o‘z hayotiy pozitsiyasini izlay boshlaydi. Bu esa evristik ta’limning asosiy maqsadi – shaxsni o‘zini o‘zi anglashga, mustaqil fikrlashga va ichki salohiyatini kashf etishga yo‘naltirish vazifasini amalga oshiradi. Shuningdek, “Virtual dialoglar” metodi o‘quvchilarning nutq madaniyati, tasavvur doirasi va ijodiy yozish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. O‘quvchi qahramonlarning xarakteriga mos uslubda fikr yuritishga intiladi, tarixiy va badiiy

muhitni his etadi, obrazlarning ruhiy holatini ifodalashga harakat qiladi. Bu esa uning estetik tafakkuri va emotsional intellektini boyitadi. Eng muhimi, adabiyot darsi o‘quvchi uchun majburiy fan emas, balki o‘zini anglash, fikrini erkin ifodalash va ijodiy izlanish maydoniga aylanadi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, adabiyot darslarida evristik ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning kreativ va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar yaratish, evristik suhbat, erkin interpretatsiya hamda “Virtual dialoglar” kabi metodlar o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki badiiy matn mazmunini mustaqil kashf etuvchi faol subyektga aylantiradi. Natijada o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur, qiyosiy tahlil, empatiya, ijodiy yondashuv va estetik did shakllanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, evristik yondashuv adabiyot darslarining samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning intellektual va ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

2. Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997.

3. Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998.

4. Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006.

5. Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019.

6. Mamatov N.S. Evristik mezonlar asosida informativ belgilar fazosini shakllantirish usullari va algoritmlari. Ped. fan. fals. dok. (PhD). ... diss. – Toshkent, 2010.

7. Tursunov J. O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta’lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 24 –26

8. Gaipov D.J. Evristik metod yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faolligini ta’minlash mexanizmlari. Ped. fan. fals. do. (PhD) . diss. – Toshkent, 2021.

9. Razikova F.K. Evristik ta’lim texnologiyasiga asoslangan yondashuvni amalga oshirish sharti // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2022

10. Turaqulova A. Evristik ta’lim texnologiyalari / Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022

11. Farhod va Shirin – Navoiy, A. *Farhod va Shirin*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2016.

12. Ulug‘bek xazinasi – Yoqubov, O. *Ulug‘bek xazinasi*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018.

O‘ZBEK TILIDA NUTQIY AKTLAR NAZARIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI: OSTIN VA SEARL NAZARIYALARI

SHAMSIDDINOVA MAFTUNA HAMIDJON QIZI
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxasisligi magistranti
E-mail: maftuna_shamsiddinova@mail.ru
tel: +998-94-755-00-10

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishi, rivojlanishi va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Zamonaviy kommunikatsion ehtiyojlar asosida nutqiy aktlar nazariyasining konseptual asoslarini takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Maqolada madaniyatlararo pragmatika, kognitiv tilshunoslik va kommunikativ kompetensiya kabi yondashuvlar asosida o‘zbek tilida nutqiy aktlarni o‘rganishning yangi metodologik usullari taklif etiladi. Raqamli kommunikatsiya va sun’iy intellekt kontekstida nutqiy aktlar nazariyasining amaliy qo‘llanilishi ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, pragmatika, illokutsiya, perlokutsiya, kommunikativ kompetensiya, o‘zbek tili, kognitiv yondashuv, madaniyatlararo muloqot, raqamli tilshunoslik, kontekst.

Аннотация. В данной статье анализируется становление, развитие и практическое применение теории речевых актов в узбекском языке. Обосновывается необходимость совершенствования концептуальных основ теории речевых актов с учетом современных потребностей коммуникации. В статье предлагаются новые методические приемы изучения речевых актов в узбекском языке на основе таких подходов, как межкультурная прагматика, когнитивная лингвистика и коммуникативная компетенция. Также

рассматривается практическое применение теории речевых актов в контексте цифровой коммуникации и искусственного интеллекта

Ключевые слова: речевой акт, прагматика, иллокуция, перлокуция, коммуникативная компетенция, узбекский язык, когнитивный подход, межкультурная коммуникация, цифровая лингвистика, контекст.

Abstract. This article analyzes the formation, development and practical application of the theory of speech acts in the Uzbek language. The need to improve the conceptual foundations of the theory of speech acts based on modern communication needs is justified. The article proposes new methodological methods for studying speech acts in the Uzbek language based on approaches such as intercultural pragmatics, cognitive linguistics and communicative competence. The practical application of the theory of speech acts in the context of digital communication and artificial intelligence is also considered.

Keywords: speech act, pragmatics, illocution, perlocution, communicative competence, uzbek language, cognitive approach, intercultural communication, digital linguistics, context.

Kirish. J.Ostin va Searl bir yo‘nalishda izlanish olib borganiga qaramay, Ostin bu nazariya asoschisi, Searl esa uni takomillashtirgan olim sifatida tilga olinadi. Bundan tashqari, ular kashf etgan nazariyalarning yana bir qancha farqli tomonlari bor. Ostin o‘z izlanishlarida tilning amal bajarish vazifasini isbotlagan bo‘lsa, Searl u kashf etgan mana shu nazariyani mantiqiy-strukturaviy asosda tizimlashtirdi. Shu o‘rinda mantiqiy-strukturaviy metod o‘zi nima degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu – nutqiy aktlarni tasniflashda mantiqiy kategoriya**,** funksional struktura**,** illokusional maqsad va qoidalar asosida ularni tartibli, izchil, qat’iy mezonlar bilan ajratish usuli. Ostin nutqiy aktlarni ko‘proq ijtimoiy vazifalar bo‘yicha tavsiflagan bo‘lsa, Searl esa ularni formal-mantiqiy me’yorlar asosida tizimlashtirgan. Yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak, Ostin – nazariya asoschisi, Searl esa shu nazariyani tizimlashtirgan olim.

Ostin o‘z nazariyasida til aktlarining 3 turini farqlaydi. Bular lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar. Searl esa ko‘proq illokutsion aktga e’tiborini qaratadi va ularni sinchiklab o‘rganadi[38]. Shuningdek, Ostin nutq vaziyatini tahlil qilib, kontekstda gapning amalga oshishiga katta e’tibor qaratadi. Nutqning niyati haqida esa uncha ma’lumot bermaydi. Searl esa nutqning niyatini diqqat markaziga qo‘yadi, nutqiy aktni aynan so‘zlovchi niyatiga qarab belgilaydi. Shuning uchun Searl zamonaviy pragmatikada kommunikativ niyat asosochisi sifatida tilga olinadi.

[38] Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press.

Nutqiy aktlar nazariyasi Ostin va Searl davridan beri sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy lingvopragmatika nutqiy aktlarni nafaqat mantiqiy-tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki psixolingvistik, kognitiv, sotsiolingvistik, multimodal va kompyuter lingvistika yo‘nalishlarida chuqurlashtirib o‘rganmoqda.

Mutlaqo yoki bir umrlik haqiqatni ifodalovchi gaplar yo‘q. Hammasi nutq vaziyatida haqiqat bo‘lishi mumkin, ammo ma’lum bir vaqt o‘tib, haqiqat yolg‘onga aylanishi mumkin. Lekin bu fikr ham barcha gaplar uchun emas. Masalan, “Havo sovuq” gapi ma’lum bir nutq vaziyati uchun to‘g‘ri, lekin issiq kunlar uchun noto‘g‘ri ma’lumot hisoblanadi. Lekin oxirgi qarashlar bu nazariyani yo‘qqa chiqardi. An’anaviy mantiq va falsafada gaplar asosan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Ammo kundalik nutqda ko‘plab gaplar bunday mezonga to‘g‘ri kelmaydi. Ular haqiqatni tasvirlamaydi, balki amal bajaradi. Shu sababli, biz gaplarni faqat bayon sifatida emas, balki amal sifatida ham ko‘rib chiqishimiz kerak. Ba’zi gaplar borki, ularni aytishning o‘zigina o‘sha ishning bajarilishini bildiradi. Masalan: “Siz direktor etib tayinlayman”, “Bu ishim uchun sizdan uzr so‘rayman”, “Men bu kitobni “Martin Iden” deb nomlayman” . Bu gaplarni yolg‘on yoki rostlik jihatdan tahlil qilish imkonsiz. Biz bu hukmlarni faqat muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kabi turlarga ajratishimiz mumkin. Chunki sharoit nuqtayi nazaridan imkoniyat bo‘lsa va hukm aytuvchi o‘zi aytayotgan vakolatga ega bo‘lsa, ushbu hukmlar, albatta, amalga oshadi, hammasi aksincha bo‘lsa, demak, u bajarilmaydi.

Ayrim gaplar haqiqatni tasvirlash uchun emas, balki ma’lum bir ishni bajarish uchun ham aytiladi degan fikrlar ilgari surildi. Shuning uchun J.Ostin gaplarni 2 turga ajratib o‘rganishni ma’qul ko‘rgan. Ular tasvirlovchi yoki bayon qiluvchi (konstativ) va amal bajaruvchi (performativ) gaplar. An’anaviy qarashga ko‘ra, tasvirlovchi gaplar haqiqatni bayon qiladi va ular rost yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Masalan: “Bugun quyosh chiqyapti”. Bu gapni rost yoki yolg‘onligini tekshirish mumkin.

Amal bajaruvchi gaplarni esa rost yoki yolg‘onga ajratish imkonsiz. Ular aytilgan paytda amalga oshiriladigan harakatning o‘zidir. Masalan: “Men va’da beraman” yoki “Sizni ogohlantiraman”. Bu gaplar amalga oshmay qolishi uning yolg‘onligini bildirmaydi. Bu yerda so‘zlovchining niyati buzilgan bo‘lishi mumkin. Shunisi aniqki, bu juda chuqur tahlil.

Yana boshqa tomondan chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, har ikkala gap o‘rtasida chegaraning aniq emasligi ma’lum bo‘ladi. Chunki ko‘plab bayon qiluvchi gaplar ham ma’lum bir vaziyatda amal bajarishga xizmat qilishi mumkin. Masalan: “Bu yer sovuq” degan gap axborot berishdan tashqari, ba’zida yashirin iltimos yoki derazani yopish taklifini anglatayotgan bo‘ladi.

Shunday ekan, nutqiy faoliyatni faqat *rost* yoki *yolg‘on* degan mezonlar bilan baholash yetarli emas.

Lingvopragmatika nutqni faqat ma’no sifatida emas, balki harakat sifatida o‘rganadi. Ostin o‘z nazariyasini shunday asoslaydi: “Gapirish – bu shunchaki ma’lumot berish emas, balki ijtimoiy amal bajarishdir”.

Demak, nutq faqat rost yoki yolg‘on mezoni bilan emas, balki qanday sharoitda, kim tomonidan, nima maqsadda aytilgani bilan baholanadi. Bu lingvopragmatikaning asosiy tamoyili sanaladi.

Ostin keltirgan performativlar, ya’ni amal bajaruvchi gaplar lingvopragmatik jihatdan bayonet emas, ijtimoiy institut bilan bog‘liq harakatdir. Masalan: “Men bajaraman”, “Men va’da beraman”, “Men tikaman” gaplari.

“Men roziman”. Nikohda ishlatiladigan ushbu jumla voqelikni tasvirlamaydi, balki ijtimoiy holatni o‘zgartiradi. Bordi-yu, ushbu amal bajarilmay qolsa ham bu nutqning noto‘g‘riligidan emas, balki so‘zlovchining niyati yomonligini bildirishi yoki nutq sharoiti bunga mos kelmasligidan darak berishi mumkin. [39]Bundan shunday xulosa chiqadiki, ma’no kontekstga bog‘liq va kontekstsiz gapning pragmatik kuchi yo‘q.

Ostin nazariyasida eng muhim qarashlardan biri – bu “mos sharoitlar” (appropriate circumstances”) tushunchasi. Lingvopragmatik nuqtayi nazardan esa bu nutq egasining, ya’ni so‘zlovchining pragmatic kompetensiyasi bilan bog‘liq. Aniqroq qilib aytganda, u qachon, qayerda va qanday gapirish kerakligini biladimi yoki yo‘q degan fikr turadi. Masalan, poyga tugagandan keyin “pul tikaman” deyish grammatik jihatdan to‘g‘ri, pragmatik jihatdan esa noto‘g‘ri. Aynan shu yerda pragmatik muvaffaqiyatsizlik yuz beradi.

Ostin kiritgan yana bir tushuncha keyinchalik lingvopragmatikaning asosiy kategoriyasiga aylandi. Bu pragmatik muvaffaqiyatsizlik. Bunda yuqorida ko‘rganimizdek gap grammatik jihatdan mutlaqo to‘g‘ri bo‘lsa-da, amal bajarilmaydi. Bunga esa vaziyat imkon bermaydi. Lingvopragmatik jihatdan muvaffaqiyatsizlik nutq va ijtimoiy reallik o‘rtasidagi uzilish natijasida ro‘y beradi. Masalan, vakolatsiz shaxs nikoh o‘tkazsa, samimiyatsiz va’da berilsa.

Xulosa. Ostin nazariyasi nutqni amal sifatida tushuntiradi, pragmatik kontekstni markazga qo‘yadi, nutqning ijtimoiy va institutsional tabiatini ochib beradi. Shuning uchun Ostin nazariyasi lingvopragmatikaning poydevori, pragmalingvistika va nutq aktlari nazariyasining asosiy manbasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[39] Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Harvard University Press.

1. Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press.
2. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press.
3. Safarov, Sh. (2008). Pragmatika. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
4. Mahmudov, N. (2012). Til va nutq. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

XALQ ERTAKLARINI ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLASH IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

ABDULLAYEVA MUXLISA AKMALJON QIZI
NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti
Email:muxlisadavlatova2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq ertaklarini zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda ertaklarning yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ertaklarni o‘qitishda interfaol metodlar, dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, gamifikatsiya, multimedia va audiovizual vositalardan foydalanish usullari bayon etilgan. Maqolada differensial yondashuv, raqamli platformalar, STEAM elementlari hamda san’at va musiqa fanlari integratsiyasi orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, formativ baholash, madaniy xilma-xillikni integratsiyalash va empatiyani rivojlantirish usullariga alohida e’tibor qaratilgan. Xulosa sifatida xalq ertaklarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, zamonaviy ta’lim, interfaol metodlar, multimedia vositalari, audiovizual texnologiyalar, gamifikatsiya, dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, differensial ta’lim, raqamli platformalar, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, formativ baholash, STEAM ta’limi, madaniy xilma-xillik, empatiya, pedagogik texnologiyalar, xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy tarbiya, ta’lim samaradorligi.

Globallashuv davrida o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish kishilarning eng katta maqsadiga aylanmoqda. Bu borada folklorshunoslik manbalarining ham o‘rni beqiyos. Milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda ta’lim oluvchilarga zamonaviy bilim berish har bir pedagogning vazifasidir. Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish ertaklar esa o‘z negizida asrlar davomida insonlarni tarbiyalab, ma’naviyatini yuksaltirib kelayotgan merosdir.

Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deyiladi[40]. Xalq ertaklari o‘tmishdan hozirgi kungacha bizga yetib kelgan madaniy resurslar hisoblanadi. Qadimdan ularni tasavvurdan foydalaniladigan, asosan g‘ayrioddiy qahramonlar, voqealar va hikoyalar uchun zamin yaratadigan va og‘zaki ravishda avloddan-avlodga o‘tib keladigan rivoyatlar sifatida ta’riflanadi. Ko‘p yillar davomida yangi avlodlarga ma’lum qadriyatlarni singdirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qilgan ertaklar kishilarni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi vazifasini ham o‘tagan. Ertaklar turli xildagi mavzular va qadriyatlarni maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarga, ularning aqliy o‘sishi uchun mos keladigan, aniq tarzda yetkazadigan ma’lumotlar omboridir. Chunki ushbu epik asar matnida eposni yaratuvchi millatning turli davr va zamonlardagi hayoti, orzu-istaklari, turmush tarzi turli xil usullarda o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi kundagi zamonaviy yosh avlod uchun ularni o‘qitish usullarini takomillashtirish har bir ilm yo‘lidagi insonning tadqiqot markazida turadi.

Ertak matnlarini qiziqarli o‘qitishning interfaol usullari, multimedia va audiovisual vositalar, matn mazmunini tushunishda turli o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) metodlaridan foydalanish keng avj olmoqda.

Ertaklarni o‘qitishda interfaol metodlarni shakllantiruvchi quyidagi loyihalari mavjud:

1.Rolli o‘yinlar: ertak matni bilan tanishgan bolalarni qahramonlarga ajratib, nutq va his-tuyg‘ularini aks ettirish orqali ularni qobiliyatlarini namoyon qilish.

2.Muammoli vaziyatlar: undagi fikr va g‘oya orqali ro‘y bergan muammolarni hal qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi oshiriladi, mustahkamlanadi.

3. Guruh debatlari va muhokamalar: hamkorlikda ish ko‘rish, turli xarakterdagi insonlar bilan qay tariqa muloqot qilish kerakligini shakllantiradi.

4. Multimedia va vizual materiallar: tasavvur qilish va eslab qolish imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

5. Loyihaviy va ijodiy topshiriqlar: matn g‘oyasini saqlagan holda qayta ishlab chiqish, yangi yakunlanma yasash yoki illustratsiya yaratish orqali ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

Ertaklarni o‘qitish jarayonida multimedia va audiovizual vositalar dars mazmunini vizual va eshitish elementlari bilan boyitadi. Video va animatsiyalar orqali qahramon tuzilishini, hissiyotni va madaniy kontekstni namoyish etiladi; audio yozuvlar orqali talaffuz va tinglab tushunishni rivojlantiriladi. Interaktiv taxta, taqdimotlar va ta'limiy o‘yinlarning darsga olib kirilishi faol ishtirok va differensiyalash imkoniyatini beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat tajribalari

[40] [40] Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \ O‘zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. – B.62-69.

ya’ni mazmun saqlangan holda elektron qurilmalardagi programmalar orqali jonlantirish empatiya va tasavvurni oshiradi.

Ertaklarni o‘qitishda o‘yinlashtirish metodlari: rolli o‘yinlar orqali qahramonlarni o‘quvchilar o‘z fantaziyalaridan kelib chiqib jonlantiradilar, bosqichli vazifalar va ssenariylar tuziladi, ball tizimi va belgilar taqsimoti, yetakchi jadvali bilan raqobat, interaktiv viktorinalar, qochish xonasi formatidagi ssenariylar, raqamli ilovalar va AR elementlari, hamkorlikdagi guruh vazifalari, hikoya bo‘limlarida tanlovli yo‘nalishlar, darajaga asoslangan adaptiv topshiriqlar, konstruktiv fikr-mulohaza va mukofotlash orqali motivatsiya beriladi.

Ertaklarni o‘qitishda dramatizatsiya va rol o‘ynash usullarining tavsifiy bayonini quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Ertakni tushunish, ijodiy fikrlash va nutqni rivojlantirish maqsadini qamrab oladi.

2. Dramatizatsiya, improvizatsiya, ssenariy yozish, kostyum va rekvizitlardan foydalanish usullaridan tashkil topadi.

3. Bosqichlar ketma-ketligi: tanlov, rollarni taqsimlash, repetitsiya, sahnalashtirish, tahlil.

4. Faoliyat turlari: individual, juftlik, guruhli rollar, improvizatsiya mashqlari.

5. Baholash mezonlari: ishtirok, ijodiy yechimlar, til va mimika ko‘nikmalari.

6. Samarasi: motivatsiya, kommunikatsiya, empatiya va madaniy qadriyatlarni anglashni oshiradi.

Ertaklarni o‘qitishda differensiyalashgan metodlar

Ertaklarni o‘qitishda differensiyalashgan metodlar o‘rganuvchilarning daraja, qiziqish va o‘rganish uslubiga moslashgan ta'limni nazarda tutadi. Asosiy 6 usul mavjud.1) darajaga muvofiq guruhlash, 2) bosqichma-bosqich vazifalar, 3) o‘quv markazlari va stansiyalar, 4) tanlov taxtalari, 5) multimedia materiallar (matn, audio, video, rasmlar), 6) shaxsiy baholash va fikr-mulohaza. Foydalar: motivatsiya, inkluzivlik, til va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, baholashning adolatliligibelgilab beradi.

Raqamli texnalogiya platformalari, programmalar va onlayn resurslar ertaklarni o‘qitishda interaktivlik, multimediya va differensiallashgan o‘qitish imkoniyatlarini oshiradi. “Moodle”, “Google Classroom”, “Seesaw” va “Padlet” saytlariga topshiriqlar berish orqali audio va video ertaklar joylanadi. “Storybird”, “Book Creator” va “Genially” bilan o‘quvchilar o‘z ertaklarini yaratadi. “Kahoot” va “Quizizz” saytlari baholashni osonlashtiradi. QR-kodlar, e-kitoblar va AR ilovalari matnlarni tez va oson topish imkoniyatini oshiradi. “Google Forms” va “Learning Analytics” yordamida o‘quv natijalari va faoliyat tahlili yo‘lga qo‘yiladi.

Ertaklarni o‘qitishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish usullari: ochiq savollar berish, sabab-oqibat tahlili, qahramonlarning motivlarini baholash,

alternativ yakunlar yaratish, matnni taqqoslash va kontrastlash, muammoga asoslangan topshiriqlar, ustoz-shogird suhbati, rolli o‘yinlar va dramatizatsiya, dalillarga asoslangan argumentatsiya, sinf ichidagi bahs-munozaralar, refleksiya yozuvlari va metakognitiv savollar, multimedia va vizual tahlillar, baholash uchun ochiq mezonlar va rubrikalar qo‘llanadi.

Ertaklarni o‘qitishda formativ baholash va monitoring usullari: kuzatish varaqalari va baholash mezonlari orqali o‘quvchining ishtiroki va til qobiliyatlari aniqlanadi. O‘zini baholash va sinfdagilar tomonidan baholanish refleksiya va hamkorlikni rag‘batlantiradi.

Ertaklarni o‘qitishda madaniy xilma-xillikni integratsiyalash: xalq ertaklari va dunyo ertaklarini solishtirish; turli tillarda matnlar kiritish; multimedia materiallar va vizual-etnografik manbalar; rolli o‘yinlar orqali madaniy kontekstlarni tajriba qilish; oilaviy va mahalliy birlikka jalb etish; stereotiplarni muhokama qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; adaptiv baholash va diferensial o‘qitish; o‘qituvchilar uchun madaniyatlararo ko‘nikma treninglari tashkillashdan iborat.

Sensor va manipulyativ materiallar ertaklarni o‘qitishda ta'lim jarayoniga immersiv tajriba olib kiradi. Ijobiy qahramon buyumlari, taktil kartochkalar, mini-rekvizitlar, sensor stolchilar va konstruktiv bloklar bolalarning diqqatini oshiradi, tasavvur va nutqini rivojlantiradi. Rol o‘ynash, ssenariy qurish, predmetlar orqali voqeani qayta yaratish metodlari tushunishni mustahkamlaydi. Baholashda kuzatuv, taqdimot va portfoliolardan foydalanish amaliyotni aniqlaydi. Materiallar xavfsiz, yoshi mos va didaktik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

STEAM elementlari: fan ertak mavzusida ilmiy tajribalar orqali sabab-oqibatni o‘rgatadi, texnologiya interaktiv multimediyalar va raqamli ertaklar yaratishni qo‘llaydi, muhandislik model va sahna konstruksiyalarini loyihalashni o‘rgatadi, san’at dramatizatsiya rasmlar va musiqa orqali ifodani rivojlantiradi, matematika naqshlar hisoblash va mantiqiy vazifalarni mukammallashtiradi. Natijada ijodkorlik muammolarni hal etish hamkorlik tanqidiy fikrlashni oshiradi.

Ertaklarni o‘qitishda san’at va musiqa fanlarining integratsiyalash metodlari: dramatizatsiya va rolli o‘yinlar orqali til va emosiyalarni rivojlantirish; musiqiy fon va kublar yordamida hikoya ritmini yaratish; qo‘l mehnati va rasmlar orqali personajlarni vizuallashtirish; qo‘g‘irchoq teatri va sahnalashtirish orqali ijodiy ishtirokni oshirish; ritm va raqs elementlari bilan fonetik kompetentsiyani mustahkamlash; ovozlantirish va atrof-muhit tovushlari bilan kontekstni boyitish; hamkorlikdagi kompozitsiyalar va ko‘rgazmali lavhalar orqali baholash.

Rolli o‘yinlar orqali empatiya va axloqiy qaror qabul qilishni rivojlantirish; muhokama va bahslar yordamida axloqiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirish; muammoli vaziyatlar va axloqiy tadrijini tahlil qilish; guruh loyihalari orqali ijtimoiy hamkorlik va mas'uliyatni oshirish; reflektiv kundalik va baholash

rubrikalari bilan individual axloqiy o‘sishni kuzatish. Natijada empatiya erta rivojlanishi, muloqot, jamoaviy ish, mas'uliyat va konfliktni hal qilish ko‘nikmalari oshadi.

Dars jarayonini yanada samarali tashkillash uchun “Namoyish”, “Pinbord”, “Menyu”, “Insert strategiyasi” metodlarini qo‘llashimiz mumkin.

“Pinbord” metodi – bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o‘quv suhbati amaliy usul bilan bog‘lanib ketadi. Bunda o quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib boorish madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Menyu” metodi – kichik guruhlar yoki yakka tartibda ish olib boriluvchi usul. Bunda o‘quvchilarga aniq topshiriq beriladi. Masala, “Ertak matni” tasnifi. O‘qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi:

1. Ertakda qanday g‘oyalar aks etganini asoslang.
2. Ertakning kulminatsion nuqtasi sifatiga qaysi voqea tasvirlanishi mumkin?
3. Tugun ertak mazmuniga mos tarzda ifodalanganmi?
4. Yakun sizningcha qanday tavsiflanishi mumkin?

Har bir guruh shu kabi topshiriqni oladi. 2 minut davomida muhokama qilishadi va vakil o‘qituvchi stoliga guruh tayyorlagan “Menyu”ni qo‘yishadi. Guruh bo‘yicha tuzilgan matnlar birma-bir o‘qib eshittiriladi. O‘qituvchi barcha izohlarni jamlab, guruhlarni baholab beradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ertaklari yosh avlodni ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida ertaklarni interfaol metodlar, multimedia vositalari, o‘yinlashtirish, dramatizatsiya, differensial yondashuv hamda raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta’lim samaradorligini kuchaytiradi. Ertaklar orqali bolalarda ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, empatiya, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylash hamda yosh avlod ongiga singdirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. Demak, ertaklarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib o‘qitish bugungi ta’lim tizimining dolzarb va samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Jumaniyozov R. O‘zbek xalq ertaklarining tarixiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.

2.Yo‘ldoshev R., Xusainova R., Bobojanova U. Ta’limning interfaol metodlari. Metodik qo‘llanma. – Urganch, 2011.

3.Afzalov M., Rasulov X., Husainova Z. O‘zbek xalq ertaklar. 1-qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.

4. Usmonboyeva M., Aripova SH., Rejametova I., Mo‘minova D. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2019.

РАЗВИТИЕ ТЕКСТОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ КОРРЕКЦИЮ ЛОГИКО-КОММУНИКАТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ ПИСЬМА

ХОЖИЕВА ХУЛКОРХОН ХАКИМ ҚИЗИ
Наманганский государственный педагогический институт
Родной язык и литература: магистрант по русской филологии
Телфон: +998 907506339
Электронная почта: murodsharipov997@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается развитие текстовой компетенции младших школьников через коррекцию логико-коммуникативных нарушений письма. Обосновывается, что трудности письменной речи не могут быть сведены только к орфографическим или графомоторным ошибкам, поскольку в структуре нарушения нередко проявляются дефициты смыслового программирования, логической последовательности, связности высказывания, адресности сообщения и языкового оформления коммуникативного намерения. Раскрываются теоретические основания комплексной коррекционно-педагогической работы, объединяющей логопедический, психолингвистический, когнитивный и методический подходы.

Ключевые слова: текстовая компетенция, письменная речь, младшие школьники, логико-коммуникативные нарушения, коррекция письма, дисграфия, связная речь, речевое развитие, начальное образование, рефлексивный контроль.

Введение. Современная начальная школа функционирует в условиях существенного усложнения требований к речевой, познавательной и коммуникативной подготовке учащихся. Если традиционная методика обучения письму длительное время акцентировала внимание преимущественно на графической правильности, каллиграфии, орфографической зоркости и усвоении элементарных правил построения предложения, то сегодня письмо рассматривается как многоуровневая форма интеллектуально-речевой деятельности[1]. В этой деятельности ребенок не только воспроизводит языковые единицы, но и преобразует мысль в текст, выбирает способ адресации, устанавливает логические связи между фрагментами содержания, прогнозирует реакцию читателя и осуществляет

контроль над смысловой целостностью высказывания. Поэтому развитие текстовой компетенции младшего школьника становится одной из центральных задач начального образования и коррекционной педагогики[2].

Под текстовой компетенцией в контексте данной статьи понимается интегративное качество речевого развития, выражающееся в способности ученика понимать, планировать, создавать, анализировать и редактировать связный текст в соответствии с учебной задачей, коммуникативной ситуацией и нормами языка. Она включает несколько взаимосвязанных компонентов: мотивационно-коммуникативный, смысловой, логико-структурный, языковой, регулятивный и рефлексивно-оценочный[3]. Мотивационно-коммуникативный компонент определяет готовность ребенка писать не механически, а с учетом цели сообщения и адресата. Смысловой компонент обеспечивает отбор существенной информации. Логико-структурный компонент позволяет расположить материал последовательно, выделить начало, развитие и завершение. Языковой компонент связан с лексико-грамматическим оформлением. Регулятивный компонент обеспечивает планирование и самоконтроль, а рефлексивный – осознание качества созданного текста[4].

Логико-коммуникативные нарушения письма у младших школьников проявляются в особом типе трудностей, когда внешне ученик может владеть отдельными буквами, словами и простыми предложениями, но испытывает затруднения при создании целостного письменного высказывания. В его работах обнаруживаются разрывы смысловых связей, нарушение последовательности событий, отсутствие причинно-следственных отношений, неоправданные повторы, внезапные тематические переходы, несоответствие заголовка содержанию, бедность средств связи, слабая выраженность коммуникативной цели[5]. Такие нарушения не всегда заметны при проверке только орфографии, однако именно они существенно ограничивают учебную успешность, потому что письменный текст является универсальным средством фиксации знаний по всем предметам.

Проблема осложняется тем, что младший школьный возраст является периодом интенсивного становления произвольной регуляции, внутреннего плана действий, языкового анализа и синтеза, словесно-логического мышления. Ребенок постепенно учится удерживать учебную задачу, подчинять речевое действие правилу, сопоставлять замысел и результат, переходить от ситуативной речи к контекстной[6]. Если в этот период не формируются механизмы смыслового программирования письменного высказывания, то письмо превращается в набор изолированных предложений, а текстовая деятельность теряет свою коммуникативную функцию. Именно

поэтому коррекция логико-коммуникативных нарушений должна начинаться не после накопления стойких школьных неуспехов, а на ранних этапах обучения письму[7].

Научная актуальность темы определяется необходимостью переосмысления природы письменных трудностей у младших школьников. В педагогической практике нарушения письма нередко описываются через ошибки буквенного, слогового или орфографического уровня: пропуски, замены, перестановки, смешения, неправильное обозначение мягкости, нарушения границ слов. Однако такой подход не охватывает тех случаев, когда основным препятствием является неспособность выстроить письменное сообщение как логически организованный текст[8]. Для ребенка может быть доступно написание отдельных слов, но недоступно развертывание мысли в связной форме. Следовательно, диагностика и коррекция должны включать анализ не только формальных ошибок, но и структуры текста, логики содержания, средств связности, коммуникативной направленности и уровня самостоятельного редактирования[9].

Педагогическая значимость исследования связана с тем, что текстовая компетенция является основой учебной самостоятельности. Ученик, умеющий строить связный текст, успешнее выполняет письменные ответы по чтению, родному языку, окружающему миру, математике и другим предметам, поскольку способен объяснить решение, описать наблюдение, сформулировать вывод, пересказать содержание, аргументировать мнение. Напротив, слабость текстовой организации приводит к тому, что даже при наличии предметных знаний ребенок не может адекватно представить их в письменной форме. В результате возникает вторичная неуспеваемость, снижается учебная мотивация, формируется избегающее отношение к письменным заданиям[10].

В научно-методическом осмыслении проблемы коррекции письма у младших школьников особое значение имеют труды узбекских ученых, развивавших логопедическое направление и адаптировавших его к образовательным условиям Узбекистана. Среди них прежде всего следует выделить М.Ю. Аюпову, чьи работы по логопедии сформировали одну из фундаментальных учебно-методических основ подготовки специалистов в области речевого развития детей. В пособиях и учебниках Аюповой речевые нарушения рассматриваются не как изолированный дефект произношения, а как системное нарушение языковой и коммуникативной деятельности, затрагивающее фонетико-фонематический, лексико-грамматический и связно-речевой уровни. Для темы настоящей статьи особенно важно то, что такой системный взгляд позволяет рассматривать трудности письма не только как

результат недостаточного усвоения графики или орфографии, но и как следствие несформированности речевых операций, необходимых для построения текста.

Вторым значимым направлением является научно-методическое наследие Л.Р. Муминовой. В ее работах, включая исследования, посвященные логопедическому обследованию, обучению детей с речевыми трудностями и использованию информационных технологий в коррекции нарушений речи, подчеркивается необходимость комплексного подхода к диагностике и коррекционной помощи. Для развития текстовой компетенции это положение имеет принципиальный характер: ребенок нуждается не только в исправлении ошибки, но и в создании развивающей среды, где речевое действие получает смысл, структуру, мотивацию и обратную связь[11]. Муминова связывает эффективность коррекции с учетом индивидуальных особенностей ребенка, поэтапностью работы, активизацией познавательной деятельности и использованием специальных методических средств. Работы М.Ю. Аюповой и Л.Р. Муминовой взаимно дополняют друг друга в контексте исследуемой проблемы. Аюпова задает фундаментальную логопедическую рамку, позволяющую классифицировать речевые нарушения, выявлять их структуру и проектировать коррекционные воздействия. Муминова усиливает практико-ориентированный и технологический аспект, показывая, что коррекция должна быть организована как педагогически управляемый процесс, включающий диагностику, обучение, развитие, контроль и поддержку. В совокупности эти подходы создают теоретическую основу для анализа логико-коммуникативных нарушений письма как многоуровневого явления, в котором соединяются речевые, когнитивные и коммуникативные дефициты.

В более широком научном контексте проблема письменной речи младших школьников соотносится с исследованиями Р.Е. Левиной, Р.И. Лалаевой, А.Н. Корнева, Л.Г. Парамоновой и других специалистов, рассматривавших нарушения письма с позиций логопедии, психолингвистики и нейропсихологии. Эти авторы обосновали, что письмо требует сформированности языкового анализа и синтеза, фонематического восприятия, лексико-грамматического строя речи, пространственно-временных представлений и произвольного контроля. Однако для темы текстовой компетенции особенно актуально расширение традиционного подхода: необходимо анализировать не только механизм ошибки на уровне буквы или слова, но и способность ученика построить связное письменное высказывание. Именно здесь идеи узбекских ученых о комплексной коррекции получают новое методическое значение.

Заключение: Таким образом, развитие текстовой компетенции младших школьников через коррекцию логико-коммуникативных нарушений письма представляет собой сложный, но педагогически управляемый процесс. Его сущность заключается не в механическом увеличении объема письменных заданий, а в формировании у ребенка системы действий, обеспечивающих переход от отдельного предложения к целостному, логически организованному и коммуникативно полноценному тексту. Коррекционная работа должна быть направлена на развитие смыслового программирования, планирования, структурирования, языковой связности, адресности и рефлексивного контроля.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аюпова М.Ю. Логопедия: учебник. – Ташкент: Издательство Национального общества философов Узбекистана, 2007. – 256 с.
2. Аюпова М.Ю. Логопедия. – Ташкент: Издательство Национального общества философов Узбекистана, 2011. – 256 с.
3. Муминова Л.Р. Болаларни логопедик текшириш ва ўқитиш: услубий қўлланма. – Ташкент: Ўқитувчи, 1992. – 77 с.
4. Муминова Л.Р., Аюпова М.Ю. Логопедия. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993. – 180 с.
5. Муминова Л.Р., Махкамова У.А. Использование информационных технологий в коррекции нарушений речи у детей // Наука и образование сегодня. – 2019. – № 8 (43). – С. 53–54.
6. Шомахмудова Р.Ш., Муминова Л.Р. Болалар нутқидаги нуқсонлар ва уларни бартараф этиш. – Ташкент: Турон-Иқбол, 2007. – 120 с.
7. Лалаева Р.И., Венедиктова Л.В. Дисграфия у младших школьников: диагностика и коррекция. – Москва: Просвещение, 2011. – 160 с.
8. Корнев А.Н. Нарушения чтения и письма у детей школьного возраста. – Санкт-Петербург: Речь, 2003. – 336 с.
9. Левина Р.Е. Нарушения письма у детей с недоразвитием речи. – Москва: Издательство АПН РСФСР, 1961. – 311 с.
10. Парамонова Л.Г. Предупреждение и устранение дисграфии у детей. – Санкт-Петербург: Союз, 2001. – 240 с.
11. Волкова Л.С., Шаховская С.Н. Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических вузов. – Москва: ВЛАДОС, 2002. – 680 с.

PRAGMATIKA TUSHUNCHASI VA BADIIY MATNDAGI O‘RNI

NAIMA MUHIDDINOVA
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu. maqolada tilshunoslikning muhim yo‘nalishi bo‘lgan pragmatika tushunchasi, uning badiiy matndagi o‘rni va asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Pragmatikaning nutq aktlari, kommunikativ strategiyalar, muallif niyati va o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari badiiy matnlar misolida o‘rganiladi. Zamonaviy tilshunoslikda pragmatik yondashuvlarning badiiy matnga nisbatan qo‘llanilishi, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi interfaol aloqa, muallifning kommunikativ kompetensiyasi kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, pragmatik tadqiqotlarning interdisiplinar xususiyatlari, elektron korpuslar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda yangi metodologik paradigmalar shakllanishi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: pragmatika, badiiy matn, nutq akti, kommunikativ strategiya, muallif niyati, tilshunoslik, semiotika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, interdisiplinar yondashuv. Tilshunoslik insoniyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy muloqot, tafakkur, milliy o‘zlik va madaniy merosning asosiy toshi sanaladi. Shu bois, tilshunoslik zamonaviy fan taraqqiyotining eng ilg‘or va faol yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har bir davrda insoniyat tafakkurining yuksak namunasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Pragmatika tilshunoslikda nutqning shaxsga yo‘naltirilganligini, unga bilvosita va bevosita ma’lumotlarni yetkazish, taassurot qoldirish, ta’sir ko‘rsatish, madaniy muloqotni ta’minlash kabi jarayonlarni o‘rganuvchi tarmoq sifatida rivojlandi. Aynan badiiy matnlar bu nuqtayi nazardan boy manbaga aylangan. Ko‘p hollarda badiiy matn yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar bir yoqlamalik, ya'ni semantik yoki sintaktik qiyofasini faollashtirgan bo‘lsa-da, hozirgi davrda nutqiy faoliyatni, kommunikativ jarayonni kengroq qamrab oluvchi, uni muallif, o‘quvchi, asar tuzilmasi va jamiyat, tarixiy davr kabi komponentlar bilan uzviy bog‘lashga imkon beruvchi metodlar, ayniqsa pragmatik yondashuvlar ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishiga aylandi.

Pragmatika, avvalo, matndagi har bir birlikning, har bir so‘z, ohang va tugalangan nutq egasining aks sadosi asosidagi maqsadini belgilaydi. Chunki til obyektiv hodisa emas, balki kommunikatsiya vositasidir. Badiiy matnda ishlatilgan har bir ifoda, har bir leksik birikma o‘zining nutqiy vazifasiga ega bo‘ladi. Ba'zida muallif tilga olmagan ma’no, nutqning tashqarida qolgan qatlamlari ham o‘quvchiga

to‘g‘ridan-to‘g‘ri yokibilvosita yetkaziladi. Bunday hollarda pragmatik yondashuv matnni chuqur tahlil qilishda, jumladan, ijtimoiy, madaniy, psixologik kontekstlarni, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi interfaol aloqani, muallifning niyat va maqsadlarini anglashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.Zamonaviy tilshunoslikda bunday tahlil usulining chuqurlashuvi natijasida badiiy matndagi estetikani, idrok jarayonini, tipik va atipik jihatlarni, matndagi adresatga xoslik va individual tafovutlarni kashf etishga imkoniyat ochildi. Chunki lisoniy jihatdan asarni tahlil qilar ekanmiz, unda nafaqat leksik, grammatik, stilistik shakllarni, balki ularning semantik dinamizmi, kommunikativ quvvati, turli vositalar orqali nutq sub'ektiga yetkaziladigan asosiy g‘oyani, hissiy va psixologik nuqtalarni ham chuqur o‘rganish talab qilinadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, pragmatika badiiy matnga faqatgina nutqiy vosita, shakl va mazmun orasidagi o‘zaro munosabat sifatida emas, balki faol kommunikativ aloqani shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham qaraydi. Shu sababli, zamonaviy adabiy asarlarning aksariyati tahlilida pragmatik omillar, muallifning nutq quroli, shakllantirish metodlari, matnda yashiringan yoki ochiq ifodalangan g‘oya, obrazlarning kommunikativ xususiyatlari yetakchi rol o‘ynaydi. Adabiy matn o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qavatli mazmunga ega bo‘lib, unda asosiy voqea va holatlardan tashqari, o‘quvchiga yetkaziladigan tashviqot, targ‘ib, hissiy motivatsiyalar ham jamlangan bo‘ladi. Matn va undagi elementlarni pragmatik jihatdan o‘rganish orqali asar semantikasi yanada boyiydi, har bir qahramon, voqea, holat va ruhiy tafakkur to‘liqroq ochiladi. Tahlil natijasida muallifning niyati, yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyasi, til vositalaridan o‘ta nozik darajada foydalanish mahorati yuzaga chiqadi. Demak, badiiy matn lisoniy tadqiqotlarida pragmatika – bu nafaqat leksiksemantik yoki stilistik hodisalarni, balki nutq va muloqot sub'ektlari faoliyatini, o‘qish, tushunish, idrok qilish va ta’sirlantirish bo‘g‘inlarini ham tadqiq etuvchi muhim soha hisoblanadi.

Zamonaviy adabiyotlar pragmatik tadqiqotlarda o‘zining yangiliklarga boy, zamondan orqada qolmaydigan, ilmiy jihatdan yetuk va keng qamrovli xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Hozirgi zamon tilshunosligida pragmatikaning rolini qayta ko‘rib chiqish, uni chuqur, ilmiy asoslangan, zamonaviy metodologiyalar orqali tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki pragmatika tilni insonlarning o‘zaro muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish, shaxsiy va jamiyat manfaatlarini ifoda qilish vositasi sifatida o‘rganadi. BZamonaviy pragmatika izlanishlarida analitik va empiric yondashuvlar mutanosib uyg‘unlashmoqda. Bu esa tilshunoslik bo‘yicha mavjud nazariyalarning zamon talablari va hozirgi axborot texnologiyalari asosida rivojlanishiga yo‘l ochmoqda. Ayniqsa, kommunikativ jarayonlarni tadqiq qilishda turli zamonaviy vositalar, ayniqsa elektron korpuslar, big data hamda sun'iy intellekt algoritmlaridan

foydalanish, natijalarni keng ko‘lamda va chuqur tahlil qilish imkoniyatini bermoqda.Hozirgi zamon pragmatik tadqiqotlari tilshunoslikda interdisiplinar yondashuvga asoslanmoqda. Bu esa fanlararo qarashlarning, psixologik, ijtimoiy, madaniy, axborot, virtual va boshqa omillarning sintezini yuzaga olib chiqmoqda. Pragmatikaning asosini tashkil qiluvchi nutq aktlari va kommunikativ strategiyalar yangi zamon sharoitida tahlil qilinmoqda. Zamonaviy adabiyotlarda til vositalarining konkret kommunikativ vaziyatda muomala qilish mexanizmlari, til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat o‘rtasidagi muammolar, ijtimoiy o‘zgarishlarning tildagi in'ikosi dolzarb mavzuga aylangan.

Pragmatikaga oid yangi ishlanmalarda til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik, ijtimoiy identifikatsiya, shaxs va jamiyat munosabatlarining til orqali ifodalanishi, madaniyat va til birligining yangi aspektlari mukammal o‘rganiladi. Bu esa, pragmatik tadqiqotlarda nafaqat an'anaviy, balki innovatsion yo‘nalishlarda, kognitiv va antropologik asoslarda ilmiy ishlanmalarni kengaytiradi.Pragmatika badiiy matn tadqiqotida muhim metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, u muallifning kommunikativ niyatini, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi murakkab aloqani, yashirin va ochiq konnotatsiyalarni ochib berishga xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda pragmatik yondashuv badiiy matnni nafaqat lisoniy hodisa, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy muloqot vositasi sifatida o‘rganishga imkon beradi. Elektron korpuslar, big data va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish pragmatik tahlilning samaradorligini yanada oshiradi hamda bu sohadagi ilmiy izlanishlar uchun yangi istiqbollar ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashurova D.U. Badiiy matn sinergetikasi // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2024. – 10-jild. – № 1 (54). – B. 39–59.

2. Yo‘ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc)... diss. – Qarshi, 2023. – 227 b.

3. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – 176 b.

4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.

5. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. Toshkent: Universitet, 2014. – 84 b.

QIYOSIY TAHLIL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USUL VA SHAKLLARI

SULTONOVA DURDONA TURSUNBOY QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta’limida qiyosiy tahlil texnologiyasidan foydalanishning samarali usul va shakllari IMRAD talablari asosida yoritiladi. Tadqiqotda qiyosiy tahlilning o‘quvchilarda lisoniy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni, dars jarayonida qo‘llash imkoniyatlari, diagnostik baholash va amaliy natijadorlik masalalari tahlil qilinadi. Qiyosiy jadval, xatolarni solishtirish, matnlararo tahlil, uslubiy transformatsiya, raqamli qiyosiy topshiriqlar hamda loyiha asosidagi qiyosiy tahlil samarali shakllar sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: qiyosiy tahlil, lisoniy kompetensiya, ona tili ta’limi, metodik texnologiya, matn tahlili, uslubiy transformatsiya, diagnostik baholash.

Abstarct. This article examines effective methods and forms of using comparative analysis technology in mother tongue education. It explains how comparative tables, error comparison, intertextual analysis, stylistic transformation, digital tasks, project-based analysis and diagnostic comparison help develop students’ linguistic competence. The study shows that comparative analysis strengthens students' ability to distinguish linguistic phenomena, analyze texts, correct errors, think independently and apply language knowledge in oral and written communication.

Keywords: comparative analysis, linguistic competence, mother tongue education, innovative method, text analysis, stylistic transformation, diagnostic assessment, competency-based approach.

KIRISH

Zamonaviy ta’limda o‘quvchining tayyor bilimni eslab qolishi emas, balki uni mustaqil tahlil qilishi, solishtirishi va nutqiy vaziyatda qo‘llay olishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ona tili ta’limida lisoniy kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilarning savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Lisoniy kompetensiya til birliklarini bilish, ularni farqlash, grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llash, matnni tushunish va mustaqil fikr bildirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bunday kompetensiyani shakllantirishda qoidalarni yodlatishning o‘zi yetarli emas. O‘quvchi til hodisalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘ra olishi, xatolarni aniqlashi, dalillar asosida izohlashi va xulosa chiqarishi zarur.

Qiyosiy tahlil texnologiyasi ana shu ehtiyojga javob beradigan metodik yondashuvdir. U o‘quvchilarning faolligini oshiradi, grammatik bilimlarni amaliy mashqlar bilan bog‘laydi, matn bilan ishlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Maqolaning maqsadi qiyosiy tahlil texnologiyasidan foydalanishning samarali usul va shakllarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy metod, pedagogik kuzatish, tavsifiy tahlil va diagnostik baholash usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali lisoniy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv va qiyosiy tahlilga oid qarashlar umumlashtirildi. Qiyosiy metod yordamida an'anaviy mashqlar va qiyosiy tahlilga asoslangan topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari solishtirildi.

Tadqiqotda qiyosiy topshiriqlarni tuzishda quyidagi metodik mezonlar asos qilib olindi: topshiriqning dars maqsadiga mosligi, o‘quvchi yoshiga muvofiqligi, amaliy nutq bilan bog‘liqligi, mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilganligi va baholash mezonlarining aniqligi.

Mezon	Mazmuni
Didaktik moslik	Topshiriq mavzu va o‘quvchi tayyorgarligiga mos bo‘ladi
Kompetensiyaviy yo‘nalish	Bilim amaliy nutqiy faoliyat bilan bog‘lanadi
Tahliliy faollik	O‘quvchi qiyoslaydi, farqlaydi va izohlaydi
Refleksivlik	O‘quvchi xatosini anglaydi va tuzatadi

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qiyosiy tahlil texnologiyasi ona tili darslarida bir necha samarali shaklda qo‘llanishi mumkin. Birinchi samarali shakl – qiyosiy jadval asosida ishlashdir. Jadval o‘quvchiga til hodisalarini tartibli ko‘rish, umumiy va farqli belgilarni ajratish, xulosani aniq ifodalash imkonini beradi.

Qiyoslanadigan birlik	Qiyoslash mezoni	Kutiladigan natija
Ot va sifat	Ma'nosi, so‘rog‘i, gapdagi vazifasi	So‘z turkumlarini farqlaydi
Sinonim va antonim	Ma'no munosabati	Leksik boylik oshadi
Sodda va qo‘shma gap	Grammatik asos soni	Sintaktik bilim mustahkamlanadi
Ilmiy va badiiy matn	Uslub, maqsad, so‘z tanlovi	Uslubiy kompetensiya rivojlanadi

Ikkinchi samarali shakl - xatolarni qiyosiy tahlil qilishdir. Bunda noto‘g‘ri va to‘g‘ri shakllar yonma-yon beriladi, o‘quvchi xatoni topadi va sababini izohlaydi. Masalan, “maktabda ketdim - maktabga ketdim” juftligi kelishik qo‘llanishini, “xayot - hayot” juftligi imlo me'yorini anglatadi. Bu usul imloviy, grammatik va uslubiy hushyorlikni oshiradi.

Uchinchi shakl - matnlararo qiyosiy tahlildir. Bir mavzudagi ilmiy va badiiy matnlar solishtirilganda o‘quvchi so‘z tanlovi, gap qurilishi, maqsad va ifoda uslubidagi farqlarni aniqlaydi. Masalan, “Bahorda vegetatsiya jarayoni faollashadi” gapi ilmiy uslubga, “Bahor tabiatga yashil libos kiydirdi” gapi esa badiiy uslubga xosdir.

To‘rtinchi shakl - uslubiy transformatsiyadir. Bu shaklda o‘quvchi bir fikrni turli uslublarda qayta ifodalaydi. Masalan, “Bahor keldi” gapi ilmiy uslubda “Bahor faslida havo harorati ko‘tariladi”, badiiy uslubda “Tabiat yashil libosga burkandi”, rasmiy uslubda “Bahor mavsumi boshlandi” tarzida ifodalanadi. Bu topshiriq nutqiy vaziyatga mos til vositalarini tanlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Beshinchi shakl - raqamli qiyosiy topshiriqlardir. Elektron jadval, onlayn test, interaktiv doska va matn tahrirlash dasturlari yordamida o‘quvchilar so‘zlar, gaplar va matnlarni belgilaydi, solishtiradi, natijani tezkor baholaydi. Bu shakl lisoniy kompetensiya bilan birga axborot bilan ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Oltinchi shakl - loyiha asosidagi qiyosiy tahlildir. O‘quvchilar “Ijtimoiy tarmoq tili va adabiy til”, “O‘quvchilar nutqidagi paronim xatolari”, “Ilmiy va badiiy matnda sifatlarning qo‘llanishi” kabi mavzularda kichik tadqiqot olib boradilar. Bu jarayonda ular material to‘playdi, qiyoslaydi, xulosa chiqaradi va natijani taqdim etadi.

Qiyosiy tahlil shakli	Rivojlantiradigan kompetensiya
Qiyosiy jadval	Tahlil qilish va farqlash
Xatolarni solishtirish	Imloviy va grammatik hushyorlik
Matnlararo tahlil	Uslubiy va matniy kompetensiya
Uslubiy transformatsiya	Nutqiy moslashuvchanlik
Raqamli topshiriqlar	Lisoniy va axborot kompetensiyasi
Loyiha asosidagi tahlil	Mustaqil izlanish va taqdimot

MUHOKAMA

Qiyosiy tahlil texnologiyasi an’anaviy metodlardan farqli ravishda o‘quvchini tayyor javobni qabul qiluvchi emas, balki izlanadigan va xulosa chiqaradigan faol subyektga aylantiradi. An’anaviy mashqlarda o‘quvchi ko‘pincha qoidani eslab, namunaga o‘xshash javob beradi. Qiyosiy tahlilda esa u dalil topadi, farqni aniqlaydi, sababni tushuntiradi va o‘z fikrini asoslaydi.

Mazkur texnologiyaning samaradorligi uni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq. Qiyoslanadigan birliklar aniq tanlanishi, topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab berilishi, natijalar amaliy nutqiy faoliyat bilan bog‘lanishi zarur. Masalan, sinonim va antonimlarni qiyoslashdan so‘ng o‘quvchilarga shu birliklar ishtirokida matn yaratish topshirilsa, bilim nutqiy ko‘nikmaga aylanadi.

Qiyosiy tahlil barcha til bo‘limlarida qo‘llanishi mumkin: fonetikada tovush va harf, leksikologiyada sinonim va paronim, morfologiyada so‘z turkumlari, sintaksisda gap turlari, uslubiyatda matn uslublari qiyoslanadi. Shu sababli bu texnologiya universal metodik imkoniyatga ega bo‘lib, lisoniy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Afzallik	Izoh
Ongli o‘zlashtirish	O‘quvchi qoidani misollar orqali tushunadi
Tanqidiy fikrlash	O‘xshashlik va farqni mustaqil aniqlaydi
Xatoni tuzatish	Noto‘g‘ri shakl sababini izohlaydi
Matn bilan ishlash	Uslub va mazmunni birgalikda tahlil qiladi

XULOSA

Ona tili ta’limida qiyosiy tahlil texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarda lisoniy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullaridan biridir. Bu texnologiya til hodisalarini ongli anglash, ularni solishtirish, umumiy va farqli belgilarni aniqlash, xatoni tushunib tuzatish va egallangan bilimni nutqiy faoliyatda qo‘llashga yordam beradi.

Tadqiqot natijasida qiyosiy jadval, xatolarni solishtirish, matnlararo tahlil, uslubiy transformatsiya, raqamli qiyosiy topshiriqlar va loyiha asosidagi tahlil eng samarali shakllar ekani aniqlandi. Ushbu shakllar fonetik, leksik, grammatik, orfografik, punktuatsion, uslubiy va matniy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil texnologiyasini samarali qo‘llash uchun topshiriqlar maqsadga muvofiq tanlanishi, bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi, o‘quvchi yoshiga moslashtirilishi va aniq baholash mezonlari bilan ta’minlanishi zarur. Shunday tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ona tili ta’limi samaradorligini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Ona tili fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.
3. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
5. Zimnyaya I.A. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. – Moskva, 2004.

6. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980.

7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.

INTELEKTUAL AVLODNI TARBIYALASHDA KOGNITIV YONDASHUVLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

UMAROVA MUNIRAXON

NamDPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada intelektual avlodni tarbiyalashda kognitiv yondashuvli ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati keng qamrovli tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining so‘nggi yutuqlari asosida kognitiv texnologiyalar shaxsning bilish jarayonlarini – idrok etish, xotira, tafakkur va muammolarni hal etish qobiliyatlarini – rivojlantirishga qanday xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada interfaol texnologiyalar hamda ularning o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv ta’lim, intelektual rivojlanish, ta’lim texnologiyalari, interfaol ta’lim, tanqidiy tafakkur.

Abstract. This article comprehensively analyzes the role and significance of cognitive-based educational technologies in raising an intellectual generation. Based on the latest achievements in modern pedagogy and psychology, the article scientifically substantiates how cognitive technologies contribute to the development of learners’ cognitive processes such as perception, memory, thinking, and problem-solving abilities. The article also examines interactive technologies and methods of their implementation in the educational process.

Keywords: cognitive education, intellectual development, educational technologies, interactive learning, critical thinking.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы роль и значение образовательных технологий с когнитивным подходом в воспитании интеллектуального поколения. На основе последних достижений современной педагогики и психологии научно обосновано, каким образом когнитивные технологии способствуют развитию познавательных процессов личности – восприятия, памяти, мышления и способностей к решению проблем. В статье также рассмотрены интерактивные технологии и методы их внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: когнитивное образование, интеллектуальное развитие, образовательные технологии, интерактивное обучение, критическое мышление

Kognitiv faoliyatning shakllanishi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘quvchining individual rivojlanish darajasi, mavjud bilim va tajribasi, motivatsiyasi hamda taqdim etilayotgan o‘quv materialining mazmuni va shakli muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘quv materialining qiziqarli, muammoli va interaktiv tarzda tashkil etilishi o‘quvchining bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv faoliyatni ta’lim jarayonining eng muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etish zarur. U nafaqat ijobiy psixologik muhitni yaratadi, balki o‘spirinlarning bilish faolligi intensivligini oshirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish vositalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, V. E. Shtaynberg, N. N. Manko va G. K. Selevko kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan mantiqiy-semantik modellar bu borada samarali vosita sifatida e’tirof etilgan[41]. Ushbu modellar o‘zining ko‘p funksionalligi bilan ajralib turadi va ta’lim jarayonining turli bosqichlarida qo‘llanish imkonini beradi. Xususan, mantiqiy-semantik modellar:

- yangi o‘quv materialini tushuntirish va idrok etishda;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishda;
- o‘quv natijalarini nazorat qilish va tuzatishda samarali qo‘llaniladi.

Bu modellar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglash va bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni faol ravishda qayta ishlovchi va yangi bilimlarni mustaqil ravishda hosil qiluvchi subyektga aylanadi. Kognitiv faoliyat pedagogik-psixologik hodisa sifatida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning dinamik tizimini ifodalaydi. Uning samarali tashkil etilishi esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri – mustaqil fikrlovchi, ijodkor va faol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek olimasi Saodat Qambarova kognitiv metodlarni empatiya, mohiyatni ko‘ra olish, obrazli tafakkur, ramziy ko‘rish, evristik savollar, taqqoslash, tadqiqot, ilmiy faraz kabi turlarga bo‘ladi [42]. Yuqoridagi ilmiy adabiyotlarda “*kognitiv faoliyat*” tushunchasi quyidagicha izohlanadi. Kognitiv faoliyatni shakllantirish

[41] Штайнберг В.Е. Дидактическая многомерная технология: теория и практика. – М.: Народное образование, 2015. – 129 с.; Манько Н. Н. Когнитивная визуализация дидактических объектов: монография. – Уфа: БГПУ, 2007. – 92 с.; Селевко Г. К. Педагогические технологии: учебное пособие (в 2-х томах). – М.: Народное образование, 1998–2006.

[42] Qambarova S. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 83-bet.

muammosi uzoq vaqt oldin paydo bo‘lgan va hozirgi kunda eng muhim dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘sprinning kognitiv faollik darajasi o‘quv, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni hal qilish samaradorligini belgilaydi. I.F.Xarlamov kognitiv ta’limni “o‘spirinlarning ilmiy bilim, qobiliyat, ko‘nikma, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, dunyoqarash hamda axloqiy-estetik g‘oyalar va e’tiqodlarini rivojlantirishga qaratilgan faol o‘quv-kognitiv faoliyatini tashkil etish va rag‘batlantirishning maqsadli psixologik jarayoni”[43] deb ta’riflaydi. Faoliyatni aniqlashda ular uning dinamik tarkibiy qismiga yoki shaxsiy qismiga tayanadilar. Birinchi holda, V.A.Petrovskiy, V.I.Sekun tomonidan faoliyat shaxs tomonidan belgilanadigan harakatlar majmui sifatida tavsiflanadi [44]. Petrovskiy ishlarida kognitiv motivatsiya shaxs + faoliyat + o‘zini anglash shaklida talqin qilinsa, V.I.Sekun tadqiqotida esa kognitiv (bilish) faoliyat psixologiyasi, idrok, tafakkur, xotira jarayonlari, o‘quv faoliyatining psixologik mexanizmlari doirasida tadqiq etiladi. Ikkinchisida K.A.Abulxanova, Slavskaya, G.S.Kostyuk, G.I.Shchukina tomonidan faoliyat shaxsning sifati, sub’ektning ajralmas mulki sifatida talqin qilinadi, uning asosini har xil ishlarni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi ma’lum munosabat tashkil etadi. Ushbu yondashuvdagi faoliyat darajasi va xarakterini belgilaydi. O‘spirinlarning kognitiv faolligi takomillashtirishning muhim omili va ayni paytda o‘quv jarayonining samaradorligi va samaradorligi ko‘rsatkichidir, chunki u mustaqillikni, ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga izlanish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishni rag‘batlantiradi, o‘z o‘zini tarbiyalashda namoyon bo‘ladi[45].

Faoliyat – bu insonning ongli ravishda qo‘yilgan maqsadlar asosida boshqariladigan, ichki psixik jarayonlar hamda tashqi amaliy harakatlar birligidan iborat murakkab tizimdir. U individning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanib, shaxsning ehtiyojlari, motivlari va qadriyat yo‘nalishlari orqali tartibga solinadi. Zamonaviy psixologik va pedagogik yondashuvlarda faoliyat shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida qaraladi.

Faoliyatning ijtimoiy ahamiyati uning yo‘nalganligi va motivatsion tizimi bilan belgilanadi. Shu jihatdan u konstruktiv (ijobiy) va destruktiv (salbiy) ko‘rinishlarga ajratilishi mumkin. Konstruktiv faoliyat yuqori darajadagi kompetentlik, bilim va ko‘nikmalarning uyg‘unligi bilan birgalikda jamiyat uchun ahamiyatli natijalarni yuzaga keltiradi. Aksincha, motivatsion sustlik va maqsadsiz harakatlar passivlik holatini keltirib chiqaradi.

---

[43] Харламов И. Ф. Педагогика. – Москва: Высшая школа, 1990.

[44] Петровский В. А. Личность. Деятельность. Самосознание. – М.: Политиздат, 1992.;
Секун В. И.Психология познавательной деятельности. – М.: Просвещение, 1980. – 198 с.

[45]Gorenkov E.M. va Zankova L.V. Didaktik tizimida o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyatining texnologik xususiyatlari. – M., 2004 yil 90 b.

Kognitiv faollik esa o‘quvchilarning (xususan, o‘smirlarning) bilish jarayoniga faol jalb etilganlik darajasini ifodalaydi. U ta’lim mazmunini anglash, uni chuqur o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga intilish orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kognitiv faollik shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish, irodaviy kuch va aqliy zo‘riqishlarni maqsad sari yo‘naltira olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy neyropsixologik qarashlarga ko‘ra, kognitiv faollikning fiziologik asosi miya tomonidan qabul qilingan yangi axborot bilan mavjud tajriba o‘rtasidagi kutilmagan farqlarni qayta ishlash jarayonlariga bog‘liqdir. Aynan shu nomuvofiqliklar insonni izlanishga, tahlil qilishga va yangi bilimlarni shakllantirishga undaydi.

Umuman olganda, faoliyat va kognitiv faollik shaxsning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda innovatsion salohiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida ularni rivojlantirish interfaol metodlar, muammoli o‘qitish va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali samarali amalga oshiriladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri o‘quvchilarning samarali kognitiv rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Mazkur jarayon nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni qayta ishlash, tahlil qilish, amaliyotda qo‘llash va yangi bilimlar yaratish kabi murakkab intellektual faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Kognitiv pedagogika ta’lim jarayonini insonning bilish faoliyati qonuniyatlari asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan ilmiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarning idrok etish, tafakkur yuritish, xotira, diqqat va qaror qabul qilish jarayonlarini kompleks o‘rganishga asoslanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali ta’lim faqat axborotni uzatish bilan cheklanmay, balki o‘quvchining ichki kognitiv tuzilmalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi lozim.

Pedagogik jarayon davomida har bir o‘quvchi o‘ziga xos subyektiv tajribaga ega bo‘lgan holda bilimlarni o‘zlashtiradi. Natijada ta’lim jarayonida sinergetik samaradorlik yuzaga keladi, ya’ni individual bilish usullari va tashqi pedagogik ta’sirlar o‘zaro uyg‘unlashib, yangi sifat darajasini hosil qiladi. Shu sababli bir xil topshiriqni bajarishda o‘quvchilar turli strategiyalarni qo‘llaydi va turlicha natijalarga erishadi. Bu holat differensial ta’lim va individuallashtirish tamoyillarining zarurligini asoslaydi.

Kognitiv shakllanish va rivojlanish insonning bilish tizimining yaxlit holda shakllanishini ifodalaydi. Ushbu tizim o‘z ichiga nafaqat psixik jarayonlarning nozik jihatlarini, balki bilimlarning mazmuniy va strukturaviy komponentlarini ham

qamrab oladi. Natijada shaxsda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiv fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Kuzatilayotgan o‘quv natijalarini izohlashda ko‘pincha intellekt va layoqat tushunchalariga murojaat qilinadi. Biroq ushbu tushunchalar ko‘proq natijani ifodalovchi indikatorlar bo‘lib, bilimlarni egallash jarayonining ichki mexanizmlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu bois zamonaviy pedagogika fanida o‘quvchilarning qanday kognitiv strategiyalar orqali natijaga erishayotganini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa, bilish instrumentlarini tanlash, ularni samarali qo‘llash va baholash masalalari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan muammolar sirasiga kiradi. Kognitiv vositalar (metakognitiv strategiyalar, muammoli fikrlash texnologiyalari, raqamli ta’lim resurslari va boshqalar) o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu sababli ularni ilmiy asosda tizimlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Штайнберг В.Е. Дидактическая многомерная технология: теория и практика. – М.: Народное образование, 2015. – 129 с.;
2. Манько Н. Н. Когнитивная визуализация дидактических объектов: монография. – Уфа: БГПУ, 2007. – 92 с.;
3. Селевко Г. К. Педагогические технологии: учебное пособие (в 2-х томах). – М.: Народное образование, 1998 –2006.
Использование схем и алгоритмов позволило учащимся увидеть закономерности образования причастий и систематизировать грамматические знания. Визуальные модели способствовали развитию ассоциативного мышления и облегчали восприятие сложного языкового материала.

Особенно полезными оказались наглядные раздаточные материалы, которые помогали учащимся самостоятельно анализировать языковые явления и находить правильные решения.

Результаты исследования согласуются с современными педагогическими подходами, согласно которым визуализация учебного материала способствует повышению качества усвоения знаний и развитию познавательной активности обучающихся.

Заключение

Таким образом, использование моделирования при изучении причастий в национальных классах является эффективным средством обучения.

Применение схем, таблиц, алгоритмов и других визуальных моделей способствует:

- повышению мотивации учащихся;
- развитию грамматического мышления;
- улучшению навыков устной и письменной речи;
- более прочному усвоению темы «Причастие».

Использование технологии моделирования делает уроки русского языка более доступными, наглядными и результативными для учащихся с нерусским языком обучения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах развития сфер образования и воспитания, науки в новый период развития Узбекистана» № УП-6108 от 06 ноября 2020.
2. Львов М. Р., Львов В. В. *Методика преподавания русского языка в школе.* – М.: Академия, 2018.
3. Полат Е.С. *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования.* – М.: Академия, 2021.
4. Щукин А.Н. *Методика преподавания русского языка как иностранного.* – М.: Флинта, 2020.
5. Пассов Е.И. *Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению.* – М.: Русский язык, 2010.
6. Пардабоева Д.Р. Методы обучения на уроках русского языка // *Science and Education* 3 (11). – С. - 957.

ZAMONAVIY DUNYODA KONRAD QAHRAMONLARINING AXLOQIY IZLANISHLARINING DOLZARBLIGI

KASIMOVA YULDUZ MALIKOVNA
Namangan Davlat Pedagogika Institutining
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: kasimovayulduz1977@gmail.com
+998998170868
XAKIMOVA FERUZA IXTIYOR QIZI
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
E-mail: hakimovaf305@gmail.com
+998938475722

Annotatsiya. Ushbu maqolada Joseph Conrad ijodidagi axloqiy muammolar va ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, Lord Jim asari misolida insonning vijdon, mas’uliyat, qo‘rquv va o‘zini anglash bilan bog‘liq ichki kurashlari yoritiladi. Maqolada Konrad qahramonlarining ruhiy izlanishlari bugungi globallashuv va ma’naviy inqiroz sharoitida ham dolzarbligini saqlab qolayotgani ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: axloqiy izlanish, vijdon, mas’uliyat, modernizm, ruhiy konflikt, inson psixologiyasi, ma’naviy qadriyatlar, ingliz adabiyoti.

Annotation. This article analyzes the moral problems in the work of Joseph Conrad and their significance in modern society. In particular, the example of the work of Lord Jim highlights the internal struggles of a person related to conscience, responsibility, fear and self-awareness. The article scientifically and theoretically substantiates the fact that the spiritual searches of Conrad's heroes remain relevant even in the conditions of today's globalization and spiritual crisis.

Keywords: moral inquiry, conscience, responsibility, modernism, spiritual conflict, human psychology, spiritual values, English literature.

Аннотация. В данной статье анализируются моральные проблемы в творчестве Джозефа Конрада и их значение в современном обществе. В частности, пример произведения лорда Джима подчеркивает внутреннюю борьбу человека, связанную с совестью, ответственностью, страхом и самосознанием. В статье научно и теоретически обосновывается тот факт, что духовные поиски героев Конрада остаются актуальными даже в условиях современной глобализации и духовного кризиса.

Ключевые слова: моральный поиск, совесть, ответственность, модернизм, духовный конфликт, психология человека, духовные ценности, английская литература.

KIRISH

XX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Joseph Conrad inson ruhiyatini tasvirlashdagi mahorati bilan ajralib turadi. Joseph Conrad (1857–1924) ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, inson ruhiyati va axloqiy muammolarni chuqur tasvirlagan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning asl ismi Yuzef Teodor Konrad Korjenyovskiy bo‘lib, u Polshada tug‘ilgan. Keyinchalik Angliyaga ko‘chib o‘tib, ingliz tilida ijod qilgan. Konrad uzoq yillar dengizchilik bilan shug‘ullangani sababli uning ko‘plab asarlarida dengiz hayoti, sayohat va sarguzasht mavzulari muhim o‘rin egallaydi. Yozuvchi o‘z ijodida insonning vijdon, qo‘rquv, mas’uliyat va axloqiy tanlov kabi murakkab kechinmalarini mahorat bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, Lord Jim romani orqali insonning ichki kurashi va ma’naviy izlanishlari chuqur yoritilgan.[79]

Uning asarlarida insonning ichki dunyosi, axloqiy tanlovlari va vijdon azobi markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Lord Jim romani orqali yozuvchi insonning birgina xatosi butun hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqur tasvirlaydi. Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyot va globallashuv kuchaygan bo‘lsa-da, insonning ma’naviy muammolari o‘z mohiyatini yo‘qotmagan. Shu sababli Konrad

[79] Karl, Frederick. Joseph Conrad: The Three Lives. New York: Farrar, Straus and Giroux, 1979, p. 21.

qahramonlarining axloqiy izlanishlari bugungi jamiyat uchun ham muhim mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Lord Jim obrazida axloqiy mas’uliyat. Lord Jim asarining bosh qahramoni Jim idealistik qarashlarga ega bo‘lgan yosh dengizchi sifatida tasvirlanadi. U o‘zini jasur va halol inson deb hisoblaydi. Biroq “Patna” kemasidagi fojeali vaziyatda Jim qo‘rquvga berilib, boshqa dengizchilar bilan birga kemani tark etadi. Aynan shu voqea uning butun hayotidagi eng katta axloqiy sinovga aylanadi.

Jimning vijdon azobi va o‘z aybini yuvishga bo‘lgan urinishlari inson ruhiyatining murakkabligini ochib beradi. Zamonaviy jamiyatda ham insonlar turli vaziyatlarda axloqiy tanlov oldida qoladilar. Ba’zan qo‘rquv, manfaat yoki bosim sababli noto‘g‘ri qaror qabul qilinadi. Shu jihatdan Jim obrazi bugungi insonning ichki kurashlarini aks ettiruvchi universal obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Vijdon va o‘zini anglash muammosi. Konrad asarlarida vijdon tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Jim o‘z xatosidan keyin jamiyatdan qochishga harakat qiladi, biroq u o‘z vijdonidan qochib qutula olmaydi. Bu holat insonning eng katta sudyasi uning o‘zi ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ham insonlar ijtimoiy tarmoqlar, raqobat va moddiy manfaatlar ta’sirida ko‘pincha ma’naviy qadriyatlarni unutib qo‘yadilar. Biroq inson qalbidagi vijdon hissi hanuz muhim mezon bo‘lib qolmoqda. Shu sababli Konrad qahramonlarining ichki izlanishlari zamonaviy o‘quvchi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy dunyo va Konrad qahramonlari. Hozirgi globallashuv davrida insoniyat ko‘plab axloqiy muammolarga duch kelmoqda. Urushlar, ekologik inqiroz, korrupsiya va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar insonning axloqiy pozitsiyasini sinovdan o‘tkazmoqda. Konrad asarlaridagi qahramonlar ham aynan shunday murakkab vaziyatlarda o‘z insoniyligini saqlab qolishga urinadilar.

Bundan tashqari, yozuvchi insonning yolg‘izlik hissi va ruhiy iztiroblarini ham chuqur ochib beradi. Zamonaviy inson texnologiyalar bilan o‘ralgan bo‘lsa-da, ko‘pincha ruhiy bosim va ma’naviy bo‘shliqni his qiladi. Jimning ichki iztirobi bugungi insonning psixologik kechinmalari bilan hamohangdir.

Konrad ijodining badiiy ahamiyati. Joseph Conrad asarlarining muhim jihatlaridan biri - inson psixologiyasini realizm va modernizm elementlari orqali yoritishidir. Yozuvchi qahramonlarning ichki monologlari, ruhiy kechinmalari va axloqiy konfliktlarini chuqur tasvirlaydi. Bu esa o‘quvchini qahramon ruhiyati bilan yaqindan tanishtiradi.. Konrad ijodi bugungi adabiyotshunoslikda ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki uning asarlari inson tabiatining murakkabligini ochib berishda katta badiiy va falsafiy ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Joseph Conrad ijodida insonning ichki dunyosi va axloqiy tanlovlari markaziy o‘rinda turadi. Ayniqsa Lord Jim romani orqali yozuvchi insonning vijdon, qo‘rquv va mas’uliyat o‘rtasidagi murakkab ruhiy holatini chuqur ochib beradi. Asarda Jim obrazining “Patna” voqeasidan keyingi holati uning nafaqat jamiyat oldidagi obro‘siga, balki ichki axloqiy dunyosiga ham katta zarba bo‘lishini ko‘rsatadi.[80]

Natijada u butun hayoti davomida o‘zini oqlash va ma’naviy tiklanishga intiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Konrad qahramonlari ko‘proq tashqi sarguzashtlar bilan emas, balki ichki psixologik kurashlar bilan ajralib turadi. Jimning hayoti ham aynan shunday ichki ziddiyatlar asosida rivojlanadi. U o‘zini qayta kashf etish orqali yo‘qotilgan sha’nini tiklashga harakat qiladi. Bu jarayon insonning o‘z xatolarini anglash va ularni yengish yo‘lidagi murakkab ruhiy bosqichlarini ifodalaydi.[81]

Zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan qaralganda, bu g‘oyalar hanuz dolzarbdir. Chunki bugungi kunda ham insonlar turli ijtimoiy, axloqiy va psixologik bosimlar ostida qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Konrad tasvirlagan ichki kurashlar esa inson tabiatining o‘zgarmas jihatlarini ochib beradi. Shu sababli Lord Jim nafaqat adabiy, balki falsafiy ahamiyatga ega asar sifatida ham qadrlanadi.

Qo‘shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, Lord Jim romani nafaqat individual axloqiy muammo, balki ijtimoiy mas’uliyat masalasini ham ko‘taradi. Jimning qarori faqat uning shaxsiy hayotiga emas, balki boshqalarning taqdiriga ham ta’sir qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda har bir insonning harakati ijtimoiy oqibatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Konrad inson ruhiyatidagi “ikkinchi imkoniyat” g‘oyasini ham ilgari suradi. Jimning keyingi hayoti o‘zini qayta tiklashga urinish sifatida talqin qilinadi, biroq bu jarayon to‘liq muvaffaqiyatga emas, balki ichki tinchlik izlashga qaratilgan murakkab yo‘l sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan asar bugungi kunda ham insonning psixologik va axloqiy muammolarini tushunishda muhim manba bo‘lib qolmoqda.[82]

XULOSA

Joseph Conrad ijodi, xususan Lord Jim romani orqali insonning axloqiy tanlovi, vijdon oldidagi javobgarligi va ichki ruhiy kurashi chuqur yoritilgan. Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson hayotida birgina noto‘g‘ri qaror uning butun taqdirini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Birinchidan, Jim obrazi orqali Konrad insonning qo‘rquv va idealizm o‘rtasidagi ziddiyatini ochib beradi. Bu ziddiyat har bir inson hayotida uchrashi

[80] Guerard, Albert J. Conrad the Novelist. Harvard University Press, 1958, p. 210–215.
[81] Watts, Cedric. A Preface to Conrad. Longman, 1982, p. 95–100.
[82] Singh, R. “Lord Jim: Between Shame and Guilt”, ResearchGate, 2024, p. 5–9.

mumkin bo‘lgan universal holatdir. Ikkinchidan, romanda vijdon eng yuqori axloqiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni insonni jamiyatdan ko‘ra ko‘proq uning ichki vijdoni hukm qiladi. Uchinchidan, Jimning o‘z xatosini yengishga bo‘lgan urinishlari “ikkinchi imkoniyat” g‘oyasini ilgari suradi, biroq bu imkoniyat har doim ham to‘liq muvaffaqiyatga olib kelmaydi.

Shu jihatdan, Lord Jim zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb asar bo‘lib qolmoqda, chunki u insonning axloqiy tanlovlari va ularning ijtimoiy hamda ruhiy oqibatlarini chuqur ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karl, Frederick. Joseph Conrad: The Three Lives. New York: Farrar, Straus and Giroux, 1979, p. 21.

2. Guerard, Albert J. Conrad the Novelist. Harvard University Press, 1958, p. 210–215.

3. Watts, Cedric. A Preface to Conrad. Longman, 1982, p. 95–100.

4. Singh, R. “Lord Jim: Between Shame and Guilt.” ResearchGate Journal Article, 2024,p.5–9.

5. Kasimova, Y. M., Alimova, E. Z. N. M., & Ulkanov, A. A. Z. Theoretical foundations of the translation theory. *International Journal on Integrated Education*, *3*(2), 65-67.

6. Kasimova, Y. (2025). The Philosophy Of Life And Internal Conflicts Of Adolescents In The Works Of Utkir Hoshimov. Stanford Database Library of American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(12), 124-127.

JOZEF KONRAD ASARLARIDA FATE (TAQDIR) VA ERKIN IRODA MUAMMOSI: “TYPHOON” (“TO‘FON”) VA “THE SHADOW-LINE” (“SOYA CHIZIG‘I) QISSALARIDA DETERMINIZM MASALASI

KASIMOVA YULDUZ MALIKOVNA

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar kafedrasi kata o‘qituvchisi

E-mail: kasimovayulduz1977@gmail.com

Telefon:+998998170868

SATTOROVA SHAHLOXON ODILJON QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti,

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Telefon: +998 +998885651122

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz adabiyoti vakili Jozef Konradning “Typhoon” va “The Shadow-Line” qissalarida taqdir va erkin iroda muammosi determinizm (sababiylik ta’limoti) falsafasi asosida tahlil qilinadi. Asarlardagi

qahramonlarning tabiat kuchlari, ruhiy sinovlar va ichki qarorlar qarshisidagi holati yoritilgan. Shuningdek, yozuvchining inson xarakteri va axloqiy tanlov haqidagi qarashlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot davomida qissalardagi falsafiy va psixologik qatlamlar ochib berilib, inson hayotida taqdir va irodaning o‘zaro bog‘liqligi masalasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: determinizm, taqdir, erkin iroda, Jozef Konrad, Typhoon, The Shadow-Line, psixologik tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема судьбы и свободы воли в повестях Джозефа Конрада “Typhoon” (“Тайфун”) и “The Shadow-Line” (“Теневая черта”) на основе философии детерминизма. Освещается положение героев произведений перед силами природы, внутренними испытаниями и личным выбором. Также рассматриваются взгляды писателя на человеческий характер и нравственный выбор. В ходе исследования раскрываются философские и психологические аспекты произведений, а также взаимосвязь судьбы и человеческой воли.

Ключевые слова: детерминизм, судьба, свобода воли, Джозефа Конрад, Typhoon, The Shadow-Line, психологический анализ.

Abstract. This article analyzes the problem of fate and free will in Joseph Conrad’s novellas “Typhoon” and “The Shadow-Line” through the philosophy of determinism. The paper examines the characters’ confrontation with natural forces, psychological trials, and personal choices. It also discusses Conrad’s views on human character and moral responsibility. The research reveals the philosophical and psychological dimensions of the works and highlights the relationship between destiny and human free will.

Keywords: determinism, fate, free will, Joseph Conrad, Typhoon, The Shadow-Line, psychological analysis.

Kirish

XX asr boshlarida ingliz adabiyotida inson ruhiyati va hayot falsafasini chuqur yoritgan yozuvchilardan biri Jozef Konrad hisoblanadi. Uning asarlarida insonning tabiat, jamiyat va o‘z taqdiri bilan kurashi markaziy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “Typhoon” va “The Shadow-Line” qissalari yozuvchining determinizm va erkin iroda masalasiga bo‘lgan qarashlarini ifodalovchi muhim asarlardandir [1].

Determinizm falsafasiga ko‘ra, inson hayoti sabab-oqibat qonuniyatlariga bo‘ysunadi va barcha voqealar ma’lum omillar bilan belgilanadi. Biroq Konrad insonning ichki qaror qabul qilish qobiliyatini ham muhim deb hisoblaydi. Shu sababli uning qahramonlari bir vaqtning o‘zida ham taqdir qurboni, ham mustaqil iroda egasi sifatida gavdalanadi.

“Typhoon” qissasida determinizm va tabiat kuchlari

“Typhoon” qissasi markazida kapitan Makvir obrazi turadi. Asarda kuchli dovul inson hayotining oldindan belgilangan sinovlari ramzi sifatida tasvirlanadi. Tabiat kuchlari inson irodasidan ustun qo‘yiladi va qahramonlar ular qarshisida ojiz holatda qoladilar [2].

Kapitan Makvir hissiyotlarini oshkor qilmaydigan, sodda va amaliy fikrlovchi inson sifatida namoyon bo‘ladi. U dovulni o‘zgartirish yoki undan qochishga emas, balki mavjud vaziyatni yengishga harakat qiladi. Bu holat determinizmning amaliy ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Chunki qahramon voqealarni tabiiy jarayon sifatida qabul qiladi.

Biroq Konrad qahramonni mutlaq taqdirga bo‘ysungan inson sifatida tasvirlamaydi. Makvirning kemani saqlab qolish yo‘lidagi qat’iyati uning erkin irodasini ham ko‘rsatadi. Yozuvchi shu orqali inson tashqi sharoitlarni boshqara olmasa ham, o‘z munosabati va axloqiy pozitsiyasini tanlash imkoniyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi.

“The Shadow-Line” qissasida ruhiy yetilish va iroda

“The Shadow-Line” qissasi yosh kapitan hayotidagi ruhiy o‘sish jarayonini aks ettiradi. Asardagi “shadow-line” tushunchasi inson hayotidagi o‘tish bosqichini, ya’ni yoshlikdan yetuklikka o‘tishni anglatadi [3].

Qahramon kutilmagan holda kemaga kapitan etib tayinlanadi va murakkab sinovlarga duch keladi. Kasallik, shamolsizlik va ekipajdagi tushkunlik uning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu voqealar go‘yoki oldindan belgilangan taqdir sinovlari sifatida tasvirlanadi.

Shunga qaramay, qahramon ichki qo‘rquvlarini yengishga va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga intiladi. Aynan shu jarayonda uning xarakteri shakllanadi. Konrad inson hayotidagi qiyinchiliklar shaxsning ma’naviy yetilishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Demak, taqdir insonni sinovdan o‘tkazsada, uning qanday inson bo‘lib shakllanishi iroda va tanlovga ham bog‘liqdir.

Asarlar qiyosiy tahlili

Har ikki qissada ham inson va tabiat o‘rtasidagi kurash asosiy mavzu hisoblanadi. “Typhoon”da tashqi tabiat kuchlari asosiy o‘rinda tursa, “The Shadow-Line”da ichki psixologik kurash ustunlik qiladi. Biroq ikkala asarda ham determinizm va erkin iroda o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik saqlanib qoladi.

Konrad qahramonlari hayot sinovlaridan qochmaydi. Ular tashqi omillarni o‘zgartira olmasalar ham, ularga qanday munosabat bildirishni tanlaydilar. Shu jihatdan yozuvchi insonning axloqiy mas’uliyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Amaliy tavsiyalar

Jozef Konrad asarlarini o‘rganishda determinizm va ekzistensializm falsafasi asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

“Typhoon” va “The Shadow-Line” qissalarini psixologik adabiyot nuqtayi nazaridan o‘rganish talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Ingliz adabiyoti darslarida ushbu asarlar orqali inson ruhiyati va axloqiy tanlov masalalarini muhokama qilish samarali natija beradi.

Konrad ijodini zamonaviy falsafiy qarashlar bilan bog‘liq holda tadqiq etish yangi ilmiy izlanishlarga asos bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Jozef Konradning “Typhoon” va “The Shadow-Line” qissalarida taqdir va erkin iroda muammosi chuqur falsafiy hamda psixologik mazmunda yoritilgan. Yozuvchi inson hayotida tashqi kuchlarning ta’sirini tan olsa-da, insonning axloqiy tanlovi va ichki iroda kuchini ham muhim deb hisoblaydi. Shu sababli Konrad asarlarida determinizm mutlaq emas, balki inson irodasi bilan uyg‘un holda tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Conrad J. The Shadow-Line. – London: Penguin Books, 2007.

2. Conrad J. Typhoon and Other Stories. – Oxford: Oxford University Press, 2008.

3. Watts C. Joseph Conrad: A Literary Life. – London: Macmillan Press, 1989.

4. Ashurova, M., Umaraliyev, M., Kholmirzaev, J., Rustamov, S., Kosimov, R., Kasimova, Y., & Mirzanov, S. (2026). Genetic and Environmental Pathways to Anxiety Across Adolescence in Relation to Developmental Timing and Changing Social Contexts. Genetics and Molecular Research, 25(1).

5. Kasimova, Y. (2025). The Philosophy Of Life And Internal Conflicts Of Adolescents In The Works Of Utkir Hoshimov. Stanford Database Library of American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(12), 124-127.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ В МЕТОДИКЕ ИНТЕНСИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

СУЛЕЙМАНОВА ЭЛЬНАРА ДИЛЯВЕРОВНА

sulejmanovaelnara77@gmail.com

магистрант Наманганского государственного педагогического института

Русский язык и литература

Аннотация. В статье рассматривается образовательный и дидактический потенциал научной фантастики как междисциплинарного педагогического ресурса в условиях современной образовательной парадигмы. В работе подробно анализируются онтологические особенности

жанра, в частности феномен интеллектуальной игры и игровой условности, выполняющие фасилитирующую функцию и снижающие академическую тревожность учащихся при освоении сложного материала.

Ключевые слова: научная фантастика, междисциплинарный подход, педагогический ресурс, опережающее обучение, игровая условность, когнитивный эксперимент, критическое мышление

Abstract. This article examines the educational and didactic potential of science fiction as an interdisciplinary pedagogical resource in the context of the modern educational paradigm. The paper provides a detailed analysis of the genre's ontological features, particularly the phenomenon of intellectual play and game conventions, which serve a facilitating function and reduce students' academic anxiety when mastering complex material.

Keywords: science fiction, interdisciplinary approach, pedagogical resource, advanced learning, game conventions, cognitive experiment, critical thinking

Междисциплинарный подход в современной науке представляет собой интегративную систему, объединяющую методы, концепции и теории различных областей знания для целостного осмысления сложных, многомерных феноменов. Он стимулирует открытый диалог между исследователями, позволяя создавать инновационные теоретические модели и выходить за рамки узкоспециализированного, фрагментарного знания. Несмотря на давний и устойчивый интерес к научной фантастике, её системное изучение в образовательном контексте до сих пор носит дискретный характер. Единой методологической базы для комплексного анализа данного феномена сегодня не существует – в академическом пространстве представлены лишь разрозненные разработки в области философии, психологии, социологии и филологии. Настоящее исследование призвано восполнить этот теоретический пробел, рассматривая научную фантастику не просто как репрезентативный литературный жанр, а как эффективный междисциплинарный педагогический ресурс, обладающий колоссальным мотивационным и дидактическим потенциалом.

Моделируя вымышленные миры и альтернативные реальности, научная фантастика связывает воедино технологические, социальные, политические и этические контексты, позволяя учащимся одновременно оперировать знаниями из полярных областей. Например, комплексный анализ концепта биотехнологий в научно-фантастическом тексте требует симультанного привлечения данных из сферы естественных наук, биоэтики, юриспруденции и социологии, что формирует у студентов многомерный, панорамный взгляд на проблему. Такое обучение напрямую способствует интеграции фундаментальных знаний и интенсивному развитию критического мышления.

Обучающиеся приобретают навык выстраивать неочевидные межпредметные связи и оценивать, как направленные изменения в одной сфере могут радикально трансформировать смежные области.

В данном ракурсе литература выполняет функцию «педагогического полигона»: гипотетические сценарии создают безопасное, но интеллектуально плотное пространство для мысленного эксперимента. В рамках этого полигона учащиеся могут безрисково моделировать альтернативные решения, прогнозировать долгосрочные последствия технологических инноваций и разрабатывать нестандартные способы анализа сложных глобальных проблем.

Специфика жанра опирается на устойчивую систему сюжетных и содержательных характеристик, определяющих структуру произведений. В качестве типичных архитектонических компонентов научно-фантастического нарратива выделяются мотивы открытия, исследования, приключения, путешествия, катастрофы и преступления. Эти элементы не только обеспечивают высокую динамику повествования, но и служат концептуальной основой для глубокого осмысления научных достижений, векторов их развития и характера влияния на антропологическую и социальную реальность. В педагогической практике данные мотивы позволяют эффективно организовывать проектную и дискуссионную деятельность. Школьники и студенты получают возможность не просто репродуктивно усваивать готовые блоки информации, но и проигрывать вариативные сценарии будущего, самостоятельно калькулируя риски и перспективы научно-технического прогресса.

Междисциплинарный подход представляет собой интегративную систему, объединяющую методы, концепции и теории различных наук для целостного осмысления сложных феноменов. Он стимулирует открытый диалог между исследователями, позволяя создавать инновационные теоретические модели и выходить за рамки узкоспециализированного знания. Несмотря на давний интерес к научной фантастике, её системное изучение в образовательном контексте до сих пор носит фрагментарный характер. Как отмечает Т. В. Тимошенко, единой научной базы для комплексного анализа данного феномена сегодня не существует – имеются лишь разрозненные разработки в области философии, психологии и филологии [1, с. 18]. Настоящее исследование призвано восполнить этот пробел, рассматривая научную фантастику не просто как литературный жанр, а как эффективный междисциплинарный образовательный ресурс с высоким мотивационным потенциалом.

Моделируя вымышленные миры и альтернативные реальности, научная фантастика связывает воедино технологические, социальные, политические и

этические контексты. Например, анализ концепта биотехнологий в научно-фантастическом тексте требует одновременного привлечения знаний из области науки, этики, юриспруденции и социологии, что формирует у учащихся многомерный взгляд на проблему. Такое обучение способствует интеграции фундаментальных знаний и развитию критического мышления. Студенты учатся выстраивать межпредметные связи и оценивать, как изменения в одной сфере влияют на другие. В этом процессе литература выступает в роли «педагогического полигона»: гипотетические сценарии создают безопасное пространство для когнитивного эксперимента, где можно моделировать альтернативные решения, прогнозировать последствия инноваций и искать нестандартные подходы к сложным задачам.

Специфика жанра опирается на устойчивую систему сюжетных характеристик. По мнению Т. А. Балашовой, структуру произведений определяют такие типичные компоненты, как мотивы открытия, исследования, приключения, путешествия, катастрофы и преступления. Эти элементы не только обеспечивают динамику повествования, но и служат основой для осмысления научных достижений и их влияния на человечество [2]. В педагогической практике данные мотивы позволяют эффективно организовывать проектную и дискуссионную деятельность, в ходе которой учащиеся проигрывают сценарии будущего, самостоятельно взвешивая риски и перспективы технологического прогресса.

Современный исследователь Е. В. Цветков особенно высоко оценивает прогностическую роль научно-фантастической литературы как социокультурного института. Она способна не только предлагать решения текущих научно-технических задач, но и формулировать концепции, которые наука и техника еще даже не начали исследовать. Опережая интеллектуальные достижения общества, фантастика эксплицирует скрытые в коллективном бессознательном тенденции, которые позже находят выражение в трудах ученых, философов и общественных лидеров [3, с. 49]. С точки зрения дидактики это меняет вектор применения художественных текстов: они становятся не просто иллюстрацией к пройденному материалу, а инструментом опережающего обучения. В отличие от классической схемы «от известного к неизвестному», здесь траектория познания строится от еще не открытого к поиску его реальных научных оснований.

У истоков теоретической систематизации функций научной фантастики стоял А. Ф. Бритиков, который выделял её познавательное, прогностическое и мотивационное значение, способное пробуждать интерес к технологиям и конструированию будущего. Исследователь подчеркивал, что именно Герберт Уэллс первым соединил социальный прогноз с фантастическим допущением,

заложив фундамент философского и социального направления жанра. В современную эпоху прогностическая функция приобрела универсальный характер, трансформируя не только содержательный пласт, но и саму поэтику произведения – от структуры образа до стилистики, – что окончательно включило художественную форму в общую научно-логическую систему.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Тимошенко Т.В. Научная фантастика как социокультурный феномен : автореф. Дис. … канд. Филос. Наук. – М., 2022. – С. 18.

2. Балашова Т.А. Художественные особенности серьезно-смеховой фантастики : дисс. … канд. Филол. Наук. – Балашов, 2023. – 188 с.

3. Цветков Е.В. Научная фантастика и научное предвидение // Вестник САФУ. Сер.: Гуманитарные и социальные науки. – 2018. – С. 49–54.

4. Бритиков А.Ф. Русский советский научно-фантастический роман [Электронный ресурс]. – Л. : Наука. – URL: https://ru.wikiquote.org/wiki/Русский_советский_научно-фантастический_роман

5. Лихарева О.А., Плетнева Д.Ю. Междисциплинарное обучение в школе: теория и практика // Концепт. – 2021. – № 5. – С. 42–55.

6. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. – М. : Просвещение, 2016. – 96 с.

YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

NILUFAR IBROXIMOVA BAXROM QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti

o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Email:nabdumajidova1gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi avlod darsliklari misolida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda darsliklarda berilgan topshiriq va mashqlarning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, solishtirish hamda xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.Shuningdek, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda interfaol metodlar, muloqotga yo‘naltirilgan yondashuv va ijodiy topshiriqlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yangi avlod darsliklari, tanqidiy tafakkur, interfaol metodlar,ijodiy topshiriqlar, mustaqil fikrlash

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные способы развития критического мышления учащихся на примере учебников нового поколения. В исследовании раскрывается роль заданий и упражнений, представленных в учебниках, в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа, сравнения и обобщения. Также освещается значение интерактивных методов, коммуникативного подхода и творческих заданий в процессе развития критического мышления.

Ключевые слова: учебники нового поколения, критическое мышление, интерактивные методы, творческие задания, самостоятельное мышление

Annotation. This article analyzes effective ways to develop students' critical thinking based on new generation textbooks. The study reveals the role of the tasks and exercises presented in the textbooks in forming students' skills of independent thinking, analysis, comparison, and drawing conclusions. The importance of interactive methods, communicative approaches, and creative activities in developing critical thinking is also highlighted.

Keywords: new generation textbooks, critical thinking, interactive methods, creative tasks, independent thinking.

Kirish

Bugungi kunda insoniyat hayotining har bir jabhasida keng islohotlar olib borilmoqda.Shuningdek, so‘nggi yillardagi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida maktab o‘quvchilari uchun yangi avlod darsliklari yaratilmoqda.Mazkur darsliklar avvalgi yillardagi an’anaviy darsliklardan farqli ravishda zamonaviy talablarga javob beradigan, o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish kabi tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Hozirgi zamonaviy davrda axborot xilma-xilligi keskin ravishda ortib bormoqda.Shunday sharoitda mavjud ma’lumotlarni shunchaki qabul qilib ketavermasdan, ular ustida mulohaza yuritish, voqelikka nisbatan to‘g‘ri munosabat bildira olish kabi tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishni maktablarda yuqori sinflarning dastlabki bosqichidanoq boshlash maqsadga muvofiq. Yaratilayotgan darsliklarning, ayniqsa, ona tili darsliklarining bugungi kundagi qamrovi ham mana shu talablarga javob berayotgani bizni quvontiradi.5-sinf ona tili darsligini misol qilib oladigan bo‘lsak, avvalo, uning dizaynidagi rang-barangliklar hamda o‘quvchi yosh xususiyatiga mos tarzda tanlangan rasmlarni e’tirof etib o‘tish lozim. Sababi endigina boshlang‘ich ta’limni yakunlab, yuqori sinfga qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarning diqqatini jalb etish juda muhim.Bu rang-baranglik ularni kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirishga xizmat qiladi.Mazmunan olib qaraganda, undagi mavzular zamonaviy ta’lim tamoyillariga

mos ravishda tanqidiy fikrlash, muloqot ko‘nikmalari, matn bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgani kuzatiladi. Mashq va topshiriqlar o‘quvchini faollikka chorlaydigan, tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Shu o‘rinda soha mutaxassisi, yangi avlod darsliklari mualliflaridan biri, olima Klara Mavlonova ona tili darsliklari yuzasidan bildirgan fikrlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak : “…Barcha umumta’lim fanlari qatori ta’lim sifatini yanada oshirish bilan bog‘liq jarayonda Milliy o‘quv dasturining ishlab chiqilishi hamda ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarining kommunikativ va kognitiv yondashuvlar asosida yaratilayotgani mazkur sohadagi jiddiy islohotlardan ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, ona tili va o‘qish fanlari dars soatlari qisqarmagan holda o‘quv maqsadlari uyg‘unligidan kelib chiqib, ona tili va o‘qish savodxonligi fani joriy etildi. Quyida maktab ta’limdagi mazkur takomillashuvning mazmun mohiyati” – deya ta’kidlab o‘tadi.

Hozirgi kunda darsliklar mazmunini yangilash jarayonida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 5-sinf ona tili faniga mo‘ljallangan yangi o‘quv materiallari hamda ular asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o‘quvchilarda taqqoslash, izohlash, munozara yuritish va muammoli vaziyatlarga yechim topish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Aksincha, avvalgi yillarda amalda bo‘lgan ona tili darsligida mazkur yo‘nalishga oid materiallar yetarli darajada yoritilmagan bo‘lib, o‘quvchilarning fikrlash jarayonini baholash masalasiga yetarli e’tibor qaratilmaganini kuzatish mumkin.Ya’ni avvallari o‘quvchilardan faqatgina ona tili grammatikasi bilishnigina talab qilingan va darslik ham shu namuna asosida bo‘lgan. Shu sababdan ham juda ko‘p o‘qituvchilar yangi avlod darsliklarini qabul qilishni istashmadi. Chunki ular qoliplashgan tizimdagi o‘qitishni afzal deb hisoblashadi. Ularning nazdida o‘quvchilar ona tili darsida grammatik bilimlarni o‘rganishi kerak degan qarash mavjud. Lekin bugungi zamon talablari yoshlardan faqatgina grammatik bilimlarnigina emas, balki har tomonlama bilimga egalikni, keng tafakkurlilikni talab qilmoqda. Holbuki, tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishda “Muammo yuzasidan o‘z fikringizni bildiring”, “Masalalarni qiyoslang, tahlil qiling va izohlang” kabi topshiriqlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashga oid bilim va malakalarini yanada chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Yaratilayotgan darsliklarning, ayniqsa, ona tili darsliklarining bugungi kundagi qamrovi ham mana shu talablarga javob berayotgani bizni quvontiradi.5-sinf ona tili darsligini misol qilib oladigan bo‘lsak, avvalo, uning dizaynidagi rang-barangliklar hamda o‘quvchi yosh xususiyatiga mos tarzda tanlangan rasmlarni e’tirof etib o‘tish lozim. Sababi endigina boshlang‘ich ta’limni

yakunlab, yuqori sinfga qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarning diqqatini jalb etish juda muhim.Bu rang-baranglik ularni kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirishga xizmat qiladi.Mazmunan olib qaraganda, undagi mavzular zamonaviy ta’lim tamoyillariga mos ravishda tanqidiy fikrlash, muloqot ko‘nikmalari, matn bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgani kuzatiladi. Mashq va topshiriqlar o‘quvchini faollikka chorlaydigan, tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, darslikda berilgan audiomatnlar o‘quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishga bevosita xizmat qilmoqda. O‘quvchilar avval matnni tinglaydilar, so‘ng matn mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan savollarga javob berishadi, matnga bo‘lgan munosabatini hamda xulosalarini ham aytib o‘tishadi

Tahlillar va natijalar

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, darslikda berilgan audiomatnlar o‘quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishga bevosita xizmat qilmoqda. O‘quvchilar avval matnni tinglaydilar, so‘ng matn mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan savollarga javob berishadi, matnga bo‘lgan munosabatini hamda xulosalarini ham aytib o‘tishadi.Masalan, 5-sinf ona tili darsligining 36-mashqi (115-sahifa)da berilgan “G‘olib bo‘lishni istasangiz” audiomatni berilgan. O‘quvchilar audiomatnni diqqat bilan tinglaganidan so‘ng quyidagi savollarga javob berishlari kerak bo‘ladi:

“1. Qurbaqalar uyushtirgan musobaqaning sharti qanday edi?

2. Nima uchun tomoshabin qurbaqalar ishtirokchilarning g‘olib bo‘lishiga ishonmaslikni boshlashdi?

3.Tomoshabin qurbaqalarning bunday munosabati ishtirokchilarga qanday ta’sir qildi?

4.G‘olib qurbaqa musobaqa ishtirokchilari va tomoshabinlarning savoliga nima deb javob bergan bo‘lishi mumkin?”

Mazkur savollar o‘quvchini matn mazmunini oddiy qayta hikoya qilishga emas, balki voqealar sababini anglash, qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, fikr yuritish va xulosa chiqarishga undaydi. Ayniqsa, to‘rtinchi savol o‘quvchilardan ijodiy fikrlash, nutqiy faollik ko‘nikmalarini talab qiladi. Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar matnni chuqur idrok etadi, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlaydi, o‘z fikrini asoslashga o‘rganadi. Bundan tashqari o‘quvchilarda boshqalarning fikri ta’sirida adashmaslik, mustaqil qaror qabul qilish kabi qobiliyatlar asta-sekin rivojlanib boradi.

Yangi avlod darsliklaridagi o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlardan yana biri bu – to‘g‘ri va noto‘g‘ri fikrlarni ajratishga oid topshiriqlardir. Mazkur turdagi mashqlar o‘quvchining

fikrlash jarayonini faollashtirib, ularni ma’lumotni tekshirish, baholash, asoslash va xulosa chiqarishga yo‘naltiradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligida berilgan ushbu tipdagi mashq o‘quvchilardan qisqa matnni diqqat bilan o‘qib chiqib, undagi fikrlarning qaysi biri asosli va qaysi biri asoslanmagan ekanini aniqlashni talab qiladi.

Xulosa

Zamonaviy darsliklarda berilgan audiomatnlar va unga oid topshiriqlar, mantiqiy savollar hamda amaliy topshiriqlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.Bu esa ta’lim jarayonining asosiy maqsadiga- ijodkor, mustaqil, tanqidiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi: 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 104 b.
4. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014. – 648 p.
5. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 232 b.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “PUANKARE” HIKOYASIDA MATEMATIK QONUNIYATLARNING INSON TAQDIRI BILAN BADIIY UYG‘UNLIGI

KAMOLIDDINOVA ZILOLA ALISHER QIZI
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
ILMIY RAHBAR: S.QOZAQOVA

Annotatsiya. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” hikoyasi inson qismati va matematik qonuniyatlarning sirli, shu bilan birga nihoyatda go‘zal badiiy uyg‘unligiga bag‘ishlangan. Ushbu tezisda inson hayotining chig‘iriqlardan iborat tabiati va taqdir deb bilingan tushunchani matematik mezonlar orqali idrok etish mahorati chuqur tahlil qilingan. Biz yozuvchining o‘ziga xos ijodiy uslubi hamda asar tuzilishini ko‘zdan kechirar ekanmiz, undagi Puankare gipotezasi va matematik qonuniyatlarni shunchaki formula emas, balki hayotiy belgi hamda yirik metafora

ekanligini ko‘rsatib berishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: “Puankare”, inson taqdiri, matematik qonuniyatlar, badiiy uyg‘unlik, ruhiyat, intellektual nasr.

Abstract. Abduqayum Yuldoshev’s story “Poincaré” is dedicated to the mysterious, yet incredibly beautiful artistic harmony of human destiny and mathematical laws. This thesis deeply analyzes the nature of human life, consisting of calls, and the skill of perceiving the concept known as fate through mathematical criteria. While examining the writer’s unique creative style and the structure of the work, we tried to show that the Poincaré hypothesis and mathematical laws in it are not just a formula, but a vital symbol and a large metaphor.

Keywords: “Poincare”, human destiny, mathematical laws, artistic harmony, psyche, intellectual prose.

Аннотация. Рассказ Абдулкаюма Юлдошева «Пуанкаре» посвящен таинственной, но невероятно прекрасной художественной гармонии человеческой судьбы и математических законов. В данной работе глубоко анализируется природа человеческой жизни, состоящей из призывов, и умение воспринимать понятие, известное как судьба, посредством математических критериев. Изучая уникальный творческий стиль писателя и структуру произведения, мы попытались показать, что гипотеза Пуанкаре и содержащиеся в ней математические законы – это не просто формула, а жизненно важный символ и масштабная метафора.

Ключевые слова: «Пуанкаре», человеческая судьба, математические законы, художественная гармония, психика, интеллектуальная проза.

Bugungi zamonaviy o‘zbek adabiyotining eng yorqin va jasoratli vakillaridan biri bo‘lgan Abduqayum Yo‘ldoshev o‘ziga xos ijodiy uslubi bilan milliy nasrimizga mutlaqo yangi nafas olib kirdi. Yozuvchining “Puankare” hikoyasi milliy adabiyotimizda g‘arbcha falsafiy an’analarni o‘zbekona tafakkur bilan uyg‘un qilgan tamomila yangi bir ufqni ochib berdi. Asar shunchaki navbatdagi badiiy to‘qima yoki quruq syujet emas. U inson hayotidagi kutilmagan evrilishlar, chizilgan qismat va bizni beixtiyor boshqarib turuvchi ko‘rinmas tizimlarni teran anglashda juda muhim kalit vazifasini o‘taydi. A.Yo‘ldoshev o‘zining betakror badiiy mahorati tufayli formulalarning quruq raqamlar emas, balki qanchalar hayotiy, hayratlanarli va hatto fojiaviy bo‘lishi mumkinligini isbotlab berdi. O‘quvchiga inson ruhiyati va ilmiy yondashuvning mana shu qiziqarli to‘qnashuvi taqdim etilar ekan, “Puankare” shunchaki o‘qib ketiladigan asar emas, balki falsafiy va ilmiy tafakkurni uyg‘otadigan intellektual hodisa sifatida adabiyotimiz qalbidan joy oladi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” hikoyasi, hech mubolag‘asiz, o‘zbek nasridagi intellektual nasrning eng go‘zal va kamyob namunalaridan biridir. Muallif asar markaziga sovuq, qat’iy matematik formulalar bilan inson ruhiyatining

parchalanishi va ichki halokatini yonma-yon qo‘yadi. Buning ortidan esa kitobxonni dunyoning o‘zgarmas, mustahkam mantiqiy qonuniyatlari hamda yurakning beqaror, oldindan aytib bo‘lmas ruhiy kechinmalari o‘rtasidagi to‘qnashuv bilan yuzlashtiradi.Hikoyaga sarlavha qilib olingan mashhur “Puankare gipotezasi” shunchaki matematik atama yoki ilmiy bezak emas – u asarning bosh metaforasi, uning yuragidir.

Asardagi murakkab ilmiy masala bosh qahramonning chalkash hayot yo‘lini, o‘z qobig‘i ichiga qamalib qolgan iztiroblarini hamda mutloq haqiqatni topishga bo‘lgan telbanamo intilishini aks ettiradi. Muallif eng og‘riqli nuqtani mahorat bilan topgan: u qahramonni ilmiy yechimga, formulalar javobiga yaqinlashtirgani sari, uni oddiy insoniy baxtidan, hayotning tirik ranglaridan shunchalik uzoqlashtirib boradi. Qahramon butun borliqni, atrofidagi odamlarni, hatto eng nozik his-tuyg‘ular va hayotiy munosabatlarni ham mantiqiy qolipga solishga, ularni matematik formulalar bilan hisoblab chiqishga urinadi. Biroq hayot uning chizgan chizig‘idan yurishni xohlamaydi. Taqdirning o‘zgartirib bo‘lmas o‘yinlari, kutilmagan tasodiflar va his-tuyg‘ularning shiddati qahramon o‘zi uchun qurib olgan o‘sha mukammal, ammo jonsiz “matematik olam”ni chilparchin qilib tashlaydi.

Aslida, o‘zbek adabiyotida inson qismati va hayotiy tartib-intizomni matematik prinsiplar, simmetriya va mutanosiblik orqali ifodalashga urinishlar avval ham tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lgan. Masalan, Ulug‘bek Hamdam – “Muvozanat” romani, Isajon Sulton – “Genetik” romanlari ham matematik ilmiylik va adabiy mahorat uyg‘unligi na’munasidir. Ammo Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” hikoyasi ushbu an’anaviy yondashuvni butunlay boshqa bosqichga ko‘tardi. Yozuvchi inson taqdirini shunday bir nafislik va chuqurlik bilan matematik qonuniyatlar qa’riga singdirib yuboradiki, o‘quvchi hayot voqealarining ichki tartibini butun vujudi bilan his qiladi. Shu ma’noda, yozuvchi ijodi adabiyotimizda ham ilmiy, ham falsafiy badiiylikni uyg‘unlashtirishda ulkan bir qadam bo‘ldi desak yanglishmaymiz. U inson hayotini shunchaki tartibsiz yashash emas, balki murakkab, mukammal va ma’lum bir sirli tizimga bo‘ysunuvchi olam ekanligini ko‘rsatib berdi.

Adabiyotshunoslikda asar personajlari va syujet chiziqlarining rivojlanishini tahlil qilishda faqatgina an’anaviy obrazlar tizimidan foydalanish har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. “Puankare” hikoyasida inson taqdiri va aniq fanlar uyg‘unligini o‘rganish bizga nafaqat matnning tub qatlamlarini anglashga yordam beradi, balki adabiyot vositasida inson borlig‘i, yaralish qonuniyati va tafakkurning cheksiz chegaralari haqida jiddiyroq falsafiy mushohada yuritishga majbur qiladi. Bu esa adabiy tahlil doirasini tor qoliplardan chiqarib, uni ham ilmiy, ham insoniy jihatdan boyitadi.Bugungi kunda akademik doiralarda ushbu hikoya yuzasidan bildirilayotgan fikrlar va ilmiy bahslar juda qizg‘in tus olgan. Adabiyotshunos

olimlar asardagi matematik naqshlar va modellarning nasriy matnga tatbiq etilishini alohida e’tirof etmoqdalar. Ularning fikricha, asardagi matematik qonuniyatlar shunchaki fon emas, balki voqealar oqimini harakatga keltiruvchi, uni tartibga soluvchi bosh tizimidir.Bu qonuniyatlar inson hayotidagi muqarrarlik (determinizm) va kutilmagan tasodiflar o‘rtasidagi abadiy kurashni ko‘rsatadi. Eng muhimi, “Puankare”da ushbu quruq ilmiy paradigmalar insonning dardi, ichki iztirobi va yozuvchining yuksak badiiy kuyinchakligi bilan sug‘orilgan. Aynan mana shu jihat asarni quruq falsafiy traktat bo‘lishdan asrab, unga haqiqiy va tirik san’at asari maqomini beradi va o‘quvchi qalbida unutilmas aks-sado qoldiradi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” hikoyasi – inson qalbi faqatgina his-tuyg‘ulardan emas, balki ulkan koinot kabi aniq va sirli qonuniyatlardan iborat ekanligini ko‘rsatgan asardir. Yozuvchi ilm-fan va adabiyotni shunday bir nuqtada birlashtirdiki, natijada inson qismatining murakkabligi va fojiasi yanada yorqinroq, yanada haybatliroq namoyon bo‘ldi. Asar o‘zbek intellektual nasrining kelajagi va badiiy tafakkurning cheksiz imkoniyatlaridan dalolat beruvchi go‘zal bir obidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Йўлдош, Абдуқаюм. Пуанкаре. Ҳикоялар. – Тошкент: Академнашр, 2022.
2. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – T.,2000.
3. Quronov D. Badiiyat sirlari. – Toshkent: Tafakkur, 1998.
4. www.ziyonet.uz

СТИЛИСТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ПРЕВОСХ ОДНОЙ СТЕПЕНИ В СОВРЕМЕННОМ РЕКЛАМНОМ ДИСКУРСЕ

АБДУЛВОХИДОВА ГУЛМИРА
студентка 4 курса направления
русский язык в иноязычных группах НамГПИ
АХМАДАЛИЕВА ДИЛАФРУЗ
преподаватель кафедры филологии НамГПИ

Аннотация. Статья посвящена исследованию стилистических функций качественных имен прилагательных в форме превосходной степени в текстах современной русскоязычной рекламы. На материале слоганов известных мировых и отечественных брендов (электроника, автомобилестроение, бьюти-индустрия) анализируются способы прагматического воздействия элятивов и суперлативов на потребителя. Автор классифицирует основные типы превосходной степени, используемые в рекламе, и выявляет их роль в создании образа уникальности, надежности и премиальности продвигаемого продукта.

Ключевые слова: стилистика, рекламный дискурс, имя прилагательное, превосходная степень, слоган, прагматика текста, речевое воздействие.

Введение

Рекламный текст представляет собой особую сферу функционирования языковых единиц, где главным критерием эффективности является прагматическая направленность – способность привлечь внимание, убедить и побудить к покупке. В условиях жесткой рыночной конкуренции авторы рекламы прибегают к использованию экспрессивных и оценочных средств языка.Среди морфологических категорий русского языка мощным суггестивным (внушающим) потенциалом обладает превосходная степень имен прилагательных. Она позволяет наглядно и емко продемонстрировать превосходство продвигаемого товара над аналогами. Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью лингвистического анализа механизмов экспрессивности, которые используются в современных рекламных кампаниях для манипулирования вниманием аудитории.

Морфологические формы превосходной степени в рекламе

В русском языке превосходная степень прилагательных представлена двумя формами, каждая из которых несет свою стилистическую нагрузку в медиапространстве:

1. Простая форма (суффиксы *-ейш- / -айш-*). Обладает книжным, возвышенным и торжественным оттенком. В рекламе она используется для подчеркивания элитарности, традиций и высокого качества.

Примеры: «Чистейшая вода из глубин Сибири» (бренд артезианской воды); «Тончайший корпус, мощный процессор» (реклама ультрабуков).

2. Сложная форма (сочетание слов *самый, наиболее, всего, всех* + начальная форма прилагательного). Является более живой, разговорной и понятной широкому потребителю. Это самая частотная форма в коммерческих слоганах.

Примеры: «Самый надежный автомобиль для вашей семьи» (Toyota); «Наиболее выгодные инвестиции» (банковский сектор).

Прагматические и стилистические функции превосходной степени

Анализ эмпирического материала позволил выделить три ключевые стилистические функции, которые выполняют данные грамматические формы в рекламном тексте.

Функция абсолютизации и создания уникальности (Элятивная функция)

Часто превосходная степень в рекламе употребляется без прямого сравнения с конкретным конкурентом, а указывает на высшую степень

проявления признака в принципе. Это помогает создать вокруг товара ореол безальтернативности.

Пример: «Пожалуй, лучшее пиво в мире» (Carlsberg). Использование слова «лучшее» возводит продукт в абсолют, а вводное слово «пожалуй» стилистически смягчает категоричность, помогая обойти юридические ограничения закона «О рекламе».

Функция рационального убеждения (Суперлативная функция)

Прилагательные в превосходной степени могут апеллировать к логике потребителя, подчеркивая утилитарную выгоду: экономию времени, денег или безопасность.

Пример: «Самый быстрый мобильный интернет» (МегаФон). Словосочетание транслирует конкретную рациональную ценность для пользователя смартфона, для которого скорость является главным техническим критерием.

Эмоционально-эстетическая функция

В бьюти-индустрии и рекламе товаров премиум-сегмента прилагательные превосходной степени формируют чувственный, привлекательный образ, воздействующий на подсознание и эстетический вкус.

Пример: «Самый нежный шелк для вашей кожи» (реклама косметических средств). Здесь форма превосходной степени усиливает тактильную метафору, вызывая у аудитории приятные физические ассоциации.

Классификация рекламных слоганов по тематическим группам

В рамках практической части исследования было проанализировано 50 актуальных рекламных слоганов и составлена таблица, демонстрирующая зависимость выбора лексики от категории продвигаемого товара:

Использование превосходной степени прилагательных в разных сферах рекламы

Сфера рекламы	Доминирующие лексемы	Примеры реальных слоганов	Стилистический эффект
Цифровая техника / Гаджеты	*Самый мощный, тончайший, быстрейший*	«iPhone 16 Pro. Самый мощный чип в истории»	Создание образа технологического лидерства и инновационности.

Автомобильный рынок	*Самый безопасный, надежнейший, лучший*	«Volvo. Самый безопасный кроссовер»	Внушение чувства стабильности, защищенности и заботы о близких.
Косметика и парфюмерия	* Нежнейший, самый яркий, совершенный*	«L'Oreal. Совершенный тон, глубочайший цвет»	Апелляция к эмоциям, обещание мгновенной красоты и премиального ухода.
Финансовые услуги / Банки	*Самый выгодный, наиболее удобный*	«Альфа-Банк. Самый выгодный кэшбэк»	Формирование доверия, подчеркивание рациональной пользы для кошелька.

Заключение

Таким образом, имена прилагательные в превосходной степени являются одним из ключевых морфологических инструментов в современном рекламном дискурсе. Сложная форма со словом *«самый»* доминирует в массовом сегменте благодаря своей простоте и точности воздействия, в то время как простая суффиксальная форма (*-ейш-/-айш-*) востребована в премиум-сегменте для создания ощущения элитарности. Превосходная степень успешно выполняет номинативную, оценочную и суггестивную функции, трансформируя обычное описание технических характеристик товара в яркое, эмоциональное и убеждающее рекламное сообщение.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Голуб И. Б. Стилистика русского языка. – М.: Рольф, 2024.

2. Пирогова Ю. К. Речевое воздействие и проблемы применимости легальных ограничений в рекламе // Вестник МГУ. Серия 10. Журналистика. – 2023. – № 4.

3. Розенталь Д. Э. Стилистическая грамматика русского языка. – М.: Либроком, 2025.

4. Ласкарева Е. Р. Прогулки по русской грамматике. – СПб.: Златоуст, 2023

ТИПИЧНЫЕ ОШИБКИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ПРИ УСВОЕ НИИ РУССКИХ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ (НАЧАЛЬНЫЙ ЭТАП ОБУЧЕНИЯ)

КОЗОКОВА МОХИНУР
студентка 4 курса направления
русский язык в иноязычных группах НамГПИ
АХМАДАЛИЕВА ДИЛАФРУЗ
преподаватель кафедры филологии НамГПИ

Аннотация. Статья посвящена анализу трудностей, возникающих у иностранных учащихся на начальном этапе изучения русского языка (уровень А1–А2) при освоении лексико-грамматической группы глаголов движения без приставок. На основе анализа письменных работ и устной речи студентов выявлены основные типы грамматических и семантических ошибок. Автор классифицирует причины этих сбоев, среди которых доминируют межъязыковая интерференция и сложность внутренней структуры русской глагольной системы. В работе предложены практические рекомендации для минимизации ошибок.

Ключевые слова: русский язык как иностранный, РКИ, глаголы движения, типичные ошибки, интерференция, начальный этап, методика преподавания.

Введение

Группа глаголов движения (ГД) традиционно признается одним из самых сложных разделов грамматики в методике преподавания РКИ. На начальном этапе (уровни А1–А2) студенты должны не просто выучить лексическое значение слов, но и усвоить принципиальное для русской языковой картины разделение движений на однонаправленные (идти, ехать) и разнонаправленные (ходить, ездить), а также учитывать способ перемещения (пешком или на транспорте).Большинство мировых языков (английский, французский, языки изолирующего типа, такие как китайский) не имеют подобной разветвленной системы оппозиций внутри одной лексической группы. Цель данной статьи – выявить и классифицировать наиболее устойчивые ошибки иностранных студентов при употреблении бесприставочных глаголов движения на начальном этапе обучения**.**

Классификация типичных ошибок учащихся

На основе мониторинга устной и письменной речи иностранных студентов (англоязычная и китайская аудитории) автора были зафиксированы и разделены на три группы наиболее частотные сбои.

Смешение однонаправленности и разнонаправленности (кратность/ однократность)

Это самая распространенная ошибка. Студенты путают глаголы типа *идти* и *ходить*, когда речь идет о повторяющемся действии или о движении, происходящем в данный момент.

Ошибочные конструкции: «Каждый день я *иду* в университет» (вместо *хожу*) или «Посмотрите, Марк *ходит* в банк» (вместо *идет* – в данный момент).

Причина: В родном языке учащихся (например, английском *go*) регулярность или однократность движения выражается временами (Simple / Continuous), а не выбором самого глагольного корня.

Игнорирование способа передвижения (транспорт / пешком)

Иностранцы часто используют универсальный, по их мнению, глагол *идти/ходить* там, где физически необходим глагол *ехать/ездить*.

Ошибочные конструкции: «Летом я *ходил* в Китай» (вместо *ездил/летал*) или «Автобус *едет* медленно» (ошибка обратного типа – часто говорят «Автобус *идет*», что допустимо в метафоре, но путает студентов, которые затем конструируют «Машина *идет* по дороге»).

Причина: Семантическая избыточность русского языка для иностранного сознания. В китайском языке способ передвижения часто кодируется отдельной служебной морфемой, а не изменением корня глагола.

Ошибки в предложно-падежном согласовании

Глаголы движения требуют после себя винительного падежа (направление – *Куда?*) или предложного (место – *Где?*). Студенты часто путают эти формы.

Ошибочные конструкции: «Я еду *в университете*» (вместо *в университет*) или «Мы ходили *на выставке*» (вместо *на выставку*).

Результаты диагностического среза

В ходе исследования был проведен мини-тест среди иностранных учащихся (20 человек, уровень A1+). Им предлагалось перевести предложения и раскрыть скобки. Процентное соотношение допущенных ошибок представлено в таблице:

Распределение ошибок при употреблении глаголов движения (n=20)

Категория ошибки	**Пример ошибочного употребления**	**Доля ошибок от общего числа (%)**
Выбор пары Идти / Ходить	*«Сейчас я хожу в библиотеку»* (вместо идет)	**45%**
Выбор пары Идти / Ехать	*«Я пешком еду в магазин»* (вместо иду)	**30%**

Падежная форма (Куда? / Где?)	*«Мы пошли в парке»* (вместо в парк)	**25%**

Методические рекомендации по преодолению трудностей

Для минимизации указанных ошибок авторам учебных программ по РКИ рекомендуется изменить подход к подаче материала на начальном этапе:

1. **Жесткая визуализация (векторы):** Введение пар *идти – ходить* должно сопровождаться графическими схемами. Стрелка в одну сторону для *идти/ехать*, и стрелка «туда-обратно» или по кругу для *ходить/ездить*.

2. **Противопоставление «Ноги или Колесо»:** С первых уроков необходимо разделить лексику на две строгие колонки по признаку наличия транспорта. Студент должен привыкнуть, что любое расстояние дальше 15 минут пешком автоматически требует глагола *ехать*.

3. **Исключение перевода:** Избегать перевода ГД на родной язык студента (например, английское *to go* покрывает сразу 4 русских глагола, что только вредит обучению). Обучение должно идти через контекстуальные ситуации и картинки.

Заключение

Трудности усвоения русских глаголов движения на начальном этапе обусловлены нежеланием языкового сознания иностранца дублировать информацию о направлении и способе движения, которая в его родном языке выражается контекстом. Понимание типологии этих ошибок позволяет преподавателю РКИ сместить акцент с механического заучивания форм на формирование у студентов новых когнитивных связей, помогающих видеть мир «через призму» специфики русского движения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Муравьева Л. С. Глаголы движения в русском языке. – М.: Русский язык. Курсы, 2022.

2. Хавронина С. А., Широченская А. И. Русский язык в упражнениях. – М.: Русский язык, 2024.

3. Ласкарева Е. Р. Прогулки по русской грамматике. – СПб.: Златоуст, 2023

ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIALI DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH ZARURATI

SAMIJONOVA MADINA IBRAGIMJON QIZI
NamDPI o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti
madinasamijonova02@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darslarida multimediali dasturiy vositalardan foydalanishning pedagogik, metodik va amaliy ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda adabiy asarlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot davomida adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinib, natijalar umumlashtirilgan.

Аннотация. В данной статье освещается педагогическое, методическое и практическое значение использования мультимедийного программного обеспечения на уроках литературы. Широкое использование информационно-коммуникационных технологий в современной системе образования повышает интерес учащихся к уроку, развивает самостоятельное мышление и расширяет возможности для углубленного анализа литературных произведений. В ходе исследования был проанализирован эффект использования мультимедийных средств на уроках литературы и обобщены результаты.

Annotation. This article highlights the pedagogical, methodological and practical significance of using multimedia software in literature lessons. The widespread use of information and communication technologies in the modern education system increases students' interest in the lesson, develops independent thinking, and expands the possibilities for in-depth analysis of literary works. During the study, the effectiveness of using multimedia tools in literature lessons was analyzed and the results were summarized.

Kalit so‘zlar: Multimedia, adabiyot ta’limi, interaktiv metod, raqamli texnologiya, ta’lim samaradorligi, elektron taqdimot, videodars, pedagogik innovatsiya.

Ключевые слова: Мультимедиа, литературное образование, интерактивный метод, цифровые технологии, эффективность образования, электронная презентация, видеоурок, педагогические инновации.

Keywords: Multimedia, literature education, interactive method, digital technology, educational effectiveness, electronic presentation, video lesson, pedagogical innovation.

KIRISH(INTRODUCTION)

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar va multimediali dasturiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. An’anaviy dars shakllari ko‘pincha o‘quvchilarning faol ishtirokini to‘liq ta’minlay olmasa, multimedia vositalari orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchini faol subyekt sifatida darsga jalb etadi. Adabiyot insonning ma’naviy dunyosini o‘stiruvchi, estetik tafakkurini rivojlantiruvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Shu sababli adabiyot darslarini mazmunli va ta’sirchan tashkil etish o‘qituvchidan yuqori metodik mahorat talab qiladi. Bugungi o‘quvchi axborot texnologiyalari muhitida voyaga yetayotganligi sababli, oddiy og‘zaki bayon yoki matn bilan ishlash usullari ularning ehtiyojini to‘liq qondira olmaydi. Multimedia vositalari esa matn, ovoz, video, animatsiya va grafika imkoniyatlarini birlashtirgan holda o‘quvchilar tafakkuriga kuchli ta’sir etadi. Multimediali dasturiy vositalar yordamida adabiy asar qahramonlarini obrazli tasvirlash, yozuvchi hayoti va ijodiga oid videolavhalarni namoyish qilish, elektron testlar va interaktiv topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning adabiy asarni tushunish darajasini oshiradi. Shu bilan birgalikda, multimedia vositalari ta’limning individual va differensial shakllarini tashkil etishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har bir o‘quvchi o‘z qiziqishi va imkoniyatidan kelib chiqib materiallarni qayta ko‘rishi, tinglashi yoki mustaqil tahlil qilishi mumkin. Ayniqsa, videodarslar, elektron platformalar va virtual kutubxonalar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning metodik asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zarurati ortib bormoqda. Shu bois mazkur tadqiqotda multimedia vositalarining adabiyot ta’limidagi o‘rni, afzalliklari va samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – adabiyot darslarida multimediali dasturiy vositalardan foydalanish zaruratini ilmiy-metodik jihatdan asoslash hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: adabiyot ta’limida multimedia vositalarining o‘rnini aniqlash; multimediali dasturiy vositalarning turlarini tavsiflash; multimedia vositalarining o‘quvchilar faolligiga ta’sirini o‘rganish; adabiyot darslarida qo‘llaniladigan interaktiv metodlarni tahlil qilish; multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligini aniqlash. Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitish jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa adabiyot darslarida multimediali dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Mazkur tadqiqotda pedagogik kuzatish, taqqoslash, tahlil, suhbat, anketa hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan adabiyot o‘qituvchilarining darslari kuzatildi va multimedia vositalaridan foydalanish holati o‘rganildi. Pedagogik kuzatish metodi orqali multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi tahlil qilindi. O‘quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va mavzuni o‘zlashtirish darajasi muntazam kuzatib borildi. Tadqiqot davomida interaktiv taqdimotlar, videodarslar, audio materiallar, elektron testlar va virtual platformalardan foydalanildi. Xususan, PowerPoint dasturi yordamida mavzular bo‘yicha vizual taqdimotlar tayyorlandi. Videolavhalar orqali yozuvchilarning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar ko‘rsatildi. Audio vositalar yordamida she’rlarning ifodali o‘qilishi tinglatildi. Shuningdek, anketa so‘rovlari orqali o‘quvchilarning multimedia vositalariga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Tadqiqotda jami 60 nafar o‘quvchi va 12 nafar adabiyot o‘qituvchisi ishtirok etdi. Anketa savollarida multimedia vositalarining qiziqish uyg‘otishi, mavzuni tushunishga yordam berishi va dars samaradorligiga ta’siri kabi jihatlar aks ettirildi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda an’anaviy darslar tashkil etildi. Ikkinchi bosqichda esa multimedia vositalari asosida darslar o‘tkazildi. Har ikki bosqich natijalari taqqoslandi. Tadqiqot metodologiyasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslanildi. O‘quvchilarni faollikka undovchi “Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “Klaster”, “Insert”, “BBB” kabi metodlardan foydalanildi. Bundan tashqari, elektron platformalarning imkoniyatlari ham o‘rganildi. Elektron kutubxonalar, onlayn test tizimlari va videodars platformalari adabiyot darslarini samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar statistik va qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi.

NATIJALAR(RESULTS)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirdi. Ayniqsa, videolavhalar va audio materiallardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortgani kuzatildi. An’anaviy darslarda o‘quvchilarning faolligi nisbatan past bo‘lsa, multimedia asosidagi darslarda ularning ishtiroki yuqori bo‘ldi. O‘quvchilar elektron taqdimotlar va interaktiv topshiriqlar orqali mavzuni tezroq o‘zlashtirgani aniqlandi. Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, multimedia vositalaridan foydalanilgan sinflarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 25–30 foizga yuqori bo‘ldi. Bu esa multimedia vositalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi. O‘quvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

85% o‘quvchi multimedia vositalari darsni qiziqarli qilishini ta’kidladi; 78% o‘quvchi videodarslar mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam berishini bildirdi; 82% o‘quvchi audio materiallar she’rlarni his qilishga yordam berishini qayd etdi; 90% o‘quvchi interaktiv topshiriqlar orqali faol qatnashishga intilishini aytdi. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar ham multimedia vositalarining samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ularning fikricha, multimedia vositalari vaqtni tejaydi, darsni mazmunli tashkil etishga yordam beradi va o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Adabiy asarlarni sahna ko‘rinishlari, filmlar yoki audio yozuvlar asosida o‘rganish o‘quvchilarning emotsional qabul qilish jarayonini kuchaytirdi. Ayniqsa, she’riy asarlarni audio shaklda tinglash o‘quvchilarda estetik did va ifodali o‘qish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.
Shuningdek, elektron test tizimlari orqali bilimlarni nazorat qilish o‘qituvchiga qulaylik yaratdi. Test natijalarini tezkor aniqlash va tahlil qilish imkoniyati ta’lim sifatini oshirishga xizmat qildi. Multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari ham rivojlandi. Ular internet manbalari, elektron kutubxonalar va virtual platformalardan foydalanishni o‘rgandilar.

Tadqiqot natijalari multimedia vositalarining quyidagi afzalliklarini ko‘rsatdi:

1.Darsning qiziqarli va ta’sirchan o‘tishini ta’minlaydi.
2. O‘quvchilarning faolligini oshiradi.
3. Mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
4. Adabiy asarlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.
5. Vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi.
6. O‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantiradi.
7. Ta’lim samaradorligini oshiradi.

MUHOKAMA(DISCUSSION)

Adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi o‘quvchilar axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘langan holda ulg‘aymoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Multimedia vositalari nafaqat darsning ko‘rgazmaliligini oshiradi, balki o‘quvchilarning psixologik qabul qilish jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Matn, tasvir, ovoz va videoning uyg‘unligi o‘quvchining bir necha sezgi organlari orqali ma’lumotni qabul qilishiga imkon yaratadi. Natijada bilimning mustahkam o‘zlashtirilishi ta’minlanadi. Adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning yana bir muhim jihati – o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishidir. Masalan, asar qahramonlariga oid videolavhalar yoki sahna ko‘rinishlarini tomosha qilgan o‘quvchi obrazlarni chuqurroq anglaydi va mustaqil

xulosa chiqarishga harakat qiladi. Bundan tashqari, multimedia vositalari differensial ta’limni tashkil etishda ham samarali vosita hisoblanadi. Kuchli o‘quvchilar qo‘shimcha elektron materiallar bilan ishlasa, bilim darajasi pastroq o‘quvchilar mavzuni qayta ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Ammo multimedia vositalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan: barcha maktablarda texnik vositalarning yetarli emasligi; ayrim o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha bilimlari sustligi; internet tezligining pastligi; elektron resurslarning yetarli emasligi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash va elektron platformalarni rivojlantirish zarur.Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin mushohada yuritishga va adabiy asarlarni tahlil qilishga undaydi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv talablariga to‘liq mos keladi. Shuningdek, multimedia vositalari o‘qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. U dars davomida qisqa vaqt ichida ko‘proq ma’lumot berish, mavzuni vizual ko‘rsatish va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bugungi raqamli ta’lim muhitida multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat imkoniyat, balki zaruratga aylanmoqda. Chunki zamonaviy o‘quvchi an’anaviy usullardan ko‘ra interaktiv va vizual materiallarni tezroq qabul qiladi.

XULOSA(CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida multimediali dasturiy vositalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Multimedia vositalari yordamida darslarning qiziqarli, interaktiv va mazmunli tashkil etilishi o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Tadqiqot natijalari multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Adabiyot darslarida audio, video, elektron taqdimot, virtual platforma va interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy asarlarni emotsional qabul qilish jarayonida multimedia vositalarining ahamiyati katta. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim hisoblanadi. Kelgusida adabiyot ta’limida multimedia vositalarining yangi shakllarini ishlab chiqish, elektron resurslarni ko‘paytirish va virtual ta’lim platformalarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2017.

4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.

5. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021.

6. Mahmudov M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022.

7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi va adabiyot masalalari. – Toshkent, 2019.

8. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

9. Begimqulov U. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish. – Toshkent, 2020.

10. Xoliqov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Samarqand, 2021.

11. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.

12. Jo‘rayev R. Ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi. – Buxoro, 2022.

13. Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2020.

14. Muslimov N. Kasbiy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2019.

15. To‘xtayev B. Elektron ta’lim resurslari va ularning ahamiyati. –Toshkent, 2021.

MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

XOJIMIRZAYEVA MOHCHEHRA ABRORJON QIZI
Namangan davlat pedagogika instituti, 2- kurs magistranti
E-mail: mohchehraxojimirzayeva64@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada muammoli ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi muammoli vaziyatlar, tahliliy savollar, munozara va refleksiya metodlari orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida tahlil, qiyoslash, pedagogik kuzatish hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash faolligini oshirishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot xulosalari ta’lim jarayonida muammoli yondashuvni keng qo‘llash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat, refleksiya, tahlil, munozara.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы развития критического мышления учащихся на основе технологии проблемного обучения. Цель исследования заключается в определении возможностей формирования у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа, аргументации и логического вывода посредством проблемных ситуаций, аналитических вопросов, дискуссий и рефлексии. В ходе исследования использовались методы анализа, сравнения, педагогического наблюдения и экспериментального обучения. Полученные результаты показали, что уроки, организованные на основе проблемного обучения, способствуют активизации критического мышления учащихся. Выводы исследования обосновывают необходимость широкого внедрения проблемного подхода в образовательный процесс.

Ключевые слова: проблемное обучение, критическое мышление, педагогическая технология, проблемная ситуация, анализ, дискуссия, рефлексия.

Annotation. This article discusses the mechanisms for developing students’ critical thinking based on problem-based learning technology. The purpose of the study is to identify opportunities for developing students’ independent thinking, analytical reasoning, argumentation, and conclusion-making skills through problem situations, analytical questions, discussions, and reflection methods. The research employed methods such as analysis, comparison, pedagogical observation, and experimental teaching. The results indicate that lessons organized on the basis of problem-based learning increase students’ critical thinking activity. The conclusions highlight the importance of widely implementing a problem-oriented approach in the educational process.

Keywords: problem-based learning, critical thinking, pedagogical technology, problem situation, analysis, discussion, reflection.

KIRISH

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qila olishi va asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimi tezlashgan hozirgi davrda o‘quvchining faqat tayyor bilimni o‘zlashtirishi yetarli emas, balki u olingan ma’lumotlarni tanqidiy baholashi, tahlil qilishi va amaliyotda qo‘llay olishi zarur. Shu nuqtai nazardan, muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi samarali pedagogik vositalardan biri sifatida ahamiyat

kasb etadi. Mazkur texnologiya o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoni mustaqil hal qiluvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda tahliliy yondashuv, dalillash va refleksiya ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli muammoli ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogika fanida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, amerikalik pedagog va faylasuf J.Dyui muammoli ta’limni tafakkurni rivojlantirishning asosiy omili sifatida talqin etadi. Olimning fikricha, o‘quvchi bilimni tayyor holda emas, balki muammoni yechish jarayonida mustaqil ravishda egallashi kerak. Bu esa o‘quvchining tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.L.S.Vigotskiy esa ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarning o‘quvchi tafakkurini yuqori bosqichga olib chiqishini asoslab bergan. U “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi orqali o‘quvchi fikrlashining rivojlanishi muammoli faoliyat bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlar – J.Yo‘ldoshev, O.Hasanboeva, M.Qodirov va A.Zunnunovlarning ilmiy tadqiqotlarida ham muammoli ta’lim texnologiyasining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Ularning fikricha, muammoli savollar va munozarali topshiriqlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash faolligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) ilmiy adabiyotlar tahlili;
2) pedagogik kuzatish;
3) 3)qiyosiy tahlil;
4) tajriba-sinov metodi;
5) umumlashtirish metodi.

Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarning o‘quvchilar tanqidiy fikrlashiga ta’siri o‘rganildi. Kuzatishlar natijasida muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi aniqlandi. Avvalo, muammoli savollar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar mustaqil fikrlashga intildi. Ular tayyor xulosani qabul qilish o‘rniga masalani tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va dalillar asosida fikr bildirishga harakat qildilar. Bu jarayon o‘quvchilarda analitik tafakkur va mantiqiy izchillikni

shakllantirdi.

Shuningdek, munozara metodidan foydalanilgan darslarda o‘quvchilar qarama-qarshi fikrlarni solishtirishga va o‘z pozitsiyasini himoya qilishga o‘rgandilar. Ayniqsa, guruhli munozaralar davomida o‘quvchilarning dalillash ko‘nikmalari rivojlandi. Bu esa tanqidiy fikrlashning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasining yana bir samarali mexanizmi refleksiya jarayoni ekanligi aniqlandi. Dars yakunida: “Nimani angladim?”; “Qaysi dalil meni ishontirdi?”; “Mening fikrim qanday o‘zgardi?” kabi savollar o‘quvchilarning o‘z fikrini tahlil qilishiga yordam berdi.

Qiyosiy tahlillar natijasida an’anaviy darslarga nisbatan muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning matnni chuqurroq anglash darajasi yuqori bo‘lgani kuzatildi. O‘quvchilar dalillar bilan ishlash, mustaqil xulosa chiqarish va mantiqiy fikr yuritishda faolroq ishtirok etdilar. Tadqiqot natijalari J.Dyui va L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan muammoli ta’lim nazariyalari bilan uyg‘un ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa muammoli ta’lim texnologiyasining o‘quvchilar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar yaratish, tahliliy savollar berish, munozara tashkil etish va refleksiya metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, dalillash hamda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning tafakkur faolligini oshirishini, ularni erkin va tahliliy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishini ko‘rsatdi. Shu bois ta’lim jarayonida muammoli yondashuvni tizimli ravishda qo‘llash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, muammoli ta’lim texnologiyasi zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri bo‘lgan tanqidiy fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev J., Hasanboeva O. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2020.

2. Qodirov M. Ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish usullari. – Toshkent, 2018.

3. Zunnunov A., Karimov B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

4. Dewey J. How We Think. – New York, 2007.

5. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, 2012.
6. Halpern D. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New Jersey, 2003.

YUQORI SINF ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIMNI QO‘LLASH ZARURATI

XOLMATOVA GULNOZAXON IZZATALIYEVNA
Namangan davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari hamda muammoli ta’limni qo‘llash zarurati tahlil etiladi. Mazkur yosh bosqichida o‘quvchilarning abstrakt tafakkuri rivojlanishi, mustaqillikka intilishi, refleksiv fikrlashi va shaxsiy pozitsiyasining shakllanishi muammoli ta’limni qo‘llash uchun muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlashtiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishlari va emotsional-ijtimoiy xususiyatlari muammoli ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim texnologiyasi, abstrakt tafakkur fikrlanishi,mustaqillikka intilish, refleksiv fikrlash, shaxsiy pozitsiya,

Kirish. Zamonaviy pedagogika sharoitida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatdan qaraganda, muammoli ta’lim texnologiyasi innovatsion pedagogik yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etib, ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori sinf adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, yuqori sinf o‘quvchilari (odatda 10–11-sinf) psixologik rivojlanishning murakkab va muhim bosqichi – o‘smirlikdan ilk yetuklik davriga o‘tish jarayonini boshdan kechiradilar. Bu davr o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi hamda o‘z hayotiy pozitsiyasini aniqlash bilan xarakterlanadi. Shu bois mazkur yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur davrning asosiy xususiyatlaridan biri – o‘smirlikdan ilk yetuklikka o‘tish jarayonidir. Bu bosqichda o‘quvchilar nafaqat jismoniy, balki intellektual va ijtimoiy jihatdan ham sezilarli darajada rivojlanadilar. Ularning tafakkuri

murakkablashadi, abstrakt va nazariy fikrlash qobiliyati shakllanadi. O‘quvchilar turli ijtimoiy hodisalar, axloqiy qadriyatlar va hayotiy masalalar yuzasidan o‘z fikrini shakllantirishga intiladilar.

Yuqori sinf o‘quvchilarining muhim psixologik xususiyatlaridan yana biri – mustaqillikka intilishdir[1]. Bu davrda ular o‘z qarorlarini mustaqil qabul qilishga, o‘z fikrini himoya qilishga va boshqalarning fikriga tanqidiy yondashishga harakat qiladilar. O‘quvchilar o‘qituvchi yoki ota-onaning tayyor ko‘rsatmalariga to‘liq tayanishni istamaydilar, aksincha, o‘zlari izlanish va xulosa chiqarishga moyil bo‘ladilar. Bu holat muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llash uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

Shuningdek, mazkur yosh davrida shaxsiy pozitsiya shakllanishi jarayoni faol kechadi. O‘quvchilar o‘z qarashlari, qadriyatlari va e’tiqodlarini shakllantiradilar, hayotiy masalalarga nisbatan mustaqil munosabat bildiradilar. Ular ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishga, o‘z “men”ini anglashga intiladilar. Bu esa ularning bahs-munozaralarda faol ishtirok etishiga, o‘z fikrini asoslashga va boshqalar fikrini tahlil qilishga tayyorligini oshiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishida refleksiya – ya’ni o‘z fikr va harakatlarini tahlil qilish qobiliyati ham muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z faoliyatini baholash, xatolarini anglash va kelgusidagi harakatlarini rejalashtirishga intiladilar. Bu esa ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar orqali o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilari psixik rivojlanishning shunday bosqichiga yetadiki, unda ularning tafakkuri va bilish jarayonlari sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tariladi. Bu davrda o‘quvchilarning fikrlash faoliyati aniq-obrazli tafakkurdan abstrakt-nazariy tafakkurga o‘tadi hamda murakkab intellektual operatsiyalarni bajarish qobiliyati shakllanadi. Shu bois yuqori sinflarda ta’lim jarayonini tashkil etishda ularning rivojlangan tafakkur imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir.

Yuqori sinf o‘quvchilari kognitiv rivojlanishning nisbatan yuqori bosqichiga ko‘tarilgan bo‘lib, ularda abstrakt fikrlash, analitik yondashuv va mustaqil xulosa chiqarish kabi murakkab intellektual ko‘nikmalar shakllangan bo‘ladi. Bu davr o‘quvchilari konkret voqelik bilan cheklanib qolmay, umumlashtirish, nazariy tushunchalarni anglash va ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga qodir bo‘ladilar. Shu jihatdan, ular badiiy asarni faqat syujet darajasida emas, balki uning ichki g‘oyaviy, falsafiy va estetik qatlamlari orqali ham tahlil qila oladi.

Bunday rivojlangan tafakkur darajasi o‘quvchilarga bir asarni turli nuqtayi nazardan yondashgan holda talqin qilish imkonini beradi. Xususan, ular badiiy matnni ijtimoiy, tarixiy, biografik yoki estetik mezonlar asosida tahlil qilib, har bir yondashuvning o‘ziga xos xulosalarini ilgari sura oladi. Bu esa o‘quvchilarda

ko‘pvariantli fikrlashni, ya’ni bir muammo yuzasidan bir nechta yechim yoki talqin mavjud bo‘lishi mumkinligini anglash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilari muallif pozitsiyasini aniqlash va baholashga ham qodir bo‘ladi. Ular asarda ifodalangan g‘oya, muallifning ijtimoiy yoki shaxsiy munosabatini anglab, unga nisbatan o‘z nuqtai nazarini bildira oladi. Bu jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ya’ni ular tayyor xulosalarni qabul qilmay, balki mustaqil ravishda baholashga o‘rganadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, yuqori sinf o‘quvchilari badiiy matndagi yashirin ma’nolarni, ramziy obrazlar va tagma’nolarni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Badiiy asarlarda ko‘pincha ochiq ifodalanmagan, lekin chuqur tahlil orqali anglash mumkin bo‘lgan g‘oyalar mavjud bo‘ladi. O‘quvchilarning intellektual salohiyati aynan shunday nozik ma’nolarni ochishda namoyon bo‘ladi. Bu esa ularni oddiy o‘quvchidan tahlilchi darajasiga olib chiqadi.

Adabiyot darsliklarida ta’kidlanganidek, badiiy asarni takror o‘qish jarayonida yangi ma’no va xulosalarning yuzaga kelishi o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Chunki har bir qayta mutolaa jarayonida o‘quvchi o‘zining yangi bilimlari, hayotiy tajribasi va dunyoqarashi asosida asarni boshqacha idrok etadi . Natijada, bir xil matn turli bosqichlarda turlicha anglanadi va bu jarayon tafakkur evolyutsiyasining muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur psixologik va kognitiv xususiyatlar muammoli ta’lim texnologiyasini aynan yuqori sinflarda qo‘llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Chunki muammoli ta’lim o‘quvchidan faqat bilimni eslab qolishni emas, balki muammoni anglash, uni tahlil qilish, gipoteza ilgari surish va mustaqil xulosa chiqarishni talab etadi. Yuqori sinf o‘quvchilari esa aynan shunday faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo‘lgan intellektual salohiyatga ega. Shu bois, muammoli ta’lim ushbu bosqichda nafaqat samarali, balki zarur pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biri – abstrakt fikrlashning rivojlanganligidir[2]. Ular konkret voqea va hodisalardan tashqari, umumiy tushunchalar, nazariy kategoriyalar va mantiqiy bog‘lanishlar asosida fikr yurita oladilar. Bu esa o‘quvchilarga badiiy asardagi yashirin ma’no, ramziy obrazlar va chuqur g‘oyaviy qatlamlarni anglash imkonini beradi. Abstrakt tafakkur muammoli ta’lim uchun zarur bo‘lgan nazariy mulohaza yuritish asosini yaratadi. Shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilarida tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlangan bo‘ladi[4]. Ular murakkab matnlarni tarkibiy qismlarga ajratish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, asosiy va ikkilamchi belgilarni farqlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Adabiyot darslarida bu ko‘nikma obrazlarni tahlil qilish, syujetni tushunish va konfliktni aniqlash jarayonida namoyon bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat – umumlashtirish qobiliyatidir. Yuqori sinf o‘quvchilari alohida faktlar va hodisalarni umumiy qonuniyatlar asosida birlashtira oladilar. Ular

o‘rganilgan material asosida xulosa chiqarish, umumiy g‘oyani aniqlash va muallif pozitsiyasini tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning tafakkurini tizimli va izchil shakllantiradi. Mazkur yosh davrida refleksiya, ya’ni o‘z fikr va faoliyatini tahlil qilish qobiliyati ham rivojlanadi. O‘quvchilar o‘z qarashlarini baholash, ularni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishga intiladilar. Refleksiv tafakkur muammoli vaziyatlarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z xatolarini anglash va to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini beradi[3].

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishiga bog‘liq. Ayniqsa, muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llashda motivatsiya hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki mazkur yondashuv o‘quvchilardan faol ishtirok, mustaqil fikrlash va izlanishni talab qiladi. Bu esa ichki rag‘bat bo‘lmagan sharoitda to‘liq amalga oshmaydi[4]. Muammoli ta’lim jarayonida ichki motivatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiya – bu o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan bog‘liqdir. Muammoli vaziyatlar aynan shu ehtiyojni uyg‘otishga xizmat qiladi. O‘quvchi muammo oldida qolganda uni hal etishga intiladi, bu esa ichki qiziqishni faollashtiradi va bilim olish jarayonini tabiiy ehtiyojga aylantiradi. Natijada o‘quvchi bilimni majburiy emas, balki ongli ravishda egallaydi. Shuningdek, muammoli ta’lim qiziqish uyg‘otish mexanizmi orqali samarali ishlaydi. Badiiy asar asosida tashkil etilgan muammoli savollar, ziddiyatli vaziyatlar va ochiq muhokamalar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi. Qiziqish esa bilish faoliyatining asosiy drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. Agar o‘quvchi dars jarayoniga qiziqsa, u faolroq ishtirok etadi, chuqurroq fikr yuritadi va bilimlarni mustahkamroq o‘zlashtiradi. Muammoli ta’limning yana bir muhim jihati – o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashdir[5]. Motivatsiya yuqori bo‘lgan o‘quvchi dars jarayonida passiv tinglovchi bo‘lib qolmaydi, balki muhokamalarda faol qatnashadi, savollar beradi, o‘z fikrini bildiradi va boshqalar bilan fikr almashadi. Bu esa ta’lim jarayonini interfaol va samarali qiladi. Faol ishtirok orqali o‘quvchilar bilimlarni chuqurroq anglaydilar va o‘zlashtiradilar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, motivatsiya va qiziqish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Qiziqarli tarzda tashkil etilgan muammoli vaziyat o‘quvchilarda ichki motivatsiyani oshiradi, yuqori motivatsiya esa ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Natijada mazkur jarayon muammoli ta’lim texnologiyasining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilari psixologik rivojlanishning muhim bosqichida bo‘lib, ularning emotsional va ijtimoiy xususiyatlari ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu davrda o‘quvchilarning hissiy dunyosi boyiydi, ijtimoiy faolligi ortadi hamda ular o‘z fikrini erkin ifodalash va jamoadagi

o‘rnini aniqlashga intiladilar. Shu sababli mazkur xususiyatlarni hisobga olish muammoli ta’limni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining muhim emotsional xususiyatlaridan biri – o‘zini ifodalashga intilishdir. Bu davrda o‘quvchilar o‘z fikrlarini ochiq bayon qilish, o‘z qarashlarini himoya qilish va shaxsiy pozitsiyasini namoyon etishga ehtiyoj sezadilar. Adabiyot darslarida bu xususiyat ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asarlarni tahlil qilish jarayoni o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin bildirish imkonini beradi. Muammoli ta’lim esa aynan shu ehtiyojni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchilarga o‘z nuqtai nazarini asoslash uchun sharoit yaratadi.

Mazkur yosh davrining yana bir muhim jihati – bahs-munozaraga moyillikdir. Yuqori sinf o‘quvchilari turli masalalar yuzasidan fikr almashishga, o‘z qarashlarini boshqalar fikri bilan solishtirishga va bahs orqali haqiqatni aniqlashga intiladilar. Bu holat muammoli ta’lim uchun juda muhim, chunki muammoli vaziyatlar ko‘pincha turli qarashlarning to‘qnashuvini talab qiladi. Bahs-munozara jarayonida o‘quvchilar dalillash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilari uchun muloqotga moyillik xosdir. Ular tengdoshlari bilan fikr almashish, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish va o‘zaro hamkorlik qilishga intiladilar. Bu esa ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash uchun qulay imkoniyat yaratadi. Muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan guruhli ishlar, muhokamalar va rolli o‘yinlar o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ijtimoiy tajribasini boyitadi[6].

Yuqori sinf o‘quvchilarining emotsional va ijtimoiy xususiyatlari ta’lim jarayonini faollashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Agar ushbu xususiyatlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, o‘quvchilar ta’lim jarayonida faol ishtirok etadilar, o‘z fikrlarini erkin bayon qiladilar va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradilar. Aks holda esa ularning qiziqishi pasayishi va passivlik yuzaga kelishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilardan nafaqat bilimlarni egallashni, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, mustaqil fikr yuritish hamda murakkab muammolarni hal etish qobiliyatiga ega bo‘lishni ham talab etadi. Ayniqsa, yuqori sinf bosqichida o‘quvchilar shaxs sifatida shakllanishning muhim davrini boshdan kechirayotganligi sababli, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarurati yanada ortadi.

Shu nuqtayi nazardan, muammoli ta’lim texnologiyasini joriy etish pedagogik jihatdan asoslangan va dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularni real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, muammoli ta’lim o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqori sinf o‘quvchilari tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra, uni mustaqil izlanish orqali egallashga intiladilar. Muammoli

Bugungi zamonaviy til ta’limida matnni o‘rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish yoki til birliklarini shakliy jihatdan tahlil qilish bilan cheklanib qolmayapti. Hozirgi davr ta’lim konsepsiyasida til hodisalarining kommunikativ-pragmatik mohiyatini ochib berish, har bir til birligining nutq jarayonidagi funksional vazifasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki til birliklari faqat ma’no ifodalovchi vosita bo‘libgina qolmay, balki muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirish, tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish, muallifning munosabati hamda niyatini ifodalashga ham xizmat qiladi.

Pragmatika - til birliklarining nutq jarayonida qanday maqsadda, qanday vaziyatda va qanday ta’sir bilan qo‘llanishini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Nutqning maqsadga yo‘naltirilgan holda tinglovchiga ta’sir etishi pragmatik xususiyatni yuzaga chiqaradi[90]. Pragmatika nutq egasining kommunikativ maqsadi hamda tinglovchiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi[91]. Pragmatik yondashuv esa bu til birliklarini faqat grammatik yoki lug‘aviy jihatdan emas, balki ularning muloqot jarayonidagi maqsadi, ta’siri va qo‘llanish vaziyati bilan birgalikda o‘rganishga asoslangan yondashuvdir.

Badiiy matnni fonetik tahlil qilish orqali o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan quyidagicha asoslash mumkin:badiiy matndagi tovushlar tizimi, ohang, urg‘u, takroriy tovushlar va fonetik vositalar nafaqat estetik vazifa bajaradi, balki matnning yashirin mazmuni, muallif munosabati hamda qahramon ruhiyatini anglashga xizmat qiladi.

Quyida 2022-yilda nashr etilgan 6-sinf ona tili darsligida berilgan Farhod Eshmo‘minovning “Oqsaroyning favvoralari “ matni hamda O‘tkir Hoshimovning “Haqqush” novellasidan olingan parchani tahlil qilish orqali yuqoridagi fikr o‘z tasdig‘ini topgan.

“...Ulkan ko‘shkli saroy darvozasidan kirib borar ekan, Klavixo bu shohona koshonaning har burchiga yosh boladek intiq boqar, o‘zgacha nur taralib turgan devorlarning mahobati va bejirim naqshlaridan ko‘zi qamashardi…”[92] Berilgan parchada cho‘ziq talaffuz qilinuvchi unli tovushlar, xususan, “u”, “o” va “o‘“ unlilarining faol qo‘llanilgani kuzatiladi. Mazkur fonetik hodisa matnning

[90] Shomaqsudov Sh. O`zbek tili stilistikasi. – Toshkent : O`qituvchi , 1996. – 12 b
[91] Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent : Sharq , 2006. – 45 b
[92] Azimova I., Mavlonova K., Qur`onov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent : Darslik, 2022. – 186 b

emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, ushbu unlilarning takroriy va cho‘ziq ohangda qo‘llanishi nutqda tantanavorlik, hayrat va ta’sirchanlik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Muallif tovushlar tizimidan mahorat bilan foydalanib, Klavixoning ruhiy holati va taassurotlarini yanada yorqinroq ifodalashga erishgan. Fonetik vositalarning bunday qo‘llanilishi pragmatik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki cho‘ziq unlilar matnning ohangdorligini kuchaytirish bilan birga, o‘quvchining hissiy qabuliga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Natijada o‘quvchi Klavixoning hayrat va hayajonini chuqurroq his qiladi hamda voqelikni obrazli tarzda tasavvur etish imkoniga ega bo‘ladi. Demak, muallif cho‘ziq unli tovushlardan nafaqat fonetik vosita sifatida, balki matnning pragmatik ta’sirchanligini kuchaytiruvchi usul sifatida ham unumli foydalangan. Shuningdek muallif saroyning ichki qismini tasvirlash mobaynida o‘zbek tilidagi jarangli hamda portlovchi undoshlardan foydalangan. Buni quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin: “ Oyog‘i ostidagi yilt-yilt marmarda mavjlanayotgan o‘z aksini ko‘rib turgan mehmon qadamini yengillatdi. Go‘yoki oyna ustida sirpanib uchayotgandek ko‘ngli hapqirdi. Mehmonni ichkariga olishdi. Aylana zinalardan minora tepasiga ko‘tarilar ekan, elchi Oqsaroyning nainki tashqi, balki ichki qiyofasi-da munavvar, charog‘on ekaniga amin bo‘ldi. Saroy tepasiga ko‘tarilib borar ekan, har o‘n-o‘n besh qadam oralig‘ida ko‘zga tashlanayotgan tuynuklarga e’tibor qaratdi” Parchada portlovchi hamda jarangli undosh tovushlarning faol qo‘llanilgani matnning fonetik-ekspressiv xususiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Xususan, “b”, “d”, “g”, “n”, kabi jarangli undoshlar hamda “p”, “t”, “k”, “q” singari portlovchi undoshlarning takroriy qo‘llanishi nutqqa o‘ziga xos kuch, jo‘shqinlik va ohangdorlik bag‘ishlaydi.

Mazkur fonetik birliklar matndagi tasvirning dinamikligini oshirib, saroy manzarasining o‘quvchi tasavvurida yanada aniqroq va yorqinroq gavdalanishiga imkon yaratadi. Portlovchi undoshlarning talaffuzidagi keskinlik va kuchlilik tasvirlanayotgan muhitning salobati hamda ulug‘vorligini ifodalashga xizmat qilsa, jarangli undoshlarning ohangdorligi matnga ta’sirchanlik va musiqiylik baxsh etadi. Natijada matnning nafaqat mazmuniy, balki hissiy-estetik ta’sir kuchi ham ortadi. Muallif fonetik vositalardan mahorat bilan foydalanish orqali saroy tasvirini oddiy bayon shaklida emas, balki o‘quvchi ongida jonli va obrazli manzara sifatida namoyon etishga erishgan. Pragmatik jihatdan qaralganda, ushbu tovushlarning qo‘llanishi o‘quvchining diqqatini matndagi asosiy tasvirga jalb qiladi hamda muallifning estetik munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, fonetik vositalar orqali hosil qilingan kuchli ohang matnning emotsional ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchida hayrat, qiziqish va taassurot uyg‘otadi Shu bilan birga O‘tkir Hoshimovning “Haqqush” novellasidan olingan ushbu parchada “ Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Bir mahal qulog‘imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: “Haq-qu, haq-qu...” Bir zum sukunat tushdi-da, ancha olisdan yana o‘sha tovush

takrorlandi: “Haq-qu, haq-qu...”[93] sirg‘aluvchi hamda jarangsiz undosh tovushlarning ustun darajada qo‘llanilishi matnning fonosemantik xususiyatini belgilovchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “s”, “sh”, “x”, “l”, “y” kabi sirg‘aluvchi va jarangsiz undoshlarning ketma-ket hamda uyg‘un tarzda qo‘llanishi nutqda mayinlik, sokinlik va osoyishtalik ohangini yuzaga keltiradi. Bunday tovushlar talaffuz jarayonida keskin zarb bilan emas, balki yumshoq va davomli tarzda hosil bo‘lgani sababli matnning umumiy ruhiyatiga ham tinch kayfiyat bag‘ishlaydi. Muallif aynan shu fonetik birliklar orqali qahramonning ichki kechinmalari hamda atrof-muhitdagi osoyishta manzarani tabiiy ravishda ifodalashga erishgan. Tovushlarning bunday uyg‘unligi o‘quvchining tasavvurida sokin muhitni jonlantirib, matnning hissiy-estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. Natijada o‘quvchi voqelikni faqat mazmun orqali emas, balki tovushlarning ohangi ta’siri orqali ham his qila boshlaydi.Fonetik vositalarning bu tarzdagi qo‘llanishi pragmatik jihatdan ham muhimdir. Chunki muallif tovush tanlovi orqali o‘quvchi ongida muayyan ruhiy holatni shakllantirishga intiladi. Jarangsiz va sirg‘aluvchi undoshlarning ustuvorligi matnning emotsional fonini yumshatib, qahramon ruhiyatidagi hotirjamlikni sezdiradi. Shu tariqa tovush va ma’no o‘rtasidagi uyg‘unlik badiiy tasvirning ta’sir doirasini kengaytirib, o‘quvchini matn ruhiyatiga yanada yaqinlashtiradi.Demak, muallif sirg‘aluvchi hamda jarangsiz undosh t ovushlardan nafaqat fonetik birlik sifatida, balki matnning psixologik va pragmatik ta’sirini kuchaytiruvchi badiiy unsur sifatida ham samarali foydalangan.

Badiiy matnni leksik tahlil qilish orqali o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Leksik tahlil matndagi so‘zlarning ma’nosi, uslubiy xususiyati, hissiy-ekspressiv bo‘yoqdorligi hamda qo‘llanish maqsadini o‘rganish jarayonidir. Pragmatik kompetensiya esa nutqning vaziyatga mos ma’nosini tushunish, so‘zlovchining maqsadini anglash va kommunikativ vaziyatda to‘g‘ri munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. “Oqsaroy favvoralari” matnida keltirilgan “Yosh boladek intiq boqar” jumlasida keltirilgan “intiq” so‘zi Klavixoning hayrat bilan atrofiga tikilayotganidan tashqari, uning xarakterida bolalarga xos bir jo‘shqinlik borligiga ham ishora qilingan. Yoki “marmarda mavjlanayotgan o‘z aksini ko‘rib turgan mehmon” tasvirida bir nechta muallif aytmoqchi bo‘lgan bir qancha fikrlar bor. Bular saroyning oyoq qism tegadigan joyi inson o‘z aksini tomosha qiladigan darajada tozaligini, ozodaligini, marmarning juda sifatli turi ishlatilinganligini, saroyda xizmat ko‘rsatish yaxshi tashkil etilganligini bildirmoqda. Shu bilan birgalikda matnda “cho‘g‘ gilam” birikmasining qo‘llanishi ham alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Mazkur birikmada “cho‘g‘“ leksemasi o‘zining asl, ya’ni olovning qizib turgan qismi ma’nosidan uzoqlashib,

[93] Azimova I., Mavlonova K., Qur`onov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Darslik, 2022. – 189 b

ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Natijada ushbu so‘z nafaqat gilamning qizg‘ish rangini ifodalash, balki matnga chuqur ramziy mazmun yuklash vazifasini ham bajargan. Badiiy matnda rang tasviri ko‘pincha qahramon xarakteri, ruhiyati yoki muhit mohiyatini ochib beruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Cho‘g‘“ so‘zining tanlanishi orqali muallif Amir Temurning shaxsiy fazilatlarini bilvosita ifodalashga erishgan. Xususan, ushbu leksema tarkibidagi “olov”, “harorat”, “yonish” kabi semantik belgilar Sohibqironning jo‘shqin xarakteri, qat’iyati, kuch-g‘ayrati hamda olovqalb shaxs ekanligini ramziy tarzda anglatadi.

Demak, gilam tasviri oddiy predmet tasviri darajasida qolmay, qahramonning ichki dunyosini ochishga xizmat qiluvchi badiiy detalga aylangan. Mazkur birikmaning pragmatik xususiyati shundaki, muallif yashirin ma’no orqali o‘quvchi tafakkuriga ta’sir ko‘rsatadi hamda unda muayyan assotsiativ tasavvurlarni uyg‘otadi. O‘quvchi “cho‘g‘ gilam” tasvirini qabul qilish jarayonida beixtiyor ravishda Amir Temur shaxsiyatidagi shiddat, qudrat va salobatni his qiladi. Bu esa matnning ta’sirchanligini oshirib, obrazning o‘quvchi xotirasida yanada yorqinroq gavdalanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, mazkur birikmada metaforik ma’no qatlamining mavjudligi matnning badiiyligini kuchaytirib, undagi estetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan. Muallif birgina so‘z orqali bir necha semantik va pragmatik ma’nolarni mujassamlashtirib, matnning obrazlilik darajasini oshirishga muvaffaq bo‘lgan. “ Klavixo qalt-qalt titrog‘ini bosish uchun to‘xtab, chuqur bir tin olgach, yonidagi safardoshlariga pichirladi: “Ha, bundayin mahobat na Mag‘ribda, na Mashriqda bor. Temurning qudrati va ulug‘ligi uning saroylarida bo‘y ko‘rsatib turibdi. Bu – haqiqat” . Yuqoridagi parchadagi “pichirlamoq” fe’lining qo‘llanishi matnning pragmatik va psixologik mazmunini ochishda muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qilgan. Ma’lumki, “pichirlamoq” leksemasi o‘zbek tilida ovozni pasaytirib, juda sekin gapirmoq ma’nosini anglatadi. Nutq jarayonida bunday talaffuz usuli ko‘pincha sir saqlash, ichki hayajonni yashirish, ehtiyotkorlik bilan fikr bildirish yoki boshqalarga oshkor etishni istamagan munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur fe’lning tanlanishi tasodifiy bo‘lmay, muallifning muayyan badiiy va pragmatik maqsadini yuzaga chiqaradi. Muallif “pichirlamoq” fe’li orqali ispan elchisi Klavixoning ruhiy holatini nozik tarzda ifodalagan. Xususan, Klavixoning Amir Temur saltanatining buyukligi, qudrati va salobatini ich-ichidan e’tirof etayotgani aynan shu nutqiy holat orqali anglashiladi. Biroq qahramon o‘z hayrati va tan olishini ochiq tarzda namoyon qilishni istamaydi. Chunki diplomatik muhitda har bir fikr va munosabat ehtiyotkorlik bilan ifodalanadi. Natijada “pichirlamoq” fe’li qahramonning ichki kechinmalari bilan tashqi nutqiy holati o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beruvchi muhim lingvopoetik vositaga aylanadi.

Mazkur leksemaning pragmatik xususiyati shundan iboratki, u o‘quvchini

qahramonning yashirin hissiy holatini anglashga yo‘naltiradi. Ya’ni muallif voqelikni bevosita bayon etmaydi, aksincha, bitta fe’l orqali Klavixoning ichki e’tirofi, hayrati va ehtiyotkorligini bilvosita ifodalaydi. Bu esa matnning tagma’nosini kuchaytirib, o‘quvchini mushohada yuritishga undaydi.

“Ko‘z uzmay razm solib turgan Sohibqiron” tasvirida “razm solmoq” birikmasi uchraydi. Razm solmoq – kimga?, nimaga? sinchikovlik bilan kuzatmoq[94] ma`nosini bildiradi. Mazkur iboraning qo‘llanishi orqali muallif Amir Temur obrazining psixologik va xarakterologik jihatlarini ochib berishga erishgan. Xususan, ushbu ifoda Sohibqironning sinchikov, hushyor hamda kuchli kuzatuvchanlik xususiyatiga ega shaxs ekanligini bilvosita namoyon etadi. Badiiy matnda qahramon xarakterini ochishda aynan shunday ibora va tasvir vositalari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular obrazning ichki dunyosini bevosita izohlashdan ko‘ra tabiiyroq va ta’sirchanroq tarzda yoritishga xizmat qiladi. Muallif mazkur ibora yordamida Amir Temurning voqea-hodisalarni chuqur tahlil qila olishi, atrofidagi insonlarning xatti-harakati va ruhiy holatini nozik darajada sezishi mumkin bo‘lgan shaxs ekanligini anglatadi. Bu esa qahramonning oddiy hukmdor emas, balki uzoqni ko‘ra oladigan strateg va tajribali davlat arbobi sifatidagi qiyofasini shakllantiradi. Ibora tarkibidagi ma’no qatlamlari orqali Amir Temurning har qanday vaziyatga e’tibor bilan yondashishi, mayda detallarni ham nazardan chetda qoldirmasligi o‘quvchi ongida yaqqol tasavvur uyg‘otadi. Pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, muallif ushbu ibora orqali o‘quvchida Amir Temur shaxsiga nisbatan hurmat va hayrat hissini shakllantirishni maqsad qilgan. Chunki kuzatuvchanlik va sinchikovlik kabi sifatlar tarixiy shaxsning donoligi va salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim belgilar sifatida qabul qilinadi. Natijada o‘quvchi obrazning nafaqat tashqi faoliyatini, balki uning ichki tafakkur olamini ham chuqurroq anglay boshlaydi. Shuningdek “Shu bois favvoralarning betakror jilvasiga termilib, Temur so‘zlarini yana bir bor xayolidan o‘tkazdi: “Kimki bizning qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan binolarga boqsin”. Elchi va sayyoh Klavixo yutinib qo‘ydi” parchada “yutinib qo‘ydi” leksemasi kontekstual jihatdan qaralganda, “yutunib qo‘ydi” ifodasi oddiy jismoniy holatni emas, balki qahramonning ichki ikkilanishi, hayrat va ehtiyotkorlik hissini anglatadi. Klavixo Amir Temur davlatining siyosiy salohiyati, harbiy qudrati va davlat boshqaruvidagi mukammallikni ko‘rib, bu saltanatning Ispaniya hamda boshqa davlatlardan ustun ekanligini ich-ichidan tan oladi. Biroq u o‘z munosabatini oshkora ifoda etmaydi. Natijada qahramonning ichki ruhiy bosimi va diplomatik ehtiyotkorligi aynan shu harakat orqali badiiylashtirilgan holda namoyon bo‘ladi. Mazkur leksemaning pragmatik ahamiyati shundaki, muallif o‘quvchiga

[94] Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O`razova I., Risxiyeva K. O`zbek tili frazeologik lug`ati. – Toshkent : G`afur G`ulom, 2022. - 448 b

qahramonning hissiy holatini bevosita bayon qilish o‘rniga, uning noverbal harakati orqali yetkazadi. Bu esa matnning psixologik ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchini obrazning ichki dunyosini mustaqil anglashga undaydi. “Yutunib qo‘ydi” birikmasi qahramonning o‘zini tutishi, fikrini ichiga yutishi hamda diplomatik muhitda har bir harakat va so‘zning naqadar muhim ekanligini anglatadi. Shuningdek, ushbu ifoda orqali Klavixoning Amir Temur davlati bilan munosabatlarda nihoyatda ehtiyotkor bo‘lish zarurligini anglab yetgani ham seziladi. Bu esa matnda nafaqat individual ruhiy holatni, balki davrning siyosiy-diplomatik muhitini ham yoritishga xizmat qiladi. Muallif bitta leksema vositasida qahramonning ichki e’tirofi, xavotiri, hayrati va diplomatik mulohazakorligini mujassamlashtirib, matnning semantik va pragmatik qatlamini yanada boyitgan.

O‘tkir Hoshimovning “Haqqush” novellasidan olingan parchada “qulog‘iga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi” tasviri mavjud bo‘lib, matnda qo‘llangan “orziqtiruvchi” leksemasi qahramonning ichki ruhiy kechinmalarini ifodalovchi muhim semantik-pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu so‘z tarkibida nafaqat oddiy istak yoki kutish ma’nosi, balki uzoq davom etgan sog‘inch, armon va ruhiy ehtiyoj kabi nozik hissiy holatlar ham mujassamlashgan. Shu sababli leksema matnda kuchli emotsional-ekspressiv vazifa bajarib, qahramon qalbidagi iztirob va sog‘inch tuyg‘ularini chuqurroq anglash imkonini beradi.

O‘quvchilarda badiiy matnni fonetik va leksik jihatdan tahlil qilish orqali pragmatik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida turli zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida o‘quvchini mustaqil fikrlashga, matn mazmunini chuqur anglashga hamda til birliklarining kommunikativ-pragmatik vazifasini tahlil qila olishga yo‘naltiruvchi metodlar yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan muammoli bayon qilish metodi hamda interfaol metodlardan “Zakovat” va “Klaster” metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Zakovat” metodini mashg‘ulot yakunida qo‘llash mumkin. Sinf 6 ta guruhga bo‘linadi va oldindan tayyorlab qo‘ygan topshiriqli konvertlarni (yoki kartochkalarni) guruh a’zolari navbat bilan olishadi. Shundan so‘ng guruhlar o‘zlariga tushgan topshiriqlarni bajarishadi va guruh javoblarini e’lon qilish uchun bir o‘quvchini tanlashadi (yoki guruh sardori javob beradi). Har bir guruhda bir nechta savoldan iborat topshiriq beriladi. O‘qituvchi har bir to‘g‘ri javob uchun ball qo‘yadi. Agar biror savol-topshiriqqa noto‘g‘ri javob bo‘lsa, boshqa guruhlar to‘g‘ri javobni berishlari mumkin, bu holda, javob bergan guruhga ball qo‘yiladi. Shu tariqa har bir guruh o‘ziga berilgan topshiriq bo‘yicha taqdimotini o‘tkazadi, boshqa guruhlar esa ularni to‘ldirishlari va noto‘g‘ri javoblarni to‘g‘rilab, ball olishlari mumkin. Natijada o‘tilgan o‘quv materialini takrorlab, o‘rgangan bilimlarini mustahkamlab olish va hamma o‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb qilib, ularning

darsda faol bo‘lishlariga erishish mumkin. O‘quvchi soni oz bo‘lgan sinflarda esa sinfni guruhlarga bo‘lmasdan, balki 3 ta qator o‘rtasida musobaqa tarzida ham o‘tkazish mumkin. Bu holda qatorlarga 2 martadan topshiriqli kartochka berish mumkin (6 ta kartochka tayyorlanadi va har bir qatorga navbat bilan 2 martadan beriladi).

Muammoli bayon qilish metodi. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga ma’lum bir maummo qo‘yadi va ular mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlash orqali bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta’limning bu metodi o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining o‘qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi[95]. Muammoli bayon qilish metodida o‘qituvchi badiiy matn tarkibidagi fonetik yoki leksik birliklarga oid muayyan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi hamda o‘quvchilarni mustaqil mushohada yuritishga undaydi. Masalan, muallifning aynan ma’lum tovushlar yoki muayyan leksemalarni tanlashdagi maqsadi, ularning qahramon ruhiyati va matn ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni yuzasidan savollar qo‘yiladi. Natijada o‘quvchilar til birliklarining nafaqat grammatik yoki lug‘aviy ma’nosini, balki pragmatik vazifasini ham anglay boshlaydilar. Bu esa ularda matnni chuqur tahlil qilish va yashirin ma’nolarni idrok etish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek dars jarayonida interfaol metodlardan ham foydalanish samara beradi. Interfaol metod – ta`lim jarayonida o‘quvchilar o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish yo‘lidir[96] .Interfaol metodlardan “Zakovat” metodidan foydalanish esa o‘quvchilarning erkin fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar matndagi tovushlar, iboralar yoki leksemalarning qanday hissiy ta’sir uyg‘otishi haqida turli fikrlarni ilgari suradilar. Jarayon davomida har bir o‘quvchi o‘z mulohazasini erkin bayon etadi, bu esa pragmatik tahlilning ko‘p qirrali bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada o‘quvchilarda kommunikativ faollik, mantiqiy fikrlash va matnni baholash kompetensiyasi rivojlanadi. “Klaster” metodidan foydalanish ham pragmatik kompetensiyani shakllantirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur metod yordamida o‘quvchilar matndagi asosiy tushunchalar, fonetik vositalar, leksik birliklar hamda ularning pragmatik vazifalarini o‘zaro bog‘liq holda tizimlashtiradilar. Bu esa o‘quvchilarning matnni yaxlit holda idrok etishi, til birliklari o‘rtasidagi semantik va pragmatik munosabatlarni anglashiga yordam beradi.

[95] G`ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Lavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o`qitish metodikasi.- Toshkent : Fan va texnologiya , 2012. – 70 b

[96] Yuldasheva D. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. -206 b

Demak, badiiy matnni fonetik va leksik tahlil qilish jarayonida “Zakovat” hamda “Klaster” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish, ularning nutqiy tafakkuri va kommunikativ salohiyatini oshirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azimova I., Mavlonova K., Qur`onov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Umumiy o‘rta ta`lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022. – 222 b.

2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Risxiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent : “G‘afur G‘ulom”, 2022.- 635b

3. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona” , 2021. - 427 b.

4. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Lavutdinova.N, Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent : “Fan va texnologiya”, 2012. – 380 b.

5. Shomaqsudov Sh. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent : “O‘qituvchi” , 1996. – 12-b – 355 b.

6. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. “A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal” (https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf) impact faktorga ega bo‘lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.

7. Sobirova, M.Y. (2024). Ona tilining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 104-110.

8. Yusupdjanovna, S.M. (2024). Innovation-integration approach to developing students’language and communicative competence. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 43-50.

9. Makhbuba Sobirova, Matlubakhon Kariyeva (2024). The Role of National values in Education. http://journal.nun.uz Social sciences. O‘zbekiston milliy Universiteti xabarlari, 2024, [1/9] ISSN 2181-7324. B-178-180.

10. Sobirova, M.Y. (2024). Qadriyat – insonni rag‘batlantiruvchi kuch. “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2024-yil, 2(10)-son. 28-32-betlar. ISSN 2181-3787 E-ISSN 2181-3795

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ТЕКСТОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ

ХОЛДОРОВА КИЗЛАРХОН МУХАММАДАЗИМ КИЗИ
xoldorova2024@gmail.com
магистрант Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основания системы обучения текстовой деятельности старшеклассников в условиях современного языкового образования. Анализируются основные подходы к организации текстовой деятельности учащихся, раскрывается значение коммуникативно-деятельностного подхода, познавательной активности и интерактивных методов обучения в процессе формирования текстовой компетенции. Особое внимание уделяется теории регулятивности текста как важной научной основе методики обучения восприятию, интерпретации и созданию текста. Определяются основные понятия коммуникативной стилистики текста, имеющие методическое значение в обучении русскому языку.

Ключевые слова: текстовая деятельность, текст, коммуникативно-деятельностный подход, регулятивность текста, интерактивные методы обучения, познавательная активность, текстовая компетенция, старшеклассники.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of a system for teaching high school students textual activity in the context of modern language education. It analyzes the main approaches to organizing students' textual activity, revealing the importance of a communicative-activity approach, cognitive activity, and interactive teaching methods in developing textual competence. Particular attention is paid to the theory of textual regulativeness as an important scientific basis for teaching methods of perception, interpretation, and creation of text. Key concepts of communicative textual stylistics, which have methodological significance in teaching Russian, are defined.

Keywords: textual activity, text, communicative-activity approach, textual regulativeness, interactive teaching methods, cognitive activity, textual competence, high school students.

Современная система образования ориентирована на развитие личности учащегося, способного к самостоятельному мышлению, анализу информации и эффективной коммуникации. В связи с этим особую актуальность приобретает проблема обучения текстовой деятельности, предполагающей

формирование у школьников умений воспринимать, интерпретировать и создавать тексты различных жанров и стилей.

Текстовая деятельность является важнейшим компонентом речевой деятельности учащихся, поскольку именно через текст осуществляется познание окружающей действительности, формирование мировоззрения и развитие коммуникативной компетенции. Разработка эффективной системы обучения текстовой деятельности требует обращения к достижениям лингвистики, психологии, педагогики и методики преподавания русского языка.

Сложность феномена текста и процессов его восприятия и создания обусловливает необходимость комплексного научного подхода к организации обучения текстовой деятельности. Основной задачей текстовой деятельности является понимание авторского текста, отражённой в нём действительности и выражение собственных смыслов посредством создания вторичного текста.

Текстовая деятельность представляет собой совокупность осознанных действий и операций, направленных на восприятие, анализ, интерпретацию и продуцирование текста. Эффективность данной деятельности зависит от того, насколько учащийся понимает сущность выполняемых действий и способен применять их в различных коммуникативных ситуациях.Методическая система обучения текстовой деятельности опирается на идеи коммуникативно-деятельностного подхода, разработанного в трудах Е.С. Антоновой, Т.К. Донской, В.Н. Мещерякова и других исследователей. В рамках данного подхода ученик рассматривается как активный субъект образовательного процесса, а речевая деятельность становится основным объектом обучения.

Язык при этом изучается не изолированно, а как средство общения и познания.Особое значение приобретает создание педагогических условий, в которых учащиеся вовлекаются в активную деятельность, связанную с анализом и созданием текстов. Важным фактором эффективности обучения становится личностная значимость выполняемой деятельности для школьников. Именно поэтому процесс работы с текстом должен быть связан с реальными жизненными ситуациями, коммуникативными задачами и познавательными интересами учащихся.Важной теоретической основой методики обучения текстовой деятельности является положение о зависимости результативности обучения от уровня познавательной активности учащихся. Активность познавательной сферы проявляется в устойчивом интересе к учебному материалу, инициативности, самостоятельности и концентрации внимания.

Активизация познавательной и речемыслительной деятельности достигается посредством:

-создания благоприятной образовательной среды;

-использования эвристической беседы;

-анализа конкретных коммуникативных ситуаций;

-организации самостоятельной работы;

-применения обучающих игр;

-включения нового знания в систему ранее усвоенного материала.

Одним из наиболее эффективных средств активизации учащихся выступают интерактивные методы обучения, основанные на групповом взаимодействии и сотрудничестве участников образовательного процесса. Данные методы позволяют развивать коммуникативные способности учащихся, формировать навыки коллективного обсуждения и интерпретации текста, а также способствуют повышению мотивации к изучению русского языка.

Существенную роль в разработке методики обучения текстовой деятельности играет коммуникативная стилистика текста и её составная часть – теория регулятивности. Теория регулятивности изучает способность текста управлять интерпретационной деятельностью читателя. В научный оборот термин «регулятивность» был введён Е.В. Сидоровым, а дальнейшее развитие данной теории связано с исследованиями Н.С. Болотновой.

К основным понятиям теории регулятивности относятся способы регулятивности, регулятивные средства и регулятивные структуры текста.Способы регулятивности представляют собой приёмы организации текстовых структур, направленные на воздействие на читателя и управление процессом восприятия текста. Среди них выделяются:

-тезисно-аргументирующий способ;

-эмоционально-оценочный способ;

-ассоциативный способ.

Регулятивные средства включают лингвистические и экстралингвистические элементы текста, способствующие пониманию авторского замысла. К ним относятся метафоры, повторы, контрастные сопоставления, стилистически окрашенная лексика, композиционные особенности текста, графические средства и интертекстуальные элементы. Регулятивные структуры отражают систему взаимосвязанных средств и приёмов, обеспечивающих интерпретационную деятельность читателя. Осознание учащимися функций данных структур способствует более глубокому пониманию текста и развитию аналитических навыков.

Таким образом, методическая система обучения текстовой деятельности старшеклассников основывается на интеграции достижений лингвистики, педагогики, психологии и методики преподавания русского языка. Центральное место в данной системе занимают коммуникативно-деятельностный подход, теория познавательной активности и теория регулятивности текста.Использование интерактивных методов обучения, создание условий для активной речемыслительной деятельности учащихся и формирование осознанного отношения к процессу восприятия и создания текста обеспечивают эффективность обучения текстовой деятельности. Всё это способствует развитию коммуникативной компетенции, читательской грамотности и творческого потенциала старшеклассников.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Антонова Е.С. Методика преподавания русского языка. – М.: Академия, 2010.
2. Болотнова Н.С. Коммуникативная стилистика текста. – Томск: Изд-во ТГУ, 2001.
3. Донская Т.К. Теория и практика речевой деятельности. – СПб., 2005.
4. Кларин М.В. Инновационные модели обучения. – М.: Наука, 2012.
5. Мещеряков В.Н. Коммуникативно-деятельностный подход в обучении русскому языку. – М., 2008.
6. Фопель К. Как научить детей сотрудничать. – М.: Генезис, 2000.
7. Шмаков С.А. Игровые технологии в образовании. – М., 2004.

ADABIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

ABDUVALIYEVA MADINA
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
ILMIY RAHBAR: PHD, QOZAQOVA SAYYORA
mabduvaliyeva85@gmail.com
+998939230698

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda metodik takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Adabiy asarlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik

texnologiyalar, interfaol metodlar va muammoli ta’lim usullaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, adabiy tahlil, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы, педагогические возможности и пути методического совершенствования развития критического мышления учащихся в процессе литературного образования. Освещаются вопросы развития самостоятельного мышления, аналитического подхода и творческого мышления учащихся посредством использования современных педагогических технологий, интерактивных методов обучения при преподавании литературным произведениям.

Ключевые слова: литературное образование, критическое мышление, интерактивные методы, педагогические технологии, литературный анализ, самостоятельное мышление, эффективность образования.

Abstract. This article analyszes the theoretical foundations, pedagogical opportunities and methods for improving student’s critical thinking skills during the process of literary education. The issues of developing students’ independent thinking, analytical approach and creative thinking through the use of modern pedagogical technologies, interactive methods and problem-based learning medhods in teaching literary works are higglighted.

Keywords: literary education, critical thinking, interactive methods, pedagogical technologies, literary analysis, independent thinking, educational effectiveness.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, adabiy ta’lim o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish, estetik didini rivojlantirish va voqelikni tahliliy idrok etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash, taqqoslash, xulosa chiqarish va o‘z nuqtayi nazarini asoslab bera olish qobiliyatidir. Adabiy ta’lim jarayonida mazkur qobiliyatni rivojlantirish o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki faol

fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy asarlarni o‘rganishda an'anaviy yondashuv ko‘pincha asar mazmunini qayta hikoya qilish va muallif g‘oyasini izohlash bilan cheklanib qoladi. Zamonaviy ta’lim esa o‘quvchini asarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishga, qahramonlar xarakteriga baho berishga hamda muallif pozitsiyasini mustaqil ravishda aniqlashga undaydi. Shuning uchun o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Bunda o‘qituvchining innovatsion faoliyati orqali ta’lim jarayonini interfaol metodlar orqali tashkil etishi yangi bilimlarni berishda yaxshi samara beradi. Ayniqsa, o‘quvchilarni maqsadni anglashga, shu maqsadni ta’lim jarayonida nechog‘li amalga oshganini tahlil qilishga o‘rgatish, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini anglashga, o‘zining faoliyati va o‘zgalar faoliyatiga to‘g‘ri baho bera olishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Ammo har bir o‘quvchining rivojlanish, qabul qilish darajasi, tayyorgarligi har xil bo‘lgani tufayli bilim va ko‘nikmalarni qabul qilib olish, o‘zlashtirish birdek natijani kafolatlamaydi. Interfaol mashg‘ulotlarga esa barcha o‘quvchilar jalb etilishi talab etiladi. Bu jarayon uchun shunday texnologiyalar tanlanishi kerakki, ish jarayonida barcha ishtirokchilarning ishtiroki yoki muhokamasi ta’minlansin. Shunday metodlardan biri – muammoli ta’lim metodi. Mazkur metodda o‘quvchilarga adabiy asar yuzasidan muammoli savollar beriladi. Masalan, qahramonning muayyan harakati to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini dalillar asosida isbotlash topshirig‘i beriladi. Bu esa o‘quvchilarni mantiqiy mushohada yuritishga o‘rgatadi.

Yana bir samarali metodlardan biri - “Aqliy hujum” metodi. Bu metod orqali o‘quvchilar uchun asar yuzasidan turli fikrlarni erkin bayon qilish imkoniyati yaratiladi. Ular bir-birining fikrlarini tinglab, tahlil qiladi va umumiy xulosaga keladi.

O‘quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini oshiruvchi metodlardan yana biri bu - debat texnologiyasi. Bu texnologiyada adabiy qahramonlar faoliyati yoki asar g‘oyasi yuzasidan munozaralar tashkil etiladi. Debat jarayonida o‘quvchilar dalillar keltirish, fikrini himoya qilish va qarama-qarshi pozitsiyani tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Keyingi metod klaster va konseptual xaritalar. Asardagi obrazlar, voqealar va g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni grafik shaklda ifodalash orqali o‘quvchilarning tahliliy tafakkuri rivojlanadi.

“INSERT” texnologiyasi ham keng ko‘lamli, samaradorlikka ega bo‘lgan metodlardan biridir. O‘quvchilar matn bilan ishlash jarayonida o‘zlari bilgan, yangi o‘rgangan yoki tushunmagan ma’lumotlarni maxsus belgilar yordamida ajratib boradilar. Bu usul o‘quvchilarning reflektiv fikrlashini rivojlantiradi.

Demak, interfaol metodlar birdaniga ko‘pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi. Eng asosiysi, bu usullar o‘quvchilarning kommunikativ bilimi, tushunchasi, ko‘nikma va malakasini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlik, hamjixatlik do‘stona munosabatlarda ishlashni ta’minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon qilish, o‘zaro hurmatga undaydi. Bu usulda ishlash sinfda ruhiy holatni, yuklamalarini yengillashtiradi. Mashg‘ulot shakllarini, faoliyatlarini o‘zgartirib borish asosida muhim muammolar yechimini topishga o‘rganib boradilar.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish – zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu qobiliyat o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy yondashuv va muammolarga kreativ yechimlar taklif qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish – ularga nafaqat bilim, balki ijtimoiy va kasbiy muvaffaqqiyatlar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi.

Xullas, o‘quvchilarda ijodiy, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida o‘quv jarayonida yangi tizimlarni izlash, kreativlik, zamon bilan hamnafas bo‘lish bugungi jadallashayotgan ta’lim muhitining ustuvor vazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.

3. G‘afforova T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.

4.Turg‘unboyev K. va Rizaev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – “Andijon nashriyot-matbaa”. 2008.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA BADIY ASAR TAHLILINI TASHKIL ETISHDA SYUJETLI-ROLLI VA INTERFAOL O‘YINLARNI MODELLASHTIRISH METODIKASI (10-sinf Adabiyot darsligidagi „Don Kixot“ romani misolida)

BEKMIRZAYEVA MASHXURA SHAVKATJON QIZI
Namangan davlat pedagogika instituti
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining 10-sinf adabiyot darslarida badiiy asar tahlilini tashkil etishda syujetli-rolli hamda interfaol o‘yinlarni modellashtirish metodikasi tadqiq etilgan. Migel de Servantesning ,,Don Kixot sarguzashtlari‘‘ romani misolida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, matn osti ma’nolarini chaqishi va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion o‘yin modellarining amaliy mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy tahlil, 10-sinf adabiyoti, Don Kixot, syujetli-rolli o‘yin, interfaol metod, modellashtirish, ,,Qaynoq kursi‘‘, adabiy sud, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье исследуется методика моделирования сюжетно-ролевых и интерактивных игр при организации анализа художественного произведения на уроках литературы в 10-х классах общеобразовательных школ. На примере романа Мигеля де Сервантеса ,,Приключения Дон Кихота‘‘ освещены практические механизмы инновационных игровых моделей в развитии самостоятельного мышления, раскрытия подтекста и речевых компетенций учащихся.

Ключевые слова: художественный анализ, литература 10-го класса, Дон Кихот, сюжетно-ролевая игра, интерактивный метод, моделирование, ,,Горячий стул‘‘, литературный суд, педагогическая технология.

Abstract. This article examines the methodology of modeling plot-role-playing and interactive games in organizing the analysis of literary works in 10th-grade literature classes of secondary schools. Using the example of Miguel de Cervantes' novel ,,The Adventures of Don Quixote,‘‘ the practical mechanisms of innovative game models are highlighted in developing students' independent thinking, uncovering subtext, and enhancing speech competencies.

Keywords: literary analysis, 10th-grade literature, Don Quixote, plot-role-playing game, interactive method, modeling, ,,Hot Seat‘‘, literary trial, pedagogical technology.

Bugungi kunda adabiy ta’limni transformatsiya qilish jarayoni o‘quvchilarni faqat axborot qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki badiiy matnni estetik idrok etuvchi muallifdosh sifatida tarbiyalashni talab etmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf dasturidan o‘rin olgan intellektual va falsafiy mazmundagi asarlar, xususan jahon adabiyoti durdonasi sanalgan Migel de Servantesning ,,Don Kixot sarguzashtlari‘‘ romanini an’anaviy deklarativ (ma’ruza) usulda tahlil qilish samarasiz ekanligi metodik amaliyotda ko‘p bor isbotlangan. 15-16 yoshli o‘smirlarga ritsarlik parodiyasi zamirida yotgan insoniy fojia va komizm dialogini

vizual hamda emotsional tarzda yetkazib berish o‘qituvchidan darsni modellashtirish mahoratini talab qiladi

Adabiyot darslarida syujetli-rolli hamda interfaol xarakterdagi o‘yin texnologiyalarini tizimli loyihalash o‘quvchilarning ichki intellektual salohiyatini faollashtirish va jamoaviy baxs-munozara madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Don Kixot obrazining tipologik tabiati jahon adabiyotshunosligida haligacha eng ko‘p munozara uyg‘otadigan mavzulardan biridir: u ijtimoiy muhitdan uzilgan telbami yoki adolat qidirgan olijanob insonmi? 10-sinf o‘quvchilarida mustaqil muammoli yondashuvni shakllantirish maqsadida dars xonasida „Don Kixot: Ma’rifiy sadoqatmi yoki ijtimoiy telbalik?‘‘ mavzusidagi sud jarayoni sun’iy pedagogik model ko‘rinishida tiklanadi.

Rollar arxitekonikasi: Raislik qiluvchi sudya, davlat ayblovchisi (prokuror), himoyachi (advokat) hamda voqelik guvohlari (Sancho Pansa, ruhoniy va qishloq sartaroshi).

Ayblov platformasi (Prokuror jamoasi): O‘quvchilar matn iqtiboslariga tayanib, personajning kognitiv funksiyalaridagi chetlanishlarni (shamol tegirmonlari yoki qo‘ylar podasi bilan jang) sotsiumga zarar keltiruvchi manipulyatsiya sifatida baholaydilar.

Himoya platformasi (Advokat jamoasi): Mazkur guruh qahramonning olijanob niyatlarini, insoniy qadr-qimmat va ritsarlik kodeksiga bo‘lgan sadoqatini matniy dalillar (sitatalar) orqali asoslab beradi.

Metodik natija: Mazkur simulyatsiya o‘quvchilarni o‘z intellektual pozitsiyasini dalillash uchun matn strukturasini chuqur mikrotahlil qilishga majbur etadi. (Qaynoq kursi) personifikatsiya texnologiyasi. Mazkur interfaol strategiya personajlarning ichki dunyosi va psixologik motivatsiyalarini ochishga yo‘naltirilgan. Sinf markazida tashkil etilgan maxsus maydonda quyidagi interfaol rollar modellashtiriladi:

„Don Kixot‘‘ modifikatsiyasi: Markazdagi o‘quvchiga sinfdoshlari tomonidan sotsial-psixologik muammoli savollar beriladi: “Siz ijtimoiy kulgiga nishon bo‘layotganingizni anglagan holda, nega o‘z utopik ideallaringizdan voz kechmadingiz?”

„Sancho Pansa‘‘ modifikatsiyasi: Ikkinchi o‘quvchi pragmatik qurolbardor qiyofasida interpretatsiya qilinadi: “Siz xo‘jayiningizning xayolparastligini bila turib, unga ergashishda davom etdingiz. Bunga sabab faqat moddiy manfaat (orol boshqaruvi) edimi yoki ma’naviy muloqot ehtiyojimi?”.

Pedagogik talab: Rol ijrochilari savollarga javob berishda shaxsiy fikrdan voz kechib, XVII asr Ispaniya ijtimoiy realligi va muallif konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, birinchi shaxs nomidan argumentativ nutq so‘zlashi shart.

„Dilemmik dialog‘‘ (Pragmatizm va Idealizm kolliziyasi). Don Kixot (mutloq

idealizm) va Sancho Pansa (sof pragmatizm) dunyoqarashlarini to‘qnashtirish orqali hayot falsafasini tahlil qilish mexanizmi qo‘llaniladi. Sinf ikki qarama-karshi fikriy qutbga ajratiladi. Birinchi guruh dunyoni estetik ideallar orqali o‘zgartirish g‘oyasini himoya qilsa, ikkinchi guruh real-amaliy yondashuvning hayotiy ustunligini baxs-munozara shaklida asar matni orqali tahlil qiladi.

Tizimli modellashtirish metodikasini 10-sinf adabiyot darslarida qo‘llash jarayonida quyidagi empirik natijalar qayd etildi.

Kreativlik ko‘rsatkichi: O‘quvchilar passiv retsipientlikdan (tinglovchilikdan) chiqib, adabiy-estetik tahlilning faol subyektiga aylandi. Matn bilan integratsiyalashuv: Matn osti ma’nolarini (subtekst) o‘qish va mustaqil interpretatsiya qilish darajasi sezilarli darajada oshdi. Refleksiv ko‘nikmalar: Muammoli vaziyatlar tizimi o‘quvchilarda hayotiy voqelikka tanqidiy va tahliliy ko‘z bilan qarash kompetensiyasini shakllantirdi.

Umumta’lim muassasalarida badiiy matn tahlilini tashkil etishda syujetli-rolli hamda interfaol mexanizmlarni loyihalash adabiy ta’lim sifatini konseptual jihatdan yangilovchi innovatsion pedagogik yo‘nalishdir. Migel de Servantesning „Don Kixot sarguzashtlari‘‘ romani kontekstida ko‘rib chiqilgan ushbu modellar o‘quvchilarni quruq faktik bilimlarni yodlashdan qutqarib, ularni interpretatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan kreativ shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Darsda o‘yinli modellashtirishning qo‘llanilishi ta’limning amaliy muvofiqligini ta’minlaydi va o‘quvchilarning komparativistik tafakkurini yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Matchonov S., Isakulova N. Maktabda adabiyot o‘qitishning zamonaviy metodologiyasi va innovatsion texnologiyalari. – Toshkent: Noshir, 2022. – 198 b.

2. Yo‘ldosheva M., Berdiyeva S. Adabiyot darslarida interfaol va syujetli-rolli o‘yinlarni modellashtirish // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2023. – №3. – B. 64-69.

3. Xudayberdiyeva M. A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyoti durdonalarini muammoli va tizimli tahlil qilish metodikasi // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2024. – №5. – B. 22-26.

4. Cervantes Miguel de. The Ingenious Gentleman Don Quixote of La Mancha / English translation and critical edition by Ilan Stavans. – New York: Restless Books, 2021. – 512 p.

5. Ahmadaliyeva Sh. N. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning nutqiy va estetik kompetensiyalarini o‘yin texnologiyalari orqali rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand, 2025. – 46 b.

3-SHO‘BA:MADANIYATLARARO MULOQOT VA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK ASPEKTLARINI TADQIQ QILISHDA RAQAMLI VOSITALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘ZBEK TILIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

QOZAQOVA SAYYORA
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
KARIMJONOVA MUATTAR
Email:KarimjanovaMuattar222@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida o‘zbek tilida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari yoritiladi. LMS tizimlari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ularning o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishdagi amaliy samarasi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, nutqiy kompetensiya, o‘zbek tili, LMS, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, kommunikativ yondashuv, interaktiv ta’lim, metodika, raqamli ta’lim

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития речевой компетенции на узбекском языке с использованием цифровых технологий. Анализируется роль систем управления обучением (LMS), мобильных приложений и инструментов искусственного интеллекта в образовании. Обосновывается их практическая эффективность в повышении речевой активности учащихся.

Ключевые слова: цифровые технологии, речевая компетенция, узбекский язык, LMS, мобильные приложения, искусственный интеллект, коммуникативный подход, интерактивное образование, методология, цифровое образование

Annotation. This article discusses the issues of developing speech competence in the Uzbek language using digital technologies. The role of LMS systems, mobile applications and artificial intelligence tools in education is analyzed. Their practical effectiveness in increasing students' speech activity is substantiated.


Keywords: digital technologies, speech competence, Uzbek language, LMS, mobile applications, artificial intelligence, communicative approach, interactive education, methodology, digital education

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi tez o‘zgarayotgan raqamli davr bilan bir qatorda rivojlanmoqda. Ayniqsa, filologik ta’limda bu o‘zgarishlar yaqqol sezilmoqda. O‘zbek tili o‘qitish jarayonida ham raqamli texnologiyalar tobora keng qo‘llanilib, an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashib bormoqda. Bu esa talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham ta’lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash, elektron platformalarni rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu hujjat o‘z navbatida o‘zbek tili o‘qitish metodikasini ham yangicha yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Nutqiy kompetensiya deganda, tilni faqat nazariy bilish emas, balki uni real muloqotda erkin va to‘g‘ri qo‘llay olish tushuniladi. Bu jarayon tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar esa aynan shu ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida va yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, LMS platformalar (Google Classroom, Moodle), mobil ilovalar va onlayn resurslar o‘quvchilarga mustaqil ishlash, o‘z bilimini tekshirish va real vaqt rejimida mashq qilish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi vositalar nutqni tahlil qilish, talaffuzni tekshirish va individual xatolarni ko‘rsatib berishda katta yordam beradi. Pedagog olim V. A. Slastenin ta’kidlaganidek, zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchini faol subyektga aylantirishi lozim[1]. Bu fikr bugungi raqamli ta’limga juda mos keladi, chunki raqamli vositalar o‘quvchini faollashtiradi, uni mustaqil izlanishga undaydi[97]. Shuningdek, o‘zbek tili o‘qitish jarayonida autentik materiallar – videolar, podkastlar, real dialoglar – katta ahamiyatga ega. Bular o‘quvchini tabiiy til muhitiga yaqinlashtiradi va nutqiy faolligini oshiradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb metodik masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbek va xorijiy ilmiy adabiyotlarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi keng o‘rganilgan. Xususan, til o‘qitish metodikasi doirasida kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim va raqamli pedagogika yo‘nalishlari asosiy ilmiy platforma sifatida shakllangan. A. N. Leontyev tilni faoliyat nazariyasi doirasida tahlil qilib, nutqni insonning ijtimoiy faoliyati sifatida ko‘rsatadi[98]. Uning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, nutq faqat bilim

[97] V. A. Slastenin, Pedagogika: innovatsion faoliyat asoslari, Moskva: Akademiya, 2018, 214-bet.
[98] A. N. Leontyev, Faoliyat, ong, shaxs, Moskva: Politizdat, 1977, 132-bet.


emas, balki amaliy faoliyat jarayonidir. Bu fikr raqamli muhitda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi asosiy nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. N. Chomsky esa lingvistik kompetensiyani insonning ichki til tizimi sifatida talqin qiladi.[99] U tilni egallashda grammatik kompetensiyani asosiy omil deb hisoblaydi. Biroq zamonaviy ta’limda bu yondashuv yetarli emasligi, amaliy kommunikativ faoliyat bilan to‘ldirilishi zarurligi keyingi tadqiqotlarda isbotlangan. D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi esa tilni ijtimoiy kontekstda qo‘llash zarurligini asoslab berdi.[100] Uning fikricha, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni emas, balki uni vaziyatga mos qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv hozirgi raqamli ta’lim muhitida juda dolzarb bo‘lib, virtual muloqot platformalarining asosini tashkil etadi. Raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha Y. Bates va R. Clark kabi olimlar LMS tizimlari va onlayn ta’lim muhitining samaradorligini tahlil qilib, ularning individual ta’lim traektoriyasini yaratishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Ularning tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, raqamli platformalar o‘quvchilarning mustaqil ishlashini kuchaytiradi va o‘quv jarayonini moslashuvchan qiladi. O‘zbekistonlik olimlardan N. Husanov o‘zbek tili o‘qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish nutqiy faollikni oshirishini tajribaviy asosda isbotlagan[101]. U an’anaviy dars va raqamli vositalar integratsiyasi eng samarali model ekanini ta’kidlaydi. M. Yo‘ldoshev esa raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini o‘rganib, LMS platformalari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqani kuchaytirishini ko‘rsatgan[102]. Uning fikricha, raqamli muhitda o‘quvchi mustaqil bilim oluvchi subyektga aylanadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt asosidagi til o‘qitish tizimlari (AI tutor, chatbot, speech recognition) bo‘yicha ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu texnologiyalar talaffuzni avtomatik tahlil qilish, nutq xatolarini aniqlash va individual feedback berish imkonini yaratadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda uch asosiy yo‘nalish ajralib turadi:



Biroq [illegible] rivojlantirishga yo‘naltirilgan yagona metodik model kam ishlab chiqilgan. Shu sababli ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni bir tizimga solgan metodik

[99] N. Chomsky, Aspects of the Theory of Syntax, Cambridge: MIT Press, 1965, 85-bet.
[100] D. Hymes, On Communicative Competence, Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972, 45-bet.
[101] N. Husanov, O‘zbek tili o‘qitish metodikasi, Toshkent: Fan, 2020, 98-bet.
[102] M. Yo‘ldoshev, Raqamli ta’lim texnologiyalari, Toshkent: O‘qituvchi, 2021, 121-bet.

yondashuv taklif etiladi. Metodologik jihatdan tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:.



Ushbu usullar raqamli texnologiyalarning nutqiy kompetensiyaga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.

Nutqiy kompetensiya va til o‘qitish metodikasi bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. A. N. Leontyev tilni faqat bilimlar tizimi emas, balki faoliyat shakli sifatida ko‘radi. Uning fikricha, nutq – bu insonning ijtimoiy faoliyatidir[103]. Bu yondashuv raqamli muhitda til o‘qitishning asosini tashkil qiladi. N. Chomsky esa lingvistik kompetensiya va real nutq (performans) o‘rtasidagi farqni ajratadi. U tilni ichki bilim tizimi sifatida talqin qiladi[104]. Biroq bugungi amaliy ta’limda bu nazariya kommunikativ yondashuv bilan to‘ldiriladi. D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini kiritib, tilni faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida izohlaydi[105]. Bu qarash bugungi raqamli ta’lim platformalarida juda muhim o‘rin tutadi. Mahalliy tadqiqotchilardan N. Husanov o‘zbek tili o‘qitishda multimedia vositalarining samaradorligini ko‘rsatgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, interaktiv vositalar o‘quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi[106]. M. Yo‘ldoshev esa LMS tizimlarining o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi[107]. U raqamli platformalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqani yanada samarali qiladi, degan xulosaga keladi.


Umuman olganda, barcha tadqiqotlarda umumiy fikr shuki, raqamli texnologiyalar til o‘qitishni yanada samarali va interaktiv qiladi. Farq esa

[7]. A. N. Leontyev, Faoliyat, ong, shaxs, Moskva: Politizdat, 1977, 132-bet.
[104] N. Chomsky, Aspects of the Theory of Syntax, Cambridge: MIT Press, 1965, 85-bet.
[105] D. Hymes, On Communicative Competence, Philadelphia,
[106] N. Husanov, O‘zbek tili o‘qitish metodikasi, Toshkent: Fan, 2020, 98-bet.
[107] M. Yo‘ldoshev, Raqamli ta’lim texnologiyalari, Toshkent: O‘qituvchi, 2021, 121-bet.

yondashuvlarda: g‘arb olimlari nazariy jihatga ko‘proq e’tibor bersa, mahalliy olimlar amaliy natijalarga urg‘u beradi. Metod sifatida ushbu maqolada qiyosiy tahlil va tizimli yondashuvdan foydalanildi

Natijalar va muhokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar o‘zbek tili o‘qitish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi va samaradorlikni oshiradi. LMS platformalar orqali o‘quvchilar mustaqil ishlashni o‘rganadi, mobil ilovalar esa muntazam mashq qilish imkonini beradi. Sun’iy intellekt esa ayniqsa foydali vosita bo‘lib, u talaffuzdagi xatolarni aniqlaydi va darhol tuzatish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchining o‘z ustida ishlashini tezlashtiradi. Adabiyotlarda keltirilgan tajribalar ham shuni tasdiqlaydiki, raqamli vositalar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Masalan, Husanov[108] tadqiqotida interaktiv ta’lim 35% gacha samaradorlikni oshirgani qayd etilgan. Shu asosda aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar o‘zbek tili o‘qitish jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib bormoqda. An’anaviy yondashuvlarda o‘quvchi ko‘proq passiv ishtirokchi bo‘lsa, raqamli muhitda u faol kommunikativ subyektga aylanadi. Tahlil jarayonida LMS platformalar (Google Classroom, Moodle) o‘quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil etishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu platformalar orqali topshiriqlarni berish, monitoring qilish va baholash jarayoni avtomatlashtiriladi. Bu esa o‘qituvchining yuklamasini kamaytiradi va individual yondashuvni kuchaytiradi. Mobil ilovalar esa (Quizlet, Duolingo va boshqalar) o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va muntazam mashq qilish imkonini beradi. Ularning eng muhim jihati – o‘quvchini uzluksiz ta’lim jarayoniga jalb etishdir. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar (chatbotlar, speech recognition tizimlari) nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ular o‘quvchining talaffuzini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va darhol feedback beradi. Bu jarayon an’anaviy darslarda deyarli mavjud bo‘lmagan tezkor tuzatish imkonini yaratadi.Tadqiqot davomida shuningdek, quyidagi muammo ham aniqlandi: ayrim o‘quvchilar raqamli vositalardan foydalanishda mustaqil ishlash ko‘nikmasiga ega emas. Bu esa o‘qituvchining yo‘naltiruvchi rolini saqlab qolish zarurligini bildiradi. Shu asosda muallif tomonidan quyidagi integratsiyalashgan metodik model ishlab chiqildi. Ushbu model nutqiy kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

[108] N . Husanov. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2020, 98–102-bet



3-jadval. Nutqiy kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli

Ushbu modelning afzalligi shundaki, u an’anaviy ta’limni to‘liq inkor etmaydi, balki uni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada o‘quvchi:

✓ mustaqil fikrlaydi
✓ real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo‘llaydi
✓ xatolarini tezkor tuzatadi
✓ va muntazam mashq qiladi

Eng muhim natija shundaki, nutqiy kompetensiya faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikma sifatida shakllanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar o‘zbek tilida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi. Eng muhimi, bu texnologiyalar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Shu sababli ularni metodik jarayonga keng joriy etish bugungi kun talabi hisoblanadi. Maqolaning asosiy yangiligi – raqamli vositalarni integratsiyalashgan metodik tizim sifatida qarashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Leontyev A. N. Faoliyat, ong, shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977. – 132 b.
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – 85 p.
3. Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 45 p.
4. Slastenin V. A. Pedagogika: innovatsion faoliyat asoslari. – Moskva: Akademiya, 2018. – 214 p.

5. Bates A. W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2019. – 67 p.

6. Clark R. E. Learning from Media. – Charlotte: Information Age Publishing, 2015. – 54 p.

7. Warschauer M. Technology and Second Language Teaching. – Honolulu: University of Hawaii Press, 2010. – 112 p.

8. Chapelle C. A. Computer Applications in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 98 p.

9. Hubbard P. Computer Assisted Language Learning: Critical Concepts. – London: Routledge, 2013. – 76 p.

10. Yo‘ldoshev M. Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 121 b.

11. Husanov N. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 98–102 b.

12. UNESCO. Digital Pedagogy and Language Learning. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.

MUHAMMAD YUSUFNING ADABIYOTGA QO‘SHGAN HISSASI

BANNABOVA GULSANAM ISKANDAR QIZI
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich talabasi:

TILLAYEVA RAYHONA TO‘XTASINOVNA
Gmail:gulsanambannabova07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusufning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi yoritiladi. Shoir ijodining asosiy yo‘nalishlari, xalqchil uslubi, sodda va samimiy ifoda vositalari tahlil qilinadi. Uning she’rlarida vatanparvarlik, insoniylik, muhabbat va milliy qadriyatlar keng aks etgani ochib beriladi. Maqolada shoirning o‘zbek she’riyatini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda baholanadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается вклад Muhammad Yusuf в узбекскую литературу. Анализируются основные направления его творчества, народный стиль, простота и искренность художественного выражения. Особое внимание уделяется отражению патриотизма, человечности, любви и национальных ценностей в его произведениях. Также оценивается значение поэта в развитии узбекской поэзии.

Annotation. This article examines the contribution of Muhammad Yusuf to Uzbek literature. It analyzes the main directions of his творчество, his folk style,

and the simplicity and sincerity of his poetic expression. The paper highlights themes such as patriotism, humanity, love, and national values in his works. It also evaluates the poet's role and importance in the development of Uzbek poetry.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek she’riyati, zamonaviy she’riyat, xalqchil uslub, sodda va samimiy til, badiiy mahorat, ijodiy meros, vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy qadriyatlar, insoniylik, muhabbat mavzusi, lirik qahramon, obrazlar tizimi, poetik tafakkur, adabiy jarayon, mustaqillik davri adabiyoti, ruhiy kechinmalar, xalq qalbi ifodasi, estetik qarashlar, badiiy ifoda vositalari, ijtimoiy g‘oyalar

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, узбекская литература, узбекская поэзия, современная поэзия, народный стиль, простой и искренний язык, художественное мастерство, творческое наследие, патриотизм, национальная гордость, национальные ценности, человечность, тема любви, лирический герой, система образов, поэтическое мышление, литературный процесс, литература периода независимости, духовные переживания, выражение народных чувств, эстетические взгляды, художественные средства, социальные идеи

Keywords: Muhammad Yusuf, Uzbek literature, Uzbek poetry, modern poetry, folk style, simple and sincere language, artistic mastery, creative legacy, patriotism, national pride, national values, humanity, theme of love, lyrical hero, system of images, poetic thinking, literary process, independence period literature, emotional experiences, expression of people’s feelings, aesthetic views, artistic devices, social ideas.

Muhammad Yusuf o‘zbek adabiyotida xalq ruhini, milliy o‘zlikni va inson qalbiga yaqin tuyg‘ularni yuksak badiiy darajada ifoda etgan ijodkor sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodi sodda, samimiy va xalqona uslubi bilan ajralib turib, keng kitobxonlar ommasiga tez va chuqur ta’sir ko‘rsatgan.Shoirning asarlarida Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat va milliy qadriyatlar asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Masalan, uning mashhur “Vatanim”, “O‘zbekiston”, “Xalq bo‘l elim” kabi she’rlarida yurtga bo‘lgan cheksiz mehr va faxr tuyg‘ulari ifodalangan. Ushbu asarlar orqali shoir Vatan obrazini ulug‘laydi, uni muqaddas qadriyat darajasiga ko‘taradi. Bu esa o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Muhammad Yusuf ijodining yana bir muhim jihati – uning xalqchiligi va samimiyligidir. Shoir oddiy inson hayotini, uning quvonch va tashvishlarini badiiy tasvirlashda katta mahorat ko‘rsatadi. “Onamga xat”, “Mehr qolur”, “Ko‘nglimda bir yor” kabi she’rlarida insoniy tuyg‘ular, mehr-oqibat, sog‘inch va sadoqat chuqur va ta’sirchan tarzda yoritilgan. Bu asarlar kitobxon qalbiga tez yetib borishi bilan ajralib turadi.Shoir o‘zbek adabiy tilining rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. U she’riyatda xalq tiliga yaqin, sodda va ravon iboralardan

foydalanib, badiiy ifodaning yangi uslubini shakllantirdi. Uning she’rlarida ortiqcha murakkablik yo‘q, aksincha, tabiiylik va samimiylik ustun. Bu esa uning ijodini keng ommaga tushunarli va sevimli qilgan.Muhammad Yusuf ijodida sevgi va insoniy munosabatlar mavzusi ham alohida o‘rin egallaydi. “Sevgi”, “Yolg‘onchi yor”, “Bir kun kelib” kabi she’rlarida sevgi tuyg‘usi hayotiy va haqqoniy tarzda ifoda etiladi. Shoir sevgi orqali inson qalbining nozik jihatlarini ochib beradi, uni sadoqat va vafodorlik bilan bog‘laydi. Shoir erkinlik, istiqlol va milliy uyg‘onish g‘oyalarini o‘z asarlarida ifodalab, yangi davr ruhini she’riyatga olib kirgan. Bu jihat uning ijodini nafaqat badiiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim qiladi.Umuman olganda, Muhammad Yusufning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi uning xalqchil ruhda yozgan asarlari, milliy qadriyatlarni yuksaltirganligi, adabiy tilni boyitganligi va inson qalbiga yaqin mavzularni yoritganligi bilan belgilanadi. Uning ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy jihatdan tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Onam

Ko‘nglim qolsa bulbuldan ham guldan ham,
Qolar boo‘lsam bir kun ahir tildan ham.
Agar bir zot yeg‘lar bo‘lsa chin dildan ham ,
Onam yeg‘lar, onam yeg‘lar ,onam u…

Sig‘may qolsam shunday keng bir jahonna,
Osmonlarga ruhim bo‘lsa yagona,
Jonsiz tanam ustida ham parvona,
Onam yeg‘lar, onam yeg‘lar ,onam u…

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf o‘zbek adabiyotida xalq ruhiyatini, milliy qadriyatlarni va samimiy insoniy tuyg‘ularni yuksak badiiy darajada ifoda etgan ijodkorlardan biridir. Uning she’rlari sodda, ravon va xalqchil uslubi bilan keng kitobxonlar qalbidan joy oldi. Shoir o‘z ijodi orqali Vatanga muhabbat, ona tiliga hurmat, milliy o‘zlikni anglash kabi muhim g‘oyalarni targ‘ib etdi. Muhammad Yusufning adabiyotga qo‘shgan hissasi nafaqat badiiy merosi bilan, balki yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o‘rni bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ular orqali milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo‘shilganini ko‘rish mumkin. Shu bois, Muhammad Yusuf ijodi oliy ta’lim muassasalarida chuqur o‘rganilishi, yoshlar ongida milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yusuf, Muhammad. *Saylanma*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

2. Yusuf, Muhammad. *Ishq kemasi*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1998.

3. Yusuf, Muhammad. *Ulug‘imsan, Vatanim*. Toshkent: O‘zbekiston, 2004.

4. Karimov, N. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

5. Qosimov, B. *Milliy uyg‘onish davri adabiyoti*. Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

6. Rahmonov, B. *Zamonaviy o‘zbek she’riyati*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

7. Yo‘ldoshev, Q. *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: O‘qituvchi, 2006.

8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.

9. O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi materiallari. Toshkent.

10. Ziyouz.com – Adabiy-ma’rifiy elektron kutubxona.

11. Kitob.uz – O‘zbek adabiyoti elektron manbasi.

12. Wikipedia.org – Muhammad Yusuf haqidagi ma’lumotlar (umumiy ma’lumot sifatida).

КОНЦЕПТЫ ЧЕСТИ И ДОСТОИНСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

ЧАРОС АБДУРАХМОНОВА

Магистрант факультета филологии

Наманганского государственного педагогического института

Abstract. The article examines the concepts of honor and dignity as fundamental categories of social and cultural consciousness that were formed across different historical periods. It analyzes their connection with valor, glory, and public recognition in the ancient world, where honor was regarded as a supreme value for which heroes such as Achilles were willing to fight alongside their own lives. Particular attention is paid to the Roman understanding of dignity as a combination of public recognition and personal nobility. The transformation of these concepts in the Middle Ages is traced, when honor acquired a religious and feudal character and was embodied in the chivalric code, which included loyalty to one’s lord, the protection of the weak, and the preservation of personal and familial honor. It is shown that the loss of honor was perceived as social death, whereas dignity was understood through its connection with the divine principle.

Keywords: honor, dignity, ancient culture, chivalric code, public recognition, nobility, Middle Ages.

Annotatsiya. Maqolada “sha’n” va “qadr-qimmat” tushunchalari ijtimoiy va madaniy ongning asosiy kategoriyalari sifatida turli tarixiy davrlarda shakllanganligi o‘rganiladi. Ularning qadriyat, shon-sharaf va jamoatchilik e’tirofi bilan bog‘liqligi

tahlil qilinadi, qadimgi dunyoda sha’n eng oliy qadriyat hisoblanib, Achilles kabi qahramonlar hayotlari bilan birga unga kurashishga tayyor bo‘lgan. Alohida e’tibor Rimda qadr-qimmat tushunchasining jamoatchilik e’tirofi va shaxsiy ulug‘vorlikni birlashtirishi jihatiga qaratiladi. Ushbu tushunchalarning O‘rta asrlarda o‘zgarishi, sha’nning diniy va feodal xarakterga ega bo‘lib, ritsarlik kodeksi orqali namoyon bo‘lgani ko‘rsatiladi. Bu kodeks senga sodiqlik, zaiflarni himoya qilish va oila va shaxs sha’nini saqlashni o‘z ichiga olgan. Sha’nning yo‘qotilishi ijtimoiy o‘lim sifatida qabul qilingan, qadr-qimmat esa ilohiy unsur bilan bog‘liq sifatida tushunilgan.

Kalit so‘zlar: sha’n, qadr-qimmat, qadimgi madaniyat, ritsarlik kodeksi, jamoatchilik e’tirofi, ulug‘vorlik, O‘rta asrlar.

Введение. В эпоху Возрождения и Нового времени возрастающее значение приобретает индивидуальность и внутренние моральные качества. Честь перестает быть исключительно внешним статусом, и в центре внимания оказывается внутреннее достоинство человека и его совесть. Представители эпохи Просвещения, например Жан-Жак Руссо, утверждали, что истинная честь заключается в честности перед самим собой и свободе от лжи. В XIX–XX веках рассматриваемые понятия трансформируются под влиянием социальных изменений, демократических идей и гуманизма. В литературе данного времени не только внешняя репутация героя, но и его внутренняя моральная позиция становится определяющей в связи с ростом личностной автономии, когда понятие достоинства акцентируется как неотъемлемое право человека на уважение и моральность.

Так, ещё в «Илиаде» Гомера герой Ахилл теряет свою честь, когда оскорбляется Агамемноном, дальнейшие его действия продиктованы желанием восстановить честь в глазах окружающих. «Я потерял честь – зачем мне жизнь?»[109], сетует Ахилл. «На уровне же социальной семантики герой – всегда благородный (agathos), выходец из благородного сословия; он обладает совершенством, доблестью (aretē), богатырской силой; он лучший (āristos), поэтому он предводитель, вождь, военачальник; он бережет свою честь (timē); он знает, что такое стыд (aidōs), и способен почтительно обходиться с другими»[110].

Историко-философский контекст. Как видно, в античности честь была тесно связана с репутацией и честью рода. Но в Средневековье и в литературе честь выступает как доблесть и верность долгу. Если в христианском понимании понятие чести принимает религиозный оттенок: это уже не только внешняя слава, но и внутреннее соответствие божественным принципам, у

[109] Гомер. Илиада. https://azbyka.ru/fiction/iliada-gomer/.
[110] Гусейнов А.А. Античная этика. М., 2023. С. 9–21.

рыцарей возникает кодекс чести, включающий верность, милосердие, справедливость и целомудрие. Нарушение присяги воспринималось позором и грехом. Это легло основой понятия в эпоху Просвещения (XVII–XVIII вв.), когда происходит осмысление человека как автономной личности. Понятие достоинства обретает философскую глубину со вводом Иммануилом Кантом идеи о том, что человек обладает внутренним достоинством, потому что он – цель, а не средство.

В рассматриваемый период честь отходит от сословной привязки, появляется идея всеобщего человеческого достоинства, независимо от происхождения. Как отмечал Кант, «поступай так, чтобы ты всегда относился к человечеству как к цели, а не как к средству»[111]. Идеи философа оказали заметное влияние на литературную интерпретацию, так как каждый человек воспринимался как носитель достоинства по праву рождения, а не по положению в обществе. «Главную мысль этики Канта составляют автономия и достоинство. Прочитав вступительные абзацы третьего раздела «Основоположения...», Хилл высказал мнение, что Кант, должно быть, хотел сказать, что автономия – это 1) способность действовать разумно, 2) нормативное требование в отношении нашей задачи, позиции и обязательств как существ, которые считают себя разумными и действующими разумно, и 3) способность самоопределять объективное основание с помощью практического разума»[112]. Поняв глубину данной идеи, можно правильно интерпретировать герменевтический смысл «чести» и «достоинства» в литературе.

В XIX веке особое значение обретают так называемые «дуэльная честь» и «внутренние конфликты». В российской и европейской культуре XIX века честь снова связывается с обществом, но уже не как абсолютное требование, а как предмет внутреннего выбора. Так, в русской литературе (А.Пушкин, М.Лермонтов, Ф.Достоевский, Л.Толстой) герои мучаются внутренним конфликтом между честью светской и нравственной. Дуэли в качестве формы защиты чести часто осмысляются как трагизм бессмысленного насилия. М.Лермонтов в «Герое нашего времени» отмечает: «Есть сила – будет честь. Нет силы – прощай честь». Автор даёт понять происхождение переоценки «мужской» чести, которая порой становится фикцией или пустым жестом. Тогда как Н.В.Гоголь подчёркивает, что дворянство теряет аристократизм:

[111] Фасоро Санди Аденийи, Кант о человеческом достоинстве: автономия, человечность и права человека // Кантовский сборник. 2019. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kant-o-chelovecheskom-dostoinstve-avtonomiya-chelovechnost-i-prava-cheloveka (дата обращения: 07.12.2025).

[112] Hill T. E. J. Kantian Perspectives on the Rational Basis of Human Dignity // The Cambridge Handbook of Human Dignity: Interdisciplinary Perspectives / ed. by M. Duwell, J. Braarvig, R. Brownsword, D. Mieth. Cambridge : Cambridge University Press, 2014. P. 215—221.

«Есть офицеры, составляющие в Петербурге какой-то средний класс общества… В высшем классе они попадаются очень редко, или лучше сказать, никогда… Они достигают наконец до того, что женятся на купеческой дочери, умеющей играть на фортепиано, с сотнею тысяч или около того наличных и кучею бородатой родни»[113].

Понятия чести и достоинства в классической зарубежной литературе. Концепты чести и достоинства в классической зарубежной литературе отражают эволюцию европейской морали. Писатели разных эпох раскрывали эти категории в контексте исторических реалий. Однако, несмотря на различие эпох и жанров, ключевой мыслью остаётся неизменной, то есть достоинством считается внутренняя ценность человека, а честью называют способность действовать по совести, несмотря на внешнее давление.

У Мигеля де Сервантеса рыцарь Дон Кихот, в глазах окружающих является безумцем, но с точки зрения автора – это человек чести, живущий по высокому моральному кодексу. Он борется не за славу, а за идеалы добра, справедливости и защиты слабых. У Сервантеса честь показана не как общественная категория, а как внутренняя убеждённость героя в справедливости своих поступков.

В английской литературе Уильям Шекспир своим «Гамлетом» анализирует сложность позиции героев, сохраняя честь в мире сомнений и предательства. Если рассматривать историко-культурный контекст понятий чести и достоинства, убеждаемся в том, что они не являются универсальными в одном и том же значении на протяжении истории, а развиваются, переосмысливаются и зависят от эпохи, культуры, социального строя и религиозных взглядов. Литература в историко-культурном подходе позволяет увидеть, как эти категории трансформировались от античности до современности, и какую роль играли в формировании нравственного облика личности.

Гамлет Уильяма Шекспира один из самых ярких образов, воплощающих борьбу между долгом, честью и личным достоинством. Герой не совершает месть по шаблону, а рефлексирует, мучительно ищет моральное оправдание действиям. Классическое вопрошание «Быть или не быть – вот в чём вопрос» для Шекспира показывает, что честь не есть слепая месть, а нравственный выбор, часто сопряжённый с внутренними страданиями. А достоинство – это способность остаться верным себе, несмотря на давление извне.

У Виктора Гюго в «Отверженных» главный герой Жан Вальжан – бывший каторжник, ставший примером высшего человеческого достоинства, несмотря

[113] Гоголь Н.В. Собрание сочинений в 9-ти томах. М., 2014, с.491.

на презрение общества. Он до самого конца остаётся верен добру, прощению, любви и справедливости. Данную мысль обосновывает особенно показательный момент, когда Вальжан может остаться в безопасности, но отказывается от этого, чтобы спасти невинного. Гюго интерпретирует достоинство как способность делать добро, даже если ты презираем. Под честью писатель понимает готовность не предавать свою совесть ради спокойствия.

Чарльз Диккенс в «Холодном доме» и «Больших надеждах» тема человеческого достоинства проходит через образы бедных, угнетённых, но морально высоких людей. Например, Джо Гаргери из «Больших надежд» является кузнецом, человек простого труда, но с благородной душой. «Я, может, не учёный, но я человек, и я тебя прощаю», говорит герой. То есть истинное достоинство, по Диккенсу, не в происхождении, а в доброте, порядочности и умении прощать.

Понятие чести и достоинства в русской классической литературе. Классическую литературу невозможно представить вне контектса данных понятий. Так, в славянской традиции особое значение придается внутренней честности, совести и добропорядочности. В произведениях русских классиков честь рассматривается как неотъемлемое качество личности, связанное с достоинством и ответственностью перед обществом и самой совестью. Русские пословицы как «Честь лучше богатства» отражают этот подход. У А.С. Пушкина читаем: «Честь и слава – вот что надёжно», Ф.М. Достоевский в «Преступлении и наказании» показывает внутреннюю борьбу героя, связанную с совестью и личным достоинством. Л.Толстой обращается к теме чести в каждом из своих произведений: «После бала», «Воскресенье», «Анна Каренина», «Война и мир».

Произведение А.С.Пушкина «Капитанская дочка» является историко-приключенческим романом. Уже эпиграфом писатель указывает нам, что тематика романа будет связана непосредственно с честью, и в начале читаем пословицу «Береги честь смолоду». Автор оказывает, что настоящая честь заключается в верности долгу и правде, а не формальное следование нормам. По сюжету главный герой Пётр Гринёв, несмотря на страх и давление, отказывается присягать Пугачёву, утверждая: «Я присягал государыне императрице: тебе служить не могу»[114]. Эти слова ярко проявляют его честь в качестве нравственной стойкости. Кроме того, наставление отца Гринёва «Береги честь смолоду» становится лейтмотивом произведения и народной мудростью, подчёркивая важность сохранения достоинства с юных лет. Это

[114] Пушкин А. С. Капитанская дочка. https://ilibrary.ru/text/107/p.1/index.html

даёт нам право судить о том, что у Пушкина честь – это не только воинская доблесть, но и нравственный выбор, независимый от обстоятельств.

Лев Толстой в своём романе «Война и мир» противопоставляет внешнюю, показную честь внутреннему достоинству. Князь Андрей Болконский сначала ищет славы и признания, но после ранения осознаёт тщетность этого стремления. Под влиянием Наташи, сына и размышлений о жизни он меняется, как и Пьер Безухов. Этот герой пройдя путь от пустого светского существования до глубокого внутреннего прозрения, приходит к пониманию, что достоинство на самом деле – это жить в согласии с совестью, быть полезным и честным человеком. «Человеку дана жизнь, и с этим даром – обязанность быть человеком», отмечает Л.Толстой. То есть у Л.Толстого истинная честь и достоинство заключаются не в общественном мнении, а в глубокой человечности, духовной зрелости, сострадании.

Ещё один классик русской и мировой литературы М.Ю.Лермонтов в культовом романе «Герой нашего времени» показывает разрушение представлений о чести в светском обществе. Главный герой произведения Печорин является сложным, противоречивым персонажем. Он умен, смел, но поступает жестоко и эгоистично. Это показывает и дуэль с Грушницким. Случай стал попыткой защитить свою «честь», но сам герой осознаёт бессмысленность своего поступка: «Зачем я убил его? Потому что не мог простить ему того, что он меня не уважал». Лермонтов как автор осуждает дуэльный кодекс, показывая пустоту традиционного представления о чести, то есть у писателя честь показана как социальная иллюзия, не всегда совпадающая с нравственностью. «Как быть! кисейный рукав слабая защита, и электрическая искра пробежала из моей руки в ее руку; все почти страсти начинаются так, и мы часто себя очень обманываем, думая, что нас женщина любит за наши физические или нравственные достоинства; конечно, они приготовляют, располагают ее сердце к принятию священного огня, а все-таки первое прикосновение решает дело»[115], замечает автор.

Как показывает наш анализ, в русской классической литературе честь и достоинство выступают не просто как социальные нормы, а категории личной совести, инструмент морального самопознания. Писатели XIX века рассматривали их как критерий истинной человечности. В образах героев мы видим, что настоящая честь заключается в правде, а достоинство кроется в верности внутренним принципам, даже если они противоречат внешним ожиданиям общества. Ниже мы приводим сравнение концептов чести и достоинства в русской и зарубежной литературе.

[115] Лермонтов М. Ю. Герой нашего времени. https://ilibrary.ru/text/12/p.1/index.html

Таблица. Сравнение концептов чести и достоинства в зарубежной и русской литературе

Автор / Страна	Произведение	Герой/Героиня	Проявление чести и достоинства	Смысл, идея
А.С. Пушкин (Россия)	*Капитанская дочка*	Пётр Гринёв	Отказ присягать Пугачёву, верность присяге	Честь – это верность долгу и совести, несмотря на угрозу жизни
Л.Н. Толстой (Россия)	*Война и мир*	Андрей Болконский, Пьер Безухов	Поиск смысла жизни, нравственное пробуждение	Истинная честь – в духовной зрелости и человечности
Ф.М. Достоевский (Россия)	*Преступление и наказание*	Раскольников, Соня	Раскаяние, смирение, жертвенность	Достоинство – в нравственном выборе и внутреннем очищении
М.Ю. Лермонтов (Россия)	*Герой нашего времени*	Печорин	Дуэль с Грушницким, внутренний конфликт	Честь светская – иллюзорна; истинная – в честности перед собой
Харпер Ли (США)	*Убить пересмешника*	Аттикус Финч	Защита несправедливо обвинённого чернокожего	Честь – идти против толпы ради справедливости и правды
Н. Хоторн (США)	*Алая буква*	Хестер Принн	Достойно несёт осуждение, помогает другим	Настоящее достоинство – в верности себе, а не в общественном одобрении
М. Твен (США)	*Гекльберри Финн*	Гек Финн	Помогает беглому рабу, нарушая	Честь – это поступать по совести, даже

			социальные «нормы»	если это «неправильно» в глазах общества
М. де Сервантес (Испания)	*Дон Кихот*	Дон Кихот	Борьба за идеалы добра и справедливости, несмотря на насмешки	Честь – жить по своим убеждениям, даже если весь мир считает тебя безумцем
В. Гюго (Франция)	*Отверженные*	Жан Вальжан	Жертвенность, прощение, честность перед законом и совестью	Достоинство – способность преодолеть презрение и выбрать добро
У. Шекспир (Англия)	*Гамлет*	Гамлет	Моральные сомнения, борьба с долгом и честью	Честь – не автоматическая месть, а трагический нравственный выбор

Заключение. Понятия чести и достоинства прошли долгий исторический путь, трасформируясь вместе с развитием общества, культуры и философии. В век глобализма честь и достоинство интерпретируются сквозь призму прав человека, гендерной и социальной идентичности, равенства и свободы самовыражения. Достоинство рассматривается право быть собой, не подвергаться унижению, дискриминации, насилию, а честь как способность отстаивать истину и свободу, даже если это идёт вразрез с общественным мнением. Этим возникает новый гуманистический смысл, который заключается в том, что все люди имеют равное достоинство от рождения, и оно не может быть отнято ни властью, ни обществом. Но всё же исследователи, в частности, Кристофер Маккруден, считают, что кантовское видение продолжает оказывать влияние на данные понятия: «концепция достоинства, наиболее тесно связанная с Кантом, – это идея достоинства как автономии; т. е. идея, согласно которой обращаться с людьми достойно

значит обращаться с ними как с автономными людьми, способными выбирать свою судьбу»[116].

Это ещё раз показывает, что понятия чести и достоинства прошли долгий путь, начиная воинской славой и репутации в античности, через рыцарскую верность и христианскую мораль, к философии личной автономии и прав человека. В современном мире эти категории сохраняют значение, но теперь как индивидуальные, этические ориентиры. Теперь честь – это искренность, верность себе, а достоинство является правом быть уважаемым независимо от статуса, пола, происхождения или взглядов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Фасоро С., Аденийи С. Кант о человеческом достоинстве: автономия, человечность и права человека // Кантовский сборник. 2019. № 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kant-o-chelovecheskom-dostoinstve-avtonomiya-chelovechnost-i-prava-cheloveka (дата обращения: 07.12.2025).

2. McCrudden C. Human Dignity and Judicial Interpretation of Human Rights // The European Journal of International Law. 2008. Vol. 19, № 4. P. 655–724.

3. Hill T. E. J. Kantian Perspectives on the Rational Basis of Human Dignity // The Cambridge Handbook of Human Dignity: Interdisciplinary Perspectives / ed. by M. Duwell, J. Braarvig, R. Brownsword, D. Mieth. Cambridge : Cambridge University Press, 2014. P. 215–221.

4. Сервантес М. де. Дон Кихот. – М., 2005.

5. Шекспир У. Гамлет / пер. с англ. – М., 2008.

6. Гюго В. Отверженные / пер. с франц. – М., 2011.

7. Диккенс Ч. Холодный дом. Большие надежды / пер. с англ. – М., 2010.

8. Гёте И. В. Фауст / пер. с нем. – М., 2012.

9. Пушкин А. С. Капитанская дочка. – СПб.: Изд-во «Библио-Глобус», 2010. URL: https://ilibrary.ru/text/107/p.1/index.html

MIRATIVLIK HODISASINING GRAMMATIK VOSITALAR YORDAMIDA IFODALANISHI

ALIYEVA ZEBO AKRAM QIZI
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
Aliyevazebo08@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda mirativlik hodisasining grammatik vositalar yordamida ifoda etilish usullari tahlil qilinadi. Mirativlik tilshunoslikda

[116] McCrudden C. Human Dignity and Judicial Interpretation of Human Rights // The European Journal of International Law. 2008. Vol. 19, №4. P. 655–724.

so‘zlovchining kutilmagan voqea yoki hodisaga nisbatan munosabati, hayrat, taajjub yoki yangi axborotni idrok etish jarayonini aks ettiruvchi semantik-pragmatik kategoriya sifatida izohlanadi. Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillarida mirativ ma’noni ifodalovchi grammatik vositalar, jumladan, inversiya, modal shakllar, zamon kategoriyasi, yuklamalar va sintaktik qurilmalar misollar asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Modal shakllar, inversiya, hayrat, perfekt zamon, grammatik vositalar, yangi ma’lumot.

Abstarct. This study analyzes the ways in which the phenomenon of mirativity is expressed through grammatical means. In linguistics, mirativity is interpreted as a semantic-pragmatic category that reflects the speaker’s reaction to an unexpected event or situation, including surprise, astonishment, or the perception of new information. The research examines grammatical devices expressing mirative meaning in English and Uzbek, including inversion, modal forms, tense categories, particles, and syntactic constructions, through illustrative examples.

Key words: Modal forms, inversion, surprise, perfect tense, grammatical means, new information.

Til inson tafakkuri va hissiy munosabatlarini ifoda etuvchi eng muhim vositadir. Nutq davomida so‘zlovchi nafaqat ma’lumotni uzatadi, balki unga bo‘lgan o‘z munosabatini ham namoyon qiladi. Bunday subyektiv munosabatlardan biri mirativlik hisoblanadi. Mirativlik kutilmagan, g‘ayrioddiy yoki ilgari noma’lum bo‘lgan axborotning idrok etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, nutqda hayrat, taajjub yoki ajablanish ma’nolarini yuzaga keltiradi.

Tilshunoslikda mirativlik hodisasi dastlab evidensiallik bilan bog‘liq holda tadqiq qilingan bo‘lsa-da, keyinchalik u alohida semantik-pragmatik kategoriya sifatida izohlanadigan bo‘ldi[117]. Mirativ ma’no turli tillarda leksik, fonetik va grammatik usullar yordamida ifodalanadi. Xususan, grammatik vositalar mirativlikni tizimli va strukturaviy jihatdan namoyon etishda muhim rol o‘ynaydi.

Mirativlik tilning muhim semantik-pragmatik kategoriyalaridan biri bo‘lib, so‘zlovchining kutilmagan voqea-hodisalarga nisbatan hissiy munosabatini ifoda etadi[118]. Ushbu hodisa grammatik vositalar yordamida samarali tarzda namoyon bo‘ladi. Inversiya, modal birliklar, zamon shakllari va emotsional so‘roq gaplar mirativ ma’noni shakllantiruvchi asosiy grammatik vositalar hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida mirativlikning grammatik ifodalanishi o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, har bir til o‘ziga xos sintaktik va morfologik imkoniyatlarga ega. Mirativlikni grammatik jihatdan tadqiq qilish tilning ekspressiv imkoniyatlari, nutqning pragmatik xususiyatlari va kommunikativ ta’sir mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

[117] Aikhenvald, Alexandra Y. Evidentiality. - Oxford: Oxford University Press, 2004. – P. 196.
[118] Gilbert Lazard. On the grammaticalization of evidentiality // Journal of Pragmatics., 2001. – P. 359–367.

Mirativ grammatik vositalar faqatgina ma’lumotni uzatish bilan cheklanmay, balki kommunikativ ta’sirchanlikni ham kuchaytiradi. So‘zlovchi mirativ konstruksiyalar orqali tinglovchi e'tiborini muhim jihatga jalb etadi. Shu tariqa nutq hissiy va ifodali tusga ega bo‘ladi.

Mirativlik, ayniqsa, badiiy matnlar, dialogik nutq va publitsistik uslubda keng qo‘llaniladi. Ushbu hodisa qahramonning ichki kechinmalarini ochib berishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Mirativlik grammatik vositalar bilan ifoda etilganda, so‘zlovchining hissiy munosabati sintaktik yoki morfologik shakllar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday vositalar nutqning ta’sirchanligini oshiradi va tinglovchiga ma’lumotning kutilmaganligini bildiradi.

Inversiya gapda so‘zlarning odatdagi tartibining o‘zgarishi bo‘lib, mirativ ma’noni kuchaytirishda eng samarali sintaktik usullardan biri sanaladi. Ingliz tilida inversiya orqali hayrat va taajjub ma’nosi yanada kuchli tarzda ifoda etiladi. Masalan: *Qanday qilib bo‘ldi bu?!* Inversiya orqali mirativlik axborotni kutilmagan sifatida belgilash, nutqiy ta’sirchanlikni oshirish, tinglovchi diqqatini muhim elementga qaratish, emotsional reaksiya (hayrat, ishonchsizlik, ajablanish)ni ifodalash kabi pragmatik vazifalarni bajaradi.

Ba’zi holatlarda fe'l zamonlari mirativ ma’noni shakllantirishda ham ishtirok etadi. Xususan, kutilmagan natijani aks ettiruvchi perfekt shakllari yoki aniqlikni oshiruvchi zamon vositalari mirativlikni namoyon qiladi. Masalan: *Zafar allaqachon kelib bo‘lgan ekan!* So‘zlovchi Zafarning allaqachon kelganini endi bilib, bunga hayrat yoki kutilmaganlik bilan munosabat bildirgan.

Shuningdek, *-ku,-a,-ya* yuklamalari ham gap tarkibida hayrat, taajjub yoki kutilmaganlikni kuchaytiradi. Masalan: Voy, bolaginam kelibdi-ku! Mazkur namunada *Voy* undov so‘zi va *-ku* yuklamasi tinglovchiga ma’lumotning odatiy emasligi yoki so‘zlovchi uchun yangi ekanini bildiradi. Shuningdek, mazkur grammatik vositalar nutqning ta’sirchanligini oshirib, hissiy-ekspressiv ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, mirativlik hodisasi o‘zbek tilida turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Ayniqsa fe’l shakllari, yuklamalar, modal birliklar, intonatsiya hamda undov va so‘roq gaplar nutq egasining hayrat, kutilmaganlik va yangi anglash kabi munosabatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mirativlik tilning mazmuniy va pragmatik imkoniyatlarini boyituvchi muhim hodisalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aikhenvald, Alexandra Y. Evidentiality. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P. 196.

2. Gilbert Lazard. On the grammaticalization of evidentiality // Journal of Pragmatics., 2001. – P. 359-367.

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОЙ И ШКОЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ УСТОЙЧИВОЙ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ: СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ПОДХОДЫ

БАБАМИРЗАЕВА НОЗИМА АЗАМАТОВНА

Магистрант НамГПИ

Аннотация. В эпоху цифровых потоков и фрагментированного внимания формирование устойчивой культуры чтения становится одним из ключевых вызовов современного общества. Статья посвящена исследованию влияния двух фундаментальных институтов социализации-семьи и школы-на становление глубокого, осознанного и долговременного отношения к книге. Через призму социально-культурных подходов автор анализирует, как ценностные ориентиры семьи, эмоциональный климат домашнего чтения, родительские практики и модели поведения переплетаются с педагогической культурой школы, атмосферой классной библиотеки, ролью учителя-словесника и системой внеклассной работы. Особое внимание уделяется механизмам трансляции читательских традиций, формированию читательской идентичности и созданию «культурного капитала» личности в условиях меняющегося медиаландшафта. В работе раскрываются синергетические и компенсаторные эффекты семейной и школьной среды, выявляются критические точки разрыва читательской преемственности, а также предлагаются перспективные модели интеграции усилий семьи и образовательного учреждения для культивирования не просто навыка чтения, но настоящей читательской культуры как неотъемлемой части духовного и интеллектуального развития человека XXI века.

Ключевые слова: культура чтения, семейная социализация, школьная среда, социально-культурный подход, читательская идентичность, культурный капитал, литературное воспитание.

Annotatsiya. Raqamli oqimlar va parchalangan e’tibor davrida barqaror o‘qish madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqola sotsializatsiyaning ikkita asosiy instituti-oila va maktabning kitobga chuqur, ongli va uzoq muddatli munosabatni shakllantirishga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif ijtimoiy-madaniy yondashuvlar prizmasi orqali oilaning qadriyatli yo‘nalishlari, uy sharoitida o‘qishning hissiy muhiti, ota-onalarning amaliyoti va xulq-atvor modellari maktabning pedagogik madaniyati, sinf kutubxonasi muhiti, adabiyot o‘qituvchisining roli va sinfdan tashqari ishlar tizimi bilan qanday bog‘liqligini tahlil qiladi. O‘zgaruvchan media landshaft sharoitida kitobxonlik an’analarini translyatsiya qilish mexanizmlariga, kitobxonlik o‘ziga xosligini shakllantirishga va shaxsning “madaniy kapitali”ni

yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Asarda oila va maktab muhitining sinergetik va kompensatsion ta’siri ochib berilgan, o‘quvchilarning uzluksizligini buzishning muhim nuqtalari aniqlangan, shuningdek, oila va ta’lim muassasasining say-harakatlarini nafaqat o‘qish mahoratini, balki XXI asr insonining ma’naviy va intellektual rivojlanishining ajralmas qismi sifatida haqiqiy o‘qish madaniyatini rivojlantirish uchun integratsiyalashning istiqbolli modellari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish madaniyati, oilaviy ijtimoiylashuv, maktab muhiti, ijtimoiy-madaniy yondashuv, kitobxonlik o‘ziga xosligi, madaniy kapital, adabiy tarbiya.

Natijada o‘qituvchi nafaqat dars o‘tishni o‘rganadi, balki o‘z pedagogik faoliyatini ma’lumotlarga asoslangan tarzda boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Adaptiv mikroo‘qitish jarayonida nutq, tana tili va metodik struktura tahlili pedagogik faoliyatni kompleks baholashning o‘zaro bog‘liq uch yo‘nalishini tashkil etadi. Ushbu uch komponent o‘qituvchining professional kompetensiyasini nafaqat mazmuniy, balki kommunikativ va psixologik jihatdan ham yoritib beradi. Sun’iy intellekt asosidagi analitika aynan shu integrallikni ta’minlash orqali mikro-darsni chuqur va tizimli o‘rganish imkonini yaratadi.

Nutq tahlili o‘qituvchining pedagogik ta’sir kuchini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Bu jarayonda faqat grammatik to‘g‘rilik yoki talaffuz aniqligi emas, balki nutqning temp-ritmi, intonatsion boyligi, pauzalar mantiqi, savol va izohlarning nisbatlari, terminlardan foydalanish darajasi ham baholanadi. Sun’iy intellekt algoritmlari audioyozuvni segmentlarga ajratib, nutq tezligini, takrorlanayotgan so‘zlarni, ortiqcha to‘ldiruvchi birliklarni (“demak”, “ya’ni”, “xullas” kabi) aniqlaydi. Shu asosda nutq ravonligi koeffitsienti, mantiqiy izchillik indeksi va interaktivlik ko‘rsatkichi shakllantiriladi. Bunday tahlil o‘qituvchiga o‘z nutqidagi sun’iylik yoki monotonlikni anglash va uni ongli ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarov B. Pedagogik madaniyat va uning kasbiy ahamiyati. T., 2018.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik madaniyat va pedagogik texnologiyalar. T., 2019.
3. Shulman L. Pedagogical Content Knowledge. The Teachers College Record, 1986.
4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. New York: Teachers College Press, 2007.
5. Slastenin V.A. Pedagogik madaniyat va shaxsning kasbiy-axloqiy pozitsiyasi. M., 2005.
6. Isaev I.F. Professional madaniyat va pedagogning ijodiy faoliyati. T., 2017.
7. Dewey J. How We Think. Boston: D.C. Heath & Co., 1910.
8. Duolingo platformasi rasmiy veb-sayti. https://www.duolingo.com
9. Grammarly platformasi rasmiy veb-sayti. https://www.grammarly.com
10. Coursera platformasi rasmiy veb-sayti. https://www.coursera.org

HAMID OLIMJON SHE’RIYATIDAGI MAQOL VA HIKMATLI SO‘ZLARNING SEMANTIK-USLUBIY TAHLILI HAMDA IJODKORNING QOFIYA QO‘LLASH MAHORATI

TURG‘UNPO‘LATOVA MADINA A’ZAMJON QIZI
Namangan davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, lirik shoir Hamid Olimjon she’riyatining lirik-falsafiy tabiati hamda uning o‘ziga xos badiiy mahorati tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi bugungi globallashuv davrida milliy adabiy merosni, xususan, xalq og‘zaki ijodi an’analarining yozma adabiyot bilan sintezini chuqur o‘rganish hamda ijodkorning lisoniy va shakliy mahoratini yangicha mezonlar asosida baholash zarurati bilan belgilanadi. Maqolada shoir asarlarida xalq maqollari, matallari va hikmatli so‘zlarning qo‘llanilishi, ularning kontekstdagi semantik-uslubiy jozibasi hamda shoir dunyoqarashini ifodalashdagi o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Hamid Olimjon xalq ijodi xazinasidan shunchaki nusxa ko‘chirmasdan, ularni o‘z she’rlarining g‘oyaviy poydevoriga aylantira olgani, xalqona donishmandlik vositasida lirik qahramon ruhiyatini teranlashtirgani ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada shoir she’riyatining jozibadorligi, o‘ziga xos musiqiyligi va ichki ohangdorligini ta’minlovchi eng muhim tarkibiy qism – qofiya qo‘llash mahorati, qofiya tizimi noto‘liq hamda an’anaviy va zamonaviy badiiy san’atlardan foydalanish xususiyatlari aniq poetik misollar, matniy tahlillar yordamida har tomonlama yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Hamid Olimjon, folklorizmlar, semantik-uslubiy tahlil, milliy mentalitet, xalq maqollari, aforizm, poetik mahorat, qofiya tizimi, ohangdorlik, radif, lirik poydevor.

Аннотация. В данной статье исследуются лирико-философская природа и художественное мастерство выдающегося узбекского поэта XX века Хамида Алимджана. Актуальность исследования обусловлена необходимостью глубокого изучения национального литературного наследия, в частности, синтеза традиций устного народного творчества с письменной литературой в эпоху глобализации, а также оценки языкового и формотворческого мастерства творца на основе новых методологических критериев. В работе проведен подробный семантико-стилистический анализ использования народных пословиц, поговорок и изречений в поэзии автора. Демонстрируется, что Хамид Алимджан не просто заимствовал фольклорные элементы, а превращал их в идейную основу своих стихотворений, углубляя

психологизм лирического героя через народную мудрость. Также на конкретных поэтических примерах и текстологическом анализе всесторонне освещается рифменное мастерство поэта, система рифмы и особенности использования художественных приемов как ключевых факторов, обеспечивающих музыкальность, внутреннюю гармонию и оригинальную мелодичность стихов Хамида Алимджана.

Ключевые слова: Хамид Алимджан, фольклоризмы, семантико-стилистический анализ, национальный менталитет, народные пословицы, афоризм, поэтическое мастерство, система рифмы, музыкальность стиха, радиф, лирическая основа.

Abstract. This article explores the lyrical-philosophical nature and unique artistic skill of the prominent 20th-century Uzbek poet, Hamid Olimjon. The relevance of the study is driven by the need to deeply examine national literary heritage, particularly the synthesis of folklore traditions with written literature in the era of globalization, and to re-evaluate the creator's linguistic and formal mastery based on modern methodological criteria. The paper provides a comprehensive semantic and stylistic analysis of folk proverbs, sayings, and wise expressions within the context of his poetry. It demonstrates that Hamid Olimjon did not merely copy folklore elements but transformed them into the conceptual foundation of his poems, enriching the inner psyche of the lyrical hero through vernacular wisdom. Furthermore, through specific poetic examples and textual analysis, the article thoroughly highlights the poet's rhyming mastery, the structural rhyme system and the specific application of artistic devices, which serve as essential components ensuring the musicality, internal harmony, and melodic resonance of Hamid Olimjon's verse.

Keywords: Hamid Olimjon, folklorisms, semantic-stylistic analysis, national mentality, folk proverbs, aphorism, poetic mastery, rhyme system, verse musicality, radif, lyrical foundation.

Kirish. Yigirmanchi asr o‘zbek adabiyoti tarixida Hamid Olimjon o‘zining betakror lirikasi, jo‘shqin pafosi va tilining musiqiyligi bilan alohida maktab yaratgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shoir ijodi o‘zbek she’riyatining an’anaviy lirik tafakkuridan modern poetik tizimga o‘tish davrida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tadi. Uning she’rlarida milliy ruh, xalq donishmandligi va lirik qahramonning ruhiy evrilishlari garchand davr mafkurasi tazyiqlari mavjud bo‘lsa-da, har doim lisoniy go‘zallik va badiiy mukammallik orqali birinchi planga chiqdi.

Hamid Olimjon she’riyatining o‘ziga xos xususiyati – undagi “kuychanlik” va ohang mukammalligidir. Adabiyotshunos olim Naim Karimov ta’kidlaganidek, shoir she’riyatida so‘zlar shunchaki ma’no tashuvchi birliklar emas, balki musiqiy

ohang hosil qiluvchi elementlardir.[124] Uning lirikasi tabiat go‘zalligi, insoniy tuyg‘ular va falsafiy mushohadaning sintezidan iborat bo‘lib, bu xususiyat “O‘zbekiston”, “Muqanna” kabi she’riy va dramatik asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir she’riyatidagi tasvirlar tasodifiy bezaklardan xoli bo‘lib, milliy dunyoqarashning, o‘zbek tabiati va ruhiyatining lisoniy in’ikosi o‘laroq shakllangan.

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo integratsiya kuchaygan davrda milliy adabiy merosning lisoniy va shakliy asoslarini, xususan, klassik va zamonaviy she’riyatda xalq og‘zaki ijodi elementlarining transformatsiyasini o‘rganish giddiy ilmiy dolzarblik kasb etmoqda. Hamid Olimjon ijodi folklor an’analariga chuqur ildiz otganligi bilan ajralib turadi. Shoir xalq maqollari, matallari va donishmandona aforizmlarini o‘z she’riy matniga shunchaki “ko‘chirib o‘tkazmadi”, balki ularni lirik kontekst talablariga moslab, yangi semantik va uslubiy qirralarini ochib berdi.

Asosiy qism. Hamid Olimjon o‘zbek she’riyatining texnik imkoniyatlarini, qofiya qo‘llash san’atini yuqori bosqichga ko‘tardi. U o‘z asarlarida o‘zbek tili fonetik tizimining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda tashqi va ichki qofiyalar, to‘liq va noto‘liq qofiyadoshliklar hamda radif san’atining go‘zal namunalarini yaratdi.

Biroq, adabiyotshunoslikda shoir ijodidagi maqol va hikmatli so‘zlarning nafaqat g‘oyaviy, balki semantik-uslubiy funksiyalari, ularning qofiya tizimidagi o‘rni bilan bog‘liqligi hanuzgacha yaxlit lisoniy-poetik planda yetarli darajada tizimli tahlilga tortilmagan. Ushbu nomutanosiblikni bartaraf etish, Hamid Olimjonning lisoniy mahoratini va shakliy yangiliklarini sintaktik va fonetik sathi doirasida yoritish mazkur tadqiqot ishining bosh maqsadini va dolzarbligini belgilaydi.

Badiiy matnda xalq og‘zaki ijodi unsurlari, xususan, paremiyalar ya’ni maqol va matallar hamda aforizmlarning qo‘llanilishi ijodkor dunyoqarashining xalq tafakkuri bilan naqadar uzviy ekanligini ko‘rsatuvchi birlamchi lisoniy omildir. Hamid Olimjon she’riyatining semantik maydoni tahlil qilinganda, xalq donishmandligi namunalari shunchaki bezak yoki ritorik vosita emas, balki she’riy matnning kompozitsion va g‘oyaviy poydevorini belgilovchi semantik yadro vazifasini o‘tashi ma’lum bo‘ladi.

Shoir she’riyatida maqollarning semantik transformatsiyasi, ayniqsa, vatanparvarlik, mehnat, sadoqat va insoniy qadr-qimmat mavzularida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hamid Olimjon xalq paremiyalarining semantik qatlamlaridagi tayanch

[124] Karimov N. Hamid Olimjon: Hayoti va ijodi haqida ocherk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 74.

tushunchalarni olib, ularni o‘zining individual poetik tafakkuri elagidan o‘tkazadi[125]. Buning yorqin misolini shoirning mashhur “O‘zbekiston” she’rida ko‘rishimiz mumkin:

Soqoliga oq tushgan
Dehqon ota minbarda:
Chopgan,
Hovliqqan,
Shoshgan…
So‘zlar bir zum
Bir parda:
–”Biz, siz bilan birgamiz.
Mushtumzo‘rlar yo‘q bo‘lsin.
Biz ko‘plashib kelamiz,
Bu ularga o‘q bo‘lsin”

Bu satrda insonlarning bir maqsad yo‘lida jipslashishi, yelkadosh bo‘lishi ifodalangan. Xalqimizda birdamlikning kuchini ifodalovchi “Bir yoqadan bosh chiqarmoq”, “Birlashgan o‘zar birlashmagan to‘zar” kabi mqollar bu misralarga singdirilgan. Hamid Olimjon dehqon otaning tili bilan xalqning aynan shu “bir yoqadan bosh chiqarib” harakat qilishga shayligini uslubiy jihatdan juda sodda va ta’sirchan ifodalagan.

Hamid Olimjon she’riyatida, shuningdek, xalq og‘zaki ijodidagi lirik janrlar, xususan, qo‘shiq va dostonlar tilidagi tayanch hikmatlarning semantik ko‘chishi ham kuzatiladi. Shoirning guvohlik berishicha, inson tabiati va sadoqati bilan bog‘liq konsepsiyalar uning lirik qahramoni falsafasini belgilaydi. “Eng gullagan yoshlik chog‘imda” she’ridagi mana bu satrlarga e’tibor qarataylik:

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.
Qushlar sayrar jonimga payvast,
Men sevgining bo‘yi bilan mast.

Shoirning dramatik dostonlarida, xususan, “Muqanna” dramasida maqol va matallarning kontekstual-semantik yuklamasi yanada murakkablashadi:

Yov qo‘liga tushguncha mardlar,
Tuproq o‘pib, o‘lgani yaxshi!

[125] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 24.

Nomus bilan, shon bilan yashab,
Elda yodda qolgani yaxshi!

Ushbu poetik parcha xalqimizdagi “Egilgan boshni qilich kesmas” parodoksiga qarshi o‘laroq, “Nomussiz yashagandan, nomus bilan o‘lgan afzal” yoki “Mard yigit el uchun o‘lar” kabi xalqona mardlik kodeksining to‘g‘ridan-to‘g‘ri poetik aforizmga aylantirilgan shaklidir. Hamid Olimjon bu o‘rinda maqolning tayyor strukturasidan qochib, uning semantik yadrosini (“mardlik”, “nomus”, “el yodi”) saqlab qolgan holda, yangi, dinamik ritorik jozibaga ega bo‘lgan individual-mualliflik aforizmini shakllantirgan.

Badiiy matnda, xususan, she’riyatda lisoniy birliklarning uslubiy yuklamasi lirik qahramon ruhiyatini, uning his-tuyg‘ulari dinamikasini ochib berishga xizmat qiladi. Hamid Olimjon lirikasi o‘zining emotsional jo‘shqinligi bilan ajralib turadi va bu jo‘shqinlikni ta’minlovchi yetakchi stilistik vositalardan biri folklorizmlar ya’ni maqol, matal va frazeologizmlar hisoblanadi.[126] Shoir an’anaviy xalq iboralarining tayyor poetik qoliplaridan ekspressiv – hissiy-ta’sirchan bo‘yoqdorlikni oshirish maqsadida unumli foydalanadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari shoir she’riyatiga shunchaki lisoniy material sifatida kiritilmaydi, balki subyektiv kechinmalarning obyektiv reallik bilan to‘qnashish nuqtasida lirik qahramon hissiyotlarini vizuallashtiradi.[127] Ayniqsa, vatanparvarlik va ijtimoiy-falsafiy lirikada paremik birliklar qahramonning ruhiy ko‘tarinkiligi, g‘ururi yoki optimizmini maksimallashtirishga yordam beradi. Hamid Olimjon individual uslubining yetakchi mezoni – xalqona til va poetik sintez munosabatidir. Shoir uslubidagi soddalik sun’iylikdan xoli bo‘lib, u jonli xalq tilining sintaktik va leksik imkoniyatlarini mukammal egallaganligi natijasidir. Muallif murakkab, tushunarsiz metaforalarni emas, balki xalq ongiga yaqin bo‘lgan tushunchalarni olib, ularni poetik sintezga uchratadi. Buning natijasida matnda ham xalqona soddalik, ham yuqori estetik jozibadorlik saqlanib qoladi.

She’riy matnning estetik ta’sirchanligini ta’minlovchi va uning tuzilishini belgilovchi bosh omillardan biri qofiyadir. Qofiya nafaqat ohangdoshlikni yuzaga keltiradi, balki she’rning ritmik-intonatsion yaxlitligini ham turg‘unlashtiradi. Hamid Olimjon o‘zbek she’riyatida qofiya tizimining imkoniyatlarini maksimal darajada kengaytirgan va unga poetik akustika (tovushlar jozibasi) nuqtai nazaridan yondashgan ijodkordir[128]. Shoir she’riyatida to‘liq (boy) qofiyalar yetakchilik qiladi. To‘liq qofiyada so‘z oxiridagi undosh va unli tovushlar bir-biriga mukammal

[126] Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 115
[127] Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 126.
[128] Hojiahmedov A. She’riyat san’atlari va qofiya sirlari. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 45.

darajada mos keladi, bu esa she’rga favqulodda dinamika va musiqa baxsh etadi. Shuningdek, u an’anaviy barmoq vazni tizimini jonli xalq tili ohangiga moslashtirish uchun noto‘liq qofiyalar (assonans va alliteratsiyaga asoslangan ohangdoshlik)dan ham o‘rinli foydalanadi. Ushbu asosda Hamid Olimjonning “Sog‘inganda” she’rini atroflicha tahlilga tortamiz.

Kabutardek yurak urinar,
Necha kundir sensiz yashadi.
Mana ko‘rkim, endi har nafas
Vujudimda o‘t tutashadi.

She’r barmoq vaznining to‘rtlik va masnaviy shakllari sinteziga asoslangan. Dastlabki ikki bandda shoir an’anaviy lirik she’rlarga xos bo‘lgan *a-b-c-b* yoki *a-b-a-b* tizimiga yaqin ohangdoshlikni qo‘llaydi: birinchi to‘rtlikda *yashadi (b) / tutashadi (b) –* bu yerda grammatik va to‘liq qofiya uyg‘unligi mavjud. *-shadi* harakat fe’lining ko‘plik ko‘rsatkichlari grammatik radif vazifasini bajarsa, ulardan oldingi *yasha-* va *tuta-* asoslaridagi unli tovushlar ohangdoshlikni ta’minlamoqda. ikkinchi to‘rtlikda *alvido (b) / fido (b) –* bu mutloq va to‘liq qofiya (boy qofiya) hisoblanadi. Har ikki so‘z ham arabiy o‘zlashma bo‘lib, misra oxirida cho‘ziq va jarangdor *-o* unlisining portlashi lirik qahramonning sog‘inchdan chekayotgan faryodi va ruhiy iztirobini musiqiy ohang bilan muhrlaydi.

Epifora va ichki assonans mahorati. Uchinchi va to‘rtinchi bandlarga o‘tilganda, she’riy ritm sezilarli darajada o‘zgaradi va qofiya tizimi yanada murakkablashadi. Ayniqsa, uchinchi to‘rtlik va to‘rtinchi bandning boshi o‘zaro ulanib, urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushadigan o‘zakdosh so‘zlar qofiya zanjirini hosil qiladi:

*...Ayriliqda axtarib **visol**, (a)*
*...Kezar ekan parishon va **lol** (a)*
*...Chulg‘ab olar bir go‘zal **xayol**, (a)*

Visol / lol / xayol qofiyadoshligi o‘zbek she’riyatida juda an’anaviy bo‘lsa-da, Hamid Olimjon bu yerda lirik qahramonning tushkun, o‘ychan holatini ifodalash uchun til oldi yon undoshi (-l) va ochiq-cho‘ziq unli (-o‘, -a) tovushlarining cho‘ziluvchanligidan foydalangan. Ushbu tovushlar zanjiri she’rni o‘qiyotganda ohangning birdan uzilib ketmasdan, xuddi tor chalingandek uzoq aks-sado berib turishini ya’ni akustik effektni ta’minlaydi.

Masnaviy qofiyalanish va tovushlar oqimi – alliteratsiya
Parchaning so‘nggi to‘rt misrasi (kulminatsiya qismi) mutloq yangi ohangga – klassik masnaviy uslubidagi juft qofiyalanishga (a-a-b-b) o‘tadi. Bu o‘tish sog‘inch tuyg‘usining eng yuqori nuqtaga chiqganini, lirik kechinmaning hayajonli pafosini ko‘rsatadi:

O‘sha jilva va o‘sha otash,
O‘sha ko‘zki, suzgun, ***xayolkash*** *(a)*
O‘sha imo, o‘sha ***ishora*** *(b)*
Etaboshlar yurakni ***pora****. (b)*

Xayolkash\otash – bu yerda til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz “sh” undoshining takrorlanishi – alliteratsiya ko‘zga tashlanadi. *Otash* (olov) so‘zidagi shiddat va *xayolkash* so‘zidagi sokinlik “sh” tovushi orqali o‘zaro uyg‘unlashib, lirik qahramon ichidagi “yashirin yonayotgan olov” simvolini fonetik sathda ham tasdiqlaydi.

Ishora\pora – bu ham go‘zal va to‘liq qofiya namunasi. Misralar oxiridagi qisqa va ochiq -*a* unlisi pafosning keskin, ammo dardli yakunlanishiga xizmat qiladi. “pora” so‘zi orqali yurakning parchalanishi ritmik jihatdan ham tez va qat’iy ohangda yakunlanadi.

Xulosa. Hamid Olimjon poetik merosining lisoniy olami va strukturaviy-shakliy tabiati tahlil qilinishi shoir ijodida milliy ruh hamda badiiy mahorat mukammal sintez qilinganini ko‘rsatadi. Shoir o‘zbek xalq og‘zaki ijodi durdonalari, xususan, paremiyalarni matnga shunchaki ko‘chirmasdan, ularni o‘z individual-mualliflik konsepsiyasiga moslab, konseptual va uslubiy-stilistik evrilishlarga uchratgan. Uning she’rlarida xalq maqollari va donishmandona aforizmlar passiv holatdan chiqib, matn mazmunini harakatlantiruvchi hamda lirik qahramon ruhiyatini teranlashtiruvchi dinamik g‘oyaviy yadro vazifasini o‘tagan. Ayniqsa, shoir uslubidagi xalqona soddalik va jo‘shqin pafos lirik kechinmalar silsilasini maksimal darajada ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu g‘oyaviy mazmun ijodkorning yuksak qofiya va vazn ustidagi mahorati, xususan, to‘liq qofiyalar hamda poetik alliteratsiya san’ati orqali kuchli akustik mukammallikka erishgan. Shoir qo‘llagan parallel va juft qofiyalanish tizimlari she’rning ichki emotsional ritmini tartibga solib, lirik asarlarning musiqiyligi va ohangdorligini ta’minlovchi bosh omil bo‘lib xizmat qilgan. Umuman olganda, Hamid Olimjon she’riyatida folklor an’analari va yuksak qofiya tizimi organik ravishda birlashib, shoir uslubiga yillar osha o‘z qiymatini yo‘qotmaydigan o‘ziga xos estetik jozibadorlik baxsh etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar (She’rlar, dostonlar, dramalar). – Toshkent: Sharq, 2018. – 416 b.

2. Karimov N. Hamid Olimjon: Hayoti va ijodi haqida ocherk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 180 b.

3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 124 b.

4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. O‘zbek xalq maqollari: Izohli lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – 440 b.

5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.

6. Hojiahmedov A. She’riyat san’atlari va qofiya sirlari. – Toshkent: Sharq, 2012. – 192 b.

7. Sharafiddinov O. Go‘zallik va ijod sahifalari (Hamid Olimjon ijodi haqida maqolalar to‘plami). – Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. – 210 b.

8. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 230 b.

9. Ziyouz.com portali. “Hamid Olimjon she’riyatining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari va badiiy dunyosi” – Elektron manba: https://ziyouz.com/kutubxona/category/uzbek-adabiyoti

10. Natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslar bazasi. “Yigirmanchi asr o‘zbek she’riyatida ohangdorlik va qofiya tizimi tadqiqi” – Elektron manba: http://www.natlib.uz

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РКИ

ДАДАМИРЗАЕВА МУСЛИМА ЁДГОРБЕК КИЗИ

магистрантка Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты применения электронных учебников в процессе обучения русскому языку как иностранному. Представлена педагогическая модель использования электронных учебников, определены её структурные компоненты, функции, принципы и педагогические условия реализации. Обоснована эффективность электронных учебников как средства повышения качества языковой подготовки обучающихся в условиях цифровизации образования.

Ключевые слова: русский язык как иностранный, электронный учебник, цифровое образование, педагогическая модель, образовательный процесс, интерактивное обучение, цифровые технологии.

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonida elektron darsliklardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Elektron darsliklardan foydalanishning pedagogik modeli, uning tarkibiy qismlari, tamoyillari va amalga oshirish shartlari yoritilgan. Elektron darsliklarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: elektron darslik, rus tili chet tili sifatida, raqamli ta’lim, pedagogik model, ta’lim jarayoni, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of using electronic textbooks in teaching Russian as a foreign language. A pedagogical model for the use of electronic textbooks is proposed, including its structural components, functions, principles and implementation conditions. The effectiveness of electronic textbooks in improving language competence and learning outcomes is substantiated.

Keywords: electronic textbook, Russian as a foreign language, digital education, pedagogical model, educational process, interactive learning, digital technologies.pedagogik model, ta’lim jarayoni, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar.

Введение

Современная система образования развивается под влиянием процессов цифровизации и информатизации. В образовательную практику активно внедряются электронные ресурсы, позволяющие совершенствовать организацию учебного процесса. Особое место среди цифровых образовательных средств занимают электронные учебники, которые обеспечивают доступность учебной информации, интерактивность и возможность индивидуализации обучения.

Для преподавания русского языка как иностранного использование электронных учебников приобретает особую значимость. Они позволяют интегрировать текстовые, аудио- и видеоматериалы, способствуют формированию языковой и коммуникативной компетенции обучающихся, а также повышают мотивацию к изучению языка.

Теоретические основы исследования

Электронный учебник представляет собой современное средство обучения, объединяющее традиционное содержание учебника с возможностями цифровых технологий. В отличие от печатного издания, электронный учебник предоставляет обучающимся интерактивные задания, мультимедийные материалы, средства самоконтроля и обратной связи.

В научной литературе подчеркивается, что электронные образовательные ресурсы позволяют повысить эффективность усвоения знаний благодаря наглядности, интерактивности и возможности адаптации содержания к индивидуальным особенностям обучающихся. Особенно важным это является в процессе обучения иностранным языкам, где требуется развитие различных видов речевой деятельности: аудирования, говорения, чтения и письма.

Педагогическая модель использования электронных учебников в обучении РКИ

Предлагаемая педагогическая модель включает четыре взаимосвязанных блока: целевой, содержательный, технологический и результативный.

Целевой блок направлен на формирование коммуникативной компетенции обучающихся, развитие языковых навыков и повышение мотивации к изучению русского языка.

Содержательный блок включает лексический и грамматический материал, тексты различной сложности, аудио- и видеоматериалы, а также интерактивные упражнения.

Технологический блок предусматривает использование мультимедийных технологий, цифровых платформ, электронных словарей и средств дистанционного обучения. В качестве основных методов используются коммуникативный подход, проектное обучение, проблемное обучение и смешанная форма обучения.

Результативный блок ориентирован на развитие языковой, речевой, коммуникативной и цифровой компетенций обучающихся.

Принципы реализации модели

Эффективность модели обеспечивается соблюдением ряда педагогических принципов: принципа системности, принципа доступности, принципа интерактивности, принципа индивидуализации обучения и принципа практической направленности.

Принцип интерактивности предполагает активное взаимодействие обучающегося с образовательным контентом. Принцип индивидуализации позволяет учитывать уровень языковой подготовки каждого обучающегося. Практическая направленность способствует формированию навыков реального общения на русском языке.

Педагогические условия реализации модели

Для успешного внедрения модели необходимо создание современной цифровой образовательной среды, наличие технического оснащения, методическая подготовка преподавателей и обеспечение доступа обучающихся к электронным ресурсам.

Важным условием является разработка качественных электронных учебников, соответствующих современным требованиям методики преподавания русского языка как иностранного. Кроме того, необходимо осуществлять постоянный мониторинг результатов обучения и корректировку образовательного процесса.

Преимущества использования электронных учебников

Использование электронных учебников обеспечивает повышение мотивации обучающихся, развитие самостоятельности и исследовательских навыков, улучшение качества усвоения учебного материала и формирование цифровой грамотности.

Благодаря мультимедийному сопровождению обучающиеся получают возможность воспринимать информацию через различные каналы восприятия. Это способствует более прочному усвоению материала и развитию коммуникативных навыков.

Электронные учебники также позволяют организовать дистанционное и смешанное обучение, что особенно актуально в условиях развития цифрового образовательного пространства.

Результаты и перспективы

Применение электронных учебников в обучении РКИ способствует повышению качества языковой подготовки, развитию коммуникативной компетенции и формированию устойчивой мотивации к изучению русского языка.

Перспективным направлением является создание адаптивных электронных учебников, использующих технологии искусственного интеллекта для индивидуализации образовательного процесса. Такие ресурсы смогут учитывать уровень подготовки обучающихся и предлагать персонализированные траектории обучения.

Заключение

Таким образом, педагогическая модель использования электронных учебников в образовательном процессе обучения русскому языку как иностранному представляет собой эффективную систему организации учебной деятельности в условиях цифровизации образования. Реализация данной модели способствует развитию языковых, коммуникативных и цифровых компетенций обучающихся, повышению качества образования и эффективности учебного процесса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий. – М., 2020.

2. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2022.

3. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – М., 2021.

4. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании. – М., 2021.

5. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – М., 2020.

6. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. – М., 2021.

7. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному общению. – М., 2020.

EPIK ASARLAR TAHLILIDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA TURLARI

NABIYEVA FERUZA AKRAMJON QIZI

Namangan davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

e-mail:feruzanabiyeva99@gmail.com

+998997776664

Annotatsiya. Mazkur maqolada epik asarlar tahlilida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Unda multimedia vositalari, interaktiv platformalar, sun’iy intellekt hamda virtual texnologiyalarning epik asarlarni o‘rganishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarning badiiy tafakkuri va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогическое значение и основные направления использования цифровых образовательных технологий при анализе эпических произведений. Исследуются возможности мультимедийных средств, интерактивных платформ, искусственного интеллекта и виртуальных технологий в изучении эпических произведений. Также раскрывается роль цифровых технологий в развитии художественного мышления и творческих компетенций обучающихся.

Annotation. This article discusses the pedagogical importance and main directions of using digital educational technologies in the analysis of epic literary works. The study examines the possibilities of multimedia tools, interactive platforms, artificial intelligence, and virtual technologies in teaching epic literature. The article also highlights the role of digital technologies in developing students’ artistic thinking and creative competencies.

Epik asarlar tahlilida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va turlari zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda va adabiyot darslarida, xususan katta hajmli, murakkab tuzilishli epik asarlarni o‘rganishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida

ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Xususan, adabiyot ta’limida o‘quvchini faqat tayyor bilimlar bilan qurollantirish emas, balki unda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, badiiy-estetik qarashlarni shakllantirish asosiy vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonda epik asarlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular o‘quvchining dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va ma‘naviy tafakkurini rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi[129]. Shu bilan birga, epik asarlarning hajman katta va mazmunan murakkabligi ularni o‘rganishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab etadi. “Adabiyotshunoslikda epik asar tushunchasi voqealar rivoji, obrazlar tizimi va muallif bayoniga asoslangan badiiy janr sifatida talqin etiladi. Epik asarlar hayotni keng ko‘lamda tasvirlashi, tarixiy va ijtimoiy voqelikni umumlashtirishi bilan ajralib turadi.”[130] Roman, qissa, doston va epopeyalar epik turga mansub bo‘lib, ular o‘quvchidan chuqur tahliliy yondashuvni talab qiladi. Epik asarlarni tahlil qilish jarayoni faqat syujetni qayta bayon etish bilan cheklanmasdan, balki badiiy g‘oya, muallif pozitsiyasi, obrazlar xarakteri va estetik qiymatni aniqlashga qaratiladi. Epik janrga mansub asarlar– xalq dostonlari, qahramonlik eposlari, romanlar, qissalar–o‘zining hajmi, tarixiy-madaniy qatlamlari, ko‘p personajli tizimi va murakkab kompozitsiyasi bilan o‘quvchidan katta intellektual va vaqt sarfini talab etadi. Aynan shu murakkablikni yengib o‘tishda raqamli ta’lim texnologiyalari samarali ko‘mak beruvchi vosita sifatida maydonga chiqadi.

An‘anaviy ta’lim metodlari epik asarlarni tahlil qilishda ma‘lum natijalarni bergan bo‘lsa-da, bugungi raqamli avlod uchun bu usullar yetarli darajada samarali bo‘lmay qolmoqda. O‘quvchilarning axborotni qabul qilish usuli, tafakkur tarzi va qiziqishlari raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli adabiy ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda[131]. Ayniqsa, epik asarlarni tahlil qilish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish mazkur fan mazmunini chuqurlashtirish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Epik asarlar tahlilida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarning birinchi va eng keng tarqalgan turi – bu multimedia va vizualizatsiya vositalaridir. Vizualizatsiya deganda matn mazmunini grafik, sxematik yoki tasviriy shaklda ifodalash tushuniladi. Kompozitsiyani tahlil qilishda ham raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Asarning bo‘limlarga ajratilishi, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim bosqichlarining aniqlanishi raqamli sxemalar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o‘quvchining badiiy tafakkurini tizimlashtiradi va epik asarni

[129] Qosimov S.Adabiyot o’qitish metodikasi.-Toshkent:O’qituvchi,2019.-87 b.
[130] Karimov B.Adabiy tahlil asoslari.-Toshkent:Fan,2018.-165 b.
[131] To‘xtayev A. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent, 2017. -91-92 b.

yaxlit badiiy tizim sifatida idrok etishiga yordam beradi[132]. Adabiy ta’limda raqamli texnologiyalar integratsiyasi o‘quv materialini multimediaviy shaklda taqdim etish, interfaol topshiriqlar orqali tahlil jarayonini faollashtirish va o‘quvchining mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan izohlanadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar badiiy matnni idrok etishning an‘anaviy shakllarini inkor etmaydi, aksincha, ularni boyitadi va samaradorligini oshiradi. Adabiy asarni o‘rganishda matn, tasvir, ovoz va grafik elementlarning uyg‘unligi o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi[133]. MindMeister, Coggle, XMind kabi aqliy xarita dasturlari yordamida o‘quvchilar epik asarning personajlar tizimini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni, syujet rivojini va asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlarni ko‘rgazmali ravishda chizib chiqishi mumkin. Masalan, “Alpomish” dostoni o‘rganilayotganda Alpomish, Barchin, Qorajon, Ultontoz va boshqa personajlarning o‘zaro aloqalari vizual tarzda tuzilsa, o‘quvchi syujet mantiqini ancha tezroq va chuqurroq tushunadi. Canva, Piktochart, Venngage kabi infografika yaratish platformalari esa asarning kompozitsion tuzilishi– ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim bosqichlarini – ko‘rgazmali sxema shaklida ifodalashga imkon beradi. Bundan tashqari, Google Maps yoki ArcGIS Story Maps orqali epik asarning geografik makoni xaritada belgilanishi mumkin, bu esa xususan Odissey yoki Alpomishning uzoq safarlari tasvirlangan dostonlar uchun alohida qimmat kasb etadi. Multimediali texnologiyalar epik asarlarni o‘rganishda o‘quvchining emotsional-estetik qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy asarni faqat o‘qish orqali emas, balki uni eshitish va ko‘rish orqali idrok etish o‘quvchining adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, xalq dostonlari va yirik epik asarlarni o‘rganishda audio va video materiallardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi[134].

Raqamli texnologiyalarning ikkinchi muhim turi – interaktiv o‘qitish platformalari va hamkorlik muhitlaridir. Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams kabi platformalar o‘qituvchiga elektron darslik materiallarini, tahlil topshiriqlarini va muhokama mavzularini bir joyda jamlash imkonini beradi. Padlet platformasi esa ayniqsa adabiy muhokamalar uchun qulay: o‘quvchilar epik asarning turli jihatlari, masalan, asardagi qahramon xarakteri, muallif pozitsiyasi yoki badiiy san‘atlar haqida o‘z fikrlarini “raqamli devorga” yozib qoldiradilar va boshqalarning fikrlarini ko‘rib, ularga munosabat bildiradilar. Bu usul sinfda og‘zaki muhokama qilishdan uyaladigan yoki vaqt taqchilligi tufayli gapira olmagan o‘quvchilarga ham o‘z fikrini ifodalash imkonini beradi. Miro va Jamboard kabi onlayn doska platformalarida guruhdagi tahlil kengashlari o‘tkaziladi: o‘quvchilar bir vaqtning

[132] Qosimov S.Badiiy asar tahlil metodikasi. - Toshkent, 2019. -36 b.
[133] Yo’ldoshev J.Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, 2019. -25 b.
[134] Yo‘ldoshev J. Multimedia texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent, 2020-66 b.

o‘zida bitta virtual doskada ishlaydilar, fikr yozadilar, rasmlar joylaydilar, o‘zaro bog‘laydilar. Bu jamoaviy ijod va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi.

Uchinchi tur – audio va podkast texnologiyalari. Epik asarlar, xususan xalq og‘zaki ijodiyotidan o‘sib chiqqan dostonlar, dastlab og‘zaki ijro etilgan. Ularning ritmik tuzilishi, ohang va musiqaviyligi matn orqali to‘liq his etilmaydi. Shu sababli professional ijrochilar tomonidan o‘qilgan audio matnlar yoki Spotify, Audible kabi platformalardagi audio versiyalar bilan ishlash o‘quvchida asarning haqiqiy ruhini his qilishga imkon beradi. Anchor, Buzzsprout kabi podkast yaratish vositalari yordamida o‘quvchilar o‘zlari podkast tayyorlashlari mumkin: asarning tahlili, qahramonlar ustida bahs, tarixiy fon haqida suhbat formatida ovozli material yozib qo‘shadilar. Bu faoliyat nafaqat adabiy tahlil ko‘nikmalarini, balki nutq madaniyati, suhbat olib borish va fikrni mantiqli ifodalash ko‘nikmalarini ham bir vaqtda rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar epik asarlarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Multimediali vositalar yordamida asar muhitini, tarixiy kontekstni va muallif pozitsiyasini yoritish imkoniyati kengayadi. Ayniqsa, tarixiy romanlar va xalq dostonlarini o‘rganishda raqamli xaritalar, tarixiy lavhalar va audio materiallar epik asarning badiiy olamini chuqurroq anglashga yordam beradi[135]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar adabiy ta’limda individual va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini yaratadi. Har bir o‘quvchi epik asarni o‘z qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga mos holda o‘rganadi. Bu esa adabiyot ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi .[136]

To‘rtinchi va bugungi kunda eng tezkor rivojlanayotgan tur – sun’iy intellekt (SI) vositalaridir. ChatGPT, Claude, Gemini kabi yirik til modellari o‘quvchiga epik asar mazmuni bo‘yicha savollar berish, muqobil talqinlarni bilib olish, personajlar tahlilini chuqurlashtirish imkonini beradi. O‘quvchi, masalan, “Alpomish obrazi zamonaviy inson uchun nima anglatadi?” degan savolni SI tizimiga bersa, turli nuqtai nazarlardan yozilgan chuqur javob olishi mumkin, keyin bu javobni tanqidiy baholab, o‘z fikrlarini shakllantirishda foydalanadi. Bundan tashqari, matnni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar – masalan, Voyant Tools – so‘zlarning qo‘llanish chastotasini, asardagi kalit tushunchalarni va uslubiy xususiyatlarni statistik tarzda ko‘rsatib beradi. Bu xususan katta hajmli romanlar yoki ko‘p bob dostonlar uchun foydali, chunki o‘quvchi butun asar bo‘yicha leksik va uslubiy tendentsiyalarni ko‘rish imkoniga ega bo'ladi.

Beshinchi tur – gamifikatsiya va o‘yin texnologiyalari. Kahoot, Quizlet, Gimkit kabi platformalar adabiy bilimlarni o‘yin formatida tekshirish va

[135] Karimov B.Adabiy tahlil va tarixiylik masalalari.-Toshkent:Fan,2018.-47 b.
[136] Usmonov S.Zamonaviy pedagogik yondashuvlar.-Toshkent,2020.-78 b.

mustahkamlash uchun ishlatiladi. Asarning syujeti, personajlar va badiiy vositalar bo‘yicha viktorinalar o‘quvchida raqobat ruhini uyg‘otadi va o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Yanada murakkab darajada – syujet asosida yaratilgan raqamli quest o‘yinlari yoki rol o‘yinlari. Masalan, “Farhod va Shirin” asari bo‘yicha o‘quvchilar Farhodning sinovlarini virtual makonda bosib o‘tishlari, turli qarorlar qabul qilishlari va natijada asarning g‘oyaviy mazmunini o‘z tajribasi orqali his etishlari mumkin. Minecraft Education Edition kabi platformalarda epik asarlarning tarixiy muhiti – qal’alar, shaharlar, landshaftlar – qayta yaratilishi mumkin, bu esa zamon va makonga oid tasavvurni jonli tarzda shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida epik asar obrazlarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati ham kengayadi. O‘quvchilar bir nechta epik asardagi obrazlarni solishtirish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash orqali adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu jarayonda raqamli jadval va interfaol topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Qiyosiy tahlil adabiyotshunoslikning muhim metodlaridan biri bo‘lib, raqamli texnologiyalar ushbu metodni ta’lim jarayonida amaliy jihatdan samarali qo‘llash imkonini yaratadi[137].

Oltinchi tur – video va raqamli hikoyatchilik texnologiyalari. Flipgrid, Adobe Express Video, Canva Video kabi vositalar yordamida o‘quvchilar epik asarning qisqacha tahlilini video format shaklida taqdim etishlari mumkin. Ular asarning biror lavhasini dramatizatsiya qilishlari, qahramonni tahlil qiluvchi mini-film yaratishlari yoki asar haqida vlog yozishlari mumkin. Bu faoliyat nafaqat adabiy tushunchalarni, balki media savodxonlik, ijodiy ifoda va raqamli kommunikatsiya ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, YouTube va boshqa platformalardagi mavjud hujjatli filmlar, teatr va kino adaptatsiyalari dars jarayoniga kiritilishi mumkin. Masalan, “Odissey”ning Gomer davridagi Gretsiya madaniyatini aks ettiruvchi hujjatli filmni tomosha qilgandan so‘ng o‘quvchi matnni ancha boyroq kontekstda o'qiy boshlaydi.

Yettinchi tur – virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari. Bu texnologiyalar hozircha ta’limda keng qo‘llanilmayotgan bo‘lsa-da, istiqboli benihoya katta. Google Expeditions va benzer VR platformalari yordamida o‘quvchilar “Iliada”da tasvirlangan qadimgi Troya shahrini, “Alpomish” dostonidagi tog‘lar va dashtlarni virtual tarzda “kezishlari” mumkin. AR (augmented reality) texnologiyasi esa kitob sahifalariga telefon kamerasi tutilganda qo‘shimcha vizual yoki audio ma’lumotlar paydo bo‘lishiga imkon beradi. Bu texnologiya asar bilan birinchi tanishishda o‘quvchida kuchli motivatsiya va qiziquvchanlik uyg‘otadi. An’anaviy ta’lim jarayonida obrazlar tahlili ko‘pincha og‘zaki izohlar yoki yozma savol-javoblar orqali amalga oshiriladi. Biroq bunday yondashuv har

[137] Qodirov V. Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent,2018.-58 b.

doim ham o‘quvchining badiiy tafakkurini yetarli darajada faollashtira olmaydi. Raqamli texnologiyalar esa obrazlarni tahlil qilishda interfaol muhit yaratadi. Elektron diagrammalar, raqamli jadval va sxemalar orqali asosiy va ikkinchi darajali obrazlar, ularning xarakter xususiyatlari hamda o‘zaro munosabatlari aniq ko‘rinishda ifodalanadi. Bu holat o‘quvchining epik asarni chuqurroq anglashiga va obrazlar tizimini yaxlit holda idrok etishiga xizmat qiladi[138].

Sakkizinchi tur – elektron darsliklar va raqamli resurslar. O‘zbekistonda maktab va oliy ta’limda joriy etilayotgan elektron darsliklar an’anaviy darsliklardan farqli o'laroq interaktiv elementlar – kengaytirilgan matnlar, audio izohllar, embedded videolar, interaktiv testlar – bilan boyitilgan. Bundan tashqari, internet arxivlari, raqamlashtirishan qo‘lyozmalar va milliy kutubxonalarning onlayn fondlari o‘quvchilarga epik asarlarning turli qo‘lyozma nusxalari, olimlarning ilmiy sharhlari va tarixiy manbalar bilan bevosita ishlash imkonini beradi. Bu imkoniyat ilgari faqat ilmiy tadqiqotchilar uchun mavjud bo‘lgan va bugungi kunda ommaviy ta’limda ham foydalanilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning bu turlari o'quvchida bir qator muhim kompetentsiyalarni bir vaqtda rivojlantira

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, epik asarlar tahlilida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish – bu shunchaki darsni “zamonaviy” ko‘rinishga keltirish emas, balki o‘quvchining matn bilan munosabatini tubdan boyitish, chuqurlashtirish va jonlantirish imkonidir. Multimedia vizualizatsiyadan tortib sun‘iy intellektgacha, podkastdan virtual reallikkacha bo‘lgan texnologiyalar zanjiri o‘quvchiga ko‘p asrlik adabiy merosni o‘z davri tili va vositalari orqali his etish va anglash yo‘lini ochib beradi. Bu esa milliy va jahon adabiyotiga mehr-muhabbat uyg‘otishning, badiiy tafakkurni rivojlantirishning va kelajak avlodni yaxlit – ham insoniy, ham raqamli savodxon shaxs sifatida tarbiyalashning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hamroyev M. Adabiy ta’limda badiiy tahlil masalalari. Toshkent: Fan, 2017. – 48 b.

2. Karimov B. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 165 b.

3. Karimov B. Adabiy tahlil va tarixiylik masalalari. – Toshkent: Fan, 2018. – 47 b.

4. Qodirov V. Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2018. – 58 b.

5. Qosimov S. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 87 b.

6. Qosimov S. Badiiy asar tahlil metodikasi. – Toshkent, 2019. – 36 b.

7. To‘xtayev A. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent, 2017. – 91–92 b.

[138] Hamroyev M.Adabiy ta’limda badiiy tahlil masalalari.-Toshkent:Fan,2017.-48 b.

8. Usmonov S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar. – Toshkent, 2020. – 78 b.

9. Yo‘ldoshev J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019. – 25 b.

10. Yo‘ldoshev J. Multimedia texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent, 2020. – 66 b.

ABDULLA QODIRIY ROMANLARINING EKRAN NUSXALARI

MA’RUFJONOVA SHAHODAT
Namagan davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriy romanlarining ekranlashtirilgan talqinlari tahlil qilinadi. O‘tkan kunlar va Mehrobdan chayon asarlari misolida adabiy matn va kino talqini o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar yoritiladi. Ekranlashtirish jarayonida muallif g‘oyasining aks etish darajasi ham baholanadi.

Аннотация. В статье анализируются экранные версии романов Abdulla Qodiriy. На примере O‘tkan kunlar и Mehrobdan chayon раскрываются сходства и различия между литературным текстом и его киноинтерпретацией. Также оценивается степень сохранения авторской идеи в процессе экранизации.

Annotation. This article examines the screen adaptations of novels by Abdulla Qodiriy. Using O‘tkan kunlar and Mehrobdan chayon as examples, similarities and differences between literary texts and their film interpretations are analyzed. The study also evaluates how the author’s original idea is preserved in the adaptation process.

Kalit so‘zlar: ekranlashtirish, roman, kino, syujet, obraz

Ключевые слова: экранизация, роман, кино, сюжет, образ

Keywords: adaptation, novel, cinema, plot, character

Abdulla Qodiriy ijodidagi eng mashhur ikki roman – **“O‘tkan kunlar”** va **“Mehrobdan chayon”** nafaqat o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida asosiy o‘ringa ega bo‘lib, balki kino san’ati orqali ham keng jamiyatga yetkazilgan ekran nusxalarga ega. Abdulla Qodiriy ijodi o‘zbek adabiyotining eng yuksak cho‘qqilaridan biri hisoblanib, uning romanlari milliy tafakkur, tarixiy xotira va badiiy mahoratning yorqin namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, yozuvchining “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari nafaqat adabiy jihatdan, balki ijtimoiy-ma’naviy mazmuni bilan ham keng kitobxonlar ommasining e’tiborini qozongan. Mazkur asarlarda xalq hayoti, tarixiy voqelik, milliy qadriyatlar hamda

insoniy munosabatlar chuqur va ta’sirchan tarzda yoritilgan bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotining nodir namunalaridan hisoblanadi. Shu bois ushbu romanlar faqat yozma adabiyot doirasida qolib ketmay, balki boshqa san’at turlari, xususan, kino va televideniye orqali ham keng targ‘ib etilishi tabiiydir.

